

743
M - M

D.R. MADAZIZOVA

**BOLALAR
RIVOJLANISHIDAGI
NUQSONLARNING
KLINIK ASOSLARI**

743
W-14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

D.R. Madazizova

**BOLALAR
RIVOJLANISHIDAGI
NUQSONLARNING KLINIK
ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgaz
vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining
5111900 – Defektologiya ta'limgaz yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat» nashriyoti
TOSHKENT – 2018

UO'K: 611.31-007:616-053.2:376.3(075.8)
KBK 74.3

Madazizova, Dilfuza Raxmatullayevna.

M 14 Bolalar rivojlanishiagi nuqsonlarning klinik asoslari [Matn] : ‘quv qo‘llanma / D.R. Madazizova. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 327 b.

UO'K: 611.31-007:616-053.2:376.3(075.8)
KBK: 74.3

Defektolog-bakalavrлarni tayyorlashda tibbiy fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda namoyon bo‘lgan kamchiliklar, kasalliklar sabablarini bilish, tushunish uchun albatta tibbiyot fanlarini ham bilish zarur.

Shularni hisobga olgan holda defektologiyaning bakalavriyat yo‘nalishi talabalari uchun «Bolalar rivojlanish nuqsonlarining klinik asoslari» o‘quv qo‘llanmasi tayyorlandi. Ushbu qo‘llanma o‘ziga «Nevropatologiya asoslari», «Nutq-eshitish a’zolarining tuzilishi, faoliyati va patologiyasi» kabi bo‘limlarni jamlagan.

Taqrizchilar:

F.X.Muratov — Toshkent tibbiyot akademiyasi «Nerv kasalliklari» kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori,

G.S.Ergasheva — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

SBN 978-9943-5489-4-7

KIRISH

Nerv va lor a'zolari patologiyasi haqidagi ushbu qo'llanma defektolog-talabalar, pedagoglar hamda ruhiy jihatdan nosog'lom bolalar bilan shug'ullanayotganlar uchun mo'ljallangan.

Miya va lor a'zolarining tuzilishi va ularning faoliyati ruhiy jarayonlarning tub mohiyati nafaqat yosh avlodni tarbiyalab kelayotgan pedagoglar, balki jamoatchilikni ham qiziqtirib kelgan. Bu sohadagi bilim ayniqa ruhiy jihatdan nosog'lom bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanayotgan maxsus pedagoglar uchun juda ahamiyatlidir.

Nerv va lor a'zolari tizimi anatomiyasи, fiziologiya va patologiyasi haqida keltirilayotgan ma'lumotlar maxsus pedagogikaning asosini tashkil etadi. Bu sohani o'rganish yosh pedagog-tarbiyachilarни maxsus bilimlar asosida o'sib kelayotgan bolalarning turli nuqsonlarini bartaraf qilishda amaliy malakalarni shakllantiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda faqatgina tibbiy adabiyotlardan foydalanish ko'p holdarda samarali emasligi, nevropatologiya darsliklari pedagoglar uchun birmuncha murakkabligi, yetarli darajada pedagogik faoliyat uchun moslashtirilmaganligi sababli ushbu qo'llanmani yaratish lozim deb topildi.

Bu qo'llanma tibbiyot fanini o'zlashtirish borasida orttirilgan pedagogik tajribalar, mohir pedagog va shifokorlar ish usullari, S.S.Lyapidevskiy, N.M.Majidov, S.Dadamuhamedov, N.I.Xo'jayeva, A.U.Shoyusupova, M.M.Asadullayeva, S.N.Asanova, V.Rahmonova, L.R.Mo'minova, M.Yu.Ayupova kabi olimlar tavsiyanomalari asosida yozildi.

Pedagoglar faoliyatida nerv va lor a'zolari kasalliklariga chaligan bolalar ham uchrab turadi. Nerv va lor a'zolari kasalligiga uchragan bolalar tarbiyasi xususiyatlari haqida muhokama yuritiladi.

I bo‘lim. NEVROPATOLOGIYA

1-mavzu. «Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari» fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Ona qornida homilaning rivojlanishi.
2. Anomal rivojlanishning asosiy sabablari.
3. Bosh miya harakat nervlarining funksiyasi va shikastlanishi.
4. Bosh miya nervlarini tekshirish usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: homiladorlik, rivojlanish, nasliy ka-sallik, profilaktika, endokrin, erta tashxis, bosh miya nervlari, juft nervlar, ko‘rish maydoni, adashgan nerv, mushak nervi.

Ona qornida normal rivojlanayotgan homila har xil zararli ta’sirlarga uchrashi mumkin. Bu esa homila rivojining anomal tarzda o‘tishi, hattoki tug‘ilganda mayib-majruh ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Xuddi shu davrda homila asab sistemasi shakllana boshlagan bo‘ladi va har qanday zararli ta’sirlar uning jismoniy va aqliy qiyofasiga ziyon yetkazadi. Bolalardagi anomal ho-latlar, ya’ni jismonan zaiflik, aqli zaiflik, nutqi rivojlanmaganligi — asosan tug‘ilguniga qadar zararli ta’sirlar va tug‘ilayotgandagi jarohatlanish oqibatidir. Demak, homiladorlik davrida ham har bir ayol o‘z sog‘lig‘iga e’tibor bergandagina sog‘lom farzand tug‘iladi.

Anomal rivojlanishning asosiy sabablari — ilgari har qanday anomal holdagi bolalarni nasliylik deb hisoblashgan. Nasliylik qonuniyatları haqida chuqur bilim bo‘lmaganligi sababli, hatto sil, zaxm, har turli ruhiy xastaliklar, alkogolizm va hokazolar nasldan-naslga o‘tayotgan dard, ya’ni patologik davr deb baholashgan. Ba’zi mualliflar kar-soqovlik, aqli zaiflik kabi xastaliklar patologik nasliylik oqibati, deb ham yanglish fikrlar bildirishgan. Chunki, nasliylikka bog‘liq bo‘lgan kasalliklarni amaliy tekshirish usullari yo‘q edi. Psixiatriya klinikada esa naslning buzilishi yoki degeneratsiya degan nazariya ham bor edi. Bu nazariyaga ko‘ra har qanday normal yashab kelayotgan oila yoki avlod ma’lum bir mud-

datdan so'ng buzila boshlaydi. Bunday aynishning belgisi — oilada nogiron, nimjon, epileptik, aqli zaif bolalarning tug'ilishi emish. Albatta, hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyoti bunday nazariyaga barham berdi. Hozirgi kunda nasliylik bilan bog'liq bo'lgan har turdag'i xastaliklar juda chuqur o'rganiladi va tahlil qilinadi. Zaxm, sil, surunkali alkogolizm va shunga o'xshash xastaliklar nasliy deb hisoblanmaydi. Zaxm va shunga o'xshash kasalliklar bilan og'ri gan, lekin o'z vaqtida davolangan ota-onalardan tug'ilgan bolalarda zaxm alomati bo'lmasligi mumkin. Bunday bolalar qoni tarkibida zaxm paydo qiluvchi spirochet mikroblari aniqlanmaydi. Alkogolik ota-onalarning bolalari hech qachon, albatta, alkogolik bo'lib qolmaydi. Lekin, ba'zi hollarda bunday bolalarda nimjonlik, biroz ruhiy sustlashuv va aqli zaiflik alomatlari bo'lishi mumkin. Bu alomatlar nasliylik alomati emas, balki ota-onalardagi zararli ta'sirlar natijasida homila rivojining birmuncha zaif va noqulay sharoitda kechganligi oqibatidir. Har bir ota-onasi o'z xastaliklari yoki illatlarini homilaga juda erta yuqtirishlarini va bu holat tug'ilayotgan go'dak sog'ligiga albatta ta'sir etishini yodda tutishlari lozim. Homilador ayollarning oziq-ovqat yoki turli xil zararli gazlar bilan zararlanishi, lat yeishi, ochlikda yurishi, homiladan qutulish uchun qilgan keskin harakatlari (abort) homila bosh miyasining shikastlanishiga sabab bo'ladi. Tashqi muhitning ta'siri tufayli turli xil anomal rivoj topgan asab sistemasini o'rganish va tahlil qilish bilan birga, nasliylikka bog'liq bo'lgan ba'zi bir ichki omillar (endokrin)ni ham chuqurroq o'rganish lozim. Bu xususida nasliylik haqida ta'limotlarda nasliylik alomatlarini o'zida saqlab, avloddan avlodga o'tkazuvchi nuklein kislotalarining ahamiyatiga katta e'tibor berilmoqda (RNK, DNK — omillar).

Modda almashinuvining nasliyligini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish ham katta ahamiyatga ega bo'lgan fan sohasi bo'lib qolmoqda. Bu sohada olingan ma'lumotlar asab sistemasi patologiyasi xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish imkoniyatlarini yaratdi. Olimlardan D.S.Futev, B.N.Kolosovskiy va ularning izdoshlari chaqaloqlar va yosh bolalar asab sistemalari patologiyasi

ustida ko'p ilmiy izlanishlar olib bordilar. Yosh bolalarda motorika, nutq va psixik buzilishlarga sabab bo'ladigan omillar qatoriga ona va homilaning qon tarkibi to'g'ri kelmasligi (re Zus-faktori) toksoplazmoz va yadroviy sariqlikni kiritish mumkin.

L.Persianova ma'lumotlariga ko'ra, ona va homila qonidagi kislota va ishqor muvozanati buzilganda ham homila rivojida astidoz, kislород tanqisligi holatlari paydo bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda, bolaning tug'ilishi jarayonida jarohatlanishi sababli keyinchalik turli xil miya kasalliklari va normal ovqatlnana olmaslik holatlari paydo bo'ladi. Hozirgi kunda turli xildagi antibiotiklar, sifatli dori-darmonlar bilan miya kasalliklarini davolash imkoniyatlari yaratilgan. Albatta, bu borada xalqimizning madaniy salohiyati o'sib borayotganligi asosiy omildir. Shunga qaramay, bunday anomal holatlarni bartaraf qilish uchun kasallikning paydo bo'lish sabablari, profilaktika (oldini olish) ishlarni bilish zarur. Masalan, embriogenetik jarayonida zararli ta'sirlar tufayli anomal rivojlanishning mayib-majruhlikning shaklini ko'raylik. Mayib bo'lib tug'ilish sabablari turli xil. Bir tomondan, homilaga zararli ta'sirlar (infeksiyalar, intoksikatsiya, jarohatlar) bo'lsa, ikkinchi tomondan ana shu zararli ta'sirlar ona organizmining qaysidir sistemasi kundan kun susayib, nasliylik omilini paydo qilishi mumkin. Natijada ikki qo'li yo'q yoki oyoqlari yo'q, bir qo'li yoki bir oyog'i kalta, qo'shaloq bo'lib (siam egizaklari) tug'ilish hollari uchrab turadi. Ba'zi hollarda bir tanada ikki boshli, to'rt oyoqli, ammo qo'shaloq egizaklarning birisi juda nozik bo'lib tug'ilishi ham klinikada kuzatilgan.

Bosh miya nervlari

Bosh miya nervlari orqa miya nervlariga juda o'xshash. Ular miya asosidan tarqaladi. Bosh miya nervlarining o'ziga xos tuzilishi va funksiyasi, orqa miya nervlaridan farqlanadi. Ularning bir qismi harakat nervlari, ikkinchisi sezish nervlari, qolganlari aralash nervlardir:


I juft – hid sezuvchi nerv;

II juft – ko'ruv nervi – sezuvchi nerv;

III juft – ko'zni harakatlantiruvchi nerv;
 IV juft – g'altak nerv – harakatlantiruvchi;
 V juft uch tarmoqli – aralash nerv;
 VI juft uzoqlashtiruvchi – harakatlantiruvchi nerv;
 VII juft yuz nervi – harakatlantiruvchi;
 VIII juft eshituv – sezuvchi nerv;
 IX juft til-halqum – aralash nerv;
 X juft adashgan – aralash nerv;
 XI juft qo'shimcha – harakatlantiruvchi nerv;
 XII juft til osti – harakatlantiruvchi nerv.

III–IV–VI nervlar ko'z mushaklarini harakatlantiradi. Shu sababli ular ko'z harakatlanishini idora qiladigan guruhni tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan 12 juft bosh miya nervlaridan, 9 jufti harakatlanish funksiyasini boshqarishda qatnashadi, ulardan 6 jufti faqat harakatlanish, 3 jufti aralash nervlar (bular ham harakat, ham sezish funksiyasini bajarishda qatnashadi).

Tuzilish va funksiyasiga ko'ra bosh miya nervlari orqa miya harakat nervlariga o'xshash.



1-rasm.

Harakat nervlarining 1-neyroni old markaz burmasining pastki bo'lmasida joylashgan, uning aksoni esa o'ziga tegishli bo'lgan bosh miya harakatlanish yadrosiga boradi. 2-neyronning harakatlanish tolesi I-II-III-IV-V-VI-VII-VIII-IX-X-XI-XII bosh miya nervlarining yadro hujayralaridan boshlanadi. Bu tola orqa miya old shoxchasi hujayralariga o'xhash va miya tanasiga joylashgan (asosan varoliyev ko'priklasida). Keyin esa harakat tomirchalari miya tanasidan o'ziga tegishli bo'lgan yuz mushaklariga, tish og'iz bo'shlig'i va tomoq mushaklari tomon yo'naladi.

Bosh miya harakat nervlari tomirchalari yadrosining shikastlanishi periferik paralich yoki parezlarda kuzatiladi. Markaziy qismi shikastlanganda bosh miya ta'sirida bo'lgan hamma mushaklar paralichi rivojlanishi imkoniyati tug'iladi, ammo bosh miya nervlariga ikkala yarim sharlardan kelayotgan ta'sir (innervatsiya) tufayli (VII va XII nervlardan tashqari), bir tomonlama shikastlanishda, faqat yuzning pastki qismidagi mushak (VII asab) va tilning yarmi (XII asab) markaziy paralich bo'ladi. Bunda boshqa asablarga ziyon yetmaydi, chunki piramidal yo'lining chalkashib ketgan yeridagi uzilishni uzlusiz holdagi piramidal ta'sir (innervatsiya) muvozanatda saqlab turadi.

Bosh miya nervlarining funksiyasi, shikastlanish alomatlari va ularni tekshirish usullari.

I juft – hidlov nervi.

1-neyron va uning periferik o'simtasi burun shilliq qobig'ining yuqori bo'lmasida joylashgan. Bu hujayralar hidli moddalar ta'sirini bevosita qabul qilib, markaziy o'simtalar orqali bosh suyak bo'shlig'iga uzatadi. Bu hid sezish nervidir.

2-neyron bosh miyadagi hid sezish piyozchasida joylashgan. Bu piyozchadan 2-neyron tomirchalari chiqib, hid sezish yo'lini tashkil etadi. Hid sezish yo'lidagi har xil bo'lmalarda asablar uzi-lib qolishi va natijada bu yo'l 3–4-neyronli yo'l bo'lib qolishi mumkin va ular hid sezish markazigacha borib to'xtaydi. Hid sezish nervlari funksiyasini tekshirishda har xil hidli moddalar qo'llaniladi. Hid sezish funksiyasi buzilishida hidlarni sezish hissi

yo'qolgani (anosmiya) yoki kamayib ketgani aniqlanadi (gipos-miya). Patologiya holida kamdan kam kuzatiladi.

II juft – ko'ruv nervi – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tek-shirish usullari.

Ko'ruv analizatorining o'tkazgich yo'li to'rtta nevron zanjiridan iborat. I-II-III nevron hujayralari ko'z retinasi – to'r pardasida joylashgan. Birinchi nevron hujayralari ko'ruv hujayralari yoki ko'ruv tayoqchalar va kolbachalar esa uning markazida bo'ladi. Retinaning markazida sariq dog'da ko'plab kolbachalar

bo'ladi, ular buyumlarni eng aniq ko'rish joyi hisoblanadi. Kolbachalar kunduzi ko'radigan va rangni sezadigan hujayralardir, tayoqchalar esa buyumlarni qorong'ida ko'rishga yordam beradi. Ko'ruv hujayralarning protoplazmatik o'siqchalarida ko'ruv purpuri – rodopsin joylashgan bo'lib, yorug'lik ta'sirotini nerv impulsiga aylantirib beradi. Hosil bo'lgan nerv impulslarini birinchi nevron aksoni orqali ikkinchi nevronga, ya'ni bipolyar hujayralarning dendritlariga o'tkaziladi. Ganglioz hujayra aksonlari yig'ilib, ko'ruv nervini hosil qiladi.

Ko'ruv yo'llari miya oyoqchalarini tashqi tomonidan aylanib o'tib, yuqoriga ko'tariladi, miya moddasiga kiradi va ko'rish yos-tiqchasi do'ngi va oldingi ikki do'ng birlamchi markazda to'xtaydi yoki tashqi egri-bugri tanada to'xtaydi. Shu yerga ko'z pardalari ganglioz hujayralari aksoni tugaydi va ikkinchi neyrondan ko'rish yog'dusi deb ataladigan ko'rish tutami boshlanadi. Bu tutam ichki xaltaning orqa qismidan yo'nalib, miyaning gardon bo'lagida tugaydi. Tolalarning ana shu tugallangan joyi po'stloqli ko'rish analizatori hisoblanadi. Bu yerda ko'rish analizatori birinchi neyronda hosil bo'lgan nerv impulslarini nur va rang hissiyotlariga aylantirib beradi.



2-rasm.

Shunday qilib, ko‘rish yo‘llari, birlamchi ko‘rish markazlari, grasirole tutami, po‘stloq ko‘rish zonalari qarama-qarshi tomon-dagi ko‘zning xuddi shunday tarkiblari bilan o‘zaro bog‘liq.

Yorug‘ nur ta’sirida ko‘z qorachig‘i torayadi, qorong‘ilikdan kengayadi (qorachiqning to‘g‘ridan to‘g‘ri reaksiyasi). Ammo bir tomondagи ko‘zni yorug‘likka tushirilsa, ikkinchi tomondagи ko‘z qorachig‘i ham torayadi (qorachiqning nurga hamkorlik reaksiyasi).

Ko‘rish o‘tkirligi.

Tekshirish o‘n qator qilib, jadval shaklida joylashtirilgan harflar yordamida olib boriladi. Bemor jadvaldan 5 m uzoqlikda turib, eng kattasidan boshlab eng kichigi bo‘lgan harflarni ilg‘ay olishi va aytishi kerak. Agar bemor 10 qator harflarning hammasini aniqlay olsa, ko‘rish o‘tkirligi 1 deb hisoblanadi (har bir ko‘z alohida-alohida tekshiriladi).

Agar bemor faqat birinchi qatordagi katta harflarni ko‘ra olsa, uning ko‘rish o‘tkirligi 0,1 deb hisoblanadi va hokazo. Ko‘ruv nervining uzilishi to‘la ko‘ra olmaslikka olib keladi (amavroz). Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi amблиopiya deyiladi. Ko‘rish o‘tkirligi pasayishi refraksiyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq va bu kamchilik linzalar (oyna) yordamida to‘g‘ilanadi.

Ranglarni his qilish.

Tekshirish professor Rabkin jadvali bo‘yicha olib boriladi. Bunda jadvalning har varag‘ini bir ko‘z bilan o‘qiladi. Po‘stloq osti ko‘rish asabi yoki po‘stloq zonasи shikastlanganda ranglarni aniqlay olish birmuncha yoki butunlay buziladi. Ko‘pincha qizil ranglarni anglash buziladi.

Ko‘rish maydonini tekshirish

Buning uchun perimetrdan foydalaniлади. Bemor perimetр o‘rnatilgan stol yoniga o‘tiradi. Ustunchaga mahkamlangan metall yoy gorizontal o‘q atrofida aylana oladi. Apparatda iyak ostiga qo‘yiladigan taglik va qovoq tagiga mo‘ljallangan plastina bo‘лади.

Vrach uchiga oqsoqqacha o‘rnatilgan tayoqchani yoyning ichki tomonidagi sirti bo‘ylab yuqoriga, pastga yo‘naltiradi. Yoyning ichki sirti markazidan 00 dan 900 gacha belgilab qo‘yilgan bo‘лади

va bemor oqsoqqa harakatiga qarab ko'zini yurita boshlaydi. Mak-simal burchakka burilgan holda ko'zining ko'ra olishi ko'zning ko'rish maydoni hisoblanadi. Qanchalik burchakka burilganini yoy ichiga belgilab qo'yilgan burchak darajalari ko'rsatadi. Perimetr yoyini chap-o'ng tomonlarga burib, bemorning ko'rish maydoni chegaralari aniqlanadi. Normal ko'rish maydoni chegarasi tashqarisni 90° , ichkarisi 60° , pastkisi 70° , yuqorigisi 60° atrofida bo'ladi.

Ko'rish maydonini tekshirganda har xil o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'rish maydonining har tomonidan cheklanishlari konsentrifit torayish deyiladi. Ko'rish maydonining biror qismi ko'rinnmay qolsa skotoma deyiladi.


Ko'rish yo'llarining har xil sohalaridagi shikastlanish ko'rish maydonining o'zgarishiga olib keladi va bu holatlarni quyidagi sxemada ko'ramiz:

1 — bir tomondagи ko'rish nervining shikastlanishi shu tomondagи ko'zning ko'r bo'lishiga olib keladi.

2 — xiazma atrofidagi shikastlanish har ikkala ko'zni chala (yarim) ko'rlikka olib keladi va buni bitemporal genianopsiya yoki gipertonik gemianopsiya deyiladi.

3 — bir-biri bilan kesishmag'an tolalar o'tkazuvchanligi buzilishi natijasida xiazma atrofi shikastlanadi. Bunda har bir ko'zda gemianopsiya seziladi, ammo ko'rish maydoni boshlanishi yarmining ichki tomoni yo'qoladi va bu holatni binozal geteronomigemianopsiya alomatlari deyiladi.

4 — chap tomondagи ko'rish yo'llari shikastlanishi o'ng ko'z to'r pardasining ichki yarmi va chap ko'zning tashqi tomon im-



3-rasm.

pulsulari o'tishini buzadi. Ko'zning nurlarni sindiruvchi muhitida nurlarning bir-biri bilan kesishib ketishi natijasida chap tomon ko'rish yo'llarida ko'rish maydonining yo'qolishi sodir bo'laadi. Shunda gomonim namoyon bo'ladi va natijada chap va o'ng ko'zlarda chala (yarim) ko'rlik paydo bo'ladi.

5 – ikkinchi neyron tolalarining uzilishi (grasiole tutamida) ko'rlik (gomonopsiya) hamda kvadratli va seksiyali gemianopsiya yaga olib keladi.

Ko'z chuqurligini tekshirish

Oftalmoskop yordamida ko'z chuqurligi tekshiriladi. Tekshirish vaqtida qurishib qolgan emizak giperemiyasi, venalar kengayganligi va torayganligi, nevrit hamda qurib qolgan emizak va ko'rish nervlarini sezish mumkin. Ko'pincha bunday holat bosh miyadagi shishlar, gidrotsefaliya, abscess, meningitlarda sezildi.

III juft – ko'zni harakatlantiruvchi nerv.

IV juft – g'altak nerv.

VI juft – uzoqlashtiruvchi nerv.

Bu nerv turlari ko'zning harakatini ta'minlovchi vazifasini bajaradi, ya'ni ko'z soqqalarini va qorachig'i mushaklarini harakatlantirib turadi.

Ko'zni harakatlantiruvchi nervlar ko'z gavhari qavariqligini qorachiqning torayish—kengayishini va ko'z soqqasi mushaklarini harakatlantirib turadi.

Gavhar qavariqligining o'zgarib turishi ko'zni yaqin va uzoq masofadan tasvirni aniq ko'rish uchun moslasha olishidir (akkomodatsiya).

Ko'z mushaklari quyidagilardan iborat:

Yuqorigi to'g'ri mushak ko'z soqqasini yuqoriga; pastki to'g'ri mushak ko'z soqqasini pastga; tashqi to'g'ri mushak ko'z soqqasini tashqariga; ichki to'g'ri mushak ko'z soqqasini ichkariga; yu-



4-rasm. Ko'z olmasini harakatlantiruvchi 3 ta nerv

qorigi yon mushak ko'z soqqasini pastga, tashqariga (bu mushak qiya joylashganligi sababli); pastki yon mushak ko'z soqqasini yuqoriga va tashqariga harakatlantiradi. Bulardan tashqari qovoqni yuqoriga harakatlantiruvchi mushak ham bor.

Ko'z harakati asablari markaziy neyronlari old markaziy burmaning tagiga joylashgan, uning selferik yadrosi esa old chetvirohol miyaning tagidagi miya oyoqchalarida joylashgan. Ko'z harakati asablari ko'z kosasi bo'shilig'iga kosachaning tirqishidan kiradi.

Ko'z harakati asablari funksiyasini tekshirishda ko'z soqqasining holati, ko'z yirtig'inining holati va uning katta-kichikligiga e'tibor berish kerak.

Normal holda ko'z soqqalari simmetrik va bir chiziqdagi yotgan bo'ladi, ko'z yirtiqligi ham bir xil bo'ladi. Bu funksiya buzilganda qovoqlarning osilishi (ptoz), qorachiqning past-baland joylashiши (anizokariya), torayib qolganligi (mioz), kengayib ketganligi (midriaz) kuzatilishi mumkin.

Ko'zni harakatlantiruvchi nervning periferik qismi shikastlanganda tashqi mushaklar parezi yoki periferik falaj taraqqiy qiladi. Bemor shikastlangan tomonga qaraganda tasvirlar 2 tadan ko'rinyotganligidan shikoyat qiladi (diplopiya). Shikastlangan tomondagi ko'z qorachig'i ichkariga biroz siljigan bo'ladi (kesishgan g'ilaylik).

III-IV-VI juft ko'zni harakatlantiruvchi nerv funksiyasini tekshirish

Bemorga quyidagilar taklif qilinadi:

a) vrach barmog'iga yoki qo'lidagi bolg'achaga tik qarab turish. Bunda ko'z yirtig'inining kengligi va ularning bir tekisdaligiga, qovoqlarning osilib turishiga, ko'z soqqasining bo'rtib chiqqan (ekzoftalm) yoki chuqurlanib qolganiga (ekoftalm), ko'z soqqalarning holati, shakli va qorachiqning katta-kichikligiga e'tibor beriladi;

b) bemorga yuqoriga, pastga, yon taraflarga qarashni iltimos qilib, ko'z soqqalarining harakatchanligi tekshiriladi, qorachiqlarning nur ta'sirida to'ppa-to'g'ri va birgalikdagи reaksiyasи

tekshiriladi. Bemor ko'zini qo'l kafti bilan biroz berkitilsa, qorachiq kattalashadi, ochilsa qorachiq torayib kichiklashadi (tekshirish yoritgich bilan olib boriladi);

d) konvergensiya va akkomodatsiya reaksiysi. Bemordan 50–60 sm uzoqlikda vrach barmog'iga tik qarab turishi barmoq harakatini kuzatib turish iltimos qilinadi. So'ngra vrach barmog'ini asta-sekin bir tekisda bemor burnigacha olib keladi. Normal holda ko'z soqqalari bir-biriga buralib yaqinlashadi (qonvergensiya) va shu vaqtning o'zida qorachiq toraya boshlaydi (akkomodatsiya).

V just uch tarmoqli nerv – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Aralash nerv turiga kiradi, ya'ni harakatlantiruvchi va sezuchi faoliyatini bajarib turadi. Bu nerv yuzining teri yuzasidagi old bo'limi, boshning tukli old tomoni, og'iz va burun shilliq qobiqlarini, til ko'z soqqasi, miya suyuqligi sezuvchanligini amalgalashadi. Asabning harakat tolalari chaynash mushaklarini harakatlantiradi. Uch boshli asabning sezgi tolalari orqa miya asablariga o'xshab chakka suyak piramidasining old yuzasida joylashgan va o'ta sezgir gangliyadan boshlanadi (Gassari tugunchasi).

Bu tugunchaning periferik o'simtalari yuz atrofi, boshning tukli qismi retseptorigacha cho'ziladi, markaziy o'simtalari esa uch tarmoqli nervning sezgir yadrosiga boradi. Bunday yadrolar ikkita. Birinchi yadro yuqorigi sezgir yadro (ko'priksa joylashgan) taktil va bo'g'im mushak sezgirlik tolalarini qabul qildi. Ikkinchisi og'riq va issiqsovruq sezuvchanlik tolalarini qabul qildi. Yadroning o'zi ham ko'prikkacha joylashgan bo'lib, orqa miya bo'yin segmentlarigacha cho'zilgan.


Har bir segment yuz sohaning ma'lum qismlarida sezuvchanlik funksiyasini bajarib turadi.

V justlik funksiyasini tekshirishda yuz va boshning tukli qismi sezgirligini palpatsiya (qo'l yuritib), ta'm maza sezgirligi esa tilning old tomonidan bajariladi. Chaynash mushaklari parezida pastki jag'ning og'iz ochilishi va yopilishida surilish siljishi, shikastlangan tomondagi mushaklarning kuchsiz taranglashishi

kuzatiladi. Bunday patołogiyaning sababchilari shishlar va yalig'lanish jarayonlaridir.

VII just yuz nervi – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Mimika mushkullari



5-rasm.

Bu asosan harakat nervidir. U mimika mushaklari va quloq suprasi mushaklari hamda til uchidagi ta'm sezish nuqtalarini harakatlantirib turadi. Nerv yadrolari (yuqorigi va pastki) Varolev ko'prikchasining pastki bo'lmlariida joylashgan. Nerv tolalari ko'prikcha miya atrofidagi miyadan boshlanadi va old eshitish nervi VIII juftlik birga chakka suyagining ichki eshitish tuynugiga kiradi, undan yuz nervi kanaliga o'tadi. So'ngra yuz nervlari bosh suyakdan chiqib, panjalar kabi bo'lingan holda hamma yuz mushaklarni harakatlantiradi. Bu nervlarni bemorni o'tirgan holida, yotgan va tik turganida tekshirish mumkin.

Tekshirish usullari	Shikastlanganlikning asosiy alomatlar
<p><i>Yuqori mimik mushaklar funksiyasini tekshirishda bemorga quyidagilar taklif qilinadi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Qoshlarni yuqoriga ko'tarish. Bunda peshanadagi ajinlar bir xil bo'lishi kerak. • Qovoqlarni solish. Normal holda qoshlar o'rta chiziqida bo'ladi. • Ko'zni yopib, qovoqlarni solish. Normal holda ikkalasi baravar qisiladi. 	Shikastlangan tomonda peshana ajinlarining bir tekisdaligi aniqlanadi va peshanani tirishtira olmaslik, ko'zni yopa olmaslik hollari namoyon bo'lishi mumkin.
<p><i>Pastki mimik mushaklarni tekshirish uchun bemordan quyidagilar iltimos qilinadi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Tishlarini irjaytirish. Normal holda og'iz burchaklari simmetrik bo'ladi. • Iljayish yoki lunjini shishirish. Bunda harakatlar bir xil bo'lishi kerak. • Yonib turgan gugurt yoki shamni puflab o'chirish. Bunda lablar oldinga cho'zilishi kerak. 	Tishlarni irjay-tirganda og'iz sog'lom tomonaga siljiydi, tilni chiqarganda, til sog'lom tomonga qiyshayadi.

Periferik neyron yadrosi yoki yuz nervlari ustuni shikastlanganida mimik mushaklar paralichi yoki parezi rivojlanadi. Bu asabning bir tomonlama shikastlanishida quyidagi alomatlar ko'rindi:


- peshana ajinlari bir tekis bo'lib qolgani ko'z yirtig'i kengaygan, og'iz burchagi pasaygan bo'ladi;
- peshanani tirishtira olmaslik, ko'zlarni yuma olmaslik, (quyon ko'z logoftalm) bo'lishi mumkin;
 - tishlarni irjaytirmoqchi bo'lganda, og'iz burchagi sog'lom tomonga burilib ketadi;
 - lunjini shishirganda shikastlangan tomoni ko'proq shishib ketadi (sharpufakka o'xshab);
 - shikastlangan mushaklarda keyinchalik atrofiya holati (qurishib qolishi) yoki mushak reaksiyasi butunlay buzilib ketgan bo'lishi mumkin.

Agar nervlar sovuq qotsa, bosh suyak asosi sinsa, Varolev ko'prikchasi atrofida qon aylanish buzilsa VII juftlikning shikastlanishi kuzatiladi.

Nervlarning bir tomonlama markaziy shikastlanishida ikki tomonlama po'stloq yadro aloqadorligi tufayli yuz mushaklarining yuzning pastki yarmi ozor chekadi (ya'ni og'iz burchaklari pasa-yib qolganligi, tirjayganda og'iz sog'lom tomonga tortilib qolganligi bunga misol). Chunki falaj markaziy ko'rinishga ega bo'lganligi sababli atrofiya, fibrial titrashlar (pirillash «uchish») bo'lmaydi.

VII juftlik shikastlanishlari ko'proq ensefalit, miya yarim sharlardagi oqish modda va ichki kapsulalarida qon aylanishi buzilgan bemorlarda uchraydi.

VIII juft eshituv nervi – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.



6-rasm.

Bu nerv faqat sezuvchi nerv bo'lib, u ikkita mustaqil sezgir nervlardan iborat: chig'anoq (Koxlear) va vestibulyar nervdir. Koxlear nerv qismi spiral shaklidagi sezgir tuguncha shaklida qulog ichida joylashgan bo'ladi. Birinchi neyronning periferik o'simtasi

kortiyev organidan boshlanadi va eshitish asabining qabul qiluvchi asosiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Spiral tuguncha hujayralarining markaziy o'simtasi chig'anoq hosil qiladi. Chig'anoqning bir qismi ichki eshitish tirqishining chakka tomonidan chiqib miya ichiga kiradi. Bu tolalar ko'prikhchadagi eshitish nervlari yadro-sida tugaydi. Bu yerda neyronlar bir necha bor uzilgan bo'lib, tolalar qisman bir-biri bilan o'ralashib ketadi va teskari tomoniga o'tadi, bir qismi esa o'ng tomonidan o'tib birlamchi eshitish markazida to'xtaydi. Keyin uning yo'li chakka qismiga ko'ndalang gassli burmasi tomon o'tadi, eshitish po'stloq analizatorining oxi-ri xuddi shu yerda joylashgan bo'ladi.

Ichki eshitish tirqishida vestibulyar apparatning sezguvchi nervlari joylashgan. Tugun hujayralarining periferik o'simtasi ichki qulonqning yarim yadrosimon kanalidagi retseptorlar hujayralarga yetib boradi. Vestibulyar nerv yadrosi ko'rish do'ngligi va bosh miya po'stlog'i bilan miyacha orqali uzviy bog'langan bo'la-di; bular orqa miya bilan ham bog'langan bo'ladi. Vestibulyar apparat gavda muvozanatini saqlab turuvchi muhim organdir.

Eshitish nervi funksiyasini tekshirishda eshitish o'tkirligi audiometriya yordamida amalga oshiriladi. Bu haqdagi qolgan ma'lumotlar eshitish va nutq organlari anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi bo'limida to'la yoritilgan.

IX juft til-halqum nervi – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Bu aralash nerv bo'lib, harakat, sezuvchi va vegetativ (parasimparik) tolalardan iborat. Nerv to'rt yadrodan: harakatlannish, sezish (aralash asab bilan birga), ta'm-maza sezish, vegetativ sekretor yadrolardan tashkil topgan. Bu yadrolar uzunchoq miyada joylashgan. Sezish yadrolari og'iz bo'shlig'idagi ta'm-maza markaziga yetkazadi. Til-halqum nervlari tomoq, tilcha, tanglay mushaklarini harakatlantirib, yutinishga va artikulyatsiyaga yordamlashadi. Sekretor vegetativ tolalar qulqoq yonidagi bezlarni harakatlantiradi. Bemorni tekshirganda uning nutqiga va yutinishi yomonlashganligi haqidagi shikoyatiga e'tibor berish kerak.

X juft adashgan nerv – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Adashgan nerv miya qobiqlarini tashqi eshitish yo‘li, hijaldoq, traxeya, bronxlar, o‘pka, oshqozon, ichak trakti va qorin bo‘sning idagi qolgan a’zolar sezgirlingini nazorat qilib turadi. Nervning harakat tolalari hijaldoq, tanglay, traxeya va bronx-larning yumshoq, qizilo‘ngach, oshqozon, ichak mushaklarini harakatlantirib turadi.

Bu nervga yana oshqozon, oshqozon osti beziga kela-yotgan sekretor tolalari, yurak faoliyatini tormozlovchi tolalar hamda qon-tomirlariga boradigan tolalari ham bor. Til-halqum nervlari bilan umumiyligi bo‘lgan sezish va harakat yadrolari bor. Ichki organizmlarni harakatlantirib turuvchi vegetativ yadro ham bor. Adashgan va til-halqum nervlari muhim hayotiy ahamiyatga ega. Ular yutinish jarayonini, artikulyatsiya va organizmning normal bo‘lishini ta’minlab turadi. Adashgan nerv ichki a’zolardan kela-yotgan hissiyotlarni o’tkazuvchidir. Bu nerv yo’talish va qayt qiliш reflekslarini, qon-tomirlarini tartibga va me’yoriy bo‘lib turishda katta ahamiyatga ega.

XI qo’shimcha nerv – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Qo’shimcha harakat nervi hisoblanib, spinal va kranial qismlardan tashkil topgan. Uning birinchi neyroni orqa miyadan boshlanib yuqoriga ko‘tariladi, gardan tirkishidan bosh suyak bo‘sning iga, so‘ngra chuqurcha tirkish orqali bosh suyak bo‘sning idan chiqib, ko‘krak o‘mrov osti va trapetsiyasimon mushaklarni harakatlantiradi. *

Birinchi mushak funksiyasi boshni yon tomonlarga egish va shu holda aylantirib teskari tomonga egishga imkon yaratishdir. Trapetsiyasimon mushak yelkani biroz ko‘tarib turadi, belni orqadan tortib turib, bel-kuraklarini umurtqagacha yetkazib turadi.

Kranial qismi uzunchoq miyada joylashgan hujayralardan boshlanib, chuqur tirkish orqali tovush pardalariga chiqadi. Tekshirish vaqtida bemordan yuqorida aytib o’tilgan harakatlarni ba-

jarish so'raladi. O'ngga chapga qilinadigan harakatlarning simmetrikligi va ovozning jarangdorligiga e'tibor beriladi.

XII juft til osti nervi – tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Bu harakat asabidir. U til mushaklarini harakatlantirib turadi. Asabning periferik yadrosi rombsimon chuqurcha tubiga joylashgan bo'lib, uning tomirchalari (10–15 ta) uzunchoq miyadan chiqib, bir tutam holida til osti asabi kanali orqali bosh suyakdan chiqadi.

XII juftlikni tekshirishda bemordan tilni chiqarish so'raladi. Normal holda til o'rta chiziqda bo'ladi. Shikastlanish alomati chiqarilgan til shikastlangan tomonga burilib qolgan bo'ladi. Periferik falajda shikastlangan tomon atrofiyasi kuzatiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ona qornida homila rivojlanishi bosqichlari qanday?
2. Anomal rivojlanishning asosiy sabablari nimada?
3. Bosh miya harakat nervlarining funksiyasi nimadan iborat?
4. Bosh miya nervlari qaysi usullar bilan tekshiriladi?

2-mavzu. Nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiyl tushunchalar

Reja:

1. Qadimgi Gretsiya va Rim imperiyasida neyroquirgianing rivojlanishi.
2. Qadimgi Osiyo hududida nevropatologianing rivojlanishi.
3. X–XVIII asrlar davomida Yevropa davlatlarida nevropatologiya.
4. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach nevropatologianing rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar: nevrologiya, neyroquirgiya, qadimgi nevrologiya, zamonaviy nevrologiya

Ba'zi shifokorlar nevrologik kasallik tarixini nevrologik tadqiq bilan barobar muhim deb biladilar. Boshqa shifokorlar nevrologik

kasallik tarixi buzilish yoki kasallik xarakterini bo'rttirib yuboradi, nevrologik ekspertiza esa uni joyiga qo'yadi, deb hisoblaydilar. Tajribali shifokorlar esa muvaffaqiyatli tashxis to'g'ri savollar berish va javobni diqqat bilan tinglashda deb biladilar¹.

Odamzod har doim jarohat olgan. Hayot uchun kurash, urushlar odamlarning ko'p jarohat olishi bilan kechgan. O'sha davrlardayoq bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish zarur bo'lgan. Zamonaviy neyroxiturgiya tibbiyot xirurgiya sohasining eng yosh bo'limlaridan biri bo'lib, u 100 yildan kam davr mobaynida rivojlandi. Uzoq yillar davomida asab tizimi xirurgiyasi umumiy xirurgiya ichida rivojlanib, yaqindan beri u alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Neyroxiturgiya klinik tibbiyotning qisman yosh sohasidan bo'lib, u asosan, xirurgik usullar bilan davolanadigan asab tizimi kasalliklarini o'rganadi.

Neyroxiturgiyaning nazariy asosi – bu xirurgiya va nevrologiyadir. Neyroxiturgiya bizda faqat XX asrning ikkinchi yarmi davri yillarda tashkil topdi. Lekin ilm-fanda yangi yo'nalish o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi ma'lum. Arxeologik topilmalarga ko'ra, kalla suyagini yorish odamlar tomonidan 6–10 ming yil ilgari tosh va suyakdan yasalgan qurollar yordamida amalga oshirilgan.

Qadimgi dunyo hayvonlari va odamlarining skeletida olingan jarohat va uning davolanishining izlari topilgan. Bosh miya va kalla suyakning jarohatini tuzatishga intilish juda qadimga borib taqaladi. Avval tosh va suyakdan tayyorlangan tibbiy asboblar keyinchalik metalldan tayyorlanganlari bilan almashтирildi.

Ko'p tadqiqotchilar bosh suyagi trepanatsiyasi urf-odatlarga ko'ra o'tkazilgan deb hisoblaydilar. Lekin vaqt o'tgan sari bu operatsiyalar davolash maqsadida, ayniqsa jarohat olganda, tutqanoq va boshqalarda qo'llanganligi aňiqlangan.

Qulدورлик тизимидаги тиббиётга oid биринчи qo'lyozmalar paydo bo'la boshlaydi. Misrda 1873-yilda topilgan taniqli Ebers papirusi (bizning eragacha 1550-yil) (uzunligi 20 m, eni 30 sm), bizning eragacha II ming yillikda тиббиёт haqidagi ma'lumot beradi.

¹ Clinical Pediatric Neurology. © 2009 Demos Medical Publishing, LLC. p-11.

E.Smit papirusida (miloddan avvalgi 1550-y.) umurtqa pog'onasi jarohatlari yoritilgan. Ushbu papirusda yozilishiga ko'ra, qadimgi misrliklar asab sistemasi kasalliklarining ko'pini bilishgan: bosh suyak jarohatlari, uning ayrim suyaklarning siniishi. Bunda ba'zi bir hollarda trepanatsiya qo'llangan.

Cherkovlarda maktablar paydo bo'ldi, ba'zi birlarida shifokorlikka o'qitala boshlandi. Qadimgi Hindiston va Yunonistonda mazkaziy va periferik asab sistemasi kasalliklari haqida ma'lumotga ega bo'lishgan, ular bosh miya jarohatida kraniotomiya, rinoplastikalarни qo'llashgan. Davolovchilarga juda yuqori talablar qo'yilgan.

Gippokrat buyuk shifokor (miloddan avvalgi 460—377-y.), trepanatsiya qilayotganda xavfli joylarni aylanib o'tishni maslahat bergen, ularga chakka va chakka yuqorisi joylari kiritilgan. U meningit simptomlarini bilgan, chanoq ichki plastinkasining siniishi, bosh miyaning chayqalishini yozib qoldirgan.

Bosh miyaning chayqalishi deganda Gippokrat miya bosh suyagi urilganda miyaning «titrashi»ni tushungan. Gippokrat «Boshning yaralari to'g'risida» degan asarni yozgan deb hisoblanadi. Uning asarlarida bosh miyaning jarohatlari, miya bosh suyagi trepanatsiyasining texnikasi va boshga bog'lam qo'yish (Gippokrat qalpog'i) to'g'risida ma'lumotlar bor.

Gippokrat jarohat natijasida tutqanoq, umurtqa pog'onasi va orqa miya jarohatlari haqida ham yozgan. U bosh og'riganda, ko'rmay qolishda, tutqanoqda miya va bosh suyakni trepanatsiyasi o'tkazish kerakligini maslahat beradi.

Qadimgi Aleksandriyada Erazistrat birinchi marta adabiyotga «miya» tushunchasini kiritadi va bosh miya tuzilishini ancha to'la yoritadi.

Rim imperiyasi shifokorlari tutqanoqni (Sels, miloddan avvalgi 25-yil milod 45-yil), meningitni va boshqa kasalliklarni yozib qoldirishgan. Galen (miloddan avval 31—210-y.) bosh miya anatomiyasini, bosh va orqa miya nervlarini mufassal o'rgangan. Sels va Galen davrlarida miya trepanatsiyasi, repozitsiyasi, singan suyaklarni olib tashlash uchun tibbiy asboblar ishlatalilgan.

Feodalizm davrida Yevropa va Osiyoda tibbiyotning rivojlaniishi sxolastika tufayli sekinlashdi. Lekin ushbu davrda gidrotsefa-liya (xirurg Antil Vizantiyadan), tutqanoq (Seliy Avrelian), apopleksiya va soporoz holatlar (Aleksandr Trelesskiy) to‘g‘risida asarlar paydo bo‘la boshladi. Pavel Eginskiy (620–680-y.) bosh suyagining sinishini to‘liq yoritib beradi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, O‘rta osiyolik tabiblar mi-lodning IV yilida bosh miya chanog‘ida murakkab operatsiyalar o‘tkazishni bilishgan. Arxeologik qazilmalarda 15 asr ilgari ya-shagan ayolning bosh suyagi tepe qismida o‘tkazilgan trepanatsiya qoldiqlari topilgan. Tepa suyagi qirg‘oqlari bitib ketganligi operatsiyaning yaxshi natija bergenligini ko‘rsatadi.

Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarida asab sistemasi ka-salliklari, ayniqsa, tutqanoq, miya o‘simalari, meningitlar, peri-ferik asab sistemasi, bosh suyagi trepanatsiyasi haqida ma’lumot-lar beradi.

Arab tabibi Abulqosim XI asrda bosh suyagi trepanatsiyasini o‘tkazgan, shu jumladan botib sinishlarda ham.

Milan xirurgi Lanfrangi 1290-yilda miya chayqalishining ko‘rinishlarini birinchi marta yoritib beradi. Buyuk fransuz jar-rohi Gyui de Sholiak miya chanog‘i suyaklarining sinishini davo-lashni, ayniqsa suyaklarning botib sinishidagi taktikani mufassal izohlab beradi. U miyaning bir qismini uning funksiyalariga ta’sir etmasdan olib tashlardi. Djovani Vigo XV asr oxirida bosh suyagi asosining sinishida quloqlardan qon oqishi uning asosiy belgilari-dan biri ekanligini isbotlab berdi.

A.Pare miya chanog‘i sinishlarining turlarini va operatsiyada qo‘llaniladigan asboblarni; parda ichi gematomalarini, yiringla-rini olib tashlashni yozib qoldiradi.

Parasels (1493–1541) miya yaralanganda uni davolash takti-kasini izohladi.

XVII asrda Marchetti bosh suyagining miyaga botib sinishi ni muvaffaqiyatli operatsiya qilgandan so‘ng bemorda gemiplegi-ya yo‘qolishini isbotlagan.

1699-yilda Peyronik subdural absessni olib tashlagandan so'ng bemorning tuzalishiga erishdi.

Kalla jarohatiga bag'ishlangan birinchi maxsus asar 1518-yilda Boloneda Djakomo Berengorio tomonidan nashr qilingan, lekin unda bosh miya to'g'risida ma'lumotlar berilmagan edi.

Fallopiy bosh suyak shikastlanganda miya ichiga va lat yegan tomonga qarama-qarshi tomonda qon quylishi mumkinligini aytilib o'tgan. Nikollo Masso 1536-yilda bosh suyagining alebard bilan shikastlanishini yozgan. U nutqning buzilishi bilan kechgan. Suyak qoldiqlari olib tashlangandan so'ng nutq qayta tiklangan.

Bu davrda, ayniqsa urush paytida miya jarohatidan so'ng bosh suyagini trepanatsiya qilish keng qo'llanilgan.

XVIII asrda tibbiyotning rivojlanishiga fizika, ayniqsa optikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Miya anatomiyasi, fiziologiyasini o'rghanish davom etdi (M.Malpigi, A.Levenguk, R.Dekart va boshqalar).

Valsalva (1666–1723) M.Malpiginining shogirdi miya jarohatini o'rghanayotib, shuni ta'kidlaganki, miya jarohati natijasidagi falajlar jarohat olgan miya yarim shariga teskari bo'lgan tomonda bo'lar ekan.

XVIII asrda bir qator bosh miya kasalliklarini davolashga urinib ko'rildi. 1755-yilda Volprext miya o'smasida o'tkazilgan trepanatsiya haqida xabar beradi, lekin o'sma olib tashlanmaydi va bemon o'limi bilan yakunlanadi.

XVIII asrning buyuk yutuqlaridan biri bu yopiq miya shikastlanishining patogenezini va patomorfologiyasini o'rghanish bo'ldi. Littré (1658–1726) bosh miya chayqalishini mufassal yoritib berdi. 1677-yilda Buarel hamma jarohatlarni o'z ichiga olgan «miya chayqalishi» tashxisini qayta ko'rib chiqib, «miyaning lat yeyishi» tashxisini kiritdi. Jan Lui Pti birinchi marta miya chayqalishi va miya lat yeyishining farqlarini belgilab berdi. U miya jarohatining uch shaklini ajratdi (miya chayqalishi, miyaning lat yeyishi, miyaning ezilishi). 1774-yil Pti miya absessining muvaffaqiyatli operatsiyasi haqida xabar beradi.

P.Pott 1760-yili miya shikastlanganda asosiy o'rinda bosh suyagining shikasti emas, balki miyaning shikastlanishini ta'kidladi. Tesse (1741–1837) 1789-yili qulqoqdan qon oqishi o'rta miya chuqurchasining shikasti natijasida bo'lishini aytdi.

XVIII asr bosqlarida miya ezilishini o'rganish bo'yicha izlanishlar o'tkazish ko'paydi. Bosh miyaning kompressiyasini o'rganish bilan A.Galler, Burgav, Gerold Van Svinten va boshqalar shug'ullandilar.

XIX asrning birinchi yarmida asab sistemasining morfologiyasi ni va fiziologiyasini o'rganish bo'yicha izlanishlar o'tkazildi (K.Burdax, L.Rolando, I.Reyl, V.Krauze, N.M.Yakubovich, F.Majandi, E.Dyubua-Raymon, M.G.Romberg, K.Rokitanskiy va boshqalar).

1807–1813-yillar urushlari bosh va orqa miya shikastlarini davolash usullarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz natijalarini tahlillovchi vosita bo'lib xizmat qildi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ba'zi xirurglar (J.D.Larrey, 1766–1842-y.) miya chanog'i trepanatsiyasini o'tkazish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lsalar ham, asab sistemasining shikastlanishini o'rganish bu yillarda sekinlik bilan olib borildi. XVI-II asrning ba'zi xirurglari trepanatsiyani hamma vaqt ham tibbiy ko'rsatmaga asosan qilmaganlar. Masalan, Tosh bir bemorni 60 kun kasalligi davomida 52 marta trepanatsiya qilgan, Stalpert boshqa bemorda 20 ta trepanatsiya o'tkazgan.

XVII–XIX asrlarda Rossiyada trepanatsiya tez-tez o'tkazilgan. A.Berdianskiy (1678), S.Mixaylov (1679), M.Sheyn (1-744) trepanatsiya o'tkazishni yaxshi bilishgan. Trepanatsiya bosh suyagini va bosh miya shikastlanganda va miya ichi gematomalarini olib tashlanganda qo'llanilgan. Imperator Petr I 1708-yili Rossiyada birinchi kasalxonalar tashkil qilayotganda bosh suyagida operatsiyalar o'tkazish uchun maxsus asboblar bilan ta'minlashni ko'zda tutgan. Miya chanog'i trepanatsiyasi xirurglar tayyorlash dasturiga kiritilgan edi.

Bosh miya xirurgiyasining yuqori darajada bo'lganligini miya-si ikki marta jarohat (1773 va 1790-yillarda) olgan M.I.Kutuzovni

davolash natijasi yaxshi samara berishi ham ko'rsatadi, uni Ye.O. Muxin davolagan (N.I.Pirogovning ustozasi). Akademik X.X.Solomonning «Operativ-xirurgiyaga qo'llanma» asarida miya su-yagidan qon oqayotganda vosk qo'llashni taklif qilgan. I.F. Bushning va X.X.Solomonning bir qator takliflari hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Bosh miya shikastlanishidagi operatsiyalarini XIX asrda N.F.Arendt, Ye.O.Muxin, I.V.Buyalskiy, X.X.Solomonlar o'tkazishgan.

N.I.Pirogov asab sistemasi shikastlanishining ilmiy yo'nali-shiga asos soldi. U simptomlarning klinik tasnifini taklif qildi. N.I.Pirogov shuni ta'kidladiki, miyaning shikastlanish simptomlari doimiy emas, o'zgaruvchan, bir-biri bilan bog'lanishi mumkin va bu tashxis qo'yishni ancha qiyinlashtiradi. U miya jarohatidagi ba'zi fazalarning rivojlanish ketma-ketligini ko'rsatdi, trepanatsiyaga ko'rsatmalar aniqladi va uni bemordagi shok ko'rinishlari o'tgandan so'ng o'tkazishni maslahat berdi. Lekin asab sistemasidagi operatsiyalar soni ko'p emas edi. Qrim urushi (1854–1856) davridagi 10 ta trepanatsiyadan faqat 3 tasi yaxshi natija berdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida tibbiyat, ayniqsa terapiya va xirurgiya tez rivojlandi. 1895-yil Rentgenning rentgen nur-lari to'g'risidagi axborotidan bir yil o'tgach, Nyu-yorklik vrach Brizaud va Albert Lond bиринчи мarta miya chanog'inинг rentgen suratini oldilar.

O'tgan asrning 80-yillarda neyroxirurgiya asoslari alohi-da fan sifatida shakllana boshladi. Uning rivojlanishiga turki bo'lib umumiy og'riqsizlantirish (1846), antisептика (1867), hamda aseptika (1892) xizmat qildi. Bu asab sistemasida operatsiyalar o'tkazishni ancha kengaytirdi va o'limning kamayishi-ga olib keldi.

Neyroxirurgik operatsiyalarining ilmiy ishlab chiqish asoschisi ingliz jarrohi V.Gorsley (1857–1916) hisoblanadi. Olmoniyada neyroxirurgianing rivojlanishi E.Bergmann (1836–1907), Fransiyada J.L.Shampennera (1843–1913) bilan bog'liq.

Rossiyada XIX asrning ikkinchi yarmida Bosh va orqa miyaning yaralanishi va kontuziyalari o'rganiladi. 1867-yilda P.Brok va 1868-yilda K.Bush shikastlanishdan keyin tutqanoqning paydo bo'lishi miyadagi o'zgarishlarga bog'liq ekanligini aniqladilar.

Asab sistemasi jarrohligining rivojlanishiga asab sistemasining morfologiyasini va fiziologiyasini o'rganish, tashxis qo'yish usulini o'rganish, shikast yegan joyni o'rganish, asab sistemasining turli kasalliklari sababi va patogenezini o'rganish, davolash va tashxislashning takomillashtirilishi sabab bo'ldi.

Viktor Gorsley 1886-yilda miyaning shikastlanishi natijasida o'zgargan to'qimalarini olib tashlagani haqida xabar beradi. U birinchilar qatorida neyroxiturgiyaning muvaffaqiyatli rivojlanshi uchun nevropatologlar xirurglar bilan birga hamkorlikda ish-lashlari zarurligini uqtirib o'tdi.

Olmoniyada E.Bergmann neyroxiturgiya bo'yicha birinchi qo'llanmani yozdi, bu asar ancha vaqtgacha jarrohlarning asosiy kitobi bo'lib qoldi. 1894-yilda T.Enend birinchi marta eshitish nervining o'smasini nevrinomasi bo'yicha operatsiya o'tkazdi.

XIX asrning 80-yillarida ba'zi bir asab kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolashni I.P.Merjeyevskiy va L.A.Malinovskiy taqdim qilganlar. A.S.Tauber 1888-yilda «Bosh miya jarrohligi» birinchi o'quv qo'llanmasini nashr ettirdi. N.K.Lisenkov o'sha yili Rossiyada birinchi marta «Bosh miya topografiyasi va operativ xirurgiyasi» qo'llanmasini nashr ettirdi. A.S.Tauber va N.K.Lisenkov rus neyroxiturgiyasining asoschilari deb hisoblanishi kerak.

1896-yil 5-noyabrda shifokor K.V.Rixlinskiy miyaning peshana bo'lagiga qon quyilishi tashxisini qo'yan. R.Raum miya ichi gematomasini muvaffaqiyatli olib tashlagandan so'ng, bemor sekin-asta tuzalib, unig eslash qobiliyati tiklangan, operatsiyagacha bo'lgan ruhiy xastaliklari yo'qolgan.

1885-yilda Amerika shifokori D.Korning tomonidan birinchi marta lyumbal punksiyasi qilingan. Lekin bu ma'lumot shifokorlar tomonidan e'tiborga olinmadidi. 1891-yili tashxis qo'yish maqsadida lyumbal punksiyasi G.Kvinke tomonidan amalga oshiril-

di. Bu davrda lyumbal punksiyasini tatbiq etayotganlar va amalga oshirayotganlar – L.Lixteym, P.Fyurbringerlar edi.

I.F.Bush «Xirurgiyani o'qitishga qo'llanma» asarida «bosh suyagini teshish», qattiq miya qavatini ochish, subdural gematomani olish, botgan miya suyaklarini olib tashlashga doir operatsiyalarga ko'rsatmalar keltiradi.

1897-yilda V.M.Bexterev o'zining klinikasida dunyoda birinchi bo'lib operatsiya xonasi ochdi va ayrim operatsiyalarni L.M.Pussep bajardi.

1903-yilda Peterburgda psixonevrologiya instituti ochildi. Yirik rus nevropatologi va psixiatri Vladimir Mixaylovich Bexterev yaxshi ta'minlangan ilmiy-tekshirish va davolash tashkilotini nazarda tutgan edi, u tashkil etgan psixonevrologik institut aynan shunday tashkilot edi. Institut qoshida 1909-yilda xirurgik nevropatologiya kafedrasи va bo'limi tashkil qilindi, uni boshqarishni V.M.Bexterev o'zining shogirdi L.M.Pussepga topshirdi.

1914-yilda Sankt-Peterburgda Psixoneurologik institutda 200 o'ringa mo'ljallangan N.I.Pirogov nomidagi ixtisoslashtirilgan neyroxiturgik klinika tashkil etildi. 1914-yilda Vitebsk shahrida L.M.Pussepp tomonidan dunyoda birinchi ixtisoslashtirilgan harbiy-neyroxiturgik gospital tashkil etildi.

Birinchi neyroxiturgik klinika Leningradda 1921-yilda R.R.Vreden nomidagi travmatologiya instituti bazasida A.L.Polenov tomonidan ochildi. A.L.Polenov, A.G.Molotkov va S.P.Fedorovlar 1926-yilda Leningradda ikkinchi yirik neyroxiturgik tashkiloti tashkil qilindi, keyinchalik 1948-yilda u A.L.Polenov nomidagi neyroxiturgiya institutiga aylantirildi. Bu institutda I.S.Babchin, V.M.Ugryumov, V.N.Shamov va boshqalar ishladilar.

30-yillardan boshlab Xarkov, Kiyev, Rostov-Don, Moskva va boshqa shaharlarda neyroxiturgik klinikalar ochila boshladi.

Moskvada birinchi mustaqil neyroxiturgik klinikani 1929-yilda N.N.Burdenko Davlat rentgen instituti qoshida ochdi, 1932-yilda uning bazasida neyroxiturgiya instituti tashkil qilindi. Ko'p yillar

davomida to 1946-yilgacha uning direktori N.N.Burdenko bo'ldi, uning vafotidan so'ng bu institut o'zining asoschisi nomini oldi.

Ukraina neyroxiturgiya xizmatini tashkil qilishda kiyevlik neyroxiturg L.A.Koreysha katta hissa qo'shdi. Kiyev Psixonevrologiya institutida neyroxiturgiya bo'limi tashkil qilindi. 1945-yildan 1964-yilgacha Ukraina neyroxiturgiya xizmatini A.N.Arutyunov, 1964-yildan esa A.P.Romodanov boshqarib keldi. 1950-yili A.I.Arutyunov SSSRda uchinchi bo'lib neyroxiturgiya ilmiy-teknishirish institutini tashkil qildi.

A.I.Arutyunov Ukrainianada neyroxiturgiya mакtabini tashkil qildi. U quyidagi shogirdlarni tarbiyaladi: A.P.Romodanov, P.G.Tananayko, Ya.I.Faynzilberg, I.D.Virozub, Yu.A.Zozulya, G.A.Pedachenko, B.A.Pels va boshqalar.

1910-yildayoq L.N.Pussep Rossiyada birinchi xirurgik nevropatologiyasi kafedrasini boshqardi. 1922-yilda u Tartu universitetida nevrologiya va neyroxiturgiya kafedrasini tashkil qildi va boshqardi.

I.S.Babchin 1929-yildan A.L.Polenov bilan hamkorlikda ish-lab, uning o'limidan so'ng 1947–1969-yillarda Leningrad vrachlar malaka oshirish institutida neyroxiturgiya kafedrasini boshqardi. Undan estafetani A.G.Zemskaya, so'ngra N.P.Ryabuxa oldi.

Moskvada neyroxiturgiya bo'yicha ma'ruzalarni N.N.Burdenko, V.V.Lebedenko, Xarkovda V.N.Shamov, Ya.M.Pavlonskiylar o'qidilar.

Rossiyaning bir qator shaharlarda, Kavkaz orti respublikalari-da, Markaziy Osiyoda neyroxiturgiya xizmatiga Jahon urushi yillarida asos solindi va 1971-yilda o'tkazilgan neyroxiturglarning I syezdi neyroxiturgiyani tibbiyot institutlarining o'qitish dasturiga kiritish to'g'risida qaror qabul qildi.

Katta o'quv yurtlarida neyroxiturgiya bo'yicha dotsentlik kurslari kiritildi. Hozirgi davr neyroxiturgiyasining rivojlanishi-ga Markaziy Vrachlar malakasini oshirish institutining neyroxiturgiya kafedrasasi mudirlari katta hissa qo'shdilar: N.N.Burdenko, A.A.Arendt, A.I.Arutyunov, K.Ya.Ogleznev, A.A.Artaryan;

Boltiq bo‘yi respublikalari: L.A.Klumbis, E.A.Kaasik; O‘rta Osiyo respublikalarida M.X.Kariyev, S.D.Madyarov, A.S.Mirsadikov (O‘zbekiston), S.K.Akshulakov, J.M.Ermekov (Qozog‘iston), M.M.Mamitov (Qirg‘iziston), I.I.Lipatsev, Z.P.Xodjayev (Tojikiston), S.S.Oganesyan, S.G.Zograbyan (Armaniston), Ye.I.Babichenko, L.Ya.Livshis, Yu.N.Savchenko (Rossiya) va boshqalar.

Neyroxirurgiyaning fan sifatida shakllanishi N.N.Burdenko nomi bilan bog‘liqdir. Aynan uning qo‘l ostida, uning o‘zi tashkil qilgan SSSR neyroxirurgiyasi va neyroxirurgiya instituti shaklandi.

N.N.Burdenkoning fikriga ko‘ra, institut kompleks tashkilot sifatida tashkil qilindi, bunda neyroxirurglar bilan birgalikda nevropatologlar, oftalmologlar, otolaringologlar, rentgenologlar, fiziologlar, morfologlar, psixologlar va boshqa mutaxassislik va killari ishlashlari lozim edi. Komplekslik prinsipi akademik N.N.Burdenko va taniqli nevropatolog N.N.Burdenkoning muovini V.V.Kramer tomonidan taklif qilingan.

N.N.Burdenko institutni ko‘p yillar mobaynida boshqarish bilan birgalikda, bir qator iqtidorli shogirdlarni, ajoyib neyroxirurglarni tarbiyaladi, ular esa olgan bilimlarini boshqa neyroxirurglarga o‘rgatib bordilar.

Nikolay Nilovich Burdenko institut tashkil qilish davrida institutda ishlash uchun bir qancha taniqli mutaxassislar (taniqli nevropatologlar)ni taklif qildi.

Bu yerda shuningdek ajoyib neyroxirurglar B.G.Yegorov, A.A.Arendt, B.N.Klosovskiy, S.S.Bryusova, A.A.Koreysha, K.G.Terian, M.G.Ignatov, A.A.Shlikov, A.F.Lepukaln, V.V.Lebedenko, I.M.Grigorovskiy, R.S.Rayxman, V.M.Ugryumov, I.M.Irger, A.I.Arutyunov, S.G.Zograbyan, N.D.Leybzzon, N.M.Volinkin, A.N.Konovalov, F.A.Serbinenko, K.Ya.Ogleznev, A.A.Artaryan va boshqalar faoliyat ko‘rsatishgan.

Akademik N.N.Burdenkoning fikri – markaziy asab tizimi kasalliklarining diagnostika usullarini ishlab chiqishda turli yo‘nalishdagi ko‘zga ko‘rinarli mutaxassislarning birga faoliyat

ko'rsatishini ta'minlaydigan kompleks muassasa tuzish — mutloq o'z-o'zini oqladi. Haqiqatdan ham, markaziy asab tizimi o'smali, uning yallig'lanish kasalliklari, epilepsiya, og'riq sindromlari, vegetativ va periferik asab tizimi kasalliklarining diagnostikasi va ularni davolashning murakkab muammolarini yechish faqat turli sohadagi iqtidorli olimlar qo'lidan kelar edi.

1937-yilda N.N.Burdenko taklifi bilan dunyoda birinchi bo'lib maxsus jurnal «Вопросы нейрохирургии» chiqa boshladi.

Akademik N.N.Burdenko nomli Moskva neyroxiturgiya instituti tashkil topganining birinchi kunlaridanoq ittifoqdosh respublikalar va chet davlatlar, hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun neyroxiturglar, nevropatologlar va boshqa mutaxassislar tayyorlash matabiga aylandi. Men katta zavq bilan ushbu institutda o'sha davrlarda ta'lim olgan va ishlagan vaqtlarimni yodga olaman.

Hozirgi vaqtida bizning mamlakatimizda O'zbekistonda neyroxiturgik bo'limi bo'lмаган viloyat yo'qdir. Fanning bu sohasi qizg'in rivojlanmoqda, ayniqsa, oxirgi yillarda. Shu munosabat bilan neyroxiturglar aralashmog'i lozim bo'lgan kasalliklar doirasasi tobora kengayib bormoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, neyroxiturglar ilgari faqat o'tkir jarohat va asab tizimining kechki asoratlarni, bosh va orqa miya o'smalarini davolashga harakat qilar edilar. Hozirgi vaqtida markaziy va periferik asab tizimi o'smali, o'tkir bosh miya jarohati va uning asoratlari, orqa miya va umurtqa pog'onasining og'ir jarohatlari, miya insultlari, bosh va orqa miya tomirlarining anevrizmasi, asab tizimining tug'ma nuqsonlari, epilepsiya, parkinsonizm, oddiy davolashga bo'ysunmaydigan og'riq va boshqa kasalliklar muvaffaqiyatli davolamoida. Neyroxiturglar davolaydigan barcha kasalliklarni sanab o'tish mumkin emas, ular hozir juda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda maxsus neyroxiturgiya yordamini ko'rsata olmaydigan birorta ham viloyat yo'q.

Markaziy Osiyo xalqlariga, jumladan O'zbekiston uchun ham feodal-patriarxal mustamlaka tuzumi og'ir meros qoldirdi.

20–30-yillarga qadar Turkiston (hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo respublikalari va qisman Qozog‘iston hududi) o‘lkasida sog‘liqni saqlashni tashkil qilish aholining muhtojligini mutlaqo qondira olmagan. Ko‘p aholining hayotini olib ketuvchi epidemik va endemik kasalliklar juda ham keng tarqalgan edi. O‘zbekistonda neyroxiturgiya umuman yo‘q edi. Uning rivojlanishi Universitet ochilgandan so‘ng madaniyat va fanning ko‘tarilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Respublikada boshqa tibbiy-biologik fanlar bilan bir qatorda, neyroxiturgiyaning shakllanishi va rivojlanishi, tarkibiga tibbiyot fakulteti kirgan Turkiston Davlat Universitetining tashkil qilinishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Toshkentda tibbiyot fakulteti ochilishi bilan asab kasalliklari kafedrasi ham tashkil topdi. Uni tashkil etgan va uning birinchi professori Mixail Alekseyevich Zaxarchenko bo‘ldi. U kafedrada 1939-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi.

Kafedra va asab kasalliklari klinikasi tashkil qilingan davrdan boshlab, markaziy asab tizimi kasalliklari bor bemorlarni, shular qatorida neyroxiturgik bemorlarni tashxis qo‘yish va davolash imkoniyati tug‘ildi.

Markaziy asab tizimidagi birinchi operatsiyalarini M.A.Zaxarchenko qo‘l ostida Ivan Ivanovich Orlov va Mixail Sergeyevich Astrov Qizil yarim oy jamiyati xirurgik kasalxonasida amalga oshira boshladilar. Ular ayniqsa bosh va orqa miya o‘simalari bo‘yicha operatsiyalarini ko‘p o’tkazar edi.

Ikkinci jahon urishi vaqtida front orqasidagi O‘zbekistonda yaradorlarni davolash uchun tibbiy muassasalarining keng tarmoqlari tashkil qilingan edi. Temir yo‘l chizig‘idagi respublikarning hamma viloyatlarida va katta sanoat shaharlarida evakogospitallar ochilgan edi. Bular uchun eng yaxshi kasalxonalar, maktab va klublar, katta ma’muriy va boshqa binolar ajratilar edi. Gospitallarda ishlash uchun yuqori malakali mutaxassislar: Toshkent va Samarqand tibbiy institutlari, vrachlar malakasi ni oshirish institutining professor, dotsent va assistentlari ishga yuborildi.

Front orti gospitallarining asosiy maqsadi yaradorlarni faol davolash va jangchilari qatorini maksimal to'ldirishdan iborat edi. Gospitallarning ikkilamchi maqsadi – bu nogironlarni mehnat faoliyatiga qaytarishdan iborat edi.

Bizning respublika hududida joylashgan evakogospitallarda, taniqli vrachlar, Samarqandda S.M.Kirov nomidagi Harbiy tibbiy akademiya professorlari, Farg'onada I.M.Sechenov nomidagi Moskva Birinchi tibbiyot instituti professorlari va boshqalar ishlay boshladilar. Bular bilan bir qatorda O'zbekistonda yirik neyroxiurgik bo'limgar tashkil qilindi. Toshkentda bu bo'limgarlarni Toshkent tibbiyot institutining professori I.I.Orlov, Rostov-Don dan kelgan taniqli neyroxiurg P.O.Emdin boshqardi. Farg'onada neyroxiurgik xizmatni professor G.A.Rixter, Samarqandda esa doktor Yu.Ya.Kalujskiy boshqardilar.

1943-yilda professorlar I.I.Orlov, P.O.Emdin ishtirokida prof. L.Ya.Shgorodskiy tashabbusiga ko'ra asab kasalliklari klinikasi da Osiyoda birinchi marta mustaqil neyroxiurgik operatsiya xonasini tashkil qildilar. Birinchi operatsiyalarni Ivan Ivanovich Orlov Toshkent evakogospitalida tashkil qildi. Ularda professorlar P.O.Emdin va I.I.Orlovlar bilan birga shogirdlari – dotsentlar Z.A.Semenixina va A.S.Umarovlar operatsiya qilardilar.

Bu gospital tarkibida ham va 1947-yilda travmatologiya va otropediya ilmiy-tekshirish institutiga qayta shakllantirilgan, u yerda neyroxiurgiya bo'limi bor edi. Bu bo'limda P.O.Emdin, N.V.Pikover, I.N.Dimant, A.G.Tishin, A.A.Bukeyxanova-Beremjanova, M.M.Maqsudov, M.X.Qoriyev, A.S.Mirsadiqov, R.L.Volkovalar faoliyat ko'rsatishgan.

Bu bo'lim urushdan keyingi yaqtarda harbiy jarohatlar asosatlarini davolash va ularni mehnat faoliyatiga qaytarish bilan shug'ullangan. Keyinchalik, 1952-yilda dotsent A.G.Tishin Leningraddan kelganidan so'ng, bo'limda markaziy asab tizimi o'smalarini, uning yallig'lanish kasalligini, epilepsiyanini, og'riq sindromlar va boshqalarning diagnostikasi hamda davolash muammolarini o'rganish yo'lga qo'yildi. 1961-yili A.G.Tishin tib-

biyot fanlari doktori unvoniga dissertatsiya himoya qildi va professor lavozimida ishladi, 1966-yil nafaqaga ketdi. Lekin travmatologiya va ortopediya ilmiy tekshirish instituti qoshidagi ushbu bo'lim bir necha marta yopilib, professor A.G.Tishin ketganidan so'ng institutda A.S.Mirsodiqov ishladi, 1965-yili umuman yopildi va 1980-yildan boshlab neyroxiturgiya fanini pediatriya tibbiyot institutida o'qitib kelmoqda.

Asab kasalliklari kafedrasida I.I.Orlov va P.O.Emdin L.Ya. Shargorodskiy ishtirokida tashkil qilgan bo'limni 1963-yildan M.X.Qoriyev boshqarib kelgan. Bu bo'lim 1965-yilda yopilgan.

1963-yili Samarqand viloyat kasalxonasi tarkibida neyroxiturgiya bo'limi (S.D.Madiyarov) tashkil qilindi. S.D.Madiyarov pensiyaga ketgandan keyin prof. F.A.Mamadaliyev boshqardi. Bu bo'lim keyinchalik kengaytirildi va respublikaning janubiy rayonlaridagi muhtoj bemorlarga neyroxiturgik yordamni ko'rsa ta boshla.

1966-yil 26-aprel kuni Toshkent shahrida yer qimirlashi natijasida travmatologiya va ortopediya institutining binosi avariya holatida bo'lganligi sababli neyroxiturgiya bo'limi qisqartirilib, boshqa kasalxona ixtiyoriga o'tkazilgan. Keyinchalik bu bo'lim travmatologiya va ortopediya instituti tarkibidan chiqarilgan va yopilgan.

Neyroxiturgiya xizmatini uzoq vaqt yo'lga qo'yib bo'lmadi, lekin sobiq SSSR Sog'lijni saqlash vazirligining 1968-yil 8-avgustidagi №164 buyrug'i «SSSR aholisiga neyrotravmatologik yordamni yaxshilash chorasi»da asosan katta o'zgarishlar belgilandi va O'zbekiston sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan neyroxiturgik yordamni yaxshilashga qaratilgan ancha ishlar amalga oshirildi. Sog'lijni saqlash vaziri buyrug'ini bajarish asosida yangi neyroxiturgiya bo'limlari tashkil qilindi.

O'sha 1968-yili Toshkentda respublikaning onkologiya va radiologiya ilmiy tekshirish instituti tarkibida neyroxiturgiya bo'limi (M.X.Qoriyev) tashkil qilindi. 1969-yili 17-shahar kasalxona tarkibida (A.S.Mirsodiqov), 1972-yili Andijon viloyat kasalxo-

nasida esa (M.D.Do'smurodov) neyroxiturgiya bo'limlari tashkil topdi. Bu bo'limlarda mutaxassis neyroxiturglar respublika xalqiga neyroxiturgiya bo'yicha bemorlarga kasallik tashxisini to'g'ri qo'yish va davolash ishlarini olib borganlar.

1968-yilda onkologiya va radiologiya ilmiy-tekshirish instituti-da bo'lim ochildi va unga boshliq qilib M.X.Qoriyev tayinlandi. Keyinchalik, 1971-yilda M.X.Qoriyev Toshkent qurilish bosh boshqarmasining Tibbiy sanitariya qismi bazasidagi travmatologiya va harbiy dala xirurgiyasi kafedrasining mudiri qilib tayinlan-ganidan so'ng, neyroxiturgik bo'limi kafedraning bir qismi si-fatida u yerga ko'chib o'tdi.

Neyroxiturgiyaning rivojlanishida talabalarni o'qitish uchun tibbiyot institutlarining o'quv dasturiga neyroxiturgiya fanining kiritilishi katta hodisa bo'ldi.

Travmatologiya va harbiy dala xirurgiyasi kafedrasidan neyroxiturgiya bo'limi kafedra bo'lib ajratildi. Ushbu bo'lim bazasida 1979-yilda neyroxiturgiya kafedrasi tashkil qilindi, unga kafedra mudiri etib M.X.Qoriyev tayinlandi, assistentlar – tibbiyot fanlari nomzodlari Yu.F.Saburenko, G.A.Alixdajeva, N.Z.Muxamed-janov, T.I.Azarova, D.Urunov, malakali tajribali mutaxassislar – K.Z.Imamnazarov, M.T.Zaidov, D.G.Ganiyev va boshqalar edi.

1983-yilning yanvarida kafedra bazasida maxsus ixtisoslash-gan neyroxiturgiya kasalxonasi tashkil qilindi va uni boshqa-rish professor M.X.Qoriyevga yuklatildi. Respublika neyroxi-turgiya kasalxonasi tashkil qilinganining birinchi kunidanoq u neyroxiturgik kadrlar tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tashkil qilish markazi bo'lib xizmat qilmoqda va Toshkent shahri-da, hamda sanitar aviatsiyasi bo'yicha Respublika viloyatlari-da va qo'shni respublikalar – Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston hamda Asg'oniston, Dubay va boshqa viloyatlarda konsultativ yordam ko'rsatishda faol ishtirok etmoqda.

1986-yilda markaz bazasida neyroxiturglarning ilmiy jamiyatini tashkil topdi va uning yig'ilishi bir oyda 1 marta o'tkazila bosh-ladi.

Bu neyroxiturgiya manzilgohlarida yuqori malakali mutaxassislar tomonidan bemorlarga kasallik tashxisini qo'yishida hozirgi zamон tekshirish usullarini qo'llamoqdalar va davolash muolajalarini o'z vaqtida o'tkazmoqdalar.

Respublikada neyroxiturgiyaning taraqqiy etishida Rossiyaning markaziy shaharlaridagi neyroxiturgiya ilmiy tekshirish institutlarining ilmiy va amaliy yordamlarining ahamiyatini inkor qilib bo'lmaydi. Respublikada ko'zga ko'ringan malakali neyroxiturgiarning deyarli hammasi M.M.Maqsudov, M.X.Qoriyev, A.S.Mirsodiqov, S.A.Madyarov, M.D.Do'smurodov. A.M.Mamadaliyev, G.M.Qoriyev va boshqalar Rossiya va Ukraina neyroxiturgiya institutlarida B.G.Yegorov, A.A.Arendt, I.S.Babchin, V.M.Uglyumov. A.A.Shlikov, A.N.Konovalov, A.P.Romodanov, G.A.Pedachenko, Yu.A.Zozulya va boshqa olimlarning ta'limini olganlar.

Keyinchalik Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 31-dekabr 1997-yil №583 Qaroriga va Sog'liqni saqlash vazirining 7-yanvar 1998-yil №4 buyrug'iga asosan Respublika Neyroxiturgiya kasalxonasi Respublika neyroxiturgiya ilmiy markaziga o'zgartirildi. Sobiq SSSRda to'rtinchi bo'lib institut tashkil qilindi va direktor lavozimiga M.X.Qoriyev tayinlandi. Yangi bino qurilishi rejalashtirilgan. Respublika neyroxiturgiya bo'limlariiga yangi texnologiyalarni kiritish va neyroxiturgiyani rivojlantirish uchun aniq vazifalar belgilandi.

Neyroxiturgiya ilmiy markazida neyroxiturgik bemorlarni kompleks davolash ishlari olib boriladi. Ayni vaqtida bosh va orqa miya o'smalari, o'tkir bosh miya jarohati va uning asoratlari, umurtqa pog'onasi va orqa miya jarohatlari, shamollash kasalliklari va uning asoratlari, miya insultlari, bosh miya tomirlari anevrizmasi, parkinsonizm, markaziy asab tizimining tug'ma anomaliyalari, epilepsiya, diskogen radikulitlar, to'xtovsiz og'riqlar va boshqalar bo'yicha operatsiyalar o'tkazilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, barcha kerakli diagnostik manipulyatsiyalar va elektrofiziologik tekshirish usullari o'tkazilmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekiston neyroxiturglari amalga oshirayotgan ishlarining miqyosi kattadir. Oxirgi yillarda neyroxiturgiya xizmatida katta o‘zgarishlar yuz berdi, bo‘limlarning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Neyroxiturgik kasalliklarning diagnostikasi ham klassik, ham eng yangi usullarni qo‘llash yordamida olib borilmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, diagnostik jarayonlar o‘zgaradigan vaqt yetib keldi – bu xavfsizlik, og‘riqsizlik, ular beradigan ma’lumotning ko‘pligi va tezligidir. Neyroxiturgiyaning yutuqlari erta diagnostika, xirurgik davolash, parvarish va ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi uchun optimal sharoit yaratib bermoqda.

Respublikaning hamma tibbiyot institutlarida yuqori kurs talabalariga neyroxiturgiya fanini o‘qitish boshlandi. Tibbiyot institutlarining tarkibida tashkil topgan neyroxiturgiya kafedralarini va kurslarini yuqori malakali mutaxassis professorlar boshqarmoqdalar. Respublikaning shahar va viloyat kasalxonalarida bemor-larga amaliy yordamni ko‘rsatadigan malakali mutaxassislarni tayyorlash asosan neyroxiturgiya markazida, tibbiyot institutlarining neyroxiturgiya kafedralarida va kurslarida olib borilmoqda.

Albatta, respublikada neyroxiturgiyaning yutuqlari ulkan, bu Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidadir. Biz yana ham yangi usullarni, asbob-uskunalarini kiritishga harakat qilishimiz lozim.

Bolalar neyropsixologiyasi bo‘yicha ta’lim olish jarayonida, shifokor va talabalar kasalliklar hamda ularning fenotiplaridagi bir qator buzilishlari bilan tanish bo‘lishi kerak. Ko‘pincha, bolalarning ta’lim olish va ijtimoiy-hissiy faoliyatiga ta’sir qila oladigan ko‘plab boshqa shartlarga emas, aksincha kasallanishning yuqori buzilishlariga, ya’ni ta’lim imkoniyati cheklangan qobiliyat va diqqatning defitsiti, giperfaollikka urg‘u beriladi.

Baholashga va hodisalarни konseptualizatsiyaga neyropsixologik yondashuv o‘z ichiga turlicha xulq sohalaridan axborotni oladi, ular funksional nevrologik tizimlari bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Neyropsixologik baholashning asosiy dastlabki sharti

shundaki, xatti-harakatning har xil turlari turli xil nevrologik tuzilmalarning o'zaro ta'siri yoki, funksional sistemalarning maxsus vazifalarni baholashda miyaning ishlash unumдорлиги асосида келгусида miyaning yaxlitligi haqida qilingan xulosalar hisobланади.

Barcha bolalar ta'lrim olishga qodirdek tuyuladi, bu ular uchun umumiylar ta'lrim sinfida o'quv kunini katta qismi davomida, iloji boricha, bilim olishi uchun eng zo'r usul deb tuyuladi. Shu bilan birga, surunkali kasalliklar va nevrogenetik kasalliklar haqidagi ma'lumotdan ogohlilikning oshishi mayjud bo'lib, ular ushbu kasalliklar bilan kasallangan bolalarning ta'lrim natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Ta'lrim prognozida turli kasalliklarning ehti-moldagi asoratlari va holatlarini hisobga olgan holda, bu neyropsixologlar, bolalar psixologlari, maktab psixologlari va bolalar bilan ishlayotgan boshqa mutaxassislar uchun, bu kasalliklarning xarakteri va kechishi, reabilitatsiya uchun yo'nalishlar, joylashuvni va sinf modifikatsiyasi haqida xabardor bo'lish uchun muhimdir¹.

O'zbekiston neyroquirurglari kelajakka umid va ishonch bilan qarayaptilar. Ularni o'z oldilariga xalqimizga yuqori darajali va sifatli diagnostika va davolash yordam ko'rsatishini maqsad qilib qo'yishgan. Bu maqsadga erishish uchun zamonaviy asbob-uskunalardan foydalanish, davolash-reabilitatsiya bo'limlarini ochish, hamda chet ellardagi rivojlangan neyroquirurgiya markazlari bilan hamkorlik qilishni rejalashtirishgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Gretsiya va Rim imperiyasi neyroquirugiysi qanday rivojlangan?
2. Qadimgi Osiyo hududida neyropatologiya rivojlanishining o'ziga xosligi nimada?
3. X–XVIII asrlar davomida Yevropa dalatlarida neyropatologiya qanday rivojlangan?

¹ Children with complex medical issues in schools: neuropsychological descriptions and interventions / [edited by] Christine L. Castillo. p. ; cm.

4. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach neyropatologiyaning rivojlanishi qanday kechgan?

3-mavzu. Inson bosh miyasi anatomiysi, fiziologiyasi va patologiyasi

Reja:

1. Bosh miya haqida umumiy tushuncha.
2. Bosh miya bo‘limlari.
3. Bosh miya katta yarim sharlari.
4. Bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i.
5. Miya po‘stlog‘idagi markazlar.
6. Bosh miya asosiy patologiyalari.

Tayanch so‘z va iboralar: bosh miya, bosh miya bo‘limlari, katta yarim sharlar, katta yarim sharlar po‘stlog‘i, patologiya.

Asab tizimining faoliyati rivojlanishiga oid yangi prinsiplar va kashf etilgan molekulalar, endilikda olimlarga bolalik davridagi ayrim buzilishlarni yanada yaxshiroq tushunish imkonini bermoqda. O‘zak hujayralarning kashf etilishi esa turli jarohatlar va rivojlanishning buzilishi oqibatida miya va orqa miyaning yo‘qotilgan qobiliyatlarini tiklashda yangi strategiyalarni ochib bermoqda¹.

Bosh miya (encephalon) miya qutisi ichida joylashgan bo‘lib, sut emizuvchi hayvonlarda, ayniqsa, odamda yaxshi rivojlangan. U bosh miya qutisining 91–93% ni egallab turadi. Bosh miyaning individual vazni tananing vazniga bog‘liq bo‘lib, 960–2000 gr gacha bo‘ladi. Shuni aytish kerakki, bosh miyaning hajmi aqlni ifodalamaydi. Odamning aqli bosh miya po‘stlog‘i hujayralarining fiziologik xususiyatlariga^{*} kimyoviy tarkibiga va mashq qilish-qilmasligiga bog‘liq. Masalan, A.Frans degan yozuvchi bosh miyasining vazni 1017 g, tarixda Turgenyevniki 2012 g, Bayronniki 2238 g, Shillerniki 1875 g bo‘lgan.

¹ Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM. Copyright ©2005, 2006 Society for Neuroscience 1121 14th Street, NW, Suite 1010 Washington, DC 20005 USA (p.4).

Bosh miya hayvonot olamining taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan. Bosh miya bo'laklarining rivojlanishi va vaznining ortishi turli hayvonlarda turlicha bo'ladi. Masalan, baliglarda va qushlarda bosh miyaning miyacha qismi yaxshi rivojlangan. Sut emizuvchi hayvonlarda bosh miya yarim sharlari yaxshi rivojlangan bo'lib, miya sopini o'rab oladi. Evolyutsion rivojlanishda markaziy nerv sistemasining ayrim qismlari tabaqalanib boradi. Bu bo'linish hayvonlarning hayot sharoitiga qarab turli xil bo'ladi. Yuksak darajada tuzilgan maymunlarda va odamda bosh miyaning katta yarim sharlar bo'lagi juda rivojlangan bo'lib, bosh miya vaznining 80% ni tashkil etadi.

Bosh miya embrionning rivojlanishida dastlab miya kanalining oldida dastlabki uchta pufakcha hosil qiladi:

- oldingi;
- o'rta;
- rombsimon.

Embrion 3 haftaligida birinchi va uchinchi pufakchalar 2ga bo'linadi, natijada pufakchalar soni 5ta bo'ladi. Bu beshta pufakchadan bosh miyaning beshta qismi rivojlanadi. Birinchi pufakcha oldingi miya deyilib, bundan bosh miya katta yarim sharlari rivojlanadi. Ichidagi bo'shliq yon qorinchalarga aylanadi. Ikkinci pufakcha oraliq miya deyilib, bundan ko'rish bo'rtiqlari, bo'rtiq osti qism rivojlanadi. Ichidagi bo'shliq 3-qorinchaga aylanadi. Uchinchi pufakchadan o'rta miya rivojlanadi. Ichidagi bo'shliq Silviyev kanaliga aylanadi. To'rtinchi pufakchadan keyingi (orqa) miya rivojlanadi. Beshinchi pufakchadan uzunchoq miya rivojlanadi. 4–5-pufakchalar bo'shilg'i 4-qorinchaga aylanadi.

Embrion 5 oyligida bosh miya katta yarim sharlarida egatchalar – chuqurchalar hosil bo'la boshlaydi. 6 oylikda yarim sharlar bosh miya sopini o'rab turadi.

Yangi tug'ilgan bolada barcha nerv hujayralari bo'ladi. Lekin ular mayda, anatomik-fiziologik jihatdan rivojlanmagan bo'ladi. Neyronlar o'sib, yiriklashib, o'simtalarini, shaklini o'zgartirib boradi. Nerv tolalari mielinlashib boradi, ko'rish, muvozanat va

eshitish analizatorlarining mielinlanishi ona qornida boshlanib, bola tug'ilganidan so'ng birinchi oylarda tugaydi. Bolaning hayoti davomida bosh miya hujayralari ajralib, alohida nerv markazlari shakllanib, rivojlana boradi. Yangi tug'ilgan bola bosh miyasining vazni o'rta hisobda 350–390 g bo'ladi. U bir oylik bo'lganda 450 g, bir yoshida 700–800 g, 7 yoshida o'g'il bolalarda 1260 g, qizlarda 1190 g bo'ladi.

Bosh miyaning vazni 20–30 yoshda eng katta bo'lib, so'ng asta-sekin kamaya boradi.

Bosh miya bo'limlari.

Bosh miya kelib chiqishi, tuzilish xususiyatlari va funksional ahamiyatiga ko'ra 2 qismga bo'lib o'rganiladi:

- miya ustuni;
- bosh miya katta yarim sharlari.

Miya ustuniga: uzunchoq miya, ortqi miya, o'rta miya va oraliq miya kiradi.

Uzunchoq miya (medulla oblangata) orqa miyaning uzviy davomi bo'lib, birinchi bo'yin umurtqasidan yuqoriroqda joylashadi va Varoliyev ko'prigiga ulanib ketadi. Orqa qismi orqa miya tuzilishiga o'xshaydi. Orqa miyadan oldingi va orqa, o'rta hamda yon qismlari bo'ylab o'tgan egatlar uzunchoq miyada davom etadi, ichida esa markaziy kanali joylashadi. Orqa miyada ventral va dorsal orqa miya nervlari chiqadi. Uzunchoq miyaning old va orqa tomonida joylashgan o'rta egat uni ikki pallaga ajratadi. Har ikkala palla esa o'z navbatida orqa tomonidan o'tgan yonbosh egatlar orqali tizimchalarga ajraladi. Uning ventral qismini olivalar, dorsal qismini miyachanining pastki yoki orqa oyoqchalari tashkil etadi. Olivalar tuxumsimon bo'lib, nerv hujayralaridan tashkil topgan. Ularning vazifasi tanani tik tutib turishdan iborat. U juda ko'p o'tkazuvchi yo'llar orqali miyachaga bog'langan bo'ladi. Miyacha oyoqchalari nerv tolalaridan iborat. Ular yuqoriga ko'tarilib, to'rtinchi qorincha pastki burchagining yonini chegaralaydi. Bu qism rombsimon chuqurlik deb nomланади. Uzunchoq miyaning yon ustunlaridan ketma-ket til osti – XII juft, qo'shim-

cha – XI juft, adashgan – X juft, til-tomoq – IX juft bosh miya nervlarining ildizi chiqadi. Uzunchoq miyaning dorsal tomonida orqa kesikning ikki yonida orqa miyadagi nozik, ponasimon to'dalarning davomi bo'lgan orqa ustuncha joylashgan. Orqa miyadagi kulrang modda uzunchoq miyada tarqoq holda joylashgan bo'lib, bu moddaning kam qismi rombsimon chuqurchaning tubida bo'ladi. Uning ko'p qismi uzunchoq miya yuzasida tarqalgan bo'lib, uzunchoq miya yadrolari deb nomlanadi. Agar uzunchoq miya shikastlansa, odam yoki hayvon o'ladi.

Ortqi miya (metencephalon)ga Varoliyev ko'prigi (pons varoli) va miyacha (cerbellum) kiradi. Varoliyev ko'prigi uzunchoq miyaning davomi bo'lib, ventral yuzasi qavariq, pastdan uzunchoq miya, yuqoridan o'rta miya bilan chegaralangan. Ko'priknинг dorzal yuzasi to'rtinchi qorinchaga qaragan bo'ladi. Uzunchoq miya kabi Varoliyev ko'prigi ham kulrang moddalardan tuzilgan. Ko'priknинг kulrang moddasida V–VII juft bosh miya nervlarining tanasi va ko'priknинг xususiy tanasi joylashgan. Ko'priknini uzunchoq miyadan ajratuvchi chuqurlikdan VIII juft eshituv, VII juft yuz, VI juft uzoqlashtiruvchi bosh miya nervlari chiqadi. Ko'prikn asosan ko'tariluvchi va tushuvchi o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Tushuvchi yo'llar piramidasimon to'dadan, chiquvchi yo'l medial qovuzloqdan iborat. Ko'priknинг ko'ndalang tolalari miyachaning o'rta oyog'ini hosil qilib, ko'priknini miyacha bilan bog'laydi.

Miyacha (cerebellum) o'ng va chap yarim sharlardan iborat bo'lib, ular chuvalchangsimon qism bilan birikkan. Miyacha bosh miya yarim sharlari bilan parallel rivojlanadi. U odamda yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Miyacha kalla ichki asosining pastki ensa chuqurligida, katta miya yarim sharlari ensa qismining tagida joylashgan bo'lib, vazni 150 g. Miyachaning yuzasida yoysimon egat va pushtalar bo'lib, egatlar miyachani bo'laklarga ajratadi. Miyachaning 3 juft: yuqorigi, o'rta va pastki oyoqchasi bo'ladi. Yuqorigi oyoqchasi miyachani to'rt tepalik va miya yarim sharlari bilan, o'rta oyoqchasi ko'prikn bilan, pastki oyoqchasi uzun-

choq miya va orqa miya bilan bog'laydi. Agar miyacha kesilsa, uning ustki qismi yupqa kulrang moddadan tuzilganligi va 2 qavat (donachali va yulduzchali) hujayralari ko'rinadi.

Kulrang modda tagida oq modda joylashgan, uning nerv tolalari daraxt bargining tomirlari kabi tarqalgan. U hayot daraxti deb ataladi. Oq modda orasida to'rt juft tana — tarqoq holdagi kulrang modda uchraydi.

Miyachaga bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining peshana, ensa va chakka bo'llimlaridan nerv tolalari kiradi. Miyacha tanadagi retseptorlardan dahliz nervi tanasidan, bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'idan impulslar qabul qiladi va ba'zi muskullar koordinatsiyasida hamda muskullar tarangligini saqlashda ishtirok etadi. Keyingi tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, miyacha da muhim vegetativ nerv markazlari joylashgan.

O'rta miya (mesencephalon) Varoliyev ko'prigi yuqorisida joylashgan bo'lib, unga to'rt tepalik, miya oyoqchalari va Silviyev kanali kiradi. To'rt tepalik (**corpus guatriqeminum**) to'rtta bo'rtiqli plastinkadan iborat bo'lib, miya sopining orqa yuzasida joylashgan.

Har bir tepalikdan bir tutamdan nerv tolalari chiqadi. To'rt tepalikning yuqorigi ikkitasida ko'rish ta'sirlarini oriyentirovka qiluvchi nerv markazlari joylashgan. Bu ikki bo'rtiq oraliq miyadagi tizzasimon tana bilan bog'langan. Pastki ikkita tepalikda eshitish ta'sirlarini oriyentirovka qiluvchi nerv markazlari joylashgan. To'rt tepalikdan uni orqa miya bilan bog'lovchi (tektospinal) yo'l boshlanadi. Tuban darajada tuzilgan umurtqali hayvonlarda ikkita tepalik bo'lib, agar u shikastlansa, ko'rish funksiyasi butunlay yo'qoladi. Miya oyoqchalari (**perdunculi cerebri**) ikkita yo'g'on nerv tolalari boylamidan iborat bo'lib, o'rta miyaning oldingi qismini qoplab turadi. Miya oyoqchalari uzunchoq miya va Varoliyev ko'prigini miya yarim sharlari bilan bog'laydi. Miya oyoqchalarining lateral tomonida ko'rish nervining yo'li joylashgan. Miya oyoqchalarining pastki qismi asosi, ustki qismi qopqog'i deyiladi. Miya oyoqchalarining asosi va qopqog'i pigmentlarga boy bo'lgan

tana bilan ajralib turadi. Qora tana odamda yaxshi rivojlangan. Miya oyoqchasingin asosida quyidagi o'tkazuvchi yo'llar joylashgan: piramida yo'li – ko'prik orqali orqa miyaga yo'nalgan bo'la-di, ko'prik – miya po'stlog'i yo'li, miya po'sti – yadro yo'li.

Miya oyoqchalarining qopqog'i uzunchoq miya ko'prigining davomi bo'lib, filogenetik kelib chiqishiga ko'ra juda qadimiy tu-zilishga ega. Miya oyoqchalari qopqog'ida g'altaksimon va ko'z soqqasini harakatlantiruvchi nervlar tanasi joylashgan. Sivil-yev kanali atrofidagi kulrang moddadan orqa miyaga tushuvchi, orqadagi uzunasiga yo'nalgan o'tkazuvchi yo'llar to'dasi boshlanadi. Bu to'daga ko'zni harakatlantiruvchi uchinchi, to'rtinch va oltinchi nerv tolalari ham kiradi. To'rt tepalikning pastki bo'rtiqlari chegarasida miyacha yuqori oyoqlarining tolalari ke-sishadi, so'ng ular qizil yadrodagи hujayralarda tugaydi. Bir qismi esa oraliq miyadagi ko'rish bo'rtiqlariga boradi. Miya oyoq-chalarining qopqog'i tarkibidagi sezuv nervlaridan eng muhim medial qovuzloq hisoblanadi. U uzunchoq miyadagi nozik va po-nasimon o'tkazuvchi yo'llar tanasidan boshlanadi.

Lateral o'tkazuvchi yo'l tarkibiga eshitish, sezish nervi kiradi. Bu yo'l to'rt tepalikning ikkita pastkisida tugaydi.

Oraliq miya (diencephalon) bosh miya yarim sharlari bilan qoplangan bo'lib, unga ko'rish bo'rtiqlari, bo'rtiq osti va tizzasi-mon tana kiradi.

Ko'rish bo'rtiqlari (thalamus opticus) katta ellips shaklida-gi kulrang modda to'plamidan iborat bo'lib, pastki yuzasi past-ki bo'rtiq osti qismiga, lateral yuzasi miya katta yarim sharlari-ga tutashgan, medial qismi uchinchi qorinchaning yon devorini hosil qiladi. Ko'rish bo'rtiqlari yuqori qismining medial yuzasi-da hid bilish nervlari joylashgan. Ko'rish bo'rtiqlari guruhashgan hujayralar tanasidan iborat. Bu hujayralar tanasida orqa tepalik, medial qovuzloq, uchlamchi nerv yo'li va miyacha yuqorigi oyoq-chasingin o'tkazuvchi yo'llari tugaydi.

Oldingi tanada hid bilish, ta'sirni o'tkazuvchi, so'rg'ichsimon, talamik yo'l tugaydi. Ko'rish bo'rtiqlarining pastki yostiqcha qis-

mida ko'rish nervi yo'lining bir qismi tugaydi. Ko'rish bo'rtiqlari tanadagi barcha sezuv nervlarining markazi hisoblanadi. Ularning orqa qismida ko'rish po'stloq osti markazi bo'lgan medial tizzasimon tana va eshitish po'stloq osti markazi va lateral tizzasimon tana joylashgan.

Bo'rtiq osti qismi (hypothalamus) oraliq miyaning bir qismi bo'lib, bosh miyaning asosida yaxshi ko'rindi. Bu qismning orqa qismi ikkita so'rg'ichsimon tanani tashkil qiladi, bu yerda oxirgi miyaning hid bilish nervi tugaydi. So'rg'ichsimon tana hujayralarining tolasi so'rg'ichsimon talamik yo'l hosil qilib, bu yerdan hidlash yo'li ko'rish bo'rtiqchalarigacha boradi. So'rg'ichsimon tananing oldingi tomonida kulrang tepacha joylashgan bo'lib, u biroz torayib, voronkaga aylanadi. Voronkada gipofiz bezi osilib turadi. Kulrang tepacha vegetativ markaz bo'lib, uning oldida ko'rish nervlarining II jufti kesishib, ko'rish yo'liga aylanadi. Bo'rtiq ustidagi qism hid bilish impulsleri bilan kam bog'langan, u epifiz bilan bog'langan o'tkazuvchi yo'llardan iborat.

Bo'rtiq orti qismi bir juft tashqi, ichki tizzasimon tanadan iborat bo'lib, bu qismda qizil yadro va qora substansiyaning oldingi qismlari joylashgan. Bundan tashqari, orqa qismida ichki organlar funksiyasiga bog'liq bo'lgan juda ko'p vegetativ markazlar bor.

Bosh miya katta yarim sharlari.

Bosh miya katta yarim sharlari (**hemispheria cerebri**) ikkita yarim shardan iborat bo'lib, bosh miyaning eng rivojlangan qismidir. Ikkita yarim shar bir-biri bilan gorizontal plastinka, qadoqsimon tana orqali birikadi. Har bir yarim sharning miya qopqog'i, hid bilish miyasi, asosiy markaziy bo'laklari va ikkita yon qorinchasi bo'ladi. Ikkita yarim shar bir-biridan uzunasiga ketgan yoriq bilan ajraladi. Yarim sharlarning ustki yuzasida juda ko'p pushta va egatchalar bor. Bu egatchalar hosil bo'lishi haqida har xil nazariyalar mavjud. Har bir yarim sharning tashqi, ichki va pastki yuzasi bo'ladi.

Miya yarim sharlarining katta egatchalari uni beshta:

- peshana;

- tepe;
- ensa;
- chakka;
- orolcha bo'laklariga ajratadi.

Silviyev egatchasi miya yarim sharlarining asosidan boshlanib, orqaga va biroz yuqoriga ko'tariladi, miya katta yarim sharlarning chakka bo'lagini boshqalardan ajratadi.

Roland yoki **markaziy egatcha** miya yarim sharlarining yuqorigi chetidan, Silviyev egati tomon pastga qarab yo'nalgan bo'lib, katta yarim sharlarning peshana bo'lagini tepe bo'lagidan ajratadi. Shuningdek, ensa — tepe egatchasi katta miya yarim sharlarining orqa tomonida ko'ndalang yo'nalgan bo'lib, ensa bo'lagini tepe bo'lagidan ajratadi. Har qaysi bo'lakda mayda egatchalar bo'lib, ular pushtalar yordamida bir-biridan ajraladi. Katta miya yarim sharlarining orolcha bo'lagi Silviyev yorig'ining chuqurligida yotadi, peshana, tepe, chakka bo'laklari bilan o'rالgan bo'ladi.

Peshana bo'lagida to'rtta: oldingi markaziy, yuqorigi, o'rta va pastki pushtalar bo'ladi. Oldingi markaziy pushta Roland egatining oldida joylashgan, qolgan uchtasi ko'ndalang joylashgan. Tepa bo'lagida uchta: orqa markaziy va ikkita ko'ndalang pushtalar ajratiladi. Chakka bo'lagining yon yuzasida uchta, pastki yuzasida esa ikkita pushta ajratiladi. Ensa bo'lagida uchta kichikroq pushta bo'ladi.

Bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'i.

Bosh miya katta yarim sharlarining kulrang moddasi bosh miyaning yuza qismida joylashgan bo'lib, u **miya po'stlog'i** deb nomlanadi. Miya po'stlog'i nerv hujayralari tanasining to'plamidan tuzilgan 2–4 mm qalinlikda bo'ladi. Miya po'stlog'i bosh miya katta yarim sharlari egatchalari ichiga ham o'tib, 2200 mm yuzani hosil qiladi. Bu yuzaning $\frac{1}{3}$ qismi egatcha hisobiga hosil bo'ladi, $\frac{2}{3}$ qismi erkin yuza hisoblanadi.

Bosh miyaning katta yarim sharlar po'stlog'i filogenetik jihatdan uning eng so'nggi qismi hisoblanadi. Po'stloq hujayralarida tashqi va ichki ta'sirni qabul qilish, analiz qilish, sintez qilish prot-

sesslari va unga javob reaksiyasi hosil bo'ladi. Miya po'stlog'ida hosil bo'lgan impulslar ixtiyoriy harakatlarni vujudga keltiradi.

Miya po'stlog'idagi hujayralar joylashishi va shakliga qarab 6 qavat, ba'zi qismlarda undan ham ko'p (ensa 9 qavat) bo'ladi. Eng ustki bиринчи qavat molekulyar qavat deyilib, u mayda neyrogliya hujayralari va boshqa qavatda joylashgan nerv hujayralari o'simtasidan iborat. Ikkinchchi qavat tashqi donachali qavat deyilib, u zich joylashgan yumaloq va ko'p burchakli mayda nerv hujayralaridan tuzilgan. Uchinchi piramidasimon qavati turli hajmdagi piramidasimon hujayralardan tashkil topgan. To'rtinchchi qavat donador ikki qavat bo'lib, mayda hujayralardan tashkil topgan. Beshinchisi tugunli qavat bo'lib, unda yirik piramidasimon hujayralar joylashgan. Miya po'stlog'ining ba'zi qismlari juda yirik nerv hujayralaridan tashkil topgan. Oltinchi qavati duksimon va piramidasimon hujayralardan iborat bo'lib, har xil shakldagi hujayralar qavati deyiladi. Ba'zan bu qavat ikkiga, ya'ni duksimon va piramidasimon qavatga bo'lib o'rganiladi. Miya po'stlog'ining hidlash qismida hujayralar besh qavat bo'ladi.

Ba'zi mualliflar ma'lumotiga ko'ra, miya po'stlog'i hujayralarining umumiyligi soni taxminan 14 mlrd ga yetadi. Piramidasimon hujayralar harakat hujayralari bo'lib, uzun o'simtalari — aksonlari muskullarga impuls o'tkazadi. Yulduzsimon hujayralar esda saqlash nerv protsesslarining almashinishida ishtirok etadi. Duksimon hujayralar po'stloq ichiga qochuvchi sistemalar bilan bog'laydi. Miya po'stlog'ining yuqori qavatlarida uzun o'simtali hujayralar bo'lib, ular miya yarim sharlarining oq moddali qismiga o'tib, miya po'stlog'ining turli qismlarida va miya yarim sharlaridagi markazlarni bir-biri bilan bog'laydi. Katta o'simtali hujayralar miya po'stlog'idagi markazlarni bir-biri bilan bog'laydi. Shunday qilib, odam bosh miya po'stlog'i tuzilishining hayvonlar bosh miya po'stlog'iga qaraganda takomillashganligi, murakkabligi mayda o'simtali hujayralarining ko'pligiga, miya po'stlog'i hajmining kattaligiga, turli markazlarni bog'lovchi assotsiativ nerv hujayralarining rivojlanganligiga bog'liq.

Miya po'stlog'idagi markazlar.

Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ini juda ko'p olimlar teksirib, miya po'stlog'ida ta'sirni qabul qilib olish harakat va assotsiativ funksiyalar bajarilishini aniqlaganlar. Hayvonlarda bosh miya po'stlog'i ayrim qismlarini olib tashlash va shartli reflekslar metodi bilan olingen ilmiy ma'lumotlar natijasida miya po'stlog'ida tashqi dunyodagi ta'sirlarni qabul qiluvchi va organizmda turli funksiyalarning nerv markazlari joylashganligi isbotlangan. Miya po'stlog'ida nerv markazlari juda ko'p bo'lib, bular morfologik, fiziologik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Uning ensa qismida ko'rish ta'sirlarini qabul qilib oladigan ko'rish markazi (19) joylashgan, chakka bo'limida Kortiyev organidan kelayotgan ta'sirni qabul qilib oluvchi eshitish markazi (41,42), oldingi markaziy pushtada harakat nerv markazlari (6), keyingi markaziy pushtada sezishning oliy markazi joylashgan. Bulardan tashqari, miya yarim sharlarining 44–45, 6, 39, 41–42-qismlari bilan bog'langan nutq-eshitish, nutq-harakat, nutq-ko'rish va boshqa analizatorlarning yozma va og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lgan markazlari joylashgan.

Bazal hujayralar (asos yadrolari) filogenetik jihatdan qaraganda miya po'stlog'idan oldin paydo bo'lgan yirik yadrolardir. Bularga:

- dumsimon;
- yasmiqsimon;
- ihota (to'siq);
- bodomsimon yadrolar kiradi.

Dumsimon yadro ko'rish bo'rtig'ini oldindan, yuqoridan va yondon o'rab turadi.

Yasmiqsimon yadro ko'rish bo'rtiqlaridan tashqarida joylashgan bo'lib, uch qirrali piramida shaklida bo'ladi. Bosh miya katta yarim sharlaridagi bu yadrolar eng muhim harakat yadrolari hisoblanadi.

Bosh miya asosiy patologiyasi.

Bosh miya kasalliklarini o'z navbatida 2 guruhga bo'lib o'rghanish mumkin:

1. Bosh miyaning tug'ma kasalliklari.

2. Bosh miyaning inson hayoti davomida orttirilgan kasalliklari.

Bosh miyaning tug‘ma kasalliklariga:

- Gidrosefaliya;
- Ensefalopatiya;
- Anensefaliya;
- Bosh miyaning tug‘ma nuqsonlari (o‘smlar, yetishmovchiliklar va h.k.).

Gidrosefaliya atamasi grekcha gidrosistem — suv ma’nosini beruvchi so‘zdan va kefal — bosh ma’nosini beruvchi so‘zdan olin-gan. Bosh miyadagi orqa miya suyuqligi (likvor)ning haddan ortiqligini bildiradi. Qoidaga ko‘ra, qorincha sistemasining ba’zi qismlaridagi delatatsiya borligi va miya ichi suyuqligining oshishi qanday yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Gidrosefaliyaga olib keluvchi Under-stand mexanizmlari bosh miyadagi tayanch qorincha sistemasi tushunchasi uchun zarur. Qorincha sistemasi to‘rtta g‘ovak bo‘shliqdan iborat (ya’ni qorinchalar) bo‘lib, ular bir-biri bilan kanallar (ya’ni cho‘zinchoq) yordamida bog‘langan. Miya ichi suyuqligi — bu tiniq suyuqlik bo‘lib, qorinchada joylashgan tomir to‘qimasi hisoblanadi. Miya ichi suyuqligi bir qancha funksiyalarga ega. Shu jumladan, miyani yumshatib, uni shokdan himoyalaydi. Uni oziq moddalar bilan ta’minlaydi va markaziy nerv sistemasining umumiy harakatini boshqaradi, ishlab chiqarish chiqindilarini yo‘q qiladi va bioximikatlarni yetkazib beradi. Gidrosefaliya tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin, shu bilan birga rivojlanishning har xil bosqichida sodir bo‘ladigan tibbiy sharoitlar ham gidrosefaliyaga olib kelishi mumkin. Shunday qilib gidrosefaliyaning o‘zi kasallikning o‘ziga xos subyekti hisoblanmaydi.

Kasallik alomatlari:

- Miya ichi suyuqligi haddan ortiq o‘zgarishi, miya ichki bosimi oshishining ikkilamchi alomatlari.
- Yosh kasallik kelib chiqish sabablariga bog‘liq. Chaqaloqlarda kattalarga nisbatan miya ichi suyuqligi bosimi boshqacha, miya suyaklarini birlashtiruvchi choklar hali berk bo‘lmaydi va o‘sib

borayotgan miya ichi suyuqligining joylashishi uchun kengayishi mumkin.

- Shunday qilib bolalarda gidrokefaliyaning keng tarqalgan alomatlari bu – boshning odatdan tashqari katta hajmga egali-gi va boshning noodatiy o’sib ketishi (acceleration). Yana bir alomatlari – uyquchanlik, asabiylilik, qayt qilish va shaytonlashdir. Katta yoshdagি bolalar bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, ko‘z nervi diskining kattalashuvi, ko‘rishning noaniqligi, diplopiya (ikkita ko‘rish). Balansning buzilishi, harakat va yurishning o‘zaro mos emasligi, siyidik tuta olmaslik, bo‘sashish kabilar ko‘p kuzatiladi. Bundan tashqari, shaxsiy va kognitiv o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin¹.

Kasallikning kelib chiqishi va tarqalishi.

Gidrosefaliyaning ikkita asosiy turi bor: obstruktiv va muloqot. Obstruktiv gidrosefaliyada miya ichi suyuqligi drenaji qorincha sistemasining qaysidir paytida sodir bo‘ladi. Nerv trubasining yetishmovchiligi bilan bog‘liq ko‘pgina buzilishlar, shu jumladan umurtqa pog‘onasining yorig‘i obstruktiv gidrosefaliya bilan bog‘liq. Bundan tashqari, obstruktiv gidrosefaliya miya o‘smasi holatlarida, ayniqsa miya tanasi, orqa miya chuqurchasi o‘smasi, shuningdek, aque-ductal stenozi, uchinchi va to‘rtinchи qorinchalarni bog‘lovchi se-rebral kanallarning torayishida uchrashi mumkin. Gidrosefaliyada orqa miya suyuqligi oqimining tiqilib qolishi, miya ichi suyuqligining qorinchani tark etishi, miya ichi suyuqligi ishlab chiqarishni ikkilamchi o‘sishi yoki miya suyuqligining normal so‘rilishi pasayishida sodir bo‘ladi. Masalan, ba’zi bir o‘smalar, tomir to‘qimalari papillomalari va karcin to‘qimalari miya suyuqligining oshib ketishiga olib keladi. Bolalarda gidrosefaliya 30% holatlarda muloqot, qolgan holatlarda esa obstruktiv hisoblanadi.

Bundan tashqari ikkita boshqa atama odatda de-scribe gidrosefaliya uchun ishlatiladi. To‘xtatib qolningan gidrosefaliya shunday

¹ Children with complex medical issues in schools : neuropsychological descriptions and interventions / [edited by] Christine L. Castillo. p. ; cm.

holatlarga tegishliki, chanoq ichki bosimining oshishi davridan so'ng qorincha tizimi muvozanatini o'rnatish yoki jarrohlik yo'li bilan yoki ichki sabab tufayli yuz berishi mumkin. Bunday compensated yoki nonprogressive gidrosefaliya kabi atamalar kopincha bu holatlarni tasvirlash uchun ishlataladi. Adabiyotda normal gidrosefaliya uchun boshqa atamadan foydalaniлади. Historically xulosasiga ko'ra, yoshi katta bemorlarda yurish muammosi hamda siyidik tuta olmaslik bilan bog'liq. Ba'zi mualliflarning qayd etishicha, bu surunkali gidrosefaliya atamasining ta'rifи faol, lekin sekin o'sib boruvchi jarayon bo'lib, bolalikdan mavjud bo'ladi.

Gidrosefaliya bilan bog'liq tibbiy sharoitlar.

Tug'ma holatlar.

Chaqaloqligida gidrosefaliya aniqlangan bolalar uchun common etiologiyasi asab tizimi nuqsoni, Dendi-Uoker sindromi va aqueductal stenozini o'z ichiga oladi. Ko'pincha encountered nerv kanali nuqsoni umurtqa pog'onasi yorig'i hisoblanadi. Belning bifidi har qanday tug'ma holatlarga tegishli bo'lib, umurtqa suyagining kerakli tarzda berkilmaganligidir. Umurtqa pog'onasi yorig'inining jiddiy turi meningomyelocele bo'lib, bunda orqa miya umurtqa orqali chiqib keladi. Bu tashxisga ega 75% bolalarda gidrosefaliya mavjud (Reigel & Rotenstein 1994).

Asab buzilishidagi naychaning berkilib qolishi tug'ma miya porogida Dendi-Uoker sindromi gidrosefaliya bilan bog'liq (Menkes & Till, 1995). Bu shart-sharoit 1\ 25 000 dan 35 000 gacha taxmin qilinadigan tug'ruqqa to'g'ri keladi (Hirsch, Рене, Сент-Роз, Xonne Hirsch, 1984).

Dendi-Uoker sindromi chuvalchangsimon o'simtalar to'liq yoki qisman norasolik (ya'ni yetarli bo'limgan yoki butunlay yo'qligi), to'rtinchи qorinchaning kengayishi va orqa chanoq chuqurchasining kengayishi bilan xarakterlanadi.

Qadoqli tananing to'liq yoki qisman ageneziyasi ko'pincha mavjud. Taxminan 75% dan 80% gacha bolalar gidrosefaliyasini qayta ko'rib chiqish mumkin.

Orttirilgan holatlar.

Muddatidan oldingi tug'ruq va tug'ilishdagi tananing juda ham past vazni intraventricular qon quyulishining xavfi hisoblanadi (ya'ni qorincha atrofida yoki ichida qon quyilishi). U turli og'irlilik darajasida ro'y berishi mumkin. Ba'zi holatlarda qon mahsulotlarini qorinchaga to'lishi natijasida miya ichi suyuqligining tiqilishiga olib keladi. Meningit kabi infeksiyalar suyuqlik to'planishi oqibatida gidrosefaliya bilan bog'liq holat ro'y beradi. Tasodifan shikastlanish (go'dakning qattiq silkinishi sindromi) ham gidrosefaliyaga olib keladi. Bu holatlarda gematomalar (ya'ni qon quyulishining ikkilamchi to'planishi) miya yoki qorincha sistemasining boshqa sohalarida suyuqlik o'tkazishini siqadi. Kichik yoshdagi bolalarda uchraydigan o'smaning kam tarqalgan turi — xoriod papilloma ham gidrosefaliyaga olib keladi. Bu holatlarda miya ichi suyuqligining qayta ishlab chiqilishi ko'proq kuzatiladi, qorincha sistemasining ifloslanishi secondary o'sma vazniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Davolash.

Shuntlash-neyroxiturgiyaning texnikasi bo'lib, miya ichi suyuqligi qarshiligini kesib o'tish va suyuqlikni naycha yordamida olish va miya ichi bosimini saqlab turishga erishiladi. Pediatriya holatlarda ko'p tarqalgan davo turi bu ventrikuloperitoneal shunt deb ataladi. Bunda qorincha yon tomonidan ko'krak qafasi bo'ylab kateter qo'yiladi. Klapan orqa miya suyuqligi oqimini boshqaradi.

Asosiy xavflardan biri shuntning joylashishi bo'yicha sodir bo'ladigan infeksiya hisoblanadi. Odatda reported 10% shunt bilan davolanuvchilarda uchraydi. Bundan tashqari, bolalarning infeksiya oqibatidagi shuntni qayta ko'rib chiqishni, birikishning uzilishi yoki birlashishni talab etadi. Shved tadqiqotlariga qara-ganda deyarli 2/3 qismi oz miqdorda bitta qo'shimcha muolaja talab etadi.

Neyropsixologik natijalarga ta'sir etuvchi faktorlar.

Gidrosefaliya bosh miya ikkala qobig'i va miya osti qobig'ini diffuz shikastlaydi. Ba'zi suggestion borligiga qaramay, bolalikda

gidrosefaliyaga uchraganlarda miyaning orqa qismlari ko‘p miqdorda zararlanadi. Yon qorinchalarning orqa tomonida joylashgan ensa shoxi boshqa sistema qismlariga qaraganda tez sur’atda kengayishi mumkin. Bu esa miya siqilishiga olib keladi. Miyaning kulrang moddasi tananing nerv katakchalaridan iborat bo‘ladi. Oq modda esa miyelinizatsiyalangan akson neyronlardan tashkil topadi, neyronlar orasidagi impulslarni yetkazib berishga yordam beradi.

Oq moddani tekshiruvchi asbob o‘tkir gidrosefaliyada bosh miyadagi oq modda traktining siqilishini aniqlab beradi. Qhet el adabiyotlarida ta’kidlanishicha gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalarning ko‘p qismida kasallikning tug‘ma formalari ham uchraydi. Masalan, umurtqa pog‘onasining yorig‘i miyelomeningocele.

Umumiy neyropsixologik xulosalar.

Standartlashtirilgan testda gidrosefaliya bilan og‘rigan ko‘pgina bolalar o‘rtacha diapazonda IQ bo‘yicha umumiy baho olishadi. Gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalarda fikrlash qobiliyatining noverbal emas, balki verbal qobiliyati yaxshi rivojlangan. Yuqorida aytilgan oq moddaning diffuz yetishmovchiligi orqa miyaning effekt qo‘shilishi funksiyasi bilan bog‘liq. Fletcher va uning hamkasblari aytib o‘tganlaridek (2000), gidrosefaliya yuqorida sanab o‘tilgan hollatlarning yarmida to‘g‘ri tasniflanadi. Gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalar yozuv va og‘zaki nitqni yomon tushunadi. Shunday qilib, gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalarda in-tact tayanch lug‘at boyligi va o‘qish ko‘nikmasini ifoda etish mumkin. Og‘zaki va yozma nutq o‘rtachadan past bo‘lishi mumkin. Boshqa neyropsixologik funksiyalar, shu jumladan xotira, diqqat va ma’lumotlarni qayta ishslash tezligi ham o‘rganilgan. Xotira tezligi sust bo‘ladi.

Gidrosefaliya bilan og‘rigan bemorlarda diqqatni jamlay olmaslik aniqlanadi. Diqqat yetishmovchiligi sindromi 30% ortiq hollarda umurtqa pog‘onasi yorig‘i va gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalarda ko‘p uchraydi. Gidrosefaliya bilan og‘rigan bolalarda muammolar yechimi va tushunchalar shakllanishida qiyinchiliklar kuzatiladi. Ular arifmetika, matematika kabi fanlarni

o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keladilar. Bunday bolalar aqli zaiflar guruhiga kirmasada, ularning xulq-atvorida ayrim muammolar uchrab turadi, lekin ularda hech qanday aniq ruhiy o'zgarishlar aniqlanmagan.

Ko'pincha umurtqa pog'onasi yorig'iga uchraganda bolalarda gidrosefaliya kuzatiladi. Shuni aytish kerakki, bu bolalarda jismoniy muammolar, shuningdek, nimjonlik yoki falaj, siyidik tuta olmaslik kuzatiladi. Bunday bolalar muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari va kasallik belgilari aniqlanganda tibbiy yordamga murojaat qilishlari tavsiya qilinadi.

Demografik ma'lumotlar va shart-sharoitlar.

- 12 yoshli, 5-sinfni tugatgan Iosif bolaligidan gidrosefaliya bilan og'rigan. Unda shunt paydo bo'lgan. O'sha vaqtdan beri MRT tekshiruvida ikki tomonlama ven-tricles kattalashuvi aniqlangan. Jozef har ikki holatda shunt sababli operatsiyani boshidan o'tkazgan. Har bir jarrohlik amaliyoti bosh og'rig'i kuchayishi, ko'ngil aynishi bosh miya ichki bosimining ko'tarilishi bilan kechgan. Jozef kichik xususiy xristian maktabida o'qishni boshladidi. Onasining aytishicha, u bu muhitda o'zini yaxshi his qilgan va uning o'qituvchilari Jozefning kognitiv rivojlanishida hech qanday muammoga duch kelmagan. Jozef maktabni o'zgartirdi, davlat ta'llim dasturida ishtirok etdi. Avvaliga u o'zini sinfda yaxshi his qildi. 1 chorak oxiriga kelib, sinf ishlarini bajarishda ayrim muammolariga duch keldi. Uning o'qituvchilari vazifalarini kechikib bajarishi, topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi, yozuvining xunukligi va ayniqsa matematika fanidan qiyonalayotganligiga shikoyat qildilar. Iosifning ota-onasi uy vazifalarini bajarishga juda ko'p vaqt sarflashi va tez charchab qolishini aytishdi. U vijdonli o'quvchi bo'lib, ko'p yordam va nazoratga muhtoj bo'lishiga qaramay uy vazifasini tugatishga harakat qilardi.

- Jozefga shunt o'rnatilishi tufayli unga bolaligida ko'pgina sport tadbirlarida ishtirok etish taqiqlangan. Oilasining boshqa joyga ko'chib o'tishi munosabati bilan u yerda yangi do'stlarga o'rganishi qiyin kechdi. Lekin Jozefning kayfiyati yaxshi edi.

Ko'chib o'tishgandan so'ng, onasining aytishicha u yolg'izlikdan shikoyat qilardi. Uyqu va ishtahasidan shikoyat yo'q edi. Onasining aytishicha, u narsalarini joylash va tartibga solishda xavotirga tushardi. Ilgari Jozef bosh og'rig'i va ko'ngil aynishiga shikoyat qilardi va odatda bunday holatda shunt o'rnatish talab etilardi.

Xulq-atvor kuzatuvi.

- Jozef onasi kuzatuvida bo'ldi. U test tadbirlarida qatnashishda qiyinchiliklarga shikoyat qilmadi. So'zlashuvda ham qiyinchilik sezmadni. Test kuzatuvi davomida u gapga chechan edi. Jozef esa o'zining ijtimoiy rivojlanishi pastligi va aqlan zaifligini ko'rsatdi. Umuman aytganda tekshiruvlar natijasiga ko'ra Jozefning rivojlanishini aniqlash darajasi aniq va ishonchli tanlovga mosligini ta'minladi.

Test natijalari.

- Olingan ma'lumotlarga qaraganda Jozef gidrosefaliyaning bir qator kechki belgilarini boshdan kechirgan. Jozefning verbal xotirasi kuchli bo'lishiga qaramasdan axborotning ko'payishi eshitish xotirasining yomonlashuviga olib kelgan. Uning gidrosefaliya bilan oldindan og'riqanligi axborot rivojlanish tezligi zaifligini ko'rsatdi.
- Jozef topshiriqlarni bajarishga juda ko'p vaqt sarflardi. Unda topshiriqlarni bajarishga kuchli sotsial xohish bo'lishiga qaramay, o'qishida va ijtimoiy signallarni qabul qilishda qiyinchiliklar bo'ldi¹.

Gidrosefaliya (yunon. – «hydro» – suv, «kefalon» – bosh) – bu kasallik bosh miyaning suv havzalari sistemasiga ortiqcha miqdorda miyaning serebral suyuqligi yig'ilishi bilan xarakterlanadi. Suyuqlikning yig'ilish joyida (bosh miya suv havzalari) qon tomirlar tizimiga so'rilish joyiga yerib borishi qiyinlashishi natijasida *okklyuzion gidrosefaliya*, yoki so'rilishi qiyinlashishi natijasida *arezorbtiv gidrosefaliya* rivojlanadi.

¹ Children with complex medical issues in schools : neuropsychological descriptions and interventions / [edited by] Christine L. Castillo. p. ; cm.

Gidrosefali – gidrosefaliya kasalligi bilan kasallangan odam.

Gidrosefaliyaning asosiy alomatlaridan biri bu – bosh o'lchamlarining kattalashib ketishidir. Bundan tashqari yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gidrosefaliyaning bir nechta alomatlari uchraydi. Bularga: liqildoqning bo'rtib chiqishi, boshni tutib tura olmaslik, ko'z soqqalarining pastga qarab tortilishi misol bo'ladi. Ayrim hollarda g'ilaylik, ko'rish va eshitishning yomonlashuvi, ko'ngil aynishi kuzatiladi.

Bu kasallikni oldini olish uchun ayollarni onalikka tayyorlash vaqtida yuqumli kasalliklarga chalinishdan ehtiyoj bo'lishlarini va bola tug'ilgandan so'ng turli xil neyroinfektion kasalliklarga chalinmasligini oldini olish choralar haqida tushuntirish olib borish zarur.

Ensefalopatiya (yunon. «eukefalos» – bosh miya, «patos» – kasallik yoki azoblanish) – bosh miyaning yallig'lanishlarsiz yuzaga keladigan kasalliklarining umumiy nomi (ensefalitdan tashqari) hisoblanadi. Ensefalopatiya tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Ensefalopatiyada bosh miya to'qimalarining distrofik o'zgarishi yuz beradi.

Ensefalopatiyaning ko'p uchraydigan alomatlari quyidagilar kiradi:

- xotira va hushning yo'qolishi;
- bosh og'rig'i;
- bosh aylanishi;
- depressiyalar.

Ensefalopatiyaning shunday alomatlari bilan og'rigan bemorlar asosan holsizlik, jizzakilik, parishonxotirlik, uyqusizlikdan aziyat chekadilar.

Ensefalopatiyaning turlari:

- Gaye–Vernike sindromi;
- Xasimoto ensefalopatiyasi;
- Po'stloq osti aterosklerotik ensefalopatiyasi;
- Rey sindromi;
- Toksik ensefalopatiya;

- Kreytfeldt—Yakob kasalligi.

Anensefaliya (yunon. «au» — yo‘q, «eukefalos» — bosh miya) ona qornida homilaning rivojlanmay qolishi natijasida bosh miya katta yarim sharlarining, yumshoq to‘qimalarining qisman yoki umuman yo‘qolishidir. Bu kasallik yuqumli kasalliklar, zaharli moddalar, alkogol, tashqi muhitning zararli ta’sirlari natijasida yuzaga keladi. Bu kasallikda ona qornidagi homilaning rivojlanishi ortda qolishi natijasida u 21–28 kunlik bo‘lganida nerv naylari rivojlanishi buzilishi kuzatiladi. Bunday kasallik natijasida homilaning 50% i ona qornida nobud bo‘ladi. Qolgan 50% chaqaloqlar tirik tug‘iladi va 66% chaqaloqlar bir necha soat yoki bir haftaga cha yashashi mumkin. Anensefallar orasida eng ko‘p umr ko‘rgan **Bebi Key** nomi bilan mashhur **Stefani Kin** hisoblanadi. U bu diagnoz bilan **2 yilu 174 kun** yashagan. Anensefalit alomatlari paydo bo‘lganda homiladorlikni uning muddatidan qat’i nazar to‘xtatish talab qilinadi. Anensefaliya 10000 chaqaloqdan Itasida kuzatiladi. Bu kasallik bilan asosan qiz bola chaqaloqlar kasallanadilar.

Bosh miyaning inson hayoti davomida orttirilgan kasalliklariga:

- spetsifik va nospetsifik yallig‘lanishlar;
- shikastlardan keyin yuzaga keluvchi kasalliklar;
- meningit: *sil meningiti* va *infektion meningit*;
- insult: *ishemik insult* va *gemorrogik insult*;
- altsgeymer sindromi;
- moyamoya kasalligi;
- shikastlar: *ochiq* va *yopiq*;
- bosh miyaga qon ketishi;
- bosh miyaning nevrologik kasalliklari;
- o‘smlar va boshqa turli kasalliklar kiradi.

Meningit (yunon. «menuie» — miya qobig‘i va lotin. «itis» — yallig‘lanish) — bosh va orqa miya qobig‘ining yallig‘lanish kasaligidir. Yumshoq va to‘rsimon qobiqning yallig‘lanishi — *leptomeningit* va qattiq qobiqning yallig‘lanishi — *paximeningit* farqlanadi. Meningit alohida kasallik sifatida ham, biror-bir kasallikning asosatasi sifatida ham rivojlanishi mumkin. Bosh og‘rig‘i, yorug‘likka

nisbatan o'zgarishlar (fotofobiya), bolalarda esa ko'p uqlash va holsizlik kuzatiladi. Meningitni vaqtida davolamaslik oqibatida karlik, epilepsiya, gidrosefaliya, bolalarda aqliy zaiflik kabi asosatlarga olib kelishi mumkin.

Altsgeymer sindromi – demensiyaning ko'p uchraydigan turi bo'lib, uni birinchi bo'lib 1906-yilda nemis psixiatori **Alois Altsgeymer** aniqlagan. Odatda bu kasallik 65 yoshdan yuqorilarda ko'p uchraydi, lekin undan oldin ham uchrashi mumkin. Hamma odamlarda kasallik har xil kechadi, lekin ularning hammasida bir xil alomatlar kuzatiladi. Kasallikning boshlanish davrida qisqa xotiraning pasayishi kuzatiladi. Kasallik rivojlana borishi bilan xotira, nutq va aqliy o'ylash butunlay yo'qoladi. Organizm funksiyalarining buzilishi esa o'limga olib keladi.

Moyamoya kasalligi (yapon. **tutun, tuman**) – noyob, rivojlanib boruvchi surunkali bosh miya tomirlarining kasalligidir. Bu kasallik uchun sekin-asta bosh miya ichki uyqu arteriyalari, bosh miyaning oldingi qismidagi va o'rta qismidagi arteriyalarning ular okklyuziyaga uchragunga qadar o'zgarib borishi xarakterlidir. Bu kasallikning yana bir jihatbu – miya asosida kollateral tomirlarning paydo bo'lishi natijasida angiogramma qilinganda yengil tutun hosil bo'lganga o'xshab ko'rinishidir. Aynan shu hodisa 1969-yilda kasallikka zamonaviy nom berdi. Yapon tilidan tarjima qilinganda «moyamoya» «tutun» degan ma'noni beradi.

Bosh miya kasalliklarining kelib chiqish sabablari.

Har bir kasallikning oldini olish uchun avvalo uning qanday sabablarga ko'ra kelib chiqqanligini bilish muhim ahamiyatga ega. Bosh miya kasalliklarining turiga qarab ularning kelib chiqish sabablari ham turlichcha bo'ladi.

Masalan, **gidrosefaliya kasalligining** kelib chiqish sabablaridan biri, ko'p hollarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda onaning homiladorlik vaqtida infektion kasalliklar bilan og'iganidir. Buning natijasida bolada miyaning qorinchalari funksiyasining buzilishi kuzatiladi. Orttirilgan gidrosefaliyaning sabablari bo'lib esa,

meningit, meningoensefalit, bosh miya shikastlari, intoksikatsiyalar xizmat qiladi.

Gidrosefaliyani endoskopik davolash usullari. Hozirgi kunda gidrosefaliyani endoskopik davolash jahon neyroxiturgik amaliyotida samarali usul hisoblanadi. Gidrosefaliyani endoskopik davolash usullarining turlari:

- III qorinchaning endoskopik ventikulosisternostomiyasi;
- akveduktoplasteriya;
- ventikulosisternoskopiya;
- septostomiya;
- bosh miya qorinchalari ostidagi o'smalarni endoskopiya usuli bilan olib tashlash.

Davolashning boshqa usullari hali jarrohlikda yaxshi samara-ga ega emas deb hisoblanadi.

Moyamoya kasalligining kelib chiqish sabablari hali to'lig'icha o'r ganilmagan, lekin bu kasallikning asosiy sababi qilib genetik va oilaviy sabablar ko'rsatiladi. Kasallik juda kam uchraydi. Le-kin hozirgi kunda bu kasallik AQSHda, Afrika mamlakatlarida va eng ko'p hollarda Yaponiyada kuzatilgan.

Moyamoya kasalligini davolash uchun jarrohlik muolajalari-dan foydalaniladi. Dori-darmonlar bilan davolash esa faqatgina yordamchi vazifani bajaradi, kasallik rivojlanishini to'xtatmaydi.

Jarrohlik aralashuvining asosiy maqsadi bosh miyani qon bilan yaxshi ta'minlanishiga erishishdir. Jarrohlik operatsiyasini olib borishdan oldin, bemorning bosh miyasi perfuziya qilinadi va shunga qarab jarrohlik olib boriladi.

Ensefalopatiyaning asosiy kelib chiqish sabablari:

- bosh miya shikastlari (shikastlardan keyingi ensefalopatiya);
- homiladorlik patologiyasi;
- aterosleroz, gipertonik kasallik, disirkulyatsiya;
- alkogol, og'ir metallar, dori va zaharlar orqali intoksikatsiyalar (toksik ensefalopatiya);
- narkomaniya;
- ishemiya (miyaning surunkali kislородга tanqisligi);

- diabet.

Ensefalopatiyani davolash muddati kasallik turiga qarab belgilanadi. Davolash ambulator yoki statsionar sharoitda olib borildi. Ensefalopatiyani davolash usullari quyidagilar:

- dori-darmonlar bilan davolash (gormonlar);
- blokadalar – preparatlarning kanallar bo'shlig'iga inyeksiya qilinishi;
- osteopatiya;
- fiziologik muolajalar;
- davolovchi gimnastika;
- igna bilan davolash – refleksoterapiya;
- jarrohlik muolajasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bosh miya haqida umumiy tushuncha nimadan iborat?
2. Bosh miya qanday bo'limlardan tashkil topgan?
3. Bosh miya katta yarim sharlari qanday tuzilgan?
4. Bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'i qanday tuzilgan?
5. Miya po'stlog'idagi markazlar qanday vazifani bajaradi?
6. Bosh miya asosiy patologiyalari nimadan iborat?

4-mavzu. Inson bosh miyasi po'stlog'i

Reja:

1. Miya po'stlog'ining filoontogenezi.
 2. Miya po'stlog'ining tuzilishi.
 3. Bosh miya po'stlog'ida markazlarning joylashishi.
 4. Ichki analizatorlarning po'stloqdagi markazlari.
 5. Tashqi muhit ta'sirini qabul qiluvchi analizatorlarning po'stloqdagi markazlari.
 6. Ikkinchchi signal tizimi markazlari.
 7. Bosh va orqa miyaning o'tkazuv yo'llari.
- Tayanch so'z va iboralar:** bosh miya, bosh miya po'stlog'i, filoontogenetika, markaz, ichki analizatorlar, ikkinchi signal tizimi, bosh miya o'tkazuv yo'llari.

Bosh miya po'stlog'i, inson va boshqa sut emizuvchilarda miyaning asab to'qimalaridan iborat tashqi qatlamidir. Bosh miya po'stlog'i xotira, diqqat, sezgi, tafakkur, ong va tilda muhim rol o'ynaydi. Inson bosh miyasi po'stlog'i 2 sm dan 4 sm gacha (0,079 dan 0,157 duymgacha) bo'ladi¹.

Bosh miya po'stlog'i (*cortex cerebri*) bosh miyaning muhim qismi bo'lib, juda murakkab hayotiy faoliyatni bajaradi. U organizmning hamma qismlari va tashqi muhitdan nerv yo'llari va sezgi a'zolari orqali kelayotgan ta'sirotlarni qabul qiladi, ularni tahlil qilib, bir-biriga bog'laydi (sintez). Shuning natijasida odam organizmi tashqi muhit ta'siriga moslashish xususiyatiga ega.

Miya po'stlog'inining filoontogenezi.

Amfibiyalarda miya po'stlog'i yo'q. Reptiliyalarning miya po'stlog'i juda sodda bo'lib, 2–3 qavat hujayralardan tashkil topgan.

Sut emizuvchi hayvonlarning miya po'stlog'i yarim sharlarning ko'p qismini qoplaydi va 6 qavatdan iborat.

Odamda miya po'stlog'i yarim sharlarning ko'p qismini qoplaydi va 6 qavatdan iborat.

Odamda miya po'stlog'i sekin-asta taraqqiy etadi. 2 oylik homilada po'stloq yo'q. Neyroblastlar qorinchalar ependimasi ostida joylashgan bo'ladi. Homila 3 oylik bo'lganida nerv hujayralari oxirgi miyani yuzasiga o'sib chiqa boshlaydi va po'stloq plastinkasi paydo bo'ladi. Po'stloq plastinkasi dastlab bir qavatli bo'lib, keyinchalik 6 qavatga bo'linadi. Odamning miya po'stlog'i juda yaxshi taraqqiy etgan. Uning qalinligi yarim sharlarning turli qismlarida har xil 1,25 mm dan 4 mm gacha ba'zi yerlarda 6 mm gacha. Eng qalin po'stloq markaz oldi, markaz orqa va markaz yon bo'laklari sohasida bo'ladi. Pushtalarning ustki qismida po'stloq qalin, egatlarda esa yupqa bo'ladi. Bosh miya po'stlog'i 9–14 mld. nerv hujayralarining yig'indisidan iborat bo'lib,

¹ Kandel, Eric R.; Schwartz, James H.; Jessell, Thomas M. (2000). Principles of Neural Science Fourth Edition. United State of America: McGraw-Hill. p. 324.

ular orasida nerv tolalari ham bor. Nerv tolalarining massasi po'stloq umumiy massasining 26/27 qismini tashkil qiladi. Bosh miya po'stlog'ining umumiy massasi 581 g, umumiy hajmi 560 sm³. Agar po'stloq nerv hujayralarining tanasini ajratsak, uning umumiy hajmi 20 sm³, og'irligi 21 g bo'ladi.

Bosh miya po'stlog'i: qadimiy po'stloq (*paleocortex*) va yangi po'stloqqa (*neocortex*) bo'linadi. Qadimiy po'stloqqa hid bilish miyasi po'stlog'i kirib, har xil tuzilishga ega ikki qismga: qadimiy po'stloq va eski po'stloqqa bo'linadi. Qadimiy po'stloq *paleocortex* juda sodda tuzilishga ega, qavatlarga bo'linmagan bo'lib, unga peshana bo'lagining *bulbusol factoriusga* yaqin turgan qismi kiradi.

Eski po'stloq archi cortex ancha murakkab tuzilishga ega, amмо bu yerda nerv hujayralari kam. Po'stloqning kulrang moddasi bu yerda 2–3 qavatga bo'lingan. Eski po'stloqqa dengiz oti-hippocampus, tishli, gumbaz pushtasi va uning ilmog'ining kulrang moddalari kiradi.

Yangi po'stloqqa odamning miya yarim sharlari po'stlog'i kirib, juda yaxshi taraqqiy etgan 6 qavatdan iborat. Bu qavatlar o'zaro tarkibiga kiruvchi hujayralarning shakli bilan farq qiladi.

1. **Molekulyar qavat** (*lamina molecularis*) yumshoq parda ostida joylashgan. U asosan bir-biri bilan zich to'r kabi to'qilib ketgan nerv tolalari va ular o'rtasida joylashgan kam sonli mayda nerv hujayralaridan iborat.

2. **Tashqi donador qavat** (*lamina granularis externa*). Bu qavatda juda ko'p yumaloq va uchburchak shakldagi hujayralar alohi-da-alohida donachalardek tarqoq holda joylashgan.

3. **Piramida qavatida** (*lamina pyramidalis*) kichik va o'rtalikdagidagi piramida hujayralari tarqoq holda joylashgan.

4. **Iehki donador qavat** (*lamina granularis interna*) xuddi ikkinchi qavat singari tarqoq joylangan mayda hujayralardan iborat.

5. **Tugunchali (ganglioz) qavat** (*lamina ganglionaris*). Bu qavatda kichik piramida hujayralardan tashqari, yirik Betspiramida hujayralari bo'lib, ular markaz oldi pushtasi va markaz yon bo'lagida uchraydi.

6. Har xil shakldagi hujayrali qavat (*lamina multiformis*). Bu qavatda turli shakldagi hujayralar bo‘lib, ular oq modda bilan yonma-yon turadi.

Bu 6 qavatning pastki (5–6 qavvat) efferent yo‘llarning boshlanish qismi bo‘lsa, o‘rta (3–4) qavatlar esa afferent yo‘llar bilan bog‘langandir. Yuqorigi (1–2) qavatlar esa po‘stloqning bir-biri bilan bog‘lovchi assotsiativ yo‘llarni hosil qiladi.

Yangi tug‘ilgan bolada po‘stloq yaxshi takomillashmagan bo‘lib, 2–3 yoshlarda yetiladi. Bolalikning keyingi davrlarida egat va pushtalarning o‘sishi munosabati bilan miya po‘stlog‘i yuzasi kattalashadi va tuzilishi murakkablashib ma’lum soha va maydonlarga bo‘linadi.

Bosh miya po‘stlog‘ida markazlarning joylashuvi

Bosh miya markazlari joylashuvini o‘rganish jarayonida biz organizmnинг o‘zida bo‘layotgan o‘zgarishlar va tashqi muhitning organizmga ta’siriga moslashuvida ro‘y beradigan nerv boshqaruvida qaysi markazlarning qanday ahamiyati borligini bilamiz.

Bosh miya po‘stlog‘i markazlarini I.P.Pavlov analizatorning miyadagi oxirgi qismi deb atagan. Analizator bu murakkab nerv mexanizmi bo‘lib, u tashqi qabul qiluvchi apparatdan boshlanib, miyada tugaydi. Analizator yordamida tashqi muhitning murakkab ta’siri alohida qismlarga bo‘linadi va tahlil qilinadi. Boshqa analizatorlar bilan aloqada ma’lum ish bajariladi. Miya markazi tekis chegaraga ega bo‘lmay, «o‘zak» hamda «yo‘ilgan elementlardan» tashkil topadi. **O‘zak** retseptorning po‘stloqdagi to‘g‘ri va chuqur proyeksiysi bo‘lib, yuqori tahlil qiluvchi asosiy qism hisoblanadi. **Yo‘ilgan elementlar** o‘zak atrofida joylashgan bo‘lib, ularda ancha sodda va elementlar tahlil sodir bo‘ladi. Markazning o‘zak qismi shikastlanganda yo‘ilgan elementlar ma’lum darajada o‘zakning yo‘qolgan faoliyatini qoplab turadi. Har xil analizatorlarning yo‘ilgan elementlari egallagan sohalari bir-biriga qo‘shilib ketadi. Hozirgi vaqtida miya po‘stlog‘i bir butun qabul qiluvchi yuza hisoblanadi.

I. Ichki analizatorlarning po'stloqdag'i markazlari.

1. Harakat analizatorining o'zagi markaz oldi pushtasi (**gyrus-precentralis**) va yarim sharning ichki yuzasidagi markaz yon bo'lagida (**lobules paracentralis**) joylashgan. Bu sohada harakat analizatori o'zagi hujayralari po'stloqning o'rta qismlarida yotadi. Uning chuqur qavatlarida (5–6 qavat) katta piramida (Bets) hujayralari joylashgan. Ularni I.P.Pavlov po'stloqni po'stloq osti markazlari, bosh miya nervlarining o'zaklari va orqa miyaning oldingi shoxlari bilan qo'shuvchi oraliq neyron deb hisoblaydi. Markaz oldi pushtada odam tanasining qismlari boshi pastga, oyog'i yuqoriga qaragan holatda joylashgan. Markazda tananining ayrim qismlarining egallagan sohasi turlicha bo'lib, ularning faoliyatiga bevosita bog'liq. **Qo'l, yuz, lab** mushaklarining faoliyati murakkab bo'lgani uchun, ularni boshqaruvchi markazlar tana va oyoqqa nisbatan katta sohani egallaydi. O'ng markaz tananining chap tomonini, chap markaz esa o'ng tomonini boshqaradi, chunki piramida o'tkazuv yo'li uzunchoq va orqa miyada kesishadi. Tana mushaklari, hiqildaq va halqum mushaklari ikkala yarim sharning ta'siri ostida bo'ladi.

2. Bosh va ko'zning bir vaqtida qarama-qarshi tomonga harakatini ta'minlovchi analizatorning o'zagi o'rta peshana pushtasining (**gyrus frontalis medius**) orqa qismida (harakat oldi zonasи, 9 soha) joylashgan.

3. Ma'lum bir maqsad uchun qilinadigan harakatlar analizatorining o'zagi o'naqaylarda chap yarim sharning pastki tepa bo'lakchasingin **gyrus supra marginalissida** joylashgan. Bunday murakkab harakat odam hayotida bir turdag'i ishni ko'p qaytarishi, tajriba markaz oldi pushtasi bilan chekka ustsi pushtasi o'rtasida hosil bo'ladigan vaqtinchalik aloqalar natijasida hosil bo'ladi. Bu markaz shikastlanganda mushak harakati buzilmaydi, ammo odamning ma'lum bir maqsad bilan qiladigan harakati yo'qoladi. Buni apraksiya deyiladi. Bu markaz bir tomonlama, chapaqaylarda o'ng yarim sharda, o'naqaylarda faqat chap yarim sharda bo'ladi.

4. Ichki a'zolar, qon tomirlarning silliq muskullaridan ta'sir olib keluvchi analizatorning markazi harakat markazi oldida (6, 8-sohalar) joylashgan bo'lib, markazdan qochuvchi yo'llar po'stloq osti vegetativ markazlariga boradi.

II. Tashqi ta'sirotlarni qabul qiluvchi analizatorlarning po'stloq-dagi markazlari.

1. Sezgi analizatorining markazi markaz orqa pushtada (**gyrus-postcentralis**) joylashadi. Odam tanasi qismlari xuddi harakat markazidagidek boshi pastda, oyog'i yuqorida joylashgan. Bu sohada po'stloqning **og'iz** va **qo'l** retseptorlari yaxshi taraqqiy etgani uchun po'stloqning ularga tegishli qismlari katta bo'ladi.

2. O'ng va chap ustki tepa bo'laklarida teri sezgisining bir turri, buyumlarni yopiq ko'z bilan paypaslab bilish – **stereognозия** markazi joylashgan. Bu markaz jarohatlanganda umumiyl sezgi yo'qolmagani holda yopiq ko'z bilan predmetlarni paypaslab bilish xususiyati yo'qolib ketadi (astereognозия).

3. Eshituv analizatorining o'zagi ustki chakka pushtasining (**gyrus temporalis superior**) o'rtaida joylashgan. Bu sohaning ikkala yarim sharda buzilishi butunlay karlikka olib keladi.

4. Ko'ruv analizatorining o'zagi ensa bo'lagini ichki yuzasidagi **sulcus calcarinus** sohasida joylashgan. Bitta markazda bir ko'zning lateral yarmi va ikkinchi ko'zning medial yarmini to'rpardasi proeksiyasi bo'ladi. Shuning uchun butunlay ko'r bo'lib qolganda ko'ruv analizatori ikki tomondan shikastlangan bo'ladi. Ko'ruv markazidan sal yuqoriroqda (17 va 18-sohalarda) ko'rgan narsani eslab qolish markazi joylashgan bo'lib, u jarohatlanganda odamning ko'rgan narsani eslab qolish qobiliyati yo'qoladi. Pona pushtasidagi 19-sohada yangi sharoitga moslashish markazi bo'lib, bu markaz shikastlanganda odamning yangi sharoitga moslashish xususiyati yo'qoladi.

5. Hidlov analizatorining o'zagi chakka bo'lagining pastki yuzasidagi ilmoq, qisman gippokamp sohasida joylashgan.

6. Maza bilish analizatorining o'zagi hidlov va maza bilish sezgilari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun hidlov mar-

kaziga yaqin joylashgan. Ammo markaz orqa pushtasining pastki qismlari jarohatlanganda ham odamning maza bilish faoliyati buziladi. Yuqorida aytib o'tilgan po'stloq markazlari miya po'stlog'ining ma'lum bir sohalarida joylashgan bo'lib, ularga ta'sirotlar tashqi va ichki muhitdan keladi. Bu ta'sirlar turli xil sezgi va sezgilar to'plami sifatida qabul qilinadi va ularni I.P. Pavlov birinchi signal tizimi deb ataydi. Bu tizim hayvonlarda ham bo'ladi. Bundan tashqari odam so'zlash, fikrlash xususiyatlariiga ega bo'lganidan keyin, unda ikkinchi signal tizimi paydo bo'ladidi. Ontogenezda odamda avval birinchi signal tizimi markazlari, so'ngra ikkinchi signal tizimi markazlari paydo bo'ladi. Ikkinchi signal tizimi markazlarining taraqqiyoti va takomillashuvi tashqi muhitga, turmush sharoitiga bog'liq. Ikkinchi signal tizimi paydo bo'lishi uchun bola boshqa odamlar bilan aloqada bo'lishi, og'zaki so'zlarni va yozishni o'rganishi kerak. So'zlash jarayoni murakkab bo'lib, uni bajarishda butun po'stloq qatnashadi, ammo ma'lum bir sohalar asosiy bo'ladi. Bu sohalar so'z analizatorlari ning o'zaklari hisoblanadi.

Ikkinchi signal tizimi markazlari.

1. **So'z bo'g'inlarining harakat analizatori o'zagi** pastki peshana pushtasining (*gyrus frontalis inferior*) orqa qismida (44-soha, Brok pushtasi) joylashgan bo'lib, harakat markazining pastki qismiga yaqin turadi. Bu yerda so'z bo'g'ini, so'zlarni hosil qilishda ishtirok etadigan lab, til, hiqildoq muskullaridan keladigan qo'zg'alishlar tahlil qilinadi. Bu markaz jarohatlanganda odam har xil tovushlar chiqaradi, ammo ulardan so'z hosil qila olmaydi. Buni harakat afaziyasi deyiladi. 44-sohaning oldida 45-soha joylashgan bo'lib, u jarohatlanganda odam so'zlardan gap tuza olmaydi. Buni agramatizm deyiladi.

2. **Og'zaki so'zlashning eshituv analizatori o'zagi** eshituv a'zosi bilan bog'liq bo'lgani uchun, eshituv analizatoriga yaqin joyda, yuqori chakka pushtasini (*gyrus temporalis superior*) orqa qismida (42-soha, Verneke markazi) joylashgan. Bu markaz yordamida odam so'zlash vaqtida tovush past-balandligini tartibga

solib turadi va boshqa odamni tushunadi. Bu markaz jarohatlanganda odamning tovushni eshitish qobiliyati yo'qolmagan holda, so'zlarni tushunish qobiliyati yo'qoladi. Buni so'z soqovligi yoki **sensorafaziya** deyiladi.

3. Odam o'z taraqqiyotida faqat so'zlashni emas, balki yozishni ham o'rgangan. Harflarni yozish qo'lning ma'lum bir harakatini talab qiladi, bu esa umumiylar harakat analizatori bilan bog'liq. Shuning uchun yozma so'zning harakat analizatori o'zagi o'rta peshana pushtasining (**gyrus frontalis media**) orqa qisimida markaz oldi pushtaga yaqin joylashgan. Bu analizatorning faoliyati qo'lning ma'lum bir maqsadlar bilan qilinadigan harakatlar markazi (**40, soha, gyrus supramarginalis**) bilan bog'langan. U markaz jarohatlanganda umumiylar harakat yo'qolmaydi, ammo qo'lning harflarni yoki shakllarni yoza biladigan nozik harakatlari yo'qoladi. Bu holatni agrafiya deyiladi.

4. Yozma so'zning ko'ruv analizatori o'zagi pastki tepe bo'lagida (**gyrus angularis, 39, soha**) joylashgan bo'lib, ko'ruv analizatori bilan bevosita bog'liq. Bu markaz jarohatlanganda, odamning ko'rish qobiliyati yo'qolmagan holda, o'qish qobiliyati yo'qoladi. Bu holni **aleksiya** deyiladi. Odamning ikkinchi signal sistemasi markazlari ikkala yarim sharda bo'ladi, lekin bir tomonda ko'proq taraqqiy etgan (o'naqaylarda chap tomonda, chapaqaylarda o'ng tomonda bo'ladi).

Analizatorlar po'stloq markazlarining taraqqiyoti.

1. Harakat analizatorining o'zagi 7–10 yoshlarda takomilashib bo'ladi.

2. Ma'lum maqsad bilan qilinadigan harakat (praksiya) markazi yangi tug'ilgan bolada bo'lmaydi. Bola hayotining birinchi ikki yilda oldingi markaziy pushta bilan aloqa, uch yoshlarda esa ma'lum bir maqsad bilan harakat markazi paydo bo'ladi.

3. Sezgi analizatori sohasida po'stloq sitoarxitektonikasi ikki yoshda kattalarnikiga o'xshash tuzilishga ega bo'ladi.

4. Buyumlarni paypaslab bilish (stereognози) analizatori o'zagi bola hayotining 2–4 yoshlarida to'liq hosil bo'ladi.

5. Yangi tug'ilgan bola eshituv analizatori o'zagi shartli reflektor faoliyatiga moslashgan bo'ladi. 2-3 yoshlarda ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi va markaz takomillashadi.

6. Yangi tug'ilgan bola ko'ruv analizatori o'zagining sitoarxi-tektonikasi kattalarnikiga o'xshagan bo'ladi. Keyingi davrlarda o'zak tarkibi tashqi muhit ta'sirida takomillashib boradi.

Ikkinchi signal tizimi analizatorlari markazlarining taraqqiyoti quyidagicha bo'ladi:

1. So'z bo'g'imlarining harakat analizatori (Brok pushtasi) uch yoshlarda takomillashadi.

2. Yozma so'zning harakat analizatori 7 yoshda paydo bo'ladi.

3. Og'zaki so'zlashning eshituv analizatori o'zagi bola hayotining birinchi yilida takomillashadi.

4. Yozma so'zning ko'ruv analizatori 7 yoshgacha paydo bo'ladi.

Bosh va orqa miya o'tkazuv yo'llari

Bosh va orqa miyaning o'tkazuv yo'llari sodda va murakkab refleks yoylari tarkibiga kiruvchi orqa va bosh miyada uziluvchi, yuqoriga ko'tariluvchi va pastga tushuvchi nerv tolalarining yig'indisidan iborat. Bu yo'llar orqa va bosh miyaning turli qismalarini bir-biri bilan bog'lab, miya tarkibiy elementlari ichida ikki tomonlama aloqani ta'minlab turadi. O'tkazuv yo'llar vositasida markaziy nerv tizimi va organizmning birligi va uning tashqi muhit bilan aloqasi boshqarilib turiladi. O'tkazuv yo'llar yordamida ichki va tashqi qo'zg'alish retseptorlari qabul qilib olgan markazga intiluvchi nerv impulslarini orqa va bosh miyada markazdan qochuvchi yo'llarga o'tishi orqali organizmning tashqi va ichki muhit ta'siriga moslashuvi paydo bo'ladi, muskullar qisqarib, bezlar shira ajratadi.

Refleks asosida reflektor yoyi yotadi. Reflektor yoyida nerv impulsi 120 m/sek. tezlikda yuradi. Sodda reflektor yoyi odatda ikki neyrondan iborat bo'lib, ulardan bittasi sezuvchi yuzadan boshlansa, ikkinchisi aksoni bilan muskullarda tugaydi. Murakkab

reflektor yoyida uchinchi oraliq neyron bo'lib, u sezuvchi neyron bilan harakatlantiruvchi neyronni bir-biriga bog'lab turadi.

Barcha o'tkazuv yo'llari uch guruhga bo'linadi: proyekcion, komissural va assotsiativ. Organizm taraqqiyotida proyekcion o'tkazuv yo'llari oldinroq paydo bo'lib, keyin komissural va eng so'nggida assotsiativ yo'llar paydo bo'ladi.

Assotsiativ o'tkazuv yo'llari bosh miyaning bitta yarim shari kulrang moddasini bir-biriga qo'shib turadi. Assotsiativ o'tkazuv yo'llari har xil tuzilishdagi neyronlar zanjiridan iborat bo'lib, ular afferent yo'llarning oxirgi neyroni bilan efferent yo'llarning birinchi neyroni o'rtasida oraliq neyron holatida joylashib, reflektor yoyini biriktirib turadi. Assotsiativ yo'llar uzun va qisqa tolalardan iborat bo'ladi.

Ontogenezda assotsiativ yo'llar komissural va proyekcion yo'llarga nisbatan kechroq paydo bo'ladi, ammo bola tug'ilgandan keyingi davrda tez o'sib, myelin pardasi bo'lmaydi. Bola hayotining ikkinchi oyidan boshlab ularda myelin parda hosil bo'ladi va proyekcion markazlar bilan aloqalar paydo bo'ladi.

Komissural o'tkazuv yo'llari bir yarim shar po'stlog'ini ikkinchi yarim shar po'stlog'iga qo'shib turadi. Komissural o'tkazuv yo'llar yangi po'stloq markazlarini qo'shib turadigan qadoqtana va eski komissural yo'llar gumbaz bitishmasi, oldingi va orqa bitishmalardan iborat.

Proyekcion o'tkazuv yo'llari

Proyekcion o'tkazuv yo'llari bosh miya po'stlog'i bilan miya pog'onasi o'zaklari (qisqa proyekcion yo'llar), hamda orqa miya o'zaklari (uzun proyekcion yo'llar) o'rtasidagi ikki tomonlama aloqani ta'minlab turadi. Nerv impulslarini yo'nalishiga qarab proyekcion yo'llar ikki guruhga markazga intiluvchi-afferent, sezuvchi yo'llar nerv impulsini periferiyadan markazga po'stloqqa olib boruvchi va markazdan qochuvchi-efferent, harakatlantiruvchi, impulsni miya po'stlog'idan periferiyaga olib boruvchi yo'llarga bo'linadi. Afferent va efferent proyek-

sion yo'llar murakkab reflektor yoyining asosiy qismlari bo'lib, ular o'zaro miya po'stlog'ida assotsiativ o'tkazuv yo'llari vositasida qo'shiladi.

Afferent o'tkazuv yo'llari

Orqa va bosh miyaning markazga intiluvchi-afferent o'tkazuv yo'llari ekstratseptiv, propriotseptiv va intratseptiv tizim tolalariga bo'linadi. Ekstratseptiv markazga intiluvchi yo'llar orqali tashqi muhit ta'sirida hosil bo'ladigan nerv impulslari o'tadi. Bu yo'llarga harorat, og'riq, tanaga bo'ladigan bosim, hamda sezgi a'zolardan keluvchi o'tkazuv yo'llar kiradi.

Propriotseptiv markazga intiluvchi yo'llar mushaklar, paylar, bo'g'im xaltasi, boyamlardan kelayotgan nerv impulslarini orqa miyadan bosh miyaga o'tkazib beradi.

Intratseptiv markazga intiluvchi yo'llar ichki a'zolar va qon tomirlardan kelayotgan impulslarni o'tkazadi.

Sezuvchi uzun proyeksiyon o'tkazuv yo'llar ekstratseptorlar, propriotseptorlar va interotseptorlardan kelayotgan impulslarni orqa miyadan bosh miya po'stlog'inining sezuv, harakat markazlariga va miyachaga o'tkazib beradi. Ular uch neyrondan iborat bo'lib, birinchi neyroni bosh va orqa miyadan tashqarida, orqa miya tuguni yoki uni bosh miya nervlarining sezuvchi tugunlari da joylashgan soxta polyar hujayralar tashkil qiladi.

Efferent o'tkazuv yo'llari

Efferent o'tkazuv yo'llar bosh miyaning turli markazlaridan harakat va sekretor a'zolarga impulslar olib boradi. Efferent o'tkazuv yo'llari ikki neyrondan iborat. Harakatlantiruvchi o'tkazuv yo'llar qisqa va uzun yo'llarga bo'linadi. Qisqa harakatlantiruvchi o'tkazuv yo'llar yarim sharlar po'stlog'i bilan bosh miyaning bazal o'zaklari va pog'ona qismini o'zaro bog'lab turadi. Ular ga ko'ruv yo'lining bir qismi bo'lgan, ko'ruv analizatorini ko'ruv bo'rtig'i bilan bog'lovchi (tractus cortico thalamicus), peshana va tepa bo'lagi po'stlog'ini targ'il tana bilan bog'lovchi (tractus cor-

ticostriatus), ko‘rvu bo‘rtig‘i yostiqchasi bilan dumli o‘zak, targ‘il tana va gipotalamik soha o‘rtasidagi bog‘lanishlar kiradi.

Uzun harakatlantiruvchi yo‘llarga bosh miya po‘stlog‘i hujayralari va ekstrapiramida tizimi o‘zaklaridan boshlanib, bosh miya pog‘onasi va orqa miyada tugaydigan piramida va ekstrapiramida yo‘llari kiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Miya po‘stlog‘ining filoontogenesini tushuntirib bereng.
2. Miya po‘stlog‘i qanday tuzilishga ega?
3. Bosh miya po‘stlog‘ida markazlar qanday joylashgan?
4. Ichki analizatorlarning po‘stloqdagi markazlari qanday vazifani bajaradi?
5. Tashqi muhit ta’sirini qabul qiluvchi analizatorlarning po‘stloqdagi markazlari qanday vazifani bajaradi?
6. Ikkinci signal tizimi markazlari qanday vazifani bajaradi?
7. Bosh va orqa miyaning o‘tkazuv yo‘llari qanday vazifani bajaradi?

5-mavzu. Inson bosh miya asablari anatomiysi, fiziologiyasi va patologiyasi

Reja:

1. Bosh miya asablari haqida umumiy ma’lumotlar.
2. Sezuvchi bosh miya asablari.
3. Harakatlantiruvchi bosh miya asablari.
4. Aralash bosh miya asablari.

Tayanch so‘z va iboralar: bosh miya, asablar, sezuvchi asablar, harakatlantiruvchi asablar, aralash asablar, juft asablar.

U insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadi, bizga mo‘jizalar yaratish, oyda sayr qilish va adabiyot, musiqa va rangtasvir durdonalarini yaratish imkonini beradi. Inson miyasi — egiluvchan va uch funtdan iborat yog‘li to‘qima — telefon kommutatori yoki super kompyuter kabidir. Lekin miya ulardan ham murakkabroq

tuzilgan, bu dalilni olimlar deyarli har kuni va har bir tadqiqotida tasdiqlamoqdalar. Miya imkoniyatlari darajasi aniq emas, lekin u butun tirik borliqning eng murakkab tuzilmasidir¹.

Bosh miya asablari haqida umumiy ma'lumotlar

Bosh miya asablari bosh miya asosidan chiquvchi 12 juft asabdan iborat. Ular tuzilishi jihatidan orqa miya asablaridan farq qiladi. Bu farq bosh miya hamda boshning taraqqiyotini tana va orqa miya taraqqiyotidan boshqacha bo'lishiga bog'liq.

12 juft bosh miya asablari bir nechta guruhga bo'linadi.

I guruhga uchta sezuvchi asablar: I juft – hidlov asabi, II juft – ko'ruv asabi, VIII juft – dahliz-chig'anoq asabi kiradi.

II guruhga beshta harakatlantiruvchi asablar: III juft – ko'zni harakatlantiruvchi asab, IV juft – g'altak asabi, VI juft – uzoqlashtiruvchi asab, XI juft – qo'shimcha asab, XII juft – til osti asabi kiradi.

III guruhga to'rtta aralash asablar: V juft – uch shoxli asab, VII juft – yuz asabi, IX juft – til yutqin va X juft – adashgan asab kiradi. Oxirgi guruh asablari tarkibida sezuvchi, harakatlantiruvchi va vegetativ tolalar bo'ladi, ammo asablarning bunday bo'linishi shartli ravishda, chunki har qanday harakatlantiruvchi asab tarkibida chuqur sezgi va vegetativ tolalar bo'ladi.

Bosh miya asablari orqa miya asablariga o'xshab orqa va oldingi ildizlar yig'indisidan iborat bo'lmay, faqat oldingi yoki orqa ildizlardan hosil bo'lgani uchun harakatlantiruvchi yoki sezuvchi asablar bo'ladi. Bundan tashqari bosh miya asablarining hech qaysisi boshqa biroviga o'xshamaydi.

12 juft bosh miya asablari taraqqiyotiga qarab bir necha guruhga bo'linadi.

I – oldingi miyadan taraqqiy etuvchi I va II juft asablar. Ular bosh miya o'simtalari bo'lib, hidlov asabi hidlov miyasidan, ko'ruv asabi esa oraliq miyadan taraqqiy etadi.

¹ Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM. Copyright ©2005, 2006 Society for Neuroscience 1121 14th Street, NW, Suite 1010 Washington, DC 20005 USA (p.4)

II – bosh miotomlari bilan aloqada taraqqiy etuvchi (III, IV, VI juft) asablar. Bu asablar boshning oldingi uchta somitidan taraqqiy etgan ko‘z olmasi mushaklarini inasabatsiya qiladi.

III – visseral ravoqlar asablari (V, VII, IX, X juft). Bu asab-larning tugunlari bo‘lib, ularda soxta unipolyar hujayralar joy-lashgan. Ularning taraqqiyoti ortqi miya bilan bog‘liq. Ularning tarkibida sezuvchi tolalardan tashqari harakatlantiruvchi tolalalar ham bo‘lib, visseral apparat mushaklarini inasabatsiya qiladi. Shuning uchun ularni visseral ravoqlar asablari deyiladi.

V juft – I-visseral ravoq asabi. VII juft – II-visseral ravoq asabi. IX juft – III visseral ravoq asabi. X juft IV va keyingi ravoqlar asabi. XI juft qo‘srimcha asab o‘z taraqqiyotida X juft asabdandan ajralib chiqqani uchun shu guruhgaga kiritiladi. VIII juft asab taraqqiyoti davrida VII asabdan ajralib chiqqan sezuvchi asab hisoblanadi.

IV–3–4 ta orqa miya asablarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan XII juft – til osti asabi.

Sezuvchi bosh miya asablari

I juft – hidlov asabi (*nn. olfactoryus*) burun bo‘shlig‘i hidlov sohasining shilliq pardasida joylashgan hidlov hujayralarining markaziy o’simtalaridan iborat. Ular 15–20 ta ingichka hidlov asablarini hosil qilib, g‘alvirsimon suyakning ilma-teshik plas-tinkasidan o‘tib hidlov piyozchasida (*bulbusplfactorii*) tugaydi.

II juft – ko‘rvuv asabi (*n. opticus*) to‘r pardaning ko‘r dog‘ sohasida ganglioz hujayralarning aksonlari to‘plamidan hosil bo‘la-di. Asab tomirli va oqliq pardani teshib o‘tib, ko‘z kosasidan ko‘rvuv asabi kanali orqali kalla bo‘shlig‘iga chiqadi. Miya tubida ikki tomondan kelayotgan asablar bir-biriga yaqinlashib, o‘za-ro to‘liq bo‘limgan kesishma (*chiasmaopticum*) hosil qilib ko‘rvuv traktiga o‘tib ketadi.

VIII juft – dahliz-chig‘anoq asabi (*n. vestibuloclearis*) sezuvchi asab. U eshituv va muvozanat a’zosidan kelayotgan sezuvchi tolalardan tuzilgan bo‘lib, ikki qismdan iborat. Uning dahliz

qismi asab hujayralari ichki eshituv yo'li tubidagi dahliz tugunida (**ganglion vestibularae**) joylashgan. Ularning periferik o'siqlari ichki quloqning parda labirintida retseptorlar hosil qilib tugaydi. Markaziy o'simtalari esa rombsimon chuqurchada joylashgan vestibulyar o'zaklarga boradi.

Chig'anoq qismi (**pars cochlearis**) spiral kanalda joylashgan chig'anoq tuguni (**ganglioncochleare**) hujayralarining o'siqlaridan iborat. Ularning periferik o'siqlari spiral a'zoda tugasa, markaziy o'siqlari rombsimon chuqurchadagi chig'anoq o'zaklarda tugaydi. Asab miya asosidan ko'prikning orqasidan, yuz asabi ildizlari dan tashqariroqdan chiqadi. Keyin dahliz-chig'anoq asabi ichki eshituv yo'liga kiradi.

Harakatlantiruvchi bosh miya asablari.

III juft — ko'zni harakatlantiruvchi asab (n. oculomotorius) tarkibida harakatlantiruvchi va vegetativ tolalari bor. Ular o'rta miyaning to'rt tepaligini yuqori tepachalari sohasida, Silviy suv yo'li tubida joylashgan harakatlantiruvchi va vegetativ (Yakubovich) o'zaklaridan boshlanadi. Juft yirik hujayrali somatik o'zak ko'z olmasi muskullarini inasabatsiya qiladi. Juft mayda hujayrali vegetativ (Yakubovich) o'zagi ko'z qorachig'ini toraytiruvchi mushagini inasabatsiya qiladi. Toq mayda hujayrali (Perlia) vegetativ o'zak kiprikli muskulni inasabatsiya qiladi. Ko'zni harakatlantiruvchi asab miya oyoqchalarining medial yuzasidan chiqadi.

U oldinga yo'nalib, ko'z kosasining yuqorigi tirqishi orqali ko'z kosasiga kiradi va ikki shoxga bo'linadi. Ustki shox (**r. superior**) sof harakatlantiruvchi bo'lib, ustki qovoqni ko'taruvchi mushak (**m. levatorpalpebraesuperior**) va ko'zning ustki to'g'ri mushagini (**m. rectussuperior**) inasabatsiya qiladi. Pastki shox (**r. inferior**) aralash. Uning harakat tolalari ko'zining pastki va medial to'g'ri muskullari (**mm. rectusinferioretmédialis**) hamda pastki qiyshiq mushakni (**m. obliquusinferior**) inasabatsiya qiladi. Vegetativ tolalari pastki shox tarkibida chiqib, chiqib kiprikli tugunga boradi.

IV juft – g‘altak asabi (n. trochlearis) harakatlantiruvchi asab. Uning bitta harakatlantiruvchi o‘zagi o‘rta miya tomi ostida pastki tepachalar sohasida joylashgan. Asab miya asosidan yuqorigi miya yelkanining lateral tomonidan chiqadi va miya oyoqchasi ni tashqi tomonidan aylanib o‘tib oldinga yo‘naladi. Asab kalla bo‘shlig‘idan ko‘z kosasining yuqorigi tirqishi orqali ko‘z kosasiga kiradi va ko‘zning ustki qiyshiq mushagini (**m. obliquussuperior**) inasabatsiya qiladi.

VI juft – uzoqlashtiruvchi asab (n. abducens) harakatlantiruvchi asab. Uning yagona o‘zagi ko‘prikda joylashgan. Asab miya asosidan ko‘prik bilan uzunchoq miyaning o‘rtasidagi egatdan chiqadi. Oldinga yo‘nalib, ko‘z kosasining yuqorigi tirqishi orqali ko‘z kosasiga kiradi va ko‘zning lateral to‘g‘ri mushagini (**m. rectuslateralis**) inasabatsiya qiladi.

XI juft – qo‘srimcha asab (n. accessorius) harakatlantiruvchi asab. Uning ikkita o‘zagi bo‘lib, bittasi uzunchoq miya sohasida, ikkinchisi orqa miyada joylashgan. Uzunchoq miyadan asab bosh miya ildizi, orqa miyadan esa orqa miya ildizini hosil qilib chiqadi. Orqa miya ildizi (**radix spinalis**) yuqoriga ko‘tarilib katta teshik orqali kalla ichiga kiradi va bosh ildizi (**radix cranialis**) bilan qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan qo‘srimcha asab ikki shoxga bo‘linadi. Ichki shox (**r. internus**) adashgan asabga qo‘shiladi. Tashqi shox (**r. externus**) bo‘yinturuq teshigi orqali tashqariga chiqadi. Teshikdan chiqqanidan so‘ng asab orqa tomonga yo‘nalib trapetsiyasimon va to‘sh-o‘mrov-so‘rg‘ichsimon mushaklarni inasabatsiya qiladi.

XII – juft til osti asabi (n. hypoglossus) harakatlantiruvchi asab. Uning bitta harakatlantiruvchi o‘zagi uzunchoq miyada joylashgan. Asab uzunchoq miyadan piramida bilan olivaning o‘rtasidan chiqadi. Kalla bo‘shlig‘idan o‘z nomidagi kanal orqali chiqib, ravoq hosil qilib oldinga va yuqoriga tilga qarab yo‘naladi. Til ichida til shoxlariga (**r. lingua**) bo‘linib, til muskullarini inasabatsiya qiladi. Til osti asabidan chiquvchi (**r. superior**) bo‘yin chigalining ko‘tariluvchi shoxi bilan qo‘silib, bo‘yin sirtmog‘ini

hosil qiladi. Uning shoxlari til osti suyagidan pastda joylashgan muskullarni inasabatsiya qiladi.

Aralash bosh miya asablari

V juft – uch shoxli asab (n. trigeminus) aralash asab. Uning harakatlantiruvchi tolalari ko‘prikda joylashgan o‘zakdan boshlanadi. Sezuvchi tolalari uch shoxli asabning tugunida (**ganglion trigeminale**) joylashgan soxta unipolyar hujayralarning markaziy o‘simaltali bo‘lib, ular ko‘prik, orqa miya yo‘li va o‘rta miya yo‘li o‘zaklarida tugaydi. Bu hujayralarning periferik o‘sqliari yuz, peshana, chakka sohasi terisi, burun bo‘shlig‘i, tilning oldingi 2/3 qismi, tishlar, ko‘zning konyunktivasi shilliq pardasida tugaydi. Uch shoxli asab miya asosidan ikki ildiz (sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil qilib ko‘prik bilan miyachaning o‘rta oyoqchasi orasidan chiqadi. Uning sezuvchi ildizi (**radixsensoria**) harakatlantiruvchi ildiziga (**radix motoria**) nisbatan qalin. Uch shoxli asab oldinga va biroz tashqariga yo‘nalib, chakka suyagi piramidasini oldingi yuzasidagi uch shoxli asab botiqligida joylashgan uch shoxli asab bo‘shlig‘i (**cavum trigeminale**) ichiga kiradi. Uning ichida uch shoxli asab tugunini (**ganglion trigeminale**) (Gasser tuguni) hosil qiladi. Bu tugun yarimoysimon shaklda bo‘lgani uchun yarimoysimon tugun (**ganglion semilunare**) deb ham ataladi. Uch shoxli asabning harakatlantiruvchi ildizi tuguning pastki tomonidan o‘tib, asabning III shoxi tarkibiga kiradi. Tugundan uch shoxli asabning uchta shoxi: 1) ko‘z asabi; 2) ustki jag‘ asabi; 3) pastki jag‘ asabi chiqadi.

Ko‘z asabi (n. opthalmicus) tugundan boshlanib, ko‘z kosasining yuqorigi tirqishi orqali ko‘z kosasiga kiradi. Ko‘z kosasiga kirgunicha undan miya qattiq pardasiga (**r. meningeus**) chiqib miyacha chodiriga tarqaladi. Ko‘z asabi ko‘z kosasida peshana, ko‘z yoshi va burun- kiprikli asablarga bo‘linadi:

1. Ko‘z yoshi asabi (n. lacrimalis) ko‘z kosasining lateral devori bo‘ylab yo‘naladi. Uning shoxlari ko‘z yoshi bezini, ko‘zning lateral burchagi, ustki qovoq terisini va konyunktivasini inasabatsi-

ya qiladi. Asab ko'z yoshi beziga kirishdan oldin yonoq asabidan qo'shuvchi tola oladi.

2. Peshana asabi (n. frontalis) ko'z kosasining ustki devori ostida yotib ikki shoxga bo'linadi: a) **ko'z kosasining ustki asabi (n. Supra orbitalis)** o'z nomidagi o'yma orqali chiqib medial va lateral shoxlarga bo'linadi. Bu asab peshana terisini inasabatsiya qiladi; b) **g'altak usti asabi (n. Supra trochlearis)** ko'z olmasining ustki qiyshiq mushagi ustidan o'tib, burun ildizi, peshananing pastki qismi, ustki qovoq, ko'zning medial burchagi terisini va kon-yunktivani inasabatsiya qiladi.

3. Burun-kiprikli asab (n. nasociliaris) ko'zning medial to'g'ri va ustki qiyshiq muskullari o'rtasidan yo'nalib quyidagi shoxlarga bo'linadi: a) **oldingi va orqa g'alvirsimon asablar (nn. Ethmoidales anterior et posterior)** g'alvir suyak katakchalari shilliq pardasiga; b) **burun shoxlar (rr. nasalis)** burun bo'shlig'i oldingi qismi shilliq pardasiga; d) **2–4 ta uzun kiprikli asablar (nn. Ciliares longi)** oldinga tomon yo'nalib ko'z olmasining oqliq va tomirli pardasiga boradi; e) **g'altak osti asabi (n. Infra trochlearis)** ustki qiyshiq muskul ostidan o'tib ko'zning ichki burchagi va burun ildizi terisini inasabatsiya qiladi; f) **qo'shuvchi shoxlar (r. communicans)** sezuvchi tolalardan iborat bo'lib, kiprikli tugunga boradi.

Kiprikli tugun (**ganglion ciliare**) parasimpatik asab tizimi tarkibiga kiradi. Undan chiqqan 15–20 ta kalta kiprikli asablar (**nn. ciliares breves**) ko'z olmasini sezuvchi va vegetativ inasabatsiya qiladi.

Ustki jag' asabi (n. maxillaris) uch shoxli tugundan boshlanib, oldinga qarab yo'naladi va yumaloq teshik orqali qanot-tanglay chuqurchasiga chiqadi. Teshikka kirishdan oldin undan o'rta kalla chuqurchasi sohasidagi bosh miyaning qattiq pardasini inasabatsiya qiluvchi (**r. Meningeus medius**) chiqadi. Qanot-tanglay chuqurchasida ustki jag' asabidan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Ko'z kosasining pastki asabi (n. infraorbitalis) ko'z kosasining pastki tirqishi orqali ko'z kosasiga kiradi. Ko'z kosasida o'z nomidagi egatda yotadi va shu nomli kanal orqali ustki jag'ning

oldingi yuzasiga chiqadi. Bu yerda asab ko'p sonli mayda shoxlarga bo'linib, kichik g'oz panjasini (***pesanserinus minor***) hosil qiladi. Uning shoxlari pastki qovoq, burunning yon devori terisini, ustki jag' tishlari, milki, burun bo'shlig'ini oldingi qismi shilliq pardasini inasabatsiya qiladi.

2. **Yonoq asabi** (***n. zygomaticus***) ustki jag' asabidan qanot tanglay chuqurchasida boshlanib, ko'z kosasining pastki tirkishi orqali ko'z kosasiga kiradi. Bu yerda ko'z yoshi asabiga qo'shiluvchi parasimpatik tolani beradi. Keyin asab yonoq suyagining yonoq-ko'z kosasi teshigiga kirib, suyak ichida ikki shoxga bo'linadi. Yonoq-chakka shoxi (***r. Zygomatico temporalis***) o'z nomidagi teshik orqali chiqib chakka sohasi va ko'zning tashqi burchagi terisini inasabatsiya qiladi. Yonoq-yuz shoxi (***r. Zygomatico facialis***) o'z nomidagi teshik orqali chiqib, yonoq sohasi terisini inasabatsiya qiladi.

3. **Tugun shoxlari** (***rr. ganglionares***) tarkibida sezuvchi va parasimpatik tolalar bo'lib, qanot-tanglay tuguni va undan chiquvchi shoxlarga qo'shiladi.

Qanot-tanglay tuguni (***ganglion pterygo palatinum***) parasimpatik asab tizimi tarkibiga kirib, undan quyidagi shoxlar chiqadi: a) medial va lateral ustki orqa burun shoxlari (***rr. Nasales posteriores superiores mediales et laterales***) ponasimon-tanglay teshigi orqali kirib, burun bo'shlig'i shilliq pardasini va bezlarini inasabatsiya qiladi. Uning medial shoxining yirik tarmog'i bo'lgan burun-tanglay asabi (***n. Naso palatinus***) keskich kanal orqali qattiq tanglay shilliq pardasiga tarqaladi; b) katta va kichik tanglay asablari (***n. palatinus major etminores***) shu nomidagi kanal orqali o'tib, yumshoq va qattiq tanglay shilliq pardasiga boradi; d) pastki orqa burun shoxlari (***rr. Nasalis posterior es inferiores***) burun bo'shlig'i pastki qismlari shilliq pardasini inasabatsiya qiladi.

Pastki jag' asabi (***n. mandibularis***) tarkibida sezuvchi va harakatlantiruvchi tolalari bor. U kalla bo'shlig'idan oval teshik orqali chiqib harakatlantiruvchi va sezuvchi shoxlarga bo'linadi. Uning harakatlantiruvchi shoxlari quyidagilar:

1. **Chaynov asabi** (*n. massetericus*) o‘z nomidagi mushakni inasabatsiya qiladi.
 2. **Chuqur chakka asablari** (*n.n. temporalis profundi*) chakka mushakni inasabatsiya qiladi.
 3. **Lateral va medial qanotsimon asablar** (*nn. Pterygoidei lateralis et medialis*) lateral va medial qanotsimon mushaklarni inasabatsiya qiladi.
 4. **n. Musculi tensoris veli palatini** – tanglay chodirini taranglovchi mushakni inasabatsiya qiladi.
 5. **n. Musculi tensoris tympani** – nog‘ora pardani taranglovchi mushakni inasabatsiya qiladi.
 6. **n. mylohyoideus** – jag‘-til osti muskulini inasabatsiya qiladi.
 7. **n. digastricus** – ikki qorinli mushakning oldingi qorinchasi inasabatsiya qiladi.
- Pastki jag‘ asabining sezuvchi shoxlari quyidagilar:
1. **Meningeal shox** (*r. meningealis*) qirrali teshik orqali kalla ichiga kirib, o‘rta kalla chuqurchasi sohasidagi bosh miyaning qattiq pardasini inasabatsiya qiladi.
 2. **Lunj asabi** (*n. buccalis*) lunj muskulini tashqi yuzasida yotadi. Uni teshib o‘tib, lunjning shilliq pardasini va og‘iz yorig‘i burchagi terisini inasabatsiya qiladi.
 3. **Quloq-chakka asabi** (*n. Auriculo temporalis*) tashqi eshituv yo‘lini oldidan yuqori tomonga chakkaning yuza arteriyasi bilan birga yo‘naladi. Uning shoxlari quloq suprasining oldingi yuzasi, tashqi eshituv yo‘li, nog‘ora parda va chakka sohasi terisini inasabatsiya qiladi. Bu asab tarkibida quloq tugunidan (*ganglionoticum*) qo‘shilgan parasimpatik tolalar bo‘lib, quloq oldi bezini inasabatsiya qiladi.
 4. **Til asabi** (*n. lingualis*) pastga va oldinga tomon yo‘nalib ravoq hosil qiladi. Uning tarkibidagi sezuvchi tolalar tilning oldingi 2/3 qismidan, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasidan og‘riq, harorat sezgisini qabul qiladi. Sezuvchi tugun shoxlari (*r.r. ganglionares*) va nog‘ora toridan qo‘shilgan parasimpatik tolalari jag‘ osti (*ganglion submandibulare*) va til osti tugunlariga (*ganglion sublinguale*) qo‘shiladi.

5. Pastki katakchalar asabi (*n. Alveolaris inferior*) eng katta shox. Pastki jag‘ kanalidan o‘tib engak teshigi orqali chiqadi va engak shoxi (*r. mentalis*) bo‘lib, engak va pastki lab terisini inasabtsiya qiladi. Pastki jag‘ kanalidan o‘tayotganida uning shoxlari pastki tishlar chigalini (*plexus dentales inferiores*) hosil qiladi. Bu chigaldan chiquvchi pastki tishlar shoxlari (*rr. Dentales inferiores*) va pastki milklar shoxlari (*rr. gingivales inferiores*) pastki jag‘ tishlari va milklarini inasabtsiya qiladi.

VII juft – yuz asabi (*n. facialis*) tarkibida ikkita asab: harakatlantiruvchi o‘zak hujayralari aksonlaridan hosil bo‘lgan xususiy yuz asabi va tarkibida sezuvchi, vegetativ tolalari bo‘lgan oraliq asab (*n. intermedius*) kiradi. Yuz asabining sezuvchi, harakatlantiruvchi va parasimpatik o‘zaklari miya ko‘prigi sohasida joylashgan. Miya asosida asab ko‘priknning orqa qirrasidan, olivadan tashqariroqdan chiqib, dahliz-chig‘anoq asabi bilan ichki eshituv yo‘liga kiradi. Chakka suyagining piramidasi ichida o‘z nomidagi kanal ichida joylashib, bigizsimon-so‘rg‘ichsimon teshik orqali tashqariga chiqadi. Kanal ichida asab bukilma-yuz asabi tizzachasi (*geniculum. facialis*) va tizzacha tuguni (*ganglion geniculi*) hosil qiladi. Tizzacha tuguni soxta unipolyar hujayralardan iborat bo‘lib, oraliq asabning sezuvchi qismiga taalluqli. Yuz asabi kanali ichida asabdan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Katta tosh asabi (*n. petrosusmajor*) parasimpatik tolalardan iborat bo‘lib, kanaldan o‘z nomidagi tirkish orqali piramidani oldingi yuzasiga chiqadi. Bu yerda o‘z nomidagi egatda yo‘nalib yirtiq teshik orqali tashqariga chiqadi. Asab simpatik asab bilan birga qanotsimon kanalga kirib, qanotsimon kanal asabi (*n. Canalis pterygoidei*) nomini oladi va qanot-tanglay tuguniga qo‘shiladi.

2. Nog‘ora tori (*chorda tympani*) parasimpatik va sezuvchi tolalari bor. Sezuvchi tolalar tizzachali tugun soxta unipolyar hujayralari o‘silalaridan iborat. Uning periferik qismi tilning oldingi uchdan ikki qismi va yumshoq tanglayda joylashgan ta’m bilish retseptorlarini hosil qiladi. Nog‘ora bo‘shilig‘idan nog‘ora-tosh tirkishi orqali chiqib til asabiga qo‘shiladi.

3. Uzangi asabi (n. stapedius) harakatlantiruvchi shox bo'lib, nog'ora bo'shlig'ida uzangi mushagini inasabatsiya qiladi.

Yuz asabi bigizsimon-so'rg'ichsimon teshikdan chiqqanidan keyin quyidagi harakatlantiruvchi tolalarini beradi:

1. Orqa quloq asabi (n. Auricularis posterior) peshana-ensa mushakning ensa qorinchasini va orqa quloq mushagini inasabatsiya qiladi. **2. Ikki qorinli shox (r. digastricus)** ikki qorinli mushakning orqa qorinchasini inasabatsiya qiladi. **3. Bigizsimon-til osti mushakka boruvchi shox (r. Stylohyoideus).** So'ng asab quloq oldi bezi ichiga kirib, uning ichida shoxlarga bo'linib, quloq oldi chigalini (plexus parotideus) hosil qiladi. Bu chigaldan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Chakka shoxlari (rr. temporalis) quloq mushagi, peshana-ensa mushagining peshana qorinchasini va ko'zning aylanma mushagini inasabatsiya qiladi.

2. Yonoq shoxlari (rr. zygomaticus) ko'zning aylanma mushagi va katta yonoq mushagini inasabatsiya qiladi.

3. Lunj shoxlari (rr. buccales) katta va kichik yonoq mushaklari, ustki labni ko'taruvchi mushak, lunj mushagi, og'iz burchagini ko'taruvchi mushak, og'izning aylanma mushagi, burun va kulgu mushaklarini inasabatsiya qiladi.

4. Pastki jag' chekkasi shoxi (r. Marginalis mandibulae) pastki labni va og'iz burchagini tushiruvchi va engak mushaklarini inasabatsiya qiladi.

5. Bo'yin shoxi (r. coli) bo'yinning teri osti mushagini inner-vatsiya qiladi.

IX just, til-yutqun asabi (n. Glosso pharyngeus) aralash asab. Uning tarkibida sezuvchi, harakatlantiruvchi va parasimpatik tolalar bor. Til-yutqin asabining sezuvchi tolalari yakka tutam o'zagida tugasa, harakatlantiruvchi tolalari ikki yoqlama o'zakdan, parasimpatik tolalar esa pastki so'lak ajratuvchi o'zakdan boshlanadi. Til-yutqin asabi o'zaklari uzunchoq miya sohasida joylashgan bo'lib, asab miya asosida olivaning orqasidan chiqadi. Kalla bo'shlig'idan til-yutqin asabi bo'yinturuq teshigi orqali tashqari-

ga chiqadi. Bo'yinturuq teshigi sohasida asab ustki sezuvchi tugun (**ganglion superius**), chiqqanidan keyin tosh chuqurcha sohasida pastki tugun (**ganglion inferius**) hosil qiladi. Bu tugunlar tarkibida sezuvchi neyronlar bo'lib, ularning markaziy o'siqlari uzun-choq miyadagi sezuvchi o'zakda tugaydi. Bo'yinturuq teshigidan chiqqanidan so'ng ravvoq shaklida pastga va oldinga yo'nalib, bigiz-yutqin va bigiz-til muskullari orasidan o'tadi. Til ildiziga kirkach u o'zining oxirgi til shoxlariga (**r. lingualis**) bo'linadi. Bu shoxlar til ustining orqa 1/3 qismi shilliq pardasini inasabatsiya qiladi. Til-yutqin asabidan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Nog'ora asabi (**n. tympanicus**) pastki tugundan chiqib, chakka suyagining nog'ora kanalchasi orqali nog'ora bo'shlig'iga kiradi va shilliq pardada nog'ora chigalini (**plexus tympanicus**) hosil qilib, nog'ora bo'shlig'i va eshituv nayi shilliq pardasini inasabatsiya qiladi. Bu asabning oxirgi shoxi kichik tosh asabi (**n. Petrosus minor**) parasimpatik tolalardan iborat bo'lib, o'z nomidagi tirqish orqali piramidaning oldingi yuzasiga chiqadi. Kalla bo'shlig'idan ponasimon-toshsimon tirqish orqali o'tib, quloq tunganiga qo'shiladi.

2. Sinus shoxi (**r. Sinus carotici**) umumiy uyqu arteriyasi bo'lingan joydagi uyqu koptokchasini inasabatsiya qiladi.

3. Yutqin shoxlari (**r.r. pharyngei**) yutqin devorida vegetativ asab tolalari bilan yutqin chigalini hosil qiladi.

4. Bigiz-yutqin shoxi (**r. stylopharyngei**) shu nomdagagi muskulni inasabatsiya qiladi.

5. Mo'rtak shoxlari (**r.r. tonsillaris**) tanglay mo'rtagini inasabatsiya qiladi.

X juft – adashgan asab (n. vagus) aralash asab. Bu asab bosh miya asablari ichida eng uzuni bo'lib, uning tolalari odam organizmining ko'p sohasiga tarqalgan. Asab tarkibidagi harakatlan-tiruvchi tolalar ikki yoqlama o'zak, vegetativ tolalar uning dorsal o'zagi hujayralari aksonlaridan iborat. Sezuvchi tolalari ustki va pastki tugunlarda (**ganglion superius etinferius**) joylashgan sezuvchi neyronlarning markaziy o'siqlari yakka tutam o'zagida tu-

gnydi. Ularning periferik o'siqlari bosh miya qattiq pardasiga, tashqi eshituv yo'li terisiga va ichki a'zolarga boradi. Adashgan asabning parasimpatik tolalari asabning ko'p qismini tashkil qilib bo'yin, ko'krak va qorin bo'shlig'i a'zolari faoliyatini boshqaradi.

Adashgan asab uzunchoq miyaning orqa yon egatidan bir nechta ildiz hosil qilib chiqadi. Ular o'zaro birikib bo'yinturuq teshigiga qarab yo'naladi. Teshikda va undan chiqqanidan keyin ustki va pastki tugunlarni hosil qiladi. Teshikdan chiqqanidan so'ng adashgan asab ichki bo'yinturuq vena va ichki uyqu arteriyasi o'rtasida pastga tomon yo'naladi. Ko'krak qafasiniňg ustki aperturasi orqali u ko'krak bo'shlig'iga kiradi. Ko'krak qafasi-ga kirishda o'ng adashgan asab o'mrov osti arteriyasi va venasi o'rtasidan o'tadi. Chap adashgan asab umumiy uyqu va o'mrov osti arteriyalari o'rtasidan o'tib aorta ravog'inining oldiga yo'naladi. Keyin o'ng va chap asablar o'pka ildizi orqasidan o'tib, o'ng adashgan asab qizilo'ngachning orqa, chap asab oldingi yuzasiga o'tadi. Ular shoxlanib qizilo'ngach chigalini hosil qiladi. Bu chigaldan oldingi va orqa adashgan asab poyalari hosil bo'lib, qizilo'ngach bilan birga qorin bo'shlig'iga o'tadi. Oldingi poya (**truncus vagalis anterior**) me'danining oldingi yuzasida, orqa poya (**truncus vagalis posterior**) me'danining orqa yuzasida joylashadi.

Adashgan asab juda katta sohaga tarqalgani uchun uni to'rt: bosh, bo'yin, ko'krak va qorin qismlariga bo'lib o'r ganamiz.

Adashgan asabning bosh qismidan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Miya qattiq pardasiga boruvchi shox (r. meningeus) ustki tungan bosqlanib, orqa kalla chuqurchasi sohasidagi bosh miya qattiq pardasini, ko'ndalang va ensa vena sinuslari devorini inasabatsiya qiladi.

2. Quloq shoxi (r. auricularis) nog'ora-so'rg'ichsimon yoriq orqali kalladan chiqib, tashqi eshituv yo'lining orqa devori va quloq suprasi orqa terisini inasabatsiya qiladi.

Adashgan asabning bo'yin qismidan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Yutqin shoxlari (r. pharyngei) yutqin devorida til-yutqin va simpatik poya tolalari bilan birga yutqin chigalini (**plexus**

pharyngeus) hosil qiladi. Bu shoxlar yutqinning shilliq pardasini, siquvchi mushaklarni va yumshoq tanglay mushaklarini (tanglay chodirini taranglovchi mushakdan tashqari) inasabatsiya qiladi.

2. Yurakning ustki bo'yin shoxlari (rr. Cardiac cervicales superiores) pastga tomon yo'nalib, yurak chigalini hosil qilishda ishtirok etadi.

3. Hiqildoqning ustki asabi (n. Laryngeus superior) pastki tugundan boshlanib, ikki shoxga bo'linadi. Tashqi shox (**r. extenus**) hiqildoqning uzuksimon-qalqonsimon muskulini inasabatsiya qiladi. Ichki shox (**r. internus**) hiqildoqning shilliq pardasini ovoz yorig'idan yuqori qismini va til ildizi shilliq pardasining bir qismini inasabatsiya qiladi.

4. Orqaga qaytuvchi hiqildoq asabi (n. Laryngeus recurrens) chap tomonda bu asab aorta ravog'i sohasida boshlanib, uning past tomonidan o'tsa, o'ng tomonda o'mrov osti arteriyasini past tomonidan aylanib o'tib yuqoriga ko'tariladi. Undan quyidagi: kekirdak (**rr. tracheales**), qizilo'ngach (**r.r. esophagei**) va yurakning pastki bo'yin shoxlari (**r.r. cardiaci cervicales inferiores**) chiqadi. Uning oxirgi shoxi hiqildoqning pastki asabi (**n. Laryngeus inferior**) hiqildoqning shilliq pardasini ovoz yorig'idan pastki qismini va hiqildoq muskullarini (uzuksimon-qalqonsimon mushakdan tashqari) barchasini innervatsiya qiladi.

Adashgan asabning ko'krak qismidan quyidagi shoxlar chiqadi:

1. Yurakning ko'krak shoxlari (rr. Cardiaci thoracici) yurak chigaliga boradi.

2. Bronx shoxlari (rr. bronchiales) simpatik poya shoxlari bilan qo'shilib bronxlarni o'rab o'pkaga kiruvchi o'pka chigalini (**plexus pulmonalis**) hosil qiladi.

3. Qizilo'ngach chigalidan (plexus esophageus) qizilo'ngach devoriga boruvchi shoxlar (**rr. esophagei**) chiqadi.

Adashgan asabning qorin qismida adashgan asabning oldingi poyasidan oldingi me'da shoxlari (**rr. Gastrici anteriores**) va jigar shoxlari (**rr. hepatici**) chiqadi. Adashgan asabning orqa poyasi-

dan orqa me'da shoxlari (**rr. gastrici posteriores**) hamda qorin shoxlari (**rr. coeliaci**) chiqadi. Qorin shoxlari chap me'da arteriyasi bo'ylab yo'nalib, quyosh chigaliga qo'shiladi. Undan adashgan asab tolalari jigar, taloq, me'da osti bezi, buyrak, ingichka va yo'g'on ichaklarga boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bosh miya asablari haqida umumiy ma'lumotlarni aytib bering.
2. Sezuvchi bosh miya asablariga qaysilar kiradi?
3. Harakatlantiruvchi bosh miya asablariga qaysilar kiradi?
4. Aralash bosh miya asablariga qaysilar kiradi?

6-mavzu. Inson oliy asab tizimini tadqiq qilish metodlari

Reja:

1. Inson asab tizimi tashxisi.
2. Bosh miya asablari (BMA)ni tekshirish usullari.
3. Hidlashni tekshirish usullari.
4. Eshitishni tekshirish usullari.
5. Bosh miyaning aralash asablarini tekshirish usullari.

Tayanch so'z va iboralar: tashxis, asab, hidlash, eshitish, aralash asablar, usul.

Inson asab tizimi tashxisi.

Asab kasalliklariga tashxis qo'yishda asab tizimini klinik tekshirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Ko'pincha, asab tizimi zararlangan bermorlarga topik tashxis qo'yishda asab tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlarini bilish juda muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun quyida asab tizimini tekshirish usullari mazkaziy va periferik asab tizimini morofunksional xususiyatlarini nazarda tutgan holda tuzib chiqildi va 5-kurs davolash, tibbiy pedagogika, 4-kurs stomatologiya hamda oliy hamshiralik ishi talabalari uchun havola qilinadi.

Bosh miya asablari (BMA)ni tekshirish usullari.

I juft BMA (n. olfactorius) sezuvchi asablar.

Odam hidlash orqali turli hidlarni (ovqatning hidini, gulning hidini va boshqalar) ajratadi. Hid bilishning kamayishiga — gi-posmiya, hidlashning yo'qolishiga — anosmiya, hid bilishning kuchayishiga — giperosmiya, hidlashning buzilishiga dizosmiya yoki parosmiya deb ataladi.

Hidlashni tekshirish usullari.

Hid bilishni kuchsiz hidga ega bo'lgan (kamfora yog'i, valeriana suyuqligi, tish pastasi va boshqalar) moddalar orqali tekshiriladi. Kuchli hidga ega bo'lgan moddalardan foydalanib bo'lmaydi, chunki kuchli hidlar ham uch tarmoqli asabning, hidlov retseptorlarini ta'sirlaydi.

Bemorning har bir burun teshigiga kuchsiz hidli moddalar hidlatilib, uning nomi so'raladi. Normal holatda tekshiriluvchi hidni sezib, uning nomini aytadi.

Zararlanish simptomlari: hid bilishning bir tomonlama yo'qolishi yoki kamayishi, hidlov sugoni yoki hidlov yo'lining (trakti) zararlanganligidan dalolat beradi.

II juft BMA (n. opticus).

Ko'rish — bu insonning eng oliy sezgisi bo'lib, ko'zlar orqali odam atrof-muhitdan turli ma'lumotlar oladi. Ko'ruv analizatori to'rt neyron va o'tkazuvchi yo'lidan iborat.

Ko'rishning quyidagi zararlanish turlari farqlanadi: ko'rishning kamayishi — ambliopiya; yo'qolishi (ko'rlik) — amavroz, ko'ruv maydonining yarim yo'qolishi (chap yoki o'ng) — gemianopsiya; ko'ruv maydonining ma'lum bir qismida yo'qolishi — skotoma deyiladi.

Ko'ruv faoliyatini tekshirish usullari:

1. Ko'ruv o'tkirligini tekshirish, uni Sivsev, Kryukov va boshqa jadvallar yordamida tekshiriladi. Har bir ko'z alohida-alohida tekshiriladi, normada ko'ruv o'tkirligi 1,0 D teng.

2. Ko'ruv maydoni perimetr yordamida tekshiriladi. Tekshiruv usuli: bemor stulga o'tkaziladi va perimetrnning o'rtasidagi oq nuqtaga qarab turish so'raladi. Tekshiruv cho'p uchiga biriktiril-

gan ikkinchi oq nuqtani perimetр yoyining tashqi tomonidan, markazga qarab surilayotgan oq nuqta ko'rina boshlaydi. Shu tariga ko'ruv maydonining bir tomondagi cheti aniqlanadi. Boshqa chegaralar ham xuddi shu tartibda aniqlanadi. Oq rangga nisbatan ko'ruv maydonining normal chegarasi: tashqi— 90° , ichki— 60° , pastki— 70° , yuqori— 60° . Qizil, yashil ranglar yordamida tekshirilganda bu raqamlar $10\text{--}15^\circ$ ga kamayadi.

3. Qo'l barmog'i bilan ko'ruv maydonini tekshirish. Buning uchun bemordan bitta ko'zni yopib, ikkinchi ko'zi bilan tekshiruvchining burniga qarab turish so'raladi. Tekshiruvchi qo'l barmog'ini bemorning boshiga tashqaridan, yuqoridan va boshqa tomonidan yaqinlashtiradi. Bunda bemor barmoqning harakatini (yuqoridan va pastdan, tashqari va ichkaridan) ko'radi va barmoq harakatini ko'rgan joy nisbiy graduslanadi.

Barmoq yordamida tekshirish orqali ko'ruv maydonining faqatgina buzilganligini aniqlash mumkin.

VIII juft BMA (n. *Vestibulocochlearis*).

Eshitish ko'rish sezgisidan keyin ikkinchi muhim sezgi organi hisoblanib, buning yordamida odamlar nutq orqali muloqotlashadi, eshitadi va boshqa ma'lumotlarni qabul qiladi. U BMAning sakkizinchisezuvchi juft-dahliz-chig'anoq asabi (n. *Vestibulocochlearis*), nafaqat eshitish (*pars cochlearis*), muvozanat organi (*pars Vestibularis*) hamdir.

Pars coshlearis — eshituv qismi.

Eshituv o'tkirligining kamayishiga — gipokuziya; karlik — anakuziya; eshitishning kuchayishiga — giperakuziya deyiladi.

Tovush o'tkazish (o'rtal qulоq-nog'ora parda, eshitish suyakchalari) va tovush qabul qilish (ichki qulоq-chig'anoq, eshituv asabining yo'li) apparatlarining zararlanishlarini qiyoslash klinik amaliyotda muhim ahamiyatga ega.

Eshitishni tekshirish usullari.

Eshitish o'tkirligini tekshirish: bemor 6 metr uzoqlikda shivirlagan tovushda har bir qulоq alohida tekshiriladi. Bemor agar 6 metr uzoqlikda shivirlagan tovushni eshitsa, u sog'lom hisoblanadi.

1. Rinne sinamasi: buning uchun vibratsiyalantirilgan kametron (S 128 yoki S 256)ni so'rg'ichsimon o'simtaga (**processus mastoideus**) qo'yiladi. Tovushning suyak orqali eshitilishi tugaganidan so'ng, shu kamertonni culoqqa yaqinlashtiriladi. Normal holatda tekshiruvchi kamertonning tovushini havo orqali eshitaveradi, bu Rinnening ijobiy sinamasi hisoblanadi. Zararlanganda tovush o'tkazuvchi apparat teskari ma'lumot chiqaradi: bemor kamertonni havo orqali eshita olmaydi (Rinne sinamasi manfiy).

2. Veber sinamasi: tebratirilgan kamerton oyoqchasini bosh suyagining tepa qismiga qo'yiladi, bunda kameron tovushi ikki tomonga bir xilda eshitiladi. O'rta culoqning kasalliklarida bosh suyagining tepa qismiga qo'yilgan kamerton tovushini suyak orqali kuchli va uzoq qabul qilish zararlangan tomonda, ichki culoq kasalliklarida esa sog'lom culoqqa teskari tomonda aniqlanadi. Shu o'rinda, yuqori tovushlarni qabul qilishning buzilishi, ko'pincha tovush qabul qiluvchi apparatning zararlanishida, past tovushlarni qabul qilishning buzilishi esa tovush o'tkazuvchi apparatning zararlanishida kuzatiladi.

Pars Vestibularis-dahliz (vestibulyar) qism.

Vestibulyar apparat yordamida odam tanasining muvozanatini saqlaydi. Vestibulyar apparatining zararlanishi muvozanatning buzilishiga – ataksiyaga olib keladi.

Vestibulyar apparatni tekshirishda nistagrム muhim ahamiyatga ega. Nistagrム bu – ko'z olmasining vertikal va gorizontal hamda boshqa holatlarda ritmik liqillab turishiga aytildi. Nistagrム normal holatda ma'lum sinamalar o'tkazilganda kuzatiladi.

Kallorik sinama: culoqqa iliq suv (40°C) solinadi, bunda muolaja qilingan tomonda gorizontal nistagrム paydo bo'ladi,sovutq (20°C) suv solinganda esa nistagrム qarama-qarshi tomonda paydo bo'ladi.

Aylantirish sinamasi: bemorni maxsus Barani kreslosida aylantiriladi. Normal holatda aylantirayotgan vaqtida aylangan tomonda nistagrム kuzatiladi, aylantirish to'xtagandan so'ng nistagrム qarama-qarshi tomonda kuzatiladi.

Normada tekshiruvchi yurganda va tik turganda yonga chayqalmaydi. Turg'unlik Romberg holati yordamida tekshiriladi: buning uchun tekshiriluvchi oyoqlarini bir joyga qo'yadi, boshini biroz yuqoriga ko'taradi, qo'llari pastga tushirilgan holatda turadi. Ayrim hollarda murakkablashgan Romberg holatida ham tekshiriladi, bunda tekshiriluvchi bitta qo'lini gorizontal holatga olib kelib, ikkinchi qo'lini ham shu holatga olib kelish so'raladi. Romberg holatida bemor ko'zini ochib turish keyin esa ko'zini yumgan holda turadi. Normal holatda tekshiriluvchi muvozanatini yo'qotmaydi.

Zararlanish belgilari: fiziologik nistagm yo'qolib, patologik («birdagina») nistagm paydo bo'ladi. Ko'krak yoshidagi bolalar uzoq vaqt qorong'i uyda turganda ko'z olmasining nistagmsimon liqillashi kuzatilishi mumkin. Bulardan tashqari, nistagm chekuvchilarda kuzatilishi mumkin, bu o'smirlarni tekshirishda muhim ahamiyatga ega. Vestibulyar apparati zararlanganlar yurganda va tik turganda zararlangan tomonda nistagm bo'lishi mumkin. Romberg holatida boshini chapga va o'ngga burganda vestibulyar apparat zararlangan tomonga bemor yiqiladi. Bosh aylanish. Harakatlantiruvchi bosh miya asablari ko'z olmasining harakatini ta'minlovchi BMA.

III juft BMA (n. oculomotorius) – ko'zni harakatlantiruvchi asab.

Ko'zni harakatlantiruvchi asab yordamida ko'z olmasi yuqoriga, ichkariga, pastga, yuqori ichkariga, hamda qoshni yuqoriga ko'taruvchi, ko'z qorachig'inining yorug'likka, konvergensiya va akkomadatsiya reaksiyalari amalga oshiriladi. Bu asab ko'zning tashqi muskullarini asab bilan ta'minlaydi, bu muskullar ichki to'g'ri, yuqori to'g'ri, pastki to'g'ri, pastki qiyishiq muskullardan iborat. Bulardan tashqari, yuqorigi qovoq ko'taruvchi, ko'z qorachig'ini toraytiruvchi (*m. sphincter pupillae*) va kipriksimon muskullarni (*m. ciliaris*) asab bilan ta'minlaydi.

Ko'zni harakatlantiruvchi asabni tekshirish usullari.

Bemorga nevrologik bolg'achaga yoki vrach barmog'iga to'g'ri qarab turish so'raladi. Bunda bemorning ko'z yorig'iga va uning,

bir xildaligiga, yuqori qovoqning tushmaganligiga, ko‘z olmasining tashqariga tortilmaganligiga (ekzoftalm) yoki ichkariga tortilmaganligiga (enoftalm), hamda ko‘z olmasining holatiga va ko‘z qorachig‘ining shakliga va kengligiga e’tibor beriladi.

Ko‘z olmasining harakati tekshiriladi, bunda bemordan tepega, ichkariga va pastga qarash so‘raladi.

Qorachiq reaksiyalarini tekshirish usullari:

1. Qorachiqning yorug‘likka to‘g‘ri reaksiysi.

Bemor vrachga qarama-qarshi o‘tiradi, hamda qo‘li bilan bemorning ko‘zini berkitadi, keyin vrach qo‘lini bordaniga olib ko‘z qorachig‘ining kengligiga e’tibor beradi, normada qorachiq torayishi kerak. Shu usulda boshqa, ikkinchi ko‘z qorachig‘i tekshiriladi.

2. Qorachiqning yorug‘likka hamkor reaksiysi.

Buning uchun bemorning bitta ko‘zi qo‘l bilan yopiladi. Yopilgan ko‘zdan qo‘lni bordan olganda har ikki ko‘z qorachig‘ining torayishi kuzatiladi.

3. Qorachiqning konvergensiya reaksiysi.

Biron-bir narsaga nigoh bilan qaralib, o‘sha narsa ko‘zga yaqinlashtirilganda (masalan, nevropatolog bolg‘achasi) ko‘z qorachiqlari torayadi. O‘sha narsa (predmet) olinganda qorachiq kengayadi. Ko‘pincha ko‘z qorachig‘ining torayishi predmetni ko‘zga 10–15 sm yaqinlashtirganda kuzatiladi.

4. Qorachiqning akkomodatsiya reaksiysi.

Bu reaksiya bitta ko‘zni yumgan holda ikkinchi ko‘zda tekshiriladi. Normada predmetga yaqinroq qaralganda qorachiq torayadi va uzoqlashtirilganda kengayadi.

Zararlanganda kuzatiladigan asosiy belgilari.

Ptoz va yengil ekzoftalm, ko‘z olmasining tashqariga tortilishi uzoqlashgan g‘ilaylik (strabismus divergens). Bulardan tashqari, qorachiqning kengayishi (midriaz), konvergensiyaning, akkomodatsiya va ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka reaksiyalarining buzilishi. Ko‘z olmasining yuqoriga, tashqariga, ichkariga va qisman pastga harakat qila olmasligi yoki chegaralanishi. Kasal tarafga qaralganda narsalar ikkita bo‘lib ko‘riladi (diplopiya).

IV juft BMA (n. trochlearis) – g‘altak asabi.

G‘altak asabi ko‘zning yuqori qiyishiq muskulini (musculus obliquus superior) asab bilan ta’minlab, ko‘z olmasini pastga va tashqariga harakatlantiradi.

Tekshirish usuli: bemordan vrach barmog‘iga yoki nevrologik bolg‘achaga o‘zidan to‘g‘riga, keyin pastga qarash so‘raladi.

Zararlanish simptomlari:

Ko‘z olmasi biroz yuqoriga va ichkariga qaragan (strabismus convergens). Nigohni pastga qilganda narsalar ikkita bo‘lib ko‘rinadi — diplopiyaning va ko‘z harakati pastga, tashqariga biroz chegaralanadi.

VI juft BMA (n. abducens) – uzoqlashtiruvchi asab.

Uzoqlashtiruvchi asab ko‘zning tashqi to‘g‘ri muskulini (m. rectus lateralis) asab bilan ta’minlab, uning yordamida ko‘z olmasi tashqariga harakatlantiradi.

Tekshirish usuli: bemordan vrach barmog‘iga yoki nevrologik bolg‘achaga o‘zidan to‘g‘riga, keyin tashqariga qarash so‘raladi.

Zararlanish simptomlari: ko‘z olmasi ichkariga qaragan — ya-qinlashgan g‘ilaylik (strabismus convergens). Ko‘z olmasining tashqariga harakati qiyinlashadi yoki chegaralanadi. Kasal tarafa qaralganda narsalar ikkita bo‘lib ko‘rinadi (diplopiya).

VII juft BMA (n. facialis) – yuz asabi.

Yuz asabi yuzdagи shilliq qavatlarni, pastki qovoqni ko‘taruvchi, ko‘zning va og‘izning aylana hamda boshqa mimik muskularni asab bilan ta’minlaydi.

Bulardan tashqari yuz asabining tarkibida ko‘zyosh bezini, culoq pardasini taranglashtiruvchi muskulni, tilning oldingi 2/3 qismining sezgisini, og‘iz bo‘shlig‘ining so‘lak bezlarini asab bilan ta’minlovchi tolalari bor.

Yuz asabining faoliyatini tekshirish usullari. Yuqori mimik muskullarning faoliyatini tekshirish uchun bemorga quyidagi sinnamalar o‘tkaziladi:

1. Qoshni yuqoriga ko‘tarish. Bunda peshana burmalari bir xilda bo‘lishi lozim.

2. Qoshni chimirish. Normal holatda qosh o'rta chiziqda simmetrik bo'lishi lozim.

3. Ko'zlarni chirt yumish. Normal holatda ko'zlar ikki tomonda bir xilda yumilishi lozim.

Pastki mimik muskullarning faoliyatini tekshirish uchun bemor quyidagi sinamalarni bajarishi lozim:

1. Tishlarni ko'rsatish. Normada og'iz burchagi simmetrik bo'lishi lozim.

2. Tirjayish va lunjni shishirish. Harakat ikki tomonda bir xilda bo'lishi lozim.

3. Sham puflash – bunda lablar oldinga cho'chchayishi lozim.

Tilning oldingi uchdan ikki qismida shirin va nordon ta'mlarni tekshirish. Buning uchun qand yoki limon sokini tilning har ikki yarmiga shishali tayoqcha yoki pipetka yordamida tomiziladi, yoki kerakli suyuqlikka ho'llangan qog'oz bo'lagini tilning tekshirilayotgan yarmiga qo'yiladi. Bemor har bir sinamadan keyin og'zini suv bilan yaxshilab chayishi lozim.

Zararlanganda asosiy belgilar.

Patologik jarayon periferik neyronda bo'lganida periferik falajlik kuzatiladi. Bunda zararlangan tomonda ko'z ochiq (lagoof-talm), peshana burmasi tekislangan, peshanani tirishtirishni va ko'zni yumishning iloji bo'lmaydi. Ko'zni yummoqchi bo'lganida ko'z olmasi tepaga ketishi, ko'z qorasini yuqori qovoqning tagiga ketishi va ko'z yorig'i ochiq qolishi (Bella simptomasi) kuzatiladi. Tishni ko'rsatganda og'iz sog'lom tomonga tortiladi «undov belgisi» simptomasi. Ayrim hollarda ko'zdan yosh oqishi kuzatiladi. Lunjni havo bilan to'ldirganda zararlangan tarafda havo ushlab turolmaslik «yelkan» simptomasi kuzatiladi. Og'iz burchagidan so'lagining oqishi, gapirish va xushtak chalishning qiyinlashishi, zararlangan og'iz yarmidan suyuq ovqatning oqishi kuzatiladi.

Po'stloq-yadro tolasi bir tomonlama zararlanganda qarama-qarshi tarafda pastki mimik muskullarning markaziyligi kuzatiladi. Bunda og'iz burchagi pastga osilgan, tishlarni ko'rsatganda og'izning sog'lom tomonga qiyshayishi aniqlanadi.

XI juft BMA (n. accessorius) – qo'shimcha asab.

To'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon va trapetsiyasimon muskullarni asab bilan ta'minlaydi.

Tekshirish usullari:

Buning uchun bemordan quyidagi sinamalarni bajarish so'raladi:

1. Boshni oldinga engashtirish.
2. Boshni turli yonlarga bukish.
3. Yelkani qisish.
4. Qo'llarni yuqori gorizontal ko'tarish.
5. Kurakni umurtqaga yaqinlashtirish.

*

Normada hamma harakatni qiyinchiliksiz bajariladi.

Zararlanganda asosiy belgilar: bo'yin va yelka usti muskullarining atrofiyasi, zararlangan tomonga yelkaning tushishi, boshni sog'lom tomonga bukishning chegaralanishi, yelkani qisishning chegaralanishi, qo'lni gorizontal chiziqqacha olib kelishning qiyinlashishi, kurakning pastki burchagi umurtqadan uzoqlashishi kuzatiladi.

XII juft BMA (n. hypoglossus) – til osti asabi.

Bu asab til muskullarini, tilni oldinga va pastga yuqoriga va orqaga harakatlantiruvchi muskullarni inasabatsiya qiladi.

Tekshirish usullari:

Bemordan tilni osiltirish so'raladi, normada til o'rta chiziqda joylashgan bo'lishi lozim.

Zararlanish simptomlari: periferik falajlikda tilni osiltirganda (og'izdan tashqariga chiqarganda) zararlangan tomonga og'ishi (deviatsiya), bundan tashqari, o'sha tomondagi tilning yarmida atrofiya, fassikulyatsiya kuzatilishi mumkin. Nutqning aniqmasligi (apartriya), buzilishi (dizatriya) kuzatiladi.

Til osti asabining markaziy falajida atrofiya va fasikulyatsiyasi kuzatilmaydi. Til patologik o'choqning qarama-qarshi tomoniga og'ishi kuzatiladi.

Bosh miyaning aralash asablari.

V juft BMA (n. trigeminus) – uch shoxli asab.

Sezuvchi tolalari yuz terisini, boshning sochli qismini, peshana tepe sohasini, ko'z olmasini, burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va tilning oldingi 2/3 qismi shilliq qavatlarini, tishlarni bosh chanog'i yuz qismining suyak usti pardasi oldingi va o'rta miya chuqurchalaridagi miya qattiq pardasini inasabatsiya qiladi. Bundan tashqari uch shoxli asab tolalari chaynov, ko'z va mima-ka mushaklari proprioretsetorlariga ham boradi.

Harakatlantiruvchi qism. Chaynov, medial va lateral qanotsimon yonoq mushaklarini, jag' til osti mushaklarini, ikki qorinli mushakning oldingi qorinchasini va nog'ora pardani taranglashtiruvchi mushakni inasabatsiya qiladi.

Harakatlantiruvchi qismni tekshirish usullari. Harakatlantiruvchi qism faoliyatini tekshirish mushaklarni ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Atrofiya yoki gipertrofiya, fibrillyar va fassikulyar mushak qisqarishlari borligiga e'tibor beriladi. Paypaslaganda esa mushaklar konfiguratsiyasini, ularning tarangligini aniqlash mumkin. Bemordan og'zini ochish va yopish, bir necha chaynov harakatlarini bajarish so'raladi. Tekshiruvchi qo'llarini chaynov muskullariga qo'yib, ularning taranglik darajasini aniqlaydi. Normada pastki jag'ning osilib qolishi yoki bir tarafga og'ishi (deviatysiya) kuzatilmaydi, mushaklar ikkala tomonda ham bir xil taranglikda bo'ladi.

Pastki jag' refleksi: bunda bemorning yarim ochilgan og'ziga engagi bo'ylab, yuqorida pastga qarab oldin bir tomonlama, keyin ikkinchi tomonlama nevrologik bolg'acha bilan uriladi. Undan tashqari, tekshiriluvchining engagiga tekshiruvchi distall falangasi bo'ylab urib ko'rsa bo'ladi. Bu ta'sirlanishga javoban chaynov muskullari qisqaradi va pastki jag' yuqoriga ko'tariladi.

Zararlanishning asosiy belgilari.

Og'iz ochilganda jag' kuchsiz mushak tomonga og'adi (deviatysiya), shikastlangan tomonda chaynov muskullari yetarli taranglashmaydi, atrofiyalangan bo'lishi mumkin, pastki jag' refleksi chaqirilmaydi.

1. Uch shoxli asab sezuvchi qismini tekshirish usullari.

Bemordan yuz sohasida og'riqli yoki boshqacha sezgilar (gapira olmaslik, chumoli g'imirlashi) borligi so'raladi. Uch shoxli asab shoxlari chiqadigan nuqtalar paypaslab, og'riq bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Uchta shox inasabatsiyalaydigan sohalar, hamda Zelder sohasi simmetrik nuqtalarda igna yordamida og'riq sezgisiga, paxta yordamida taktil sezgiga tekshiriladi.

Zararlanishning asosiy belgilari:

Sezuvchi ildiz shikastlanganda shikastlanish tomonida yuz va boshning sochli qismi oldingi 1/3 qismida anesteziya yoki gipesteziya bo'ladi. Sezishning hamma turlari zararlanadi. Aynim bemorlarda faqat 1- va 2-shoxlar (yuqori jag' yoki ko'z asabi) shikastlanadi va tarmoqlangan sohalarida sezgi buzilishi paydo bo'ladi. Bu asablar shikastlanganda shox parda anesteziyasi bo'lib, shox parda refleksi yo'qoladi. 3-shox (pastki jag' asabi) shikastlanganda esa bu shox inasabatsiyalaydigan sohada sezgi buziladi va pastki jag' refleksi yo'qoladi.

Yuzaki sezgi Zelder sohalariga bog'liq ravishda yo'qoladi. Piyozsimon yadro ko'prik qismi shikastlanganda yuzning medial bo'limlarida gipesteziya kuzatiladi. Yadroning o'rta qismi shikastlanganda esa gipesteziya yuzning paramedial bo'limlarida bo'ladi. Yadro uzunchoq miyada shikastlanganda gipesteziya yuzning lateral sohalarida paydo bo'ladi.

IX, X juft BMAlari (n. glossopharyngeus; n. vagus) – til halqum va adashgan asablar bulbar guruhi.

Asablarning bu guruhlari yordamida yutish va nutq fonatsiyasi yuzaga keladi, bundan tashqari yumshoq tanglay, tomoq, halqum, hiqildoq, eshituv nayi, nog'ora bo'shlig'i umumiy sezgisi, tilning orqa 1/3 qismi ta'm bi'llish sezgisi ta'minlanadi.

Tekshiruv uslubi:

Bemordan so'raladi:

1. Og'izni ochish va «a» deyish. Bunda yumshoq tanglayning qisqarishiga va tilchaning joylashuviga e'tibor beriladi. Normada yumshoq tanglay simmetrik joylashadi, ikki tomonda ham bir xil taranglashadi, tilcha o'rta chiziq bo'ylab joylashadi.

2. Bir necha so'zlarni ovoz chiqarib aytish. Bunda ovozda burun ohangi bo'lmasligi kerak.

3. Bir necha qultum suv ichish; yutish, erkin bo'lishi kerak.

4. Ta'm bilish sezgisini tekshirish (n. *facialis* ga qaralsin).

Zararlanishning asosiy belgilari.

Shikastlangan tomonda yumshoq tanglay osilib qoladi, tovushlarni talaffuz qilganda uning harakatchanligi cheklanadi, tilcha sog' tomonga og'adi.

Ovoz ming'illagan burun ohangiga ega bo'ladi. Halqum va tanglay reflekslari susayadi yoki yo'qoladi, yutish birmuncha buziladi (disfagiya) yoki yo'qoladi (afagiya).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Inson asab tizimiga tashxis qanday qo'yiladi?

2. Bosh miya asablari (BMA) qaysi usullar bilan tekshiriladi?

3. Hidlash qanday usullar bilan tekshiriladi?

4. Eshitishning qanday tekshirish usullari mavjud?

5. Bosh miyaning aralash asablari qanday usullar bilan tekshiriladi?

7-mavzu. Inson koordinatsion va ekstrapiramidal tizimi

Reja:

1. Miyacha.

2. Ataksiya.

3. Ekstrapiramidal sistema.

4. Bosh miya pardalari.

Ekstrapiramida tizimi

Bunga po'stloq osti tugunlari va ularning yo'llari kiradi.

1. Lentikulyar yadro — nucleus.lenticularis.

2. Luis subtalamik tanasi.

3. Qora modda — substancia. nigra.

4. Qizil yadro — nucleus. ruber.

5. Dumli yadro — nucleus. caudatus.

6. Vestibulyar yadro, pastki oliva – uzunchoq miyada.

7. To'rsimon formatsiya – f. Reticulari.

Gistologik tuzilishi, funksiyasining o'xshashligi uchun po'stloq, putamen va n. Caudatus striar sistemasini tashkil qiladi.

Ikkinchchi qismi pallidar sistema – oq shar globus pallidum, qizil yadro – n.ruber, subs.nigra. Ikkalasi striopallidar sistema deyiladi. Ekstrapiramida sistema, miyacha, ko'ruv do'ngligi, gipotalamik soha, miya po'stlog'i, to'rsimon formatsiya, orqa miya oldingi shox hujayralari bilan bog'langan.

Shunday qilib, ekstrapiramida sistema miostatik – muskularni harakat qilishga tayyorlaydi, harakatning aniq ravonligini, tananing aniq bir holatini boshqaradi va ko'ruv do'ngligi hamda gipotalamik soha bilan juda yaqin bog'langan.

Pallidar sistemaning patologiyasi.

Po'stloq osti tugunlarida dopamin sintez qilinadi, patologik holatda dopamin miqdori kamayadi va sintezi buziladi.

Pallidar sistemasining zararlanishi gipertonik – gipokinetik yoki amiostatik sindromni, ya'ni Parkinsonizm kasalligi kelib chiqadi. Bunda tana muskullarining plastik tonusining oshishi kelib chiqadi. Bemor tanasi yarim bukchaygan, oyoq-qo'llari tirsak va tizza bo'g'imlarida bukilgan holatda bo'ladi. Harakat kamayadi va sekinlashadi (bradikineziya, oligokineziya). Yurish ritmida qo'l ishtirok etmaydi, mayda qadamlar bilan yurishadi. Birdan yurib ketish qiyin bo'ladi – keyin chopib ketishi mumkin. Mimika yo'qoladi, emotsiya sekinlik bilan boshlanib, sekinlik bilan tugaydi.

1. Tonus plastik holatda oshadi «tishli g'ildirak» belgisi.
2. Nutq sekin bir xil past ovozda, so'zlashish oxirida nutq yo'qoladi.
3. Titrash – tanga sanash.
4. Propulsiya, retropulsiya, lateropulsiya (oldinga, orqa, yon tomonga). Og'irlik markazi o'zgarishi orqa muskul qisqarishini chaqirmaydi.

Striar sistemasi patologiyasi.

I. Gipotonik giperkinetik sindrom.

1. Gipotoniya – muskul tonusining pasayishi.
2. Giperkinez – avtomatik, ixtiyorsiz, maqsadsiz to'satdan paydo bo'ladigan ortiqcha harakatlarga aytildi (xoreya, atetoz, torsion distoniya).

A. Xoreik giperkinezlar – tez, noaniq, tananing turli qismlari-dagi muskullarni o'ziga qamrab oluvchi harakatlar. Bunda qo'l barmoqlari to'xtovsiz bukilib-yozilib turadi. Bemor to'satdan oyo-g'ini uzatib yana tezlik bilan yig'ib oladi. Yoki tanasi to'satdan bir tomonga bukilib yana tezlik bilan yoziladi. Mimik muskullarini ning giperkinezi tufayli peshanasini ixtiyorsiz ravishda tirishtiradi, og'zini qiyshaytiradi, qoshini chimiradi. To'satdan yurib ketadi. Ularning harakatlari o'yin tushayotgan kishini eslatadi. Uyquda yo'qoladi. Bu hol revmatik xoreyada uchraydi.

B. Atetoz – qo'l panjasи va barmoqlarda yozuvchi va bukvuvchi muskullarning tonusi oshib ketadi. Harakat impulsleri yozuvchi va bukvuvchi muskullarga birdaniga kelishi natijasida barmoqlarda chuvalchangsimon harakat paydo bo'ladi.

D. Torsion distoniya-striar sistema zararlanishidan kelib chiqadi. Bu kasallik tonusning muskullarga noto'g'ri taqsimlanishidan kelib chiqadi. Bemorlar harakat qila boshlaganlarida tananing tabiiy vaziyati o'zgaradi. Tananing yoziltiruvchi muskullarining tortib ketishi natijasida bemorning bo'yni orqa yoki yon tomonga qiyshayib, tanasi orqa tomonga egiladi.


E. Miokloniya – tez va qisqa vaqt ichida alohida yoki muskul gruppalarining klonik qisqarishi. Hayajonlanganda harakat ko'payib, uxlaganda yo'qoladi.

Miyacha – Cerebellum. Muvozanat va harakatni koordinatsiya qiladigan organ. Miyacha miya qutisining orqa chuqurchasida, bosh miya ensa bo'lagingning ostida va ko'prik bilan uzunchoq miya orqa tomonida joylashgan bo'lib, rombsimon miyaning tomini hosil qiladi. Miyacha tananing tinchlikda va harakatdagi muvozanatini boshqaruvchi markaziy organ. Miyacha tana muskullarining tonusini boshqaradi. Miyacha anatomik 2 ta yarim shardan

va ularni birlashtiruvchi chuvalchangdan tuzilgan. Chuvalchang va miyacha yarim sharlari chuqur ko'ndalang yoriqlar bilan fragmentatsiyalanadi. Miyacha oq va kulrang moddadan tashkil topgan. Kulrang modda miyachaning po'stlog'ini hosil qiladi.

Miyachaning tashqi tomoni kulrang modda bilan qoplangan bo'lib, uni miyachaning po'stlog'i deyiladi. Po'stloq tagida oq modda yotadi. Miyacha oq modda oralig'ida esa uning markaziy yadrolari yotadi:

1. Tishli yadro (n. dentatus).
2. Yopilg'ich yadro (n. fastigii).
3. Probkasimon yadro (n. embiliformis).
3. Sharsimon yadro (n. globozi).



7-rasm. Miyachaning tuzilishi va uning yadrolari: 1 — shatra yadro; 2 — sharsimon yadro; 3 — ponasimon yadro; 4 — tishli yadro.

Miyacha po'stlog'ining qalinligi 1 mm dan 2,5 mm gacha bo'lib, asosan 3 qavatdan iborat bo'ladi.

Miyacha miya ustuni hamda uch juft oyoqchalar bilan bog'lan-gan.

1. Pedunculi cerebellaris superior.

2. Pedunculi cerebellaris media
3. Pedunculi cerebellaris inferior.

Bu oyoqchalar nerv tolalaridan iborat bo'lib, bu tolalar miyachaga impuls olib keladi va olib ketadi.

Pastki va o'rta miyacha oyoqchalari asosan 4 afferent tolalaridan iborat bo'lib, markazga intiluvchi sistemani tashkil qilsa, miyacha yuqori oyoqchalari esa efferent tolalardan yoki markazdan keluvchi xarakterga ega.

Miyacha pastki oyoqchalari miyachani uzunchoq miya bilan bog'laydi.

Miyachaning o'rta oyoqlari miya po'stlog'ining peshana bo'lagidan boshlanib, ko'priq orqali o'tib miyacha po'stlog'ida tugaydi. Ushbu yo'l miya po'stlog'ining ensa, chakka bo'lagidan boshlanib, ko'prikdan o'tib miyacha po'stlog'ida tugaydi. Miyachaning yuqori oyoqchalari miyachani qizil yadro bilan bog'laydi.

Shunday qilib, miyacha harakat davomida qo'zg'aluvchi barcha retseptorlardan afferent impuls oladi. Harakat sistemasining holatini hisobga olib, miyacha qizil yadro va miya ustunining to'r formatsiyasini ta'sirlaydi. Bu ta'sirlash umumlashib orqa miya oldingi shoxlariga impuls beradi va bularning barchasi muskul tonusini tashkil qiladi.

Bulardan tashqari miyacha ko'z olmasini harakatlantiruvchi nerv yadrolari bilan ham bog'lanadi.

Miyacha aniq somatotopik xususiyatga ega, ya'ni uning chervalchangi tana muskullarini idora qilsa, uning yarim sharlari esa qo'l-oyoqning distal qismidagi muskullarni ta'sirlaydi. Shu sababli miyacha ataksiyasi ikki turga bo'linadi.

1. Statik-lokomotor ataksiya. Asosan tik turish va yurish buziladi. Bemor oyoqlarini keng tashlab turadi, chayqaladi. Yurish jarayonida tana yon tomonga ketib qoladi va mast kishining yurishini eslatadi. Chayqalish miyacha jarohatlangan tomonda bo'ladi. Bunday yurishni ataktik yurish deyiladi.

I. Statik ataksiya:

1. Tik turish, oyoqlarni keng tutish.
2. Yurish – mast kishi yurishi.
3. Romberg belgisi.
4. Dorboz belgisi.

II. Dinamik ataksiya. Asosan harakat bajarilishida kuzatiladi:

1. Barmoq-burun belgisi.
2. Tovon-tizza belgisi.
3. Adiadoxokinez.
4. Dismetriya.
5. Nutqning buzilishi, har bo‘g‘imda urg‘u beradi, škandir-lashgan.
6. Intension titrash.
7. Yozuvning buzilishi, notejis.
8. Gorizontal nistagm.
9. Muskul tonusining (gipotoniya) zararlangan tomonda o‘zgarishi.

Tekshirish uchun savollar:

- Miyacha zararlanganda qanday belgilar kuzatiladi?
- Miyacha ataksiyasi boshqa ataksiyalardan (sensitiv, vestibulyar va peshana ataksiyalaridan) qanday farqlanadi?
- Bosh miyaning qaysi qismlari ekstrapiramida sistemaga kirdi?
- Striar sistemaning patologiyasi qanday belgilar bilan namoyon bo‘ladi?
- Pallidar sistemaning zararlanishi qanday belgilar bilan namoyon bo‘ladi?

Bosh va orqa miya pardalari.

Bosh va orqa miya pardalari – bosh va orqa miyada 3 ta – qattiq, to’rsimon va yumshoq pardalar mayjud. Pardalar miyani har xil ta’sirlardan saqlaydi. Qattiq miya pardasi o’simtalari va sisternalari mexanik ta’sirlardan saqlaydi. To’rsimon va yumshoq miya pardalari suyuqlik aylanishini, miya to‘qimasining oziqlanishini ta’minlaydi.

Miya qattiq pardasi.

Miya qattiq pardasi — miyaning tashqi pardasi hisoblanadi va 2 qavatdan iborat. Tashqi qavati kalla suyagining ichki pardasini, ichki qavati fibroz to‘qimalardan iborat bo‘lib, miyani bevosita qoplaydi. Kalla suyagining ichida bu 2 qavat qo‘silib bosh miya o‘rog‘i (G‘alx segebelli), miyacha o‘rog‘i (G‘alx segebelli), miyacha chodiri (tentorium segebelli), egar diafragmasi (duafragma sellae), ularning o‘zaro ajralgan joylari sinuslarni hosil qiladi. Eng kattalari yuqori va pastki sagittal, ko‘ndalang va to‘g‘ri sinuslardir. Bular orqali venoz qon ichki bo‘yinturuq venasiga quyiladi.

To‘rsimon parda.

To‘rsimon parda — qattiq miya pardasi ostida joylashgan va undan subdural bo‘shliq bilan ajralgan. Bu parda ostida subaraxnoidal bo‘shliq joylashgan, unda orqa miya suyuqligi joylashadi. Shu bo‘shliq har xil joylarida sisternalar hosil qiladi. Likvor subaraxnoidal bo‘shliq to‘rsimon va yumshoq pardalar orasida sirkulyatsiyalanadi.

Qattiq parda umurtqa pog‘onasining epidural bo‘shlig‘i bilan ajralgan. O‘rtta va to‘rsimon pardalar qattiq pardadan subdural bo‘shliq bilan, yumshoq parda esa to‘rsimon osti bilan (ot dumi sohasida) terminal qorinchani va u orqa miya suyuqligi bilan to‘lgan bo‘ladidi.

Orqa miya suyuqligi.

Orqa miya suyuqligi miya qorinchalaridagi tomirlardan chiqadi. Yon qorinchalaridan likvor III qorinchaga undan silviyev yo‘li bo‘yicha IV qorinchaga va undan miya va orqa miya to‘rsimon osti bo‘shlig‘iga o‘tadi. Suyuqlik uzliksiz sutkasiga taxminan 600 ml ishlab chiqariladi va uzliksiz asosan venoz sistema orqali ajraladi. Likvor qisman limfa sistemasi orqali so‘riladi. Likvor harakati tomirlar pulsatsiyasi nafas, bosh va tana harakati yordamida amalga oshiriladi. Orqa miya suyuqligi tarkibiga kiradi: suv, hujayralar, limfotsitlar, oqsil, glyukoza, xloridlar, elektrolitlar, mikroelementlar, vitaminlar, gormonlar.

Normada likvor tiniq, rangsiz miqdori katta odamda 120–150 ml, sitoz (limfotsitlar) 7–12 ta 1 mkl; glyukoza 0,5–0,8 g/l, oqsil

miqdori 0,12–0,33 g/l, bosimi 200 ml suv.ust. (yonbosh holatda).

Orqa miya suyuqligining fiziologik ahamiyati turli-tuman. Avvalambor u miyaninggidravlik yostig'i hisoblanadi va miyani chayqalishidan mexanik himoya qiladi. Shuningdek, umoddalar almashinuvida qatnashadi, bosh miya orqa miyaga oziqlantiruvchi mahsulotlarni yetkazadi va ulardan almashinuv mahsulotlarni olib chiqadi; elektrolit balansni saqlaydi va miya ichki muhitini turg'unlashtiradi.

Serebrospinal suyuqlikning sirkulyatsiya qilish sxemasi

Gematoensefalik to'siq.

MNS qon-tomirlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular astrotsitlar bilan izolirlangan bo'ladi va ularning tomirlari orqali yirik molekula o'ta olmaydi, faqatgina gazlar va mayda molekulali oziqlantiruvchi moddalar kiradi. Bu chegaralanish gematoensefalik to'siq nomini olgan. Shuningdek, miyadan qonga moddalarning o'tishi chegaralangan. Gematoensefalik to'siqni shikastlanshi miya faoliyatining og'ir buzilishiga olib keladi.


Nerv sistemasining qon bilan ta'minlanishi.

Bosh miya qonni ikkita juft magistral tomirlardan: umurtqa va ichki uyqu arteriyasidan oladi. Umurtqa arteriyasi o'mrov osti arteriyasining tarmog'i hisoblanadi. U bosh miya chanog'iga umurtqalarning ko'ndalang o'sig'i teshigi orqali yo'naladi va katta ensa teshigi orqali kiradi. Miya ustuni sohasida umurtqa arteriyalari bitta umumiy ustunga quyiladi. Ular 2 ta orqa miya arteriyasiga bo'linadi va o'rta miya, ko'rik, miyacha katta yarim sharlari ensa bo'lagini qon bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari undan ikkita orqa miya arteriyasi (oldingi va orqa) ajraladi. Sanab o'tilgan arteriyalar vertebro-bazillyar havzani hosil qiladi. Karotid basseynichki uyqu arteriyasining tarmoqlaridan hosil bo'ladi. Ichki uyqu arteriyasi umumiy uyqu arteriyasining tarmog'i hisoblanadi. U kalla bo'shilg'iga ichki uyqu teshiklari orqali ki-



8-rasm. *

radi va bir nechta: ko‘z arteriyasi, orqali qo‘shuvchi va oldingi so‘rg‘ichsimon arteriyasi tarmoqlarini beradi.



9-rasm. Bosh miyaning qon bilan ta'minlanish sxemasi

Ichki uyqu arteriyasi oldingi va o'rta miya arteriyalariga bo'linadi. Oldingi miya arteriyasi peshana bo'lagining oldingi bo'limini va yarim sharlar ichki yuzasini, o'rta miya arteriyasi peshana po'stloq qismining ko'p qismini, tepa va ensa bo'lagini,

po'stloq osti bo'laklarini va ichki kapsulaning katta qismini qon bilan ta'minlaydi. Oldingi o'rta va orqa miya arteriyasi miyaga radial kiruvchi arteriyalar ustunini boshlab beradi.

Ikkala oldingi miya arteriyalari, oldingi qo'shuvchi arteriyalar ham birikadi. Orqa qo'shuvchi arteriyalar orqa va o'rta miya arteriyalarini qo'shadi. Shunday qilib miya yarim sharlari ichki yuzasida turli xil tizim tomirlar o'zaro birikishi natijasida katta miya arterial halqasi yoki Villizev halqasi hosil bo'ladi. U miya magistral tomirlarining birida qon oqishi buzilishida kollateral qon aylanish yuzaga kelishida katta rol o'ynaydi. Ichki uyqu yoki umurtqa arteriyalarining bir tomonlama berkilishi qarama-qarshi tomondagi Villizev halqasi tomirlar tizimi yordamida kompensatsiyalanadi. Po'stloqning kulrang moddasi oq moddaga nisbatan ko'proq qon bilan ta'minlanadi. Bosh miya arteriyalari oxirgi arteriyalar hisoblanmaydi, chunki arteriolalar va venulalar o'zaro anastamoz hosil qiladi. Miya qattiq pardasi tashqi uyqu arteriyasi tarmoqlari orqali qon bilan ta'minlanadi.

Venoz qon oqimi tomirlar chigali va miyaning chuqur qismidan katta miya venasi (Galen venasi) orqali amalga oshadi va to'g'ri venoz sinusga qo'shiladi. Boshqa sinuslarga miya yuzaki venalari quyiladi. Qattiq miya pardasi sinusidan qon ichki bo'yinturuq venasi orqali va keyinchalik yuqori kovak venaga quyiladi.

Orqa miyaning qon bilan ta'minlanishi.

Orqa miyaning qon bilan ta'minlanishi oldingi va orqa miya arteriyalari hisobiga amalga oshadi. Oldingi orqa miya arteriyalari uzunchoq miya asosida umurtqa arteriyalari chiqib orqa miya chegarasida bitta toq orqa miya arteriyasiga qo'shiladi va u orqa miya bo'ylab pastga yo'naladi. Orqa miya arteriyalari umurtqa arteriyalarining oldingiga nisbatan pastroqdan chiqadi va orqa miyaning orqa yuzasi bo'ylab pastga yo'naladi.

Orqa miya arteriyalarining qon bilan ta'minlanishi (ko'nda lang kesim).

Oldingi va orqa miya arteriyalariga aortadan segmentar tarmoqlar umurtqa arteriyalari tizimining tugun arteriyalari qo'shiladi.


Orqa miyaning arterial qon bilan ta'minlashida 3 ta basseyн farqlanadi:

1) yuqori (segmentlar S1-T3) — umurtqa arteriyalaridan qon oladi;

2) o'rtal (T4-T8 segmentlar) — aortaning ildiz arteriyalari qon bilan ta'minlaydi;

3) pastki (T9-S5 segmentlar) lta ildiz arteriyasi Adamkevich arteriyasi orqali qon bilan ta'minlaydi. U pastki qovurg'alar yoki bel arteriyasi tarmog'i hisoblanadi.


Venoz qon orqa miyadan bir xil nomlanadigan arteriyalar bilan parallel ketuvchi venalar orqali oladi va umurtqa kanali venoz chigaliga quyiladi.



10-rasm. Orqa miyada arterial qon aylanish sxemasi (ko'ndalang kesimi):
1 — orqa miyaning oldingi arteriyasi; 2 — egatsimon arteriya; 3 — orqa miyaning orqa arteriyasi; 4 — sirkumferent arteriya.

Orqa miya

Orqa miyaning kulrang moddasi nerv hujayralarining yig'inidisidan iborat va gorizontal kesmada xuddi uchib ketayotgan kapalak yoki «N» rasmni eslatadi. Kulrang modda markazida tor markaziy kanal mavjud. Bu kanal ko'ndalang kesmani 2 ga, ya'ni oldingi kulrang bitishma va orqa kulrang bitishmaga ajratadi.



11-rasm. Orqa miya ko'ndalang kesimi: 1 — kulrang modda; 2 — oq modda; 3 — orqa ildizcha; 4 — oldingi ildizcha.


Orqa miyaning kulrang moddasidan tuzilgan oldingi shoxlar, yon shoxlar, orqa shoxlar tafovut qilinadi. Bu yerda harakatlantiruvchi piramida yo'lining 2-neyron xujayralari joylashgan. Orqa miya oldingi shoxlarining shikastlanishi periferik falajlik rivojlanishiga olib keladi va mushaklar atoniyasi, arefleksiyasi va atrofiyasiga olib keladi. Yon shoxlarda vegetativ trofik funksiyaga javob beruvchi hujayralar joylashgan. Yon shoxlar asosan orqa miyaning ko'krak qismida yaxshi rivojlangan. D1-D2 oralig'ida siliospinal simpatik markaz joylashgan, shu sohaning shikastlanishi Klod-Bernar-Gorner yarim ptoz-mioz-enoftalm sindromini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, yon shoxlarning shikastlanishi vegetativ trofik buzilishlarga: og'riqsiz panarit-siy, soch va tirnoqlarning to'kilişiga olib keladi. Orqa miyaning orqa shoxlarida yuqori og'riq sezgisining o'tkazuvchi yo'llarining 2 neyronlari joylashgan.

Ularning shikastlanishi sezgining segmentar buzilishlariga olib keladi, chuqur sezgi saqlanib qolgan bo'ladi.

Orqa miyaning oq moddasi o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan bo'lib, oldingi, yon, orqa ustunlarga bo'linadi. Oldin-

gi ustundan kesishmagan piramida yo'li, ekstrapiramida yo'llari o'tadi. Yon ustundan yuqoriga ko'tariluvchi va pastga tushuvchi yo'llar o'tadi. Orqa ustundan yuqoriga ko'tariluvchi yo'llar o'tadi.

Orqa miyaning alohida segmentlari orasida zikh bog'lanishlar bo'lib, ular maxsus assotsiativ hujayra va tolalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu apparatga orqa miyaning xususiy apparati deyiladi.



12-rasm. Orqa miya segmentlari bilan umurtqa tanasi o'rtasidagi topografik nisbat.

Orqa miyaning har bir segmenti o‘z tomonining ma’lum bir qismini innervatsiya qiladi: teri-dermatoma, mushak-miotoma, ichki organ – splanxlotoma. Bunday kesma metomer deb aytildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nerv tizimining struktura birligi nima?
2. Nerv tizimining qanday vazifalarini bilasiz?
3. Orqa miya tuzilishi.
4. Katta yarim sharlar bo‘laklari va bosh miyani qon bilan ta’minlovchi basseynlarni sanab o‘ting.
5. Gematoensefalik to‘sinqning ahamiyati nimada?

8-mavzu. Inson harakatlanish tizimi

Reja:

1. Asab-mushak apparatining funksiyasi.
2. Harakat sifatlarining rivojlanishi.
3. Bosh miya po’stlog‘ida harakat markazlarining rivojlanishi.
4. Harakat faolligining rivojlanishi.

Tayanch so‘z va iboralar: asablar, mushaklar, harakat, harakat markazlari, harakat sifati va faolligi.

Miyadagi neyronlar soni 100 milliardan ortiq. Miyadagi asab to‘qimalarining uzunligi 93,200 va 112,000 mill (150,000 va 180,000 km) atrofida. Bosh miya o‘ng yarim shariga qaragan-da chap yarim sharida 186 million ko‘proq neyron bor. Asab impulsleri miyadan 170 mill (274 km) soat tezligida harakat qiladi.

Asab-mushak apparatining funksiyasi.

Ayrim funksiyalarning rivojlanishida ontogenetik jarayonlarning geteroxonizmi namoyon bo‘ladi. Misol uchun yangi tug‘ilgan bolalarda mushaklarning qo‘zg‘aluvchanligi juda past, lekin 6–7 yoshgacha u juda tez orta boradi, undan keyin esa nisbiy barqarorlik boshlanadi. Yosh ulg‘ayishi bilan elektr tokiga

qo‘zg‘aluvchanlik bo‘sag‘asi orta borsa, gumoral omillarga esa aksincha pasayadi.

Asab-mushak tizimining funksional harakatchanligi odatda asab-mushak sinapslarining funksional holati bilan aniqlanadi. Bu tuzilmaning yetilishi sekin-asta yuz beradi va asablardan mushaklarga qo‘zg‘alishning o‘tkazilish vaqtini 4 martagacha qisqartiradi. Funksional harakatchanlik (labillik)ning ortishi 14–16 yoshgacha davom etadi.

Yangi tug‘ilgan bolalar mushaklarining funksiyasida doimiy ravishda faol holatda bo‘lishi va hatto uyqu paytida ham bo‘shashmasdan termoregulyatorlik funksiyasini bajarish xususiyati mavjud. Termoregulyatorlik funksiyasidan harakat funksiyasining ustunlik davriga o‘tish payti asosan chaqaloqlik davri davomida amalga oshadi. Skelet mushaklarining doimiy faolligi ularning massasi o‘sishini stimullovchi omil hisoblanadi.

Hayotning 1-oyida mushaklarning faolligi «yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning bukuluvchi giperdinamikasi» (gavdaning, qo‘l-oyoqlarning va boshning egilgan) holati bilan xarakterlanaadi. 1–1,5 oylik yoshda unda bo‘yin mushaklari reflektor qisqarishining yetilishi hisobiga boshni vertikal holatda saqlab turishdan iborat bo‘lgan (1-antigravitsion) reaksiya amalga oshadi. 2,5–3 oylik yoshda esa holatning komponentlaridan biri bo‘lgan ushlab turish refleksi so‘nadi va 4 oylikda esa chamalash reflekssining komponentlaridan biri sifatida faol ushlash shaklida qayta hosil bo‘ladi. 5–6 oylarga kelib o‘tirish holati (2-antigravitsion reaksiya), 11–12 oylarda esa tik turish holati (3-antigravitsion reaksiyalari) o‘zlashtiriladi.

Tananing vertikal (tik turish) holati o‘zlashtirilishi ontogenezning muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Bu paytda harakat reaksiyalarining bajarish imkoniyatlari hosil bo‘ladi. Harakat faolligining hajmi sakrashlar shaklida ortadi. Vertikal holatning o‘zlashtirilishi tufayli mushaklar faoliyati ontogenetik jarayonlarning kechishi uchun ta’sir ko‘rsatuvchi atrof-muhit omillaridan asosiy bo‘lib qoladi.

Odamlar uchun xos bo'lgan barcha asosiy harakat ko'nikmalarini (yurish, yugurish, sakrash va boshqalar) bolalarda sekin-asta shakllanadi. 4 yoshgacha yurishning ayrim elementlari o'zlashtiriladi va ularning elementlari orasidagi vaqtinchalik nisbatlar tiklanadi. Qo'l va oyoqlarning kelishgan holdagi birgalikda bajariladigan koordinatsiyasi bolalar 3 yoshga kirdguncha -10%, 4 yoshda -50%, 5 yoshda -65%, 6-7 yoshda - 80% kuzatiladi.

7 yoshdan 10 yoshgacha tinch yurgan paytda tempning pasayishi hisobiga harakat amplitudasi oshadi, qo'l va oyoqlar harakatidagi resiprok nisbatlar tiklanadi. Bolaning yoshi ortishi bilan yurish paytda oyoq kaft suyaklarining burilish burchaklari kattalashadi, nihoyat turg'unlikning oshishini va kaft suyaklarining burilish asimmetriyasi kamayishini ta'min etadi. 11-12 yoshga kelib yurish paytidagi og'ishlar xarakteri voyaga yetgan odamlarning maydondagi harakatlari aniqligidan juda kam farq qiladi. O'g'il va qiz bolalarning maktabgacha yoshida yurish kinematisida farq kuzatilmaydi. Sekin-asta yurishning vaqtini ko'rsatichlari va qadamining uzunligi-davomiyligi kattalashadi. 7-8 yoshdan keyin bolalarda tana massasining qo'shimcha og'ishlari soni kamayadi. Yurishda ishtirok etuvchi mushaklar ishi parametrlarining variatsiyasi kamayadi.

Yugurish, yurishdan uch ish fazasi mavjudligi bilan farq qiladi va bu faza bolalar hayotining uchinchi yilida o'zlashtiriladi. 10-11 yoshga kelib uchishning dastlabki fazasi 2 marta va undan ham ko'p ortadi. 7-8 yoshga kelib yugurish paytda qadamning uzunligi 3 martagacha ortadi, 10-11 yoshga kelib 4-5 marta ortadi. Bu eng avvalo oyoqlar suyaklarining qisishi hisobiga va bo'g'inlardagi harakatchanlikning ortishi hisobiga yuz beradi. 10-11 yoshga kelib yugurish tezligi yurish tezligidan 4 marta yuqori bo'ladi. Yurishning maksimal tezligiga 5-6 m/s dan keyin erishiladi va 7-8 yoshli bolalarda 4,5 m/s ga yaqin, 10-11 yoshda 5,4 m/s ni tashkil qiladi.

59% oriq bolalar 3 yoshligida ikki oyoqqa tayanib simmetrik holdagi sakrashni bajara olmaydi. Bu esa koordinatsiyani, orqa mi-

ya tuzilmalarining harakatini ta'minlovchi to'liq yetilmaganidan dalolat beradi. Faqatgina 6 yoshdan keyin ikki oyoqqa tayanib sakrashning to'liq mahoratda bajarishlar namoyon bo'ladi.

Odamning har kungi hayotida zarur bo'lgan asosiy harakat ko'nikmalarining shakllanishi asosan maktabgacha bo'lgan yoshda yuz beradi.

Bolalarning erkin harakat funksiyalarining faol davri 3 yoshdan boshlanadi va ikkinchi signal tizimining shakllanishi bilan uzviy bog'langan. Bu paytda so'z, nutq sekin-asta ularni xarakterlovchi bevosita shartli signalning o'rnini bosuvchi o'zicha alohida qo'zg'atuvchi xarakterini oladi. 3 yoshli bolalarda erkin harakatning boshqarilishi «qaytar afferentatsiyasi» asosida bajari-ladi («qayta aloqa tamoyili»).

4–5 yoshga kelib maqsadli kuchlanishlarni bajarish qobiliyatı rivojlanadi (birinchi harakat funksiyalarining tiklanish davri). Harakat analizatorlarining rivojlanishida ancha muhim davr bo'lib, 6 yosh hisoblanadi. Bu davrda taktil-kinetik signallarning tahlili jiddiy darajada yaxshilanadi va qo'zg'atuvchi hamda tor-mozlovchi jarayonlarning jamlanishi tezlashadi. Bolalarda mu-rakkab erkin harakatlar reaksiyasi shakllanadi.

Katta mакtab yoshidagi bolalarning oliy asab faoliyati muhim xususiyatlardan bo'lib, bu yosh davrida shakllangan shartli bog'lanishlar mustahkamligi bilan jiddiy darajada farq qiladi va odamning butun umri davomida saqlanib qolishi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar asab tizimidagi qo'zg'aluvchani- ligi, reaktivligi va plastikligining yuqori bo'lishi yaxshi va ancha tez voyaga yetgan odamlarga nisbatan yetarlicha murakkab harakat ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Bu yoshda harakat ko'nikmalarini birdaniga to'g'ri shakllantirishi muhim rol o'yнaydi, chunki ularni qayta o'rgatish qiyin. Bu vaqtida bolalarni jismoniy mashqlarning texnikasini ratsional bajarishga o'rgatish zarur, ularda turli mahorat va ko'nikmalar hajmini kengaytirish kerak bo'ladi- ki, ularni hayotning keyingi bosqichlarida takomillashtirish zarur bo'ladi.

5–8 yoshda harakatlar ancha aniq va o'rinni bo'lib qoladi. Horizontal nishonga otishda 4 yoshdan 7–8 yoshgacha bo'lgan bolalarda to'g'ri mo'ljal olish ancha ortib borsa, 9–10 yashar bolalarda birmuncha kamroq ortib boradi. Mo'ljalga aniq qilib otish 13–15 yoshgacha arzimas darajada ortadi, shundan keyin o'zgarmasdan qoladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun vertikal nishonga otish qiyin bo'ladi. 6–7 yoshda narsani otib tekkizish aniqligi birmuncha ortadi va maktab yoshida ham ortib borishda davom etadi. Shunda ham qiz bolalarda aniqlik o'g'il bolalardagiga qaraqanda ancha kam bo'ladi.

Harakat sifatlarining rivojlanishi

Harakat faolligi ortib, tayanch harakat apparatining ayrim halqlari morfologik jihatdan yetilib borishi bilan bir vaqtida harakatning sifatlari ham rivojlanib boradi.

Harakatlar tezligining rivojlanish sur'ati 7–9 yoshda, ya'ni kichik mакtab yoshida ayniqsa katta bo'ladi va 14–15 yoshga kelib o'zining eng yuqori darajasiga yetadi.

Yosh ulg'ayishi bilan bir vaqtida takror bajariladigan harakatlar chastotasi va xususan berilgan ritmda qilinadigan harakatlar chastotasi ortib boradi. Masalan, takror bajariladigan harakatlar sur'ati 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarda 1,5 baravar ortadi. Lekin uning shu tariqa ortishi bir tekis bormaydi. 7 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan davrda harakatlar chastotasi hammadan tez o'sib boradi. Shu davrda harakatlar chastotasining yil sayin o'sishi o'rta hisobda sekundiga 0,3–0,6 harakatni tashkil etadi. 10–11 yoshda harakatlar chastotasining o'sishi birmuncha kamayib, sekundiga 0,1–0,2 harakatga tushrib qoladi va 12–13 yoshda yana ortadi (sekundiga 0,3–0,4 harakatgacha). Vaqt birligi ichida bajariladigan harakatlar chastotasi qizlarda 14 yoshda yuqori darajaga yetsa, o'g'il bolalarda 15 yoshda bu darajaga yetadi. Shundan keyin o'g'il bolalarda harakatlar chastotasining o'rtacha yillik o'sishi sekundiga 0,1–0,2 harakatgacha kamayadi, qiz bolalarda esa 14–15 yoshdan keyin harakatlar chastotasi butunlay to'xtaydi.

Shuni aytib o'tish diqqatga sazovorki, qiz bolalarda qo'l barmoqlari harakatlarining chastotasi o'g'il bolalardagiga qaraganda birmuncha kattaroq bo'ladi. Aftidan, bu – ro'zg'or ishlarini bajarishda qo'l panjasining ko'proq mashq qilishiga bog'liqdir.

Berilgan ritmda qilinadigan harakatlarning maksimal chastotasi ham yosh ulg'aygan sayin asta-sekin ortib boradi. O'g'il bolalar bilan qiz bolalarda 4 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan davrda u taxminan 3,3 baravar ortadi.

Harakatlarning maksimal chastotasi bilan ifodalanadigan tezlik sifati nerv protsesslarining harakatchanligiga bog'liq, degan fikr bor. Boshqacha aytganda, harakatlar chastotasining chegarasi birinchi galda antagonistik muskullar markazlarining qo'zg'alish holatidan tormozlanish holatiga nechog'li tez o'tishi-ga bog'liq.

4–5 yoshdan keyin turli muskul gruppalarining kuchi orta boshlaydi. Lekin har qaysi muskul gruppasining rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar bor. Masalan, gavda kuchi, ya'ni odam gavdasi muskullarining kuchi birmuncha kechki muddatlarda o'zining yuqori darajasiga yetadi-yu, lekin qo'l kuchiga qaragan-da sekinroq zaiflashadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda muskullarning kuchi juda kam bo'ladi. Maktab yoshidagi katta bolalarda 15 yosh bilan 18 yosh orasida, ya'ni muskulatura tez rivojlanib boradigan davrda muskullarning kuchi ayniqsa zo'r berib o'sib boradi. Biroq mavjud ma'lumotlarni analiz qilish muskullar kuchining ortib borishi muskulaturaning o'sib borishiga qaraganda taxminan bir yil kechikishini ko'rsatadi. Bu – muskullar va umuman butun organizmdagi mikrostrukturalar rivojlanish protsesslarining yoshga taalluqli xususiyatlariga bog'liq, deb o'yash kerak. Shu munosabat bilan o'quvchilar uchun har qanday jismoniy nagruzkani ham cheklash va yoshiga to'g'ri keladigan qilib qat'iy dozalab berish kerak. Talaygina kuch sarf qilish bilan aloqador bo'lgan mehnat va sport harakatlarini 18 yoshdan keyingina bajarsa bo'ladi.

18 yoshdan boshlab muskullar kuchining o'sib borishi susayib qoladi va 26 yoshga borganda to'xtaydi. 35 yoshdan keyin muskul-lar kuchi kamayib boradi.

15–18 yoshda muskul tolalari, muskul ichidagi biriktiruvchi to'qima va tolali tuzilmalar, demak muskulning o'zi ham ko'nda-langiga o'sishda davom etadi.

Muskul, undagi qon tomirlar va nervlarning rivojlanishi 25–30 yoshgacha davom etadi.

Muskulning innervatsion apparatiga kelganda, chaqaloq bola-da ancha yaxshi rivojlangan holda bo'ladigan afferent yoki ſezuv-chi innervatsiya bola hayotining dastlabki yillarda zo'r berib rivojlanib boradi va 7–8 yoshga kelib morfologik tuzilishi ji-hatidan kattalardagi darajaga yetib qoladi.

Holbuki, efferent yoki harakatlantiruvchi innervatsiya faqat 11–13 yoshga kelgandagina o'z tuzilishi jihatidan kattalardagiga o'xshab qola boshlaydi. Biroq harakatlantiruvchi pilakchaning kengayishi, nozik strukturasining murakkablashuvi 18–20 yosh-gacha davom etadi.

Shunday qilib, muskul sezgi organ sifatida 7–8 yoshga borgan-da yetilsa, ishchi organ sifatida 10 yildan keyin yetiladi.

Bosh miya po'stlog'ida harakat markazlarining rivojlanishi

Bola tug'ilgan paytida va uning yashash sharoitlari keskin o'zgarib, aktiv harakatlari ancha ko'payib qoladigan birinchi yoshi mobaynida hujayra elementlari ayniqsa tez sur'atlar bilan yetilib boradi. Mana shu vaqtida bosh miya po'stlog'idagi harakat analizatorining yadrosi katta yoshli odamdagи xuddi shu sohaning 10–20 %ini tashkil etadi.

Bolaning 4 yasharli payti ikkinchi davr deb hisoblanadi, bu davrda harakat sohasi yadrosining oddiy harakat aktlarini bajaruv-chi markazlar joylashgan to'rtinchi maydoni yetiladi.

7 yoshga borib uchinchi davr boshlanadi. Bu davrda harakat sohasining oltinchi maydoni yetilib boradi, avtomatik harakat aktlari shu sohaning faoliyatiga bog'liq. Bola 7 yashar bo'lganida

harakat analizatorining yadrosi katta yoshli odamdag'i xuddi shu sohaning 80 protsentini tashkil etadi.

Va nihoyat, 15 yoshga borganda harakat analizatorining po'stloqdag'i uchi o'zining hujayralari va tuzilishi jihatidan katta yoshli odamdagiga yaqinlashib qoladi.

Hozir ko'rib chiqilayotgan maydonlar 4 yoshga kelib kapillyarlar to'ri bilan ayniqsa mo'l-ko'l ta'minlanadi, 15 yoshga borganda esa tomir-kapillyarlar to'ri asosan endi butunlay uyushgan va tuzilishi jihatidan katta yoshli odamning tomir-kapillyarlar to'riga yaqinlashib qolgan bo'ladi.

O'tkazuvchi yo'llar hayotning birinchi ikki yilda zo'r berib rivojlanib boradi; 3–4 yoshga kelib ulardagi tolalarning mieelin pardasi bilan o'ralishi tugallanadi. Xuddi shu davrning o'zida po'stloq ichki aloqalari ham rivojlanib boradi. Keyinchalik, 10–12 yoshgacha ular murakkablashish va kattalashishda davom etadi.

Harakat faolligining rivojlanishi

Bola tug'ilganida nasldan o'tgan, oz miqdordagi harakatlarni bajara oladigan bo'ladi, uning shu harakatlari bola tug'ilganidan keyin ham anchagacha nomukammal bo'lib qolaveraadi. Bola o'sib-rivojlanib borgan sayin harakatlari tobora ko'proq va xilma-xilroq bo'lib boradi va go'yo individual tajriba ostida shakllanadi. I.P.Pavlov mana bunday deb yozgan edi: «Hayvonlar qatoridan nechog'liq yuqori ko'tarilib borar ekanmiz, harakatlар, birinchidan, tobora murakkabroq bo'lib boradi, ikkinchidan esa bu harakatlар hayvon dunyoga kelishi bilan birdaniga paydo bo'lmasdan, balki tajribada paydo bo'lib boradi.

Biz endilikda shartli harakat reflekslari deb ataydigan narsa – hayvon yoki odamning individual hayoti mobaynida yuzaga kelib, paydo bo'lib borgan va mukammallahsgan harakatlardir.

Harakat analizatorining morfologik va funksional jihatdan rivojlanib borishini belgilab beradigan hal qiluvchi omil – muhit, bola tarbiyasi va uning harakat aktivligidir. Bolaning aktiv faoli-

yati natijasidagina yangi-yangi vaqtincha aloqalar paydo bo'lib boradi, murakkab harakat stereotiplari shakllanadi, tobora yangi-yangi shartli reflektor aloqalar vujudga kelib boradi.

Chaqaloqlik davrida harakat apparati, jumladan harakat analizatorining turli halqalari ham ma'lum darajada egilgan bo'ladiki, bu – juda oddiy, bir qancha harakatlarni bajarishga imkon beradi.

Chaqaloq bola uchun qo'l-oyoqlar gavda va boshning tartib-siz, deyarli tinmasdan harakat qilib turishi xarakterlidir. Bunda bo'g'imlar, muskullar, shilliq pardalar va vestibulyar apparatdagi retseptorlarning ta'sirlanishi tufayli yuzaga keladigan mahalliy reaksiyalar ko'riladi; har xil shartsiz reflekslar yaxshi ifoda-langan bo'ladi.

Hayotning dastlabki haftalari katta ahamiyatga ega, chunki bu davrda to po'stloq doirasigacha yetib boradigan hamma darajadagi reguliyatsiya ishga tushadi. Bolada dastlabki shartli reflekslar paydo bo'ladi, bular nihoyatda bo'shligi, zaifligi bilan ajralib turadi va 3–4 oydan keyingina birmuncha turg'un shaklg'a kiradi.

Ensa muskullari tonusining kuchayib borganligidan ikki oylik bola qorni bilan yotqizib qo'yilsa, boshini ko'taradigan bo'lib qoladi. Taxminan 2,5–3 oydan boshlab ko'ziga ko'ringan narsaga qarab qo'l cho'zish harakatlari rivojlanib borsa, 5–6 oyga borib, bola narsaga, u qaysi tomonda turgan bo'lmasin, qo'lini aniq uzatadigan bo'ladi.

Bola 4 oylik bo'lganida chalqancha yotgan holatidan yon-boshiga ag'darilish harakatlari, 5 oylik bo'lganda esa qoringa va qorindan orqaga ag'darilish harakatlari rivojlanadi.

3 oylikdan 6 oylikkacha bo'lgan davrda bola emaklashga tayyorlanish harakatlarini o'zlashtiradi – qorni bilan yotgan holida boshi va gavdasining yuqori qismini tobora baland ko'taradigan bo'ladi.

6–7 oylik bola qo'l va oyoqlarini yerga tirab turadigan, keyinchalik esa emaklaydigan bo'ladi. Gavda va chanoq muskul-

lari rivojlanib borishi natijasida bola 6–8 oylik bo‘lganida o‘tira oladi. Taxminan xuddi shu vaqtida u qo‘llari bilan biror narsani ushlab o‘rnidan turadigan, tik tura oladigan va o‘tira oladigan bo‘ladi.

Yurishga tayyorlanish davrida bolaning antropometrik xususiyatlari muvozanatni o‘zlashtirish protsessini qiyinlashtirib qo‘yadi: oyoqlar va chanoq-son bo‘g‘imining muskullari hali nimjon; oyoqlar kalta va yarim bukilgan bo‘ladi; umumiy og‘irlik markazi katta yoshli odamdagidan ko‘ra ancha yuqorida (chanoq-son suyagi ustida) turadi, oyoq panjalarining tiralish maydoni ham kattalardagiga qaraganda kichik bo‘ladi. Shu tufayli rivojlanishning bu bosqichida muvozanatni saqlashda bolaga yordam berish juda muhim. Birinchi yilning oxiriga kelib bola bemalol tik turadi va aksari yuradigan bo‘lib qoladi. Bola bir necha qadam tashlab yura olgan dastlabki kunni mustaqil yurishning boshlanishi, deb hisoblasa bo‘ladi. Lekin bu davrda bola yurish va tik turish vaqtida o‘zini to‘g‘ri tutishga ancha qiynaladi. Qo‘llarini ikki to‘monga uzatib, langar qilish va oyoqlarini kerib qo‘yish yo‘li bilan u muvozanatni saqlashga muvaffaq bo‘ladi.

3–4 yoshga borganda bola o‘sgan sayin rivojlanib boradigan harakatlar koordinatsiyasini unga endi yurish va tik turish vaqtida qo‘l va oyoqlardan foydalanmasdan turib muvozanatni saqlab qolishga imkon beradi.

Bola 4–5 yoshga to‘lganida juda xilma-xil va murakkab harakatlarni: yugurish, sakrash, konkida yurish, gimnastika, akrobatika mashqlarini uddalaydigan bo‘lib qoladi. Xuddi shu yoshda u qo‘l panjasidagi mayda muskullarning rivojlanishiga aloqador ancha aniq harakatlarni ham o‘zlashtira boshlaydi. 3–5 yashar bola rasm chizishga, musiqa asboblarini chalishga o‘rganiishi mumkin.

6–7 yoshga kelib gavda, son va tizzadagi yozuvchi muskulular kuchi sezilarli darajada ortadi. Mana shu vaqtida butun tayanch-harakat apparatining rivojlanishi uchun funksional jihatdan muhim stimul beradigan narsa – yurishning shakllanishidir.

Harakat apparatining chidamliligi dinamik va statik ishni uzoq vaqt mobaynida bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. Yosh ulg'ayib borgan sayin chidamlilik juda sekinlik bilan ortib boradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda, ular juda serharakat bo'lishiga qaramay, harakatlar to'xtovsiz almashinib turadigan bo'lgani uchun mashq olish natijalari aytarli bo'lmaydi. 6 yoshga kelib chidamlilik birmuncha ortadi, shunday bo'lsa-da bolalar faoliyatni tez-tez o'zgartirib turishga hamon moyil bo'ladi. Ular bir joyda turish, o'tirishga qiynaladi, ularning harakatlari tinmasdan almashinib turadi.

Bolalarda harakatlar koordinatsiyasining rivojlanib borishi ham harakat analizatorining morfologik jihatdan yetilish protsesslariga bog'liq. Ayni vaqtda nerv tolalarining yaqinlashish jayroni alohida diqqatga ega bo'ladi, bu protsess nerv sistemasi ning turli bo'limlarida har xil muddatda bo'lib o'tadi. Shu bilan birga nerv sistemasining eng murakkab funksiyalarni bajaradigan bo'limlari, xuddi katta yarim sharlar po'stlog'inining neyronlari singari, boshqalardan ko'ra kechroq mienlashadi.

4–5 yasharligida bola juda xilma-xil va murakkab harakatlarni bajaradigan bo'lib qoladi. Harakatlar koordinatsiyasi 13–14 yoshga borib yuqori darajasiga yetadi. Bu yoshda bolalar murakkab koordinatsiyalangan har qanday harakatni, agar o'sha harakat kuch ishlatish va zo'r berishni talab qilmaydigan hamda katta amplituda bilan bajarilmaydigan bo'lsa, o'zlashtirib olishlari mumkin. Mana shuning uchun ham xuddi shu yoshdagи bolalar musiqa asboblarini chalish, xoreografik mohirlikda virtuoz texnikaga, mehnat harakatlarining aniq va tekis chiqishiga erishadilar.

Fizkultura, xoreografiya harakatlari, mehnat harakatlari va boshqa murakkab uyg'un harakatlarni bajarish texnikasi paydo bo'ladigan eng optimal davr 9–10 yoshdan 13–14 yoshgacha bo'lgan davrdir, deb hisoblash kerak. Mana shu davrda harakat analizatorining rivojlanishiga doir ko'rsatkichlar ayniqsa tez o'sib

boradi. Shu yoshga kelib bu analizatorning barcha morfologik substrati yetilib qoladi. Birmuncha kattaroq yoshda chidamlilik, kuch, katta amplitudali harakatlarni bajarish qobiliyati rivojlanib borishi munosabati bilan vujudga kelgan harakat texnikasi asoslari yanada mukammallahib boradi.

Qiz bolalarda harakatlarning rivojlanishida ba'zi xususiyatlar bo'lishini aytib o'tish zarur. Balog'atga yetish davri qiz bolalarning ko'pchiligidagi harakatlarning kamayib qolishi bilan birga davom etadi. Bu hol qizlarning shu davrda morfologik jihatdan rivojlanib borishidagi xususiyatlariga ko'p darajada bog'liqdir. Ilgaridan sport yoki muskul faoliyatining boshqa turi bilan shug'ullanib kelayotgan qizlardagina harakat aktivligi saqlanib qoladi.

Chaqqonlik – aniq, nozik harakatlarni imkonli boricha qisqa vaqt mobaynida bajara olish qobiliyatidir. Yosh bolalarda bu xususiyat bo'lmaydi. Bola ulg'ayib borgan sayin harakatlar koordinatsiyasi rivojlanishi va mukammallahib borishi munosabati bilan chaqqonlik asta-sekin ortib boradi.

O'z tanasini fazoda ko'chirishda (bir joydan turib uzunlikka sakrashda) va narsani nishonga otishda anqlikning yoshga qarab o'zgarib borishini chaqqonlik sifatining xarakteristikasi, deb hisoblash mumkin. Fazodagi o'z harakatlarini boshqarish anqliigi 4 yoshdan 17 yoshgacha tinmay ortib boradi. Maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshida bir joyga aniq sakrab tushish va nishonga to'g'ri tekkizish qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Keyinchalik, o'zlashtirib olingan harakat malakalarining ko'payib borishi va ularning mashq qilinishi munosabati bilan harakatlarning anqliigi asta-sekin ortib boradi.

Bolalarning jismoniy tarbiyasi va mehnat faoliyatida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muskul aktivligini maqsadga muvofiq tashkil etish ularning umumiy rivojlanishi hamda sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Asab-mushak apparatining funksiyasi nimadan iborat?

2. Harakat sifatlari qanday rivojlanadi?
3. Bosh miya po'stlog'ida harakat markazlari qanday rivojlanadi?
4. Harakat faolligi qanday rivojlanadi?

9-mavzu. Inson reflektor tizimi

Reja:

1. Shartli refleksni tekshirish usuli.
2. Shartli refleksning hosil bo'lish tezligi va turg'unligi.
3. Ovqatlanish va boshqa faoliyatlarga harakat shartli refleksini hosil qilish.
4. Vaqtga hosil qilinadigan shartli reflekslar.
5. Shartli reflekslarning tormozlanishi.
6. I va P signal sistemasining o'zaro ta'siri.
7. Nutq funksiyasining rivojlanishi.
8. Oliy asab faoliyatining xususiyatlari va ularni tarbiyalash.

Tayanch so'z va iboralar: reflektor, refleks, shartli refleks, signallar tizimi, nutq, I va P signal sistemasi.

Asab tizimi ikkiga – markaziy asab tizimi va tashqi (periferial) asab tizimiga bo'linadi. Ta'sirlar va boshqa axborotlar reaksiyalar va boshqa faoliyklar shaklini oladi. Endokrin tizimiga qo'shimcha ravishda asab tizimi inson tanasining asosiy kommunikatsiya markazidir. Ushbu kommunikatsiya asab impulsleri orqali, tana asablari tizimi orqali ro'y beradi.

Oliy asab faoliyatining yoshlik xususiyatlari

Bolalarda shartli reflekslarni tekshirish usuli. Yangi tug'ilgan chaqaloqda ovqatlanish, himoya, aksa urish, yo'talish va boshqa shartsiz (tug'ma) reflekslar mavjud bo'ladi. Bu reflekslar bolaning hayotida muhim biologik ahamiyatga ega bo'lib, shular asosida shartli reflekslar shakllanadi.

N.I.Kasatkin uzunligi 118 sm, balandligi 75 sm, maxsus kamerada bir oylik bolalarda shartli refleks hosil bo'lishini o'rganan. Bunda qo'llanilgan shartli ta'sirotlar bolaga hech qanday zi-

yonsizdir. Kameraga karavotcha qo‘yilgan bo‘lib, bola yotadigan matrasga uning harakatlarini yozib oladigan sezgir asboblar joylashtirilgan. Tajribaning borishi va bola holati kabina «ko‘zidan» kuzatib boriladi. Ertalabki va kunduzgi soatlar tajribani o‘tkazish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Bunda tajribaning davomiyligi 10 marta qaytarilgan holda 10 minutdan ortmasligi kerak.

Ovqat bilan mustahkamlanadigan tajribada qo‘l harakatlarini ko‘rmaslik uchun bolaning ko‘zi bog‘lanadi, yoki yuzining yuqorigi qismi oq ekran bilan to‘sib qo‘yiladi. Ovqatlanish shart-siz refleksida shartli ta’sirot sifatida bolaning – emish harakatlari olinadi. Uni mustahkamlash uchun sut yoki sutli aralashma beriladi. Himoya refleksini hosil qilishda bola ko‘ziga havo purkalganda qovoqlarini yumish reaksiyasi e’tiborga olinadi.

Bolalarda so‘lak bezlari sekretor funksiyasiga shartli reflekslarni hosil qilishda A.A.Yushenko va Krasnogorskiylar (1907) tomonidan ishlangan so‘lak yig‘uvchi apparatdan foydalaniladi. 1916-yilda amerikalik fiziolog K.S.Leshli qulq osti so‘lak bezidan so‘lak yig‘ib olish uslubini ishlab chiqdi.

Bolalar miya po‘stlog‘i faoliyatining dinamikasini o‘rganishda va ayniqsa bolalar tipologik xususiyatlarini aniqlashda Ivanov-Smolenskiyning so‘z bilan mustahkamlash uslubi alohida ahamiyatga ega.

Shartli refleksning hosil bo‘lish tezligi va turg‘unligi

Bolalarda ovqatlanishga shartli reflekslarning hosil bo‘lish tezligi uning ishtahasi, asab sistemasidagi ovqatlanish markazining qo‘zg‘aluvchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bolaning ovqatlanishidan avval qand yoki boshqa shirinlik berilsa, bolaning ishtahasi pasayadi, ya’ni ovqatlanishga reflektor reaksiyasi susayadi.

Bolalarda tovush, so‘zga boshqa shartli ta’sirotlarga nisbatan shartli reflekslar tezroq hosil bo‘ladi. Ularda shartli reflekslar shartli va shartsiz ta’sirlovchi 2–10 marta 5–30 sekund davomida qaytarilib va mustahkamlanib turilsa, shartli refleks hosil bo‘ladi.

Bolalarda so'lak ajralishi uchun hosil qilingan shartli refleksning yashirin davri esa taxminan 3 sekundni, harakat shartli refleksning yashirin davri esa 0,5 sekundni tashkil etadi. Bolaning yoshi ortishi bilan shartli refleks yashirin davrining davomiyligi kamayib boradi.

Bolalarning jinsiy voyaga yetilish davrida shartli reflekslarning hosil bo'lishi tezligi biroz sekinlashadi. Chunki, bu davrda bolaning asab sistemasida jinsiy uyg'onish asab markazlari qo'zg'alandi. Bolaning yoshi qancha katta bo'lsa, tashqi muhit ta'sirlovchilariga ishlangan harakat shartli reflekslari shuncha mustahkam bo'ladi.

Ovqatlanish va boshqa faoliyatlarga harakat shartli refleksini hosil qilish

Yangi tug'ilgan bolaning birinchi kunidan boshlab shartli va shartsiz ta'sirlovchilarning adekvatlilikiga qarab, ovqatlanishga harakat shartli reflekslari hosil bo'la boshlaydi. Bolaning bir kungi dayoq teri taktil sezgilariga ta'sir etib, shartli reflekslar hosil qilish mumkin. Bola 10–14 kunligida qo'lda ovqatlanish holatida ushlab turilsa, bolada ovqatlanishga nisbatan reaksiya hosil bo'ladi. U boshini buradi, og'zini ochadi, so'ng so'rish harakatlarini bajaradi. Bu refleks ona bolani emizish vaqt bilan bog'liq shartli refleks bo'lib hisoblanadi.

Bolaning birinchi kunlaridayoq tabiiy shartli reflekslar hosil bo'la boshlaydi. Bolada 4 oyligidan boshlab ovqatlanishga salbiy shartli reflekslarni vujudga keltirish mumkin. Uning 7–9 haftaligidan boshlab yorug'lik yoki tovushga nisbatan ovqatlanishga harakat shartli refleksini hosil qilish mumkin.

Bolada tug'ilgan vaqtidan boshlab shartsiz reflekslar hosil bo'la boshlaydi. Chaqaloqning asab sistemasida qo'zg'alishning irradasiyasi katta odamga nisbatan tez bo'ladi. Bola ona sutini ema boshlashi bilan unda koordinatsiyalashgan harakatlar vujudga keladi.

Emish protsessida bolaning tana muskullari, kallasi va qo'l-oyoqlari harakatga keladi.

Yangi tug‘ilgan bolalarda quyidagi harakat reflekslari yuzaga keladi. Qo‘l muskullarining tonik refleksi, umurtqa pog‘onasi egilish refleksi, qorachiq refleksi shular jumlasidandir. Bu reflekslarning barchasi shartsiz reflekslar hisoblanadi.

Bolaning yoshi ortishi bilan harakatlanishidagi muhim harakat reflekslari (yurish, yugurish boshqalar, og‘zaki-yozma, nutq harakat reflekslari va boshqa reflekslar) shakllana boradi.

Bolada birinchi marta eshitishga, ko‘rishga, asta-sekin teri taktil sezgilarga shartli reflekslar hosil bo‘ladi.

Ikki oylik bola tovush kelgan tomonga boshini qaratadi va 1–1,5 minut mobaynida boshini tutib tura oladi. 2–3 oylik bolada yozuvchi muskullarga nisbatan bukuvchi muskullar tonusi ortiq bo‘ladi. Bola ikki oyligidan boshlab boshini tutib tura ola di. 4–5 oyligidan boshlab esa ko‘rgan narsalarini ushslash uchun koordinatsiyalashgan harakatlar bajara boshlaydi. 5 oylik bola har bir predmetni qo‘lida 20–30 sekund ushlab tura oladi va og‘ziga olib boradi. 5–6 oyligidan boshlab o‘zi o‘tira oladi va tik turishga harakat qiladi. 7 oyligidan boshlab mustaqil o‘tiradi, kattalar yordamida tik tura boshlaydi. 8 oyligida narsalarga suyanib turadi, narsalarni ushlab yurishga harakat qiladi. 9 oyligidan boshlab hech qanday tayanchsiz o‘zi mustaqil tik turadi, bir qo‘lidan ushlaganda yura oladi, asta-sekin mustaqil o‘zi yurishga harakat qiladigan bo‘ladi. Bolalarda harakat shartli reflekslarining hosil bo‘lishida harakat ko‘nikmalari shakllanishida propriotseptorlar bilan birga ko‘rish, eshitish, teri retseptorlarining ta’sirlanishlari muhim ahamiyatga ega.

Vaqtga nisbatan hosil qilinadigan shartli reflekslar

Yangi tug‘ilgan bola hayotining 7–8 kunidan boshlab, unda onasining emizish vaqtiga nisbatan shartli refleks hosil bo‘la boshlaydi. Bola sutkaning ma’lum vaqtlarida ovqatlanishdan biroz oldin uyg‘onib, emish va boshqa harakatlarini bajara boshlaydi. Bolalarda vaqtga nisbatan shartli reflekslar ichki organlardan, to‘qimalardan yoki tashqi retseptorlardan asab sis-

temasiga borgan impulslar so‘z signallari bilan bog‘lanishi tufayli vujudga keladi.

Vaqtga nisbatan yuzaga keltirilgan shartli refleks mustahkamligi asab sistemasining tipi, uning qo‘zg‘aluvchanligi, diqqatning konsentratsiyasi va mashq qilishga bog‘liq bo‘ladi. Bolada vaqt ni sezish asta-sekin uzoq muddat davomida takomillashib boradi.

Asab sistemasida qo‘zg‘alish va tormozlanish protsesslarining o‘zaro ta’siri

Bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘iga shartli tormozlovchining ta’sir etishi bilan avval shu analizator markazi tormozlana di, so‘ng tormozlanish qo‘shti neyronlarga tarqaladi. Tormozlanish protsessi bolalarning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega. Bosh miya neyronlarining ketma-ket koordinatsiyalashgan faoliyati qo‘zg‘alish va tormozlanish protsesslarining almashini shi tufayli ro‘y beradi.

Bolalarda tormozlanish reflekslarini asta-sekin hosil qilish bilan asab protsessining mashq qilinishiga yordam beradi, bu bilan asab protsesslari koordinatsiyalashgan bo‘ladi.

Ko‘krak yoshidagi bolalarning miya yarim sharlar po‘stlog‘ida bog‘cha yoshidagi bolalarga nisbatan tormozlanishning irradatsiyasi oson va keng tarqaladi. Shuning uchun ham ko‘krak yoshidagi bolalar kunduzi ham uxbaydilar. Bolaning 4–6 yoshidan boshlab ichki shartli tormozlanish rivojlana boshlaydi. Bolaning bu yoshida katta miya yarim sharlar po‘stlog‘ining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi.

Shartli reflekslarning tormozlanishi

Bolalarda shartsiz induksion tormozlanish tashqi dunyodagi chetki ta’sirotlarining ta’siri va ichki organlardan hosil bo‘lgan asab impulsleri ta’sirida vujudga keladi. Masalan, bola siyidik qopining to‘lishi yuzaga keltirilgan shartli refleksni tormozlaydi. Tashqi tormozlanish chetki ta’sirlovchining kuchiga, yuzaga keltirilgan shartli refleksning mustahkamligiga va bolaning yoshi-

ga (qancha yosh bo'lsa shartli refleks shuncha tez tormozlana-di) bog'liq bo'ladi. Tashqi tormozlanishning turlaridan biri o'ta kuchli ta'sirlovchilar ta'sirida tormozlanishdir.

Yuksak tormozlanish 10–12 yoshli bolalarda 7–10 yoshli bola-larga nisbatan sekin rivojlanadi. Bolalarda yuzaga keltirilgan shartli reflekslarning so'nish tezligi bolaning yoshiga, sog'lig'iga, oliv asab faoliyatining tipi hamda hosil bo'lgan shartli refleksning turi va mustahkamligiga bog'liq, 11–12 yoshli bolalarda shartli reflekslar 8–10 yoshli bolalardagi yuzaga keltirilgan shartli reflekslarga qaraganda tez so'nadi. Ovqatlanishga nisbatan hosil bo'lgan shartli refleksni so'ndirish qorni to'q bolalarga nisbatan och bolalarda qiyinroq bo'ladi.

Sog'lom bolalarda shartli tormozlanish o'ziga xos xususiyatga ega va differensiyalashgan holda bo'lib, shartli refleks 2–6 marta mustahkamlanmaganda vujudga keladi. Bolalarda so'ngan shartli tormozlanish vaqt o'tishi bilan qayta tiklanadi. Shartli tormozlanishdan so'ng ketma-ket tormozlanish taraqqiy etadi. Bolalarda ba'zida shartli tormozlanishning ta'siri tugagandan so'ng, induksiya asosida qo'zg'alish rivojlanadi.

Bolalarda indeferent ta'sirlovchi bir necha marta birlamchi yoki ikkilamchi, uchlamchi va undan ortiq yuqori tartibli shartli tormozlarni hosil qilish mumkin. Yuqori tartibli shartli tormozlar ham uzoq saqlanishi va so'nishi, qayta tiklanishi mumkin. Shartli tormozlar bolalarni tarbiyalash, o'qitish, xususan ularni tarbiyalash va intizomli qilishda katta ahamiyatga ega. Shartli tormoz yordamida o'quvchilarda axloq, ong va xulq tarbiyalanadi.

Oliy asab faoliyatining taraqqiyoti

1,5–2 yoshli bolalarda yakka ta'sirlovchilarga harakat shartli reflekslari tez hosil bo'ladi va mustahkamlanadi. Ikkita indeferent ta'sirlovchilarga vaqtli bog'lanish tezroq hosil bo'ladi. Bolaning 2,5 yoshida oliy asab faoliyati ancha takomillashadi. Oson va biroz murakkab shartli reflekslar mustahkamlanib turilmasa, tezda so'nishi mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar-

da shartli reflekslarning hosil bo'lishida individual farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar bola asab sistemasining fiziologik, psixik taraqqiyotiga bog'liq bo'ladi. 3–5 yoshli bolalar oliy asab faoliyatining taraqqiyoti oldingi bosqichdagi bolalar oliy asab faoliyatining taraqqiyotidan tubdan farq qiladi. Bolalarning bu yoshida mo'ljallash reaksiyalarining xarakteri o'zgaradi. Bola «Bu nima?» degan savol bilan turli predmet va hodisalarni biliшgа harakat qiladi.

2–3 yoshli bola predmetlarga qarab, ularni ushlab ko'riб formasini aniqlaydi. Bola oldingi hosil bo'lgan ko'ruv-kinestezlik bog'lanishlardan foydalanadi, predmetlarning shaklini chamlab biladi. Bog'cha yoshidagi bolaning bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida qo'zg'alish tormozlanish irradiatsiya, generalizatsiya kabi asab protsesslari kuchliroq bo'ladi. 5 yoshli bolaning tashqi va ichki tormozlanishining xarakteridagi munosabat o'zgaradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ichki tormozlanish va uning turлari borgan sari katta ahamiyatga ega bo'lib boradi (O.P.Kopustnik va V.K.Fadayeva, 1933. R.M.Pen, 1933).

Bolaning bu yosh davrida bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida kechikuvchi, iz qoldiruvchi shartli reflekslar qiyinlik bilan hosil bo'ladi.

Tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, 5 yoshdagи bolada asab protsesslarining kuchi va harakatchanligi ortadi, bu esa bolada dinamik stereotipi biroz yengillik bilan o'zgartirish imkonini beradi (E.N.Degtyar, 1957). Bu yoshdagи bolalarda chamlash refleksi kuchliroq bo'lib, u mustahkamlashib boradi.

Birinchi va ikkinchi signal sistemasining o'zaro ta'siri

Birinchi signal sistemasida vujudga kelgan asosiy qonuniyatlar, ikkinchi signal sistemasi, ya'ni bola nutqida ham ro'yobga chiqadi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari bosh miyadagi asab protsesslarining shakllari hisoblanib, bu protsesslar turli darajada murakkab bo'lishi bilan farq qiladi.

Odam hayotining normal sharoitida ikkinchi signal sistemasi ma'lum darajada birinchi signal sistemasi va emotsiyal faoliyatlarini boshqaradi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari faqat funksional prinsipida bir-biridan farq qiladi.

Odamning hayoti davomida birinchi va ikkinchi signal sistemalari taraqqiy qilib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda kechikuvchi shartli reflekslar boshqa reflekslarga nisbatan juda qiyinlik bilan asta-sekin vujudga keltiriladi. Bolalarda tez-tez kechikuvchi shartli reflekslarning qo'llanilishi, ularda mudrash, uyquchanlik, ba'zida fiziologik uyquning ham vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Agarda kechikuvchi shartli reflekslar tez-tez va kuchli hosil qilinsa, ba'zida bolalar asab sistemasining vaqtinchalik buzilishiga olib keladi. Shartli refleksning kechikishi faqat shartli ta'sirlovchilarning xarakteri bilan belgilanmasdan, balki bola asab sistemasining turi, holati bilan ham belgilanadi.

Bolalarda ta'sirlovchilarning nozik differensirovka qilinishi asta-sekin vujudga keladi. Bolalarda qiyin, nozik differensirovka hosil qilish uchun avval yengilroq va dag'alroq differensirovka hosil qilish kerak.

Bolalarda differensirovka tormozlanish qiyinlik bilan vujudga keltiriladi, so'ng asta-sekin mashq qilish bilan differensirovka tormozlanishning hosil bo'lishi takomillasha boradi. Differensirovka tormozlanishga misol bo'lib, bolada qizil koptokka harakat shartli refleks hosil qilingan bo'lsa, koptokning rangi yoki katta-kichikligini biroz o'zgartirish differensirovka tormozlanish hosil bo'ladi.

Differensirovka tormozlanish organizmning tashqi muhit ta'siriga moslanish imkoniyatini beradi. Shartli ta'sirlarning 7–9 yoshli bolalarda 10–11 martada, 10–12 yoshli bolalarda 4–6 martada hosil bo'ladi. O'qituvchilar o'quvchilarga dars berishda differensirovka tormozlanish usullari: taqqoslash, solishtirish va boshqalardan foydalanadilar. O'qituvchi qo'shishni ayirish bilan, o'lik tabiat bilan tirik tabiatdagi hodisalarning qarama-qarshiligi-

ni tushuntirishda solishtirish kabi metodlardan foydalanadi. Mu-siqa mакtablarida o'qituvchi turli musiqa tovushlarini bolalarda differensirovka (tabaqalanuvchi) tormozlanishni vujudga keltirish bilan o'rgatadi. Shunday qilib, differensirovka tormozlanish bolasning murakkab tashqi muhit ta'sirlariga moslanish, bilim olish va ko'p ta'sirlovchilardan muhimlarini ajrata olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolada mashq qilish bilan tabaqalanuvchi tormozlanish ortib boradi. Ikkinci signal sistemasi birinchi signal sistemasi asosida shakllana boradi. A.G.Ivanov-Smolenskiy (1929) bofalarda birinchi va ikkinchi signal sistemalari orasidagi o'zaro bog'lanishning rivojlanishi sxematik ravishda quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Birinchi signal sistemasining bevosita shartli reflekslari. Bunda tashqi bevosita ta'sirlovchilar (ko'rish, eshitish, teri, hidlash, maza bilish) organlarga ta'sir etib, bola organizmida harakat yoki vegetativ reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Ikkinci signal sistemasi shakllanmaganligi uchun shartli reflekslarda so'z ishtirot etmaydi. Bunday shartli reflekslar bolaning dastlabki hayoti va birinchi oyalarida hosil qilinadi.

2. So'z bilan bevosita ta'sirlovchilar ta'sirida bevosita xarakterdagи shartli reflekslar hosil qilish. Masalan, bola so'zlashga o'rganishdan ancha avval atrofdagi kishilarning so'zlariga vegetativ shartli reflekslar yordamida javob beradi.

Bu xarakterdagи shartli reflekslar bola bir yoshining birinchi yarmida ayniqsa ikkinchi yarmida hosil bo'ladi.

3. Bevosita so'zga shartli reflekslar hosil bo'lish. Bunday shartli reflekslar atrofdagi kishilar va predmetlarning nomlarini hodisalarni bola ma'lum so'zlar bilan bog'lay boshlashi natijasida vujudga keladi. Bola bu davrda yuqoridagi ikki guruuh shartli reflekslarga, uchinchi guruuh shartli reflekslarni bog'laydi.

Bola atrofdagi katta kishilar va bolalar bilan bevosita munosabati natijasida turli so'zlarni eshitib, nutqqa o'rgana boshlaydi.

Bola 6–7 oyligidan boshlab eshitgan so‘zlardan bo‘g‘inlarni ajrata biladi. So‘zlardan ajratilgan bo‘g‘inlar shartli ta’sirlovchilar bo‘lib, ta’sir kuchiga ega bo‘ladi va tashqi ta’sirlovchilar bilan bog‘lanadi.

So‘zlar avval shartsiz ta’sirlovchilarning signallari, so‘ng shartsiz reflekslarning signallari bo‘lib, ta’sir etadi, asta-sekin so‘zlar shartli va shartsiz ta’sirlovchilarning o‘rni almashadi.

Bola 5 oyligidan boshlab so‘zlarga tushuna boshlaydi. Hali so‘zlashni bilmagan bola kattalarning so‘z bilan buyurgan ishlarni bajarishi mumkin. Bu bola so‘zlarning ma’nosini tushunadi degan so‘z emas. Bolada nutq bilan birga aytildigan so‘zning intonatsiyasi va imo-ishoraga harakat shartli reflekslari hosil bo‘ladi.

Bir yoshli bola 15–20 ta so‘zni talaffuz qiladi. Bola taxminan 1,5 yoshidan boshlab atrofdagi kishilar bilan nutq orqali qisman munosabatda bo‘ladi. Shu yoshdan boshlab bolada so‘z boyligi ortib boradi. Bola 3 yoshida 600 dan ortiq so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Bola so‘z boyligining ko‘p yoki oz bo‘lishi mashq qilishiغا, uning individual xususiyatiga, tarbiya va asab sistemasining xususiyatiga bog‘liqdir.

Bola tug‘ilganidan bir necha kundan keyin, uning asab sistemalarida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, xolerik temperamentdagi bola tez-tez uyg‘onadi va juda qattiq yig‘laydi. Melanxolik temperamentdaga bola esa uzoq vaqt uxbaydi, kam yig‘laydi, juda tinch bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shartli refleks qanday tekshiriladi?
2. Shartli refleksning hosil bo‘lish tezligi va turg‘unligi qanday?
3. Ovqatlanish va boshqa faoliyatlarga harakat shartli refleksi qanday hosil qilinadi?
4. Vaqtga hosil qilinadigan shartli reflekslar nima?
5. Shartli reflekslarning tormozlanishi nima?

6. I va P signal sistemasining o‘zaro ta’siri qanday?
7. Nutq funksiyasi qanday rivojlanadi?
8. Oliy asab faoliyatining xususiyatlari nima va ular qanday tarbiyalanadi?

10-mavzu. Inson sezgi organlari fiziologiyasi va anatomiyasি

Reja:

1. Sezgi to‘g‘risida umumiy tushuncha.
2. Sezgining neyrofiziologik asoslari.
3. Sezgi turlarining psixologik tavsifi.

Tayanch so‘z va iboralar: sezgi, neyrofizologiya, psixologiya, xid bilish, ko‘rish, tashqi sezgilar.

Sezgi to‘g‘risida umumiy tushuncha

Jahon psixologiyasi fani ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, sezgish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo‘zg‘atuv-chilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta’sir etishi orqali mavjud olamdagи narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini, shuningdek, inson organizmining ichki holatlarini aks ettirish-dan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Sezgi biosfera va nevosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat‘i nazar, sezgi organlariga ta’sir qilish natijasining sodda obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar sifatida aks etishidir. Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko‘rinishini, ularning xossalarni o‘ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida biladi.

Sezgilar to‘g‘risidagi ilmiy ta’limotlarga ko‘ra narsa va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xusuşiyatlari, shakllari, harakati bir-lamchi hisoblanib, sezgilarning o‘zi esa tashqi va ichki qo‘zg‘atuv-chilarning sezgi a‘zolariga ta’sir ko‘rsatishining mahsulidir. Ma’lumotlarga qaraganda, sezgilar moddiy borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in’ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko‘rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo‘lsa, ular xuddi shundayligicha o‘zgarishsiz aks ettiradi.

Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini qo'zg'atuvchining o'ziga mutlaq mos bo'lgan analizatorlar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi asab jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziolog va psixologlarning ta'limotlari ga ko'ra, analizator uch o'zaro uzviy uyg'unlikka ega bo'lgan tarkibiy qismlardan iborat. Sodda qilib aytganda, mazkur tarkiblar quyidagi ketma-ketlikda tuzilgandir:

- 1) tashqi kuch-quvvatni asab jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismidan, ya'ni retseptordan;
- 2) analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;
- 3) periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stlog'idagi qismlaridan iboratdir.

Boshqacha aytganda, periferik nervlarning uchlari (ko'z, qulqoq, teri, burun kabilari), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorini tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fani so'nggi yutuqlari hamda atamalariga qaraganda sezgilar quyidagicha tasniflanadi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga tegishlidir):

- 1) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga gavdaning tashqi qismiga joylashgan sezgilar, ya'ni eksterio-retseptiv sezgilar (retseptorlar);
- 2) ichki a'zolar holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interoretseptiv sezgilar;
- 3) gavdamiz va tanamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioretsentiv sezgilar.

Birinchi turkum sezgilarni ko‘rish, eshitish, hidlash, teri-tu-yush, ta’m-maza kabi turlar tashkil qiladi. Ko‘rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo‘lgan tovush to‘lqinlaridan iboratdir. Ko‘rish sezgilari bosh miya po‘stlog‘ining orqa bo‘lagida joylashgan bo‘ladi. Eshitish sezgilari bosh miya po‘stlog‘ining tepe burmasi qismidan joy egallagan. Teri-tuyush, harakat sezgilari bosh miya po‘stlog‘ini markaziy burmasi orqa qismidan o‘rin olgandir.

Endi sezgilarning tavsiflanishi, mohiyati va lining negizlari haqida fikr yuritamiz.

A.R.Luriyaning fikricha, interoretseptiv sezgilar asl ma’no-dagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o‘rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologiyada mazkur sezgilarning subyektiv ravishda paydo bo‘lishi yetarli daraja-da chuqur o‘rganilmagan, shu bois ular «noma’lum hislar» doirasiga kiritilgan. Ular to‘g‘risidagi bilimlar bilan tanishish, o‘zgarishlarni tekshirish «kasalliklarning ichki manzarasi»ni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ichki a’zolarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni tashxis qilishda alohida ahamiyat kasb etishi turgan gap (A.R.Luri-ya tadqiqotlaridan).

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda er-ta uyg‘onadi, shuningdek, ularning ifodalanishi ham o‘ziga xos shakllarga ega. Chunonchi, ular «oldindan his qilish» sifatida paydo bo‘lib, hatto inson ularni ta’riflab berish imkoniyatiga qo-dir emas, ko‘pincha ushbu kechinmalar tushda ayon berib, qaysidir kasallik xurujidan darak beradi, xolos.

Ular insonning kayfiyatida, emotsiyonal reaksiyalari o‘zgarishi-da ko‘zga tashlanadi, shu tufayli bola xatti-harakatining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Chunki, bola o‘z tana a’zolaridagi ichki holatlarning o‘zgarishini anglash, sezish, his qilish uquviga ega emas, shu bois buni undagi xatti-harakatning umumiy o‘zgarishi-dan sezish mumkin. Bu hodisaga misol tariqasida quyidagi vo-

qeani keltirish mumkin: bola o‘z ichki interoretseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida «kasal» bo‘lib qolgan qo‘g‘irchog‘ini parvarish qila boshlaydi.

Interoretseptiv sezgilarning obyektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarning o‘zaro o‘rin almashish balansini ta‘minlab turish asosi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ular organizmdagi jarayonlarni o‘zaro o‘rin almashib turishining gemosstazi (barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo‘ladigan signallar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo‘riqish, affekt holatlari ni yo‘qotishga, pasaytirishga, paydo bo‘layotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo‘naltiradi. Oqibatda, tana ichki a’zolari faoliyatining izdan chiqish holati yuz berishi mumkin. Shu sababli tibbiyot psixologiyasida interoretseptiv sezgilar ham muhim o‘rin tutadi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish imkonini yaratadi.

K.M.Bikov, V.N.Chernígovskiyalar tomonidan interoretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interotsepsiya bilan birgalikda atroficha o‘rganilgan. Bularning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharhlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va gavdanning fazodagi holati to‘g‘risida signallar bilan ta‘minlab turadi. Ular inson harakatining regulatorini va afferent asosini tashkil qiladi.

Periferik retseptorlar muskullarda, paylarda va bo‘g‘imlarda joylashgan bo‘lib, maxsus tanacha shakliga egadir. Mazkur tanachalar Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo‘zg‘atuvchilar muskullarning taranglashuvi natijasida va bo‘g‘imlar holatining o‘zgarishida, nerv tolalari yordamida orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqliklarga yetkaziladi. Qo‘zg‘ovchilar Burdak va Goll yadrosining quyi bo‘limlariga yetib keladi va undan po‘stloq osti tugunlaridan o‘tib, bosh miya katta yarim sharining qorong‘ilashgan zonasida o‘z harakatini yakunlaydi.

Proprioretseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini A.A.Orbeli, P.K.Anoxin (hayvonlarda), N.A.Bern-shteyn (odamlarda) o'rganganlar.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirligi statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki qulqan kanallarida joylashgan bo'lib, o'zaro bir-biriga perpendikular bo'shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

- a) o'zgarish endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'aladi;
- b) eshitish nervi;
- d) vestibulator nervi;
- e) bosh miya po'stlog'inining chakka bo'lmasi;
- f) miya apparatiga o'tadi.

Vestibulator sezgirlik apparati ko'rish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni mo'ljallash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi.

Ekstroretseptiv sezgilar modallikkdan (5 tadan) tashqarisi intermodal nospetsifik sezgi turkumlariga ajratiladi. Masalan, eshitish a'zosi orqali bir soniyada 10–15 tebranishni sezish mumkin, lekin qulqan bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash — vibratsiya sezgirligi deyiladi. Masalan, karlarning tovushlarni idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilalar. Odatta, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

- a) hid, ta'm va maza sezgilarida;
- b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorug'likda;
- c) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holati va shu kabilarda.

Sezgining o'ziga xos bo'limgan shakli — terining foto sezgirligi, ya'ni ranglarning nozik jilolarini ajratish hamda qo'l

uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirlingi A.N.Leontyev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilonqa yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyat qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallari ning og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib qaralganda, insonni faol mo'ljal olish jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tushadigan rang-nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

Psixologiya fanida terining foto sezgirlingining tabiatini hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga qaramay, talamitik sistema va po'stloq ostining qo'zg'alganida asab tizimi hamda teri ektodermlaridan kelib chiqqan va atrofga yoyilgan rudimentlar—yorug'lik sezish elementlari maxsus sharoitda muvaffaqiyatli harakat qildi. Ko'pincha «oltinchi tuyg'u, hissiyot» sharofati bilan insonning «masofa»ni sezishi, ko'r odamlarda to'siqni his qilishi ushbu jarayon uchun yorqin misol bo'la oladi. Ehtimol, yuz terisining issiq havo to'lqinlarini idrok qilish, to'siq oralig'ida mavjud bo'lgan tovush to'lqinlarini o'zida aks ettirish terining foto sezgirlingini ilmiy jihatdan izohlashga muayyan asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sezgining neyrofiziologik asoslari

Bilish jarayonlarini, xususan, sezgilarni o'rganishdan avval shaxs psixikasining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqliklarni anglash, tushunish lozim. Chunki sezgilar idrok jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsa, idrok insonning hayotiy tajribasi, uning xotirasi bilan bevosita bog'liqidir.

Psixologiya fanida va falsafada bilishning ikki bosqichi, ya'ni uning hissiy (sezgi, idrok, tasavvur) va aqliy pog'onalari mavjud bo'lib, bu mumtoz xususiyat sifatida ma'lum. Aqliy bosqich xotira, tafakkur, xayol jarayonlarini qamrab olgan bo'lib, o'zining mukammalligi, yuksakligi, mahsulдорligi, ijodiyligi bilan oldingi bosqichdan keskin ajralib turadi. Biroq bugungi kun-

da bilish bosqichlarining miqdori, tavsifi psixologiya fani oldida turgan zarur vazifalarni bajara olmay qoldi. Ong darajalari xususiyatlariga ko'ra bilishga oid qo'shimcha bosqichlarga kuchli ehtiyoj sezadi. Xuddi shu bois bilishning harakatli hissiy, aqliy, ijodiy, tarixiy bosqichlarga (tabaqalashtirish) ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir (E.G'oziyev). Harakatli hissiy bosqich nutqqacha davrda ustuvorlik qilish bilan boshqa bilish ko'rinishlaridan keskin farq qilib turadi. Hissiy va aqliy bosqichlar barcha insonlarga xos bo'lib, ular ontogenezning turli davrlarida hukm surishi mumkin va aks ettirish imkoniyati boshqalarga qaraganda samaraliroqdir.

Tarixiy bilish bosqichi yangilik yaratish, kashfiyat qilish, muayyan sifat o'zgarishlarini vujudga keltirish, u yoki bu xossalarni takomillashtirish bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda, sezgilar biz uchun atrof-muhit to'g'risida va o'z haqimizda yagona bilish manbayi sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir axborot kanalidirki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keldigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'llar orqali miya po'stlog'iga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi.

His etish yoki sezishning filogenetik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda ma'lum bir narsani sezish, his etish ularning biologik jihatdan zaruriyat, ehtiyoj ekanligi nuqtayi nazardin rivojlangan.

Bu holatlar ko'pgina chet ellik olimlar tomonidan izchil ravishda o'rganilgan va o'ziga xos omillar, mexanizmlar mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Frish asalari xatti-harakatlarini kuzatganda, u quyidagi ishni amalga oshirgan: gulga o'xshash murakkab geometrik shaklga nisbatan asalarining differensirovkasi (farqlashi) oson kechgan. Agarda shu murakkab geometrik shakl botanikaga oid bo'limganda, arida differensirovka juda qiyinlik bilan vujudga kelgan bo'lardi. Tadqiqotchi Botsning kuzatishicha, jonivorlar, qurt-qumursqalar,

shu turdag'i hasharotlar ham o'ziga xos bo'lgan tovushlarga be-farq bo'lmanalar. Mabodo tovushlar kuchaytirilsa yoki sur'ati tezlatilsa, unda ular hech qanday e'tibor bermaganlar. Ushbu vaziyatni o'zicha baholashga intilgan olim, biologik shartlanganlikdan kelib chiqib, tabiiy ehtiyojni instinct bilan uzviy bog'lagan.

Tadqiqotchi Boytendayk o'z kuzatishlarida shu narsani ta'kidlaydiki, jumladan, itlar organik kislotalarning hidini yaxshi his etsalarda, ammo ular hayvonlarning tanasi, xushbo'y gullar, o'tlar hidini his etish imkoniyatiga ega emas ekanlar.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, qo'zg'atuvchilarining biologik jihatdan aynan mosligi ularning fiziologik rivojlanshi uchun moddiy negiz, tabiiy ehtiyoj, zarurat bilan bog'liqlik ekanligi ta'kidlandi. Shu narsani ta'kidlash joizki, insondagi aniq sezgilarning shu darajada taraqqiy etishiga ijtimoiy muhit, jarayon muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Chunki ayrim individlarning sezuvchanligi ularning kundalik faoliyatidan kelib chiqqan holda biologik shartlangan xususiyatlar bilan birgalikda rivojlanishi ham mumkin ekan. Tadqiqotchi Reussaning ma'lumotiga qaraganda, tikuvchilar, bo'yoq sexida ishlovchilar qora rangning 40 xilini bir-biridan farqlash imkoniyatiga ega ekanlar, umuman, boshqa sohada faoliyat ko'rsatadigan odam esa bunday rangning ikki turinigina farqlay olar ekan, xolos. Bundan tashqari, degustatorlarda ta'm bilish sezgilari juda ham aniq va yaxshi rivojlangan bo'lar ekan. Chunki sezgining o'sishi qo'zg'atuvchilarining retseptorga ta'siri natijasida yuzaga keladi, ya'ni u retseptorlar rivojlanishi bilan bog'liq.

Retseptor — bu qo'zg'atkich yoki qo'zg'atuvchini qabul qilishga mo'ljallangan nerv tolalaridan tashkil topgan. Retseptorlarning asosiy xususiyatlaridan biri uning ixtisoslashgan biologik apparat ekanlidir. Xuddi shu bois u juda seziluvchan qo'zg'alishni qabul qiladi. Har bir retseptor muayyan bir xususiyatlari qo'zg'atuvchiniga qabul qiladi, binobarin, retseptorlar o'sha «tanish» qo'zg'atuvchilarining ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Ma'lumki, inson o'zining tana a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan rang, issiqlik yoki sovuqlikni, hidlarning o'ziga xosligini sezadi hamda aks ettiradi. Ana shu vaziyat oqibatida analizatorlarning periferik qismlarida javob reaksiya hosil bo'ladi. Misol uchun, ko'z qorachig'i qisqaradi, kengayadi, qo'l esa issiqlikdan seskanadi va boshqalar. Harakatlarni qabul qiluvchi tana a'zolaridan bosh miya po'stlog'iga harakat to'g'risida signal keladi, qayta aloqa orqali ichki tana a'zolari va boshqa apparatlari ish bajradi.

Ingliz psixolog Ch.Sherrington sezgilarni aks ettirishning xususiyati va retseptorlarning joylashishiga qarab uch katta guruhga ajratadi.

1. Tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari ni aks ettiruvchi hamda tananing yuza qismida retseptorlari joylashgan eksterotseptiv sezgilar.

2. Tananing ichki a'zolarida (o'pka, yurak, jigar va hokazo) va to'qimalarida joylashgan hamda ichki tana a'zolarining holatini aks ettiruvchi retseptorlar bilan mujassamlashgan interoretseptiv sezgilar.

3. Inson gavdasining harakati va holati haqida ma'lumot berib turuvchi retseptorlar, mushaklarda, paylarda joylashgan propriotseptiv sezgilar.

Psixologiya fanida harakatni sezuvchan proprioretseptiv sezgi turi kinesteziya deb atalib, unga tegishli retseptorlar esa kinestezik yoki kinestetik tushunchasi bilan nomlanadi. Ekstroretseptorlar, o'z navbatida, kontakt va distant retseptorlarga ajratiladi, goho sezgilar tushunchasi «his-tuyg'u» atamasi deb ham yuritiladi. Odatda, distant retseptorlar muayyan masofadagi obyektdan keladigan qo'zg'atuvchilarni qabul qilib, so'ng ularni nerv yo'llari orqali markazga uzatadi. Ko'rish, hid bilish sezgilarini bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ekstroretseptiv, ya'ni tashqi sezgilar to'g'risidagi dastlabki ma'lumot qadimgi yunon olimi Arastu tomonidan tavsiflanib berilgan bo'lib, eramizdan oldingi 384—322-yillarda yashab o'tgan.

U sezgilarni ko'rish, eshitish, hid bilish, maza, ta'm turlariga ajratgan edi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, sezgilar goho o'zaro bog'lanib, boshqa sezgi turlarini yuzaga keltirishi mumkin: masalan, paypaslab ko'rish natijasida sezish tarkibida taktil, teri tuyush sezgilar bilan bir qatorda sezgilarning tamoman boshqa turi, ya'ni harorat sezgisi ham ishga tushadi. Xuddi shunga o'xhash voqelik, taktil va eshitish sezgilar oralig'ida vibration sezgi yuzaga kelishi mumkin.

Muvozanat sezgisi murakkab vestibular apparati, vestibular nervlari hamda ko'z po'stosti qismlarini o'zida birlashtiradi. Turli analizatorlar uchun umumiy hisoblangan og'riq sezgilar qo'zg'atuvchilarning ta'sir kuchi haddan tashqari kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, insонning tana a'zolarida retseptorlarning joylashuv darajasi har xildir, jumladan, barmoq uchlarida retseptorlar zich, yelka qismida esa juda siyrak joylashgandir. Hozirgacha sezgilar ichki va tashqi turlarga qariyb ajratilmagan bo'lsada, ular harorat, og'riq, maza, vibratsion, statistik, dinamik sezgilar deb yuritiladi.

S.V.Kravkovning (1893–1951) ma'lumotlariga ko'ra, bir sezgi a'zosi faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o'zgaradi. Masalan, tovush sezgisi, asosan, ko'rish sezgisining yorug'lik sezuvchanligini orttiradi. Shunga o'xhash turli hidlar ham yorug'lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Miya ustining yuqori qismi va ko'rish bo'rtiqlariga tegishli o'simtalarning yaqin joylashganligi tufayli bunday o'zaro ta'sir, ya'ni boshqasiga o'tish osonroq amalga oshadi.

Bundan tashqari, sezgilarning o'zaro qo'zg'alishi va tormozlanishini o'rganish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki avtomatik boshqarilish tufayli ayrim hollarda, ya'ni tungi uchishda sun'iy sezgirlikning pasayishi yoki ortishi yuzaga keladi. I.P.Pavlov tomonidan analizatorning murakkab o'zaro ta'sir shakllari mavjud ekanligi qayd etilgandir. Ular bevosita bosh miya po'stlog'ida namoyon bo'lib, bu bir vaqtning o'zida ko'rayotgan jismni, eshi-

tilayotgan tovushni, kelayotgan hidni sezishimizda o‘z ifodasi-ni topadi. Bosh miya po‘stlog‘ida kechadigan bu fiziologik jaryonlarni bosib o‘tishi zarur bo‘lgan zonalar perikritik zonalar deb nomlanadi. Sezgilarning tasnifi ularning turli spetsifik tavsiflariга, ya’ni modalligiga qarab emas, balki tashkil etilishining har xil darajalariga qarab amalga oshiriladi.

Ingliz nevrologi Xed sezgilarni protopatik va epokritik nomlar ostida ikkita darajaga ajratadi. Protopatik sodda tuzilishga ega bo‘lgani uchun unda mayjud haqiqiy holat bilan emotsiyonal holatni ajratish qiyin deydi. Murakkab epokritik d‘arajasi-da aqliy bosqich tarkiblari ishtirok etishi mumkin, jumladan, ko‘rish sezgisi bunga yaqqol misoldir. Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, dastlab protopatik sezgilar, keyinchalik epokritik sezgilarni yuzaga keladi.

Sezgilarning obyektiv yo‘nalishi bo‘yicha Y.N.Sokolov, O.S.Vinogradovlar tekshirish ishlari olib borganlar, ular sezgilarni passiv jarayon emas, balki vegetativ elementlar fiziologik nafas olish tizimida o‘zgarishga sabab bo‘luchilardir deb tu-shuntirganlar. Ushbu vaqt reflektor o‘zgarishlarini, ya’ni sezgining obyektiv ko‘rsatkichi sifatida ishlashga imkoniyat yaratadi. Ma’lumki, sezgini paydo qiluvchilar bir qo‘zg‘atuvchi, ya’ni qo‘zg‘atgich, reflektor jihatdan yuzaga keluvchi jarayonlarni yuzaga chaqiradi, chunonchi bular tomirlarning torayishi, teri galvanik reflektorlarning paydo bo‘lishi (teri qarshiligining o‘zgarishi), miyaning elektr faolligining o‘zgarishi, ko‘zlarning qo‘zg‘atgich tomon burilishi kabilar. Bularning barchasi sezgi jarayoni paydo bo‘layotgandagina ishga tushadi, shu sababli ular sezgilarning obyektiv ko‘rsatkichlari sifatida xizmat qila oladi.

Tajribalardan ko‘rinib turibdiki, qo‘zg‘atuvchilar intensivligi oshgan sari javob reaksiysi ham jadallahib borar ekan. Bu esa sezgilarning intensivligiga asos sifatida qarashga muhim ne-giz hozirlaydi. Tomir va elektro fiziologik reaksiyalar chegaralar-da odatdagи qo‘zg‘atuvchilarga qaraganda keskinroq bo‘ladi.

Avval I.P.Pavlov, keyinroq uning shogirdlari analizatorlarning o'zaro bog'liqligini konvergensiya asosida tadqiq qilganlar. P.P.Lazarev esa (1878–1942) teri ultrabinafsha nurlar bilan nurlanishi natijasida ko'rish sezuvchanligining susayishini aniqlagan. Bu holat agar boshqa analizatorlarga quyi chegarada qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi orqali ham biron analizatorning sezuvchanligini o'zgartirishi mumkin, degan umumiy xulosa chiqarishga olib keladi.

Y.N.Sokolovning tajribalarida qo'zg'atuvchiga nisbatan muvoqliashuvchi reaksiyaning susayishi mumkinligi haqida dalillar to'plangan edi. Nerv sistemasi sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatganda ularning xususiyatlari nafisroq namoyon bo'ladi. Bunda nerv modellari tanlab ta'sir qiluvchi filtr vazifasini bajaradi. Muayyan paytda retseptorga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchi ilgari tarkib topgan nerv modeli bilan muvofig kelmaganda taxminiy ta'sirotni hosil qiluvchi muvofiglashtirish signallari vujudga kelishi mumkin. Va aksincha, ilgari tajribalarda qo'llanilgan qo'zg'atuvchi taxminiy ta'sirotni yo'qotib qo'yish ehtimoli ham bor.

Chet ellik psixolog va fiziologlar sezgirlikni Mendelning qonuniyatiga asoslanib nasl bilan bog'liq holda tadqiq qilganlar. Speyder ta'm bilish nasnga bog'liq degan xulosa chiqaradi va 100 oilada buni sinab ko'radi. Ma'lumotlarga qaraganدا, ota-onalar bilmagan ta'mni bolalari ham payqamaganligi namoyon bo'lgan.

I.P.Pavlovnning shogirdi P.K.Anoxin o'zining qirq yillik faoliyati davomida organizm intengrativ faoliyatining nozik mehanizmlarini o'rgangan. Muallif o'zining bir qator asarlarida funksional sistema nazariyasini mohiyatini bayon qiladi, ya'ni organizmda faoliyat sistemasi mavjud bo'lib, u yopiq takrorlanuvchi fiziologik siklik tuzilmadan iborat. Muallifning fikricha, organizmnинг funksional sistema organizm xatti-harakati reaksiyalarining fiziologik mehanizmining prinsipial sxemasidan iboratdir. Organizmning barcha jarayonlari, xatti-harakatlari, vegetativ aktivlar agarda foydali samara bilan tugallansa, u hol-

da uch bosqich orqali bajariladi. Mazkur bosqichlar afferent, sintez, qaror qabul qilinib bajarilishi uchun zarur bo'lgan harakatlar natijasi, ya'ni model hosil qilish yo'li bilan oldindan aks ettirish-dan iborat. Afferent, sintez bosqichi har qanday xatti-harakat akti rivojlanishining boshlang'ich pog'onasidir. Ushbu bosqich tugagach, muayyan xatti-harakat akti shakllanishining navbatdagi bosqichi boshlanadi. Aynan shu bosqichda organizm xatti-harakatining uch asosiy masalasi, ya'ni nima? qanday? va qachon? bajarilishi hal qilinadi.

Afferent sintez bosqich, asosan, to'rtta komponent negizida sodir bo'lishi tajribalarda sinab ko'rilib. Uning asosiy jabhalari, eng avvalo dominant motivatsiya (o'ta xohish) va unga hamroh hisoblangan emotsiyaning kuchliligi hamda barqarorligida namoyon bo'ladi:

1. Organizmga qo'zg'atuvchilarning ma'lum bir ta'siri.
2. Yo'naltiruvchi afferentatsiyaning mavjudligi.
3. Afferentatsiyaning muayyan shart-sharoitlari.
4. Xotira apparatlari va mexanizmlari.

Bularning o'zaro ta'siri quyidagi uchta neyrodinamik omil orqali bajariladi:

- a) yo'nalgaligini;
- b) neyronlarda qo'zg'alishning konvergensiysi (to'yinishi);
- c) qo'zg'alishning po'stloq va po'stloq osti tuzilmalarida qayta hosil bo'lishi va tiklanishi.

Bu mexanizmlar nerv sistemasida turli qo'zg'alishlarni to'plashga, birlashtirishga, solishtirishga va mazkur muhitda eng qulay xatti-harakat aktini bajarish uchun qaror qabul qilishga olib keladi.

Miya po'stlog'i hujayralarida qo'zg'alishning konvergensiysi va ularni solishtirish jarayoni butun miya bo'ylab bu o'zaro ta'sir natijalarining integratsiyasi harakat maqsadining shakllanishiga hamda uni unumliroq qaror tanlash sari yetaklaydi.

Katta yarimsharlarning murakkab integrativ faoliyatining boshlang'ich bosqichini turli qo'zg'atuvchilar bir neyronidagina konvergensiysi deb qarash mumkin.

Katta yarimsharlarda maxsus neyronlar guruhi borligi sababli ular turli-tuman qo‘zg‘alishlarni qayta qabul qilish bilan cheklanmay, balki miya po‘stlog‘ining piramida hujayralaridan aksan orqali keluvchi efferent qo‘zg‘alishlarni ham qabul qiladi. Bu esa orqa miya po‘stloqosti va po‘stloqdagagi ko‘plab aksонlar neyronlarning vazifasi, ya’ni siklik qo‘zg‘alishni ko‘pincha saqlab turish, o‘ziga xos «kutish» to‘plamini saqlaydi. Shu bilan bir vaqtda periferik ishchi a’zolariga yuboriladigan buyruq nusxasini butun miyaga tarqalishini ta’minlaydi. Bir neyronning o‘zidagi efferent qo‘zg‘alish konvergensiyasi periferik retseptorlardan keluvchi afferent qo‘zg‘alish bilan aksonga uzatilgan buyruq nusxasi olingan natijalarni baholash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Evolutsiya jarayonida hosil bo‘ladigan bilihning neyrodinamik mexanizmlarining kashf etilishi har qanday bo‘lajak hodisalarini tahlil qilish va oldindan bilihga asos bo‘ladi.

Ko‘rish analizatori o‘zaro bir-biri bilan alohida bo‘lgan o‘tkazuvchan periferik qismdan, po‘stloqosti va bosh miya yarimsharlardagi ko‘rish markazlaridan iboratdir. Eshitish analizatori havo to‘lqinlarining tebranishini qabul qiladi, ularning mexanik energiyasini nerv hujayrasining qo‘zg‘alishiga aylantiradi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, sezgilarning neyrofiziologik asosi juda murakkab bo‘lganligi tufayli uni ancha vaqt o‘rganish lozim bo‘lar ekan.

Sezgi turlarining psixologik tavsifi

Psixologiya fanida sezgilar uchta katta guruhgaga ajratilgan (eksteroretseptiv, proprioretseptiv, interoretseptiv), bular o‘z navbatida, yana quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ko‘rish sezgilari.
2. Eshitish sezgilari.
3. Hid bilih sezgilari (eksteroretseptiv).
4. Ta’m bilih sezgilari.
5. Teri sezgilari.
6. Muskul-harakat (kinestetik).
7. Statik sezgilar (proprioretseptiv).

8. Organik sezgilar (interoretseptiv).

Ko‘rish sezgiları

Insonning rang va yorug‘likni sezishi ko‘rish sezgilari tarkibiga kiradi va seziladigan ranglar xromatik, axromatik turlarga bo‘linadi.

Psixofiziologik qonuniyatga ko‘ra, yorug‘lik nurlari uchbur-chak shisha prizma orqali o‘tib singanda, hosil bo‘ladigan ranglar xromatik ranglar, deb ataladi. Ular **kamalak** ranglar hisoblanadi va tarkibiga qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, ko‘k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Biroq mazkur ranglarning turlari, ko‘rinishlari tabiatda xilma-xil va niroyatda ko‘pdir. Odatda, oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko‘rinishlari axromatik ranglar deb nomlanadi.

Ko‘rish sezgilari organi ko‘z hisoblanib, u ko‘z soqqasi va undan kelib chiqadigan ko‘ruv nervlaridan tashkil topadi. Ko‘z soqqasini tashqi tomirlar va to‘r pardalari o‘rab turadi.

Tashqi pardaning tiniq bo‘lmagan oq qismi sklera yoki qotgan, qattiq parda deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan birmuncha qavariq qismi tiniq muguz parda bo‘lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan, uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko‘z ko‘k, qora, sariq jilo beradi va ularni biz ko‘KKO‘Z, qo‘yko‘z, qorako‘z va hokazo deb ataymiz. Rangdor pardaning o‘rta qismida yu-maloq teshik mavjud bo‘lib, biz uni qorachiq deb ataymiz. Xuddi shu teshik orqali ko‘z ichiga yorug‘lik nurlari kiradi. Kelayotgan yorug‘likning ozligi yoki ko‘pligiga qarab, qorachiqning kengayish yoki torayish jarayonlari yuzaga keladi.

Ko‘zlarning uchinchi pardasi to‘r parda deb nomlanib, u ko‘z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism – ko‘z gavhari joylashgan bo‘ladi. Yorug‘lik nurlari unda to‘planib, so‘ng sinadi va to‘r pardaga narsa yoki jismning surati tushadi. Halqa shakldagi kipriksimon muskulning uzayishi yoki qisqarishi tufay-

li gavhar yo yassilanadi yoki qavariq holga keladi (jism ko'zdan uzoqlashtirilganda gavhar yassilanadi, ko'zga yaqinlashtirilganda esa u shar shakliga kiradi). Ko'z gavharining mazkur xossasi tufayli narsa goh uzoqda, goh yaqinda bo'lsin, narsalarning aksi gavhardan o'tib, so'ng to'r pardaga tushaveradi.

Ko'z soqqasining gavhar bilan to'r parda o'rtasidagi butun ichki yuzasi shishasimon jism deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo'ladi. Bu to'r parda rang va yorug'likni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning uchlari-da tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik (kunduzgi) ranglar ko'riladi. Tayoqchalar yorug'likni yaxshi sezuvechan bo'lib, xira va qorong'i paytlarda ham o'z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi.

To'r pardaning eng sezgir joyi – sariq dog' asosan, kolbachalar bilan to'lgan markaziy chuqurcha hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko'ramiz. Obyektga tik qarash natijasida, ko'z muskullari unga qaratiladi va aks ettiriluvchining surati sariq dog'ga tushadi, bunday tarzdagi ko'rish to'g'ridan ko'rish deyiladi. Agarda narsalarning surati sariq dog'dan tashqarida bo'lsa, ya'ni to'r pardaning bu joyida rang va yorug'likni sezadigan tayoqchalar, kolbachalar mayjud emas, u ko'ruv nervining ko'z soqqasidan chiqish joyi bo'lib, u yorug'likdan ta'sirlanmaganligi uchun ko'r dog' deb ataladi.

Odam ko'zi ranglarni taxminan 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlar ta'sirida sezadi: 1) 780–610 qizil rangni; 2) 610–590 zarg'aldoqni; 3) 590–575 sariqni; 4) 560–510 yashilni; 5) 480–470 havorangni; 6) 470–450 ko'k rangni; 7) 450–380 binafsharangni sezadi.

A) Ko'rish sezgilarining xossalari.

1. Rangning toni (150 ga yaqin tuslari).
2. Ochiqlik (qora bilan oq rangda 200 gacha tus ajratiladi).
3. Rangning ravshanligi (600 ga yaqin).
4. Rangning quyuqligi (tonining yaqqolligi).
5. Ranglarning aralashib ketishi (turli uzunliklardagi yorug'lik nuri).

B) Ko'rish sezgisi jarayoni.

Uch rangli nazariyasi:

1. 1756-yilda M.V.Lomonosov asosiy qoidalarni bayon qilib bergen.

2. 100 yildan keyin nemis fizigi G.Gelmgols uni to'la isbotlab bergen.

3. Ushbu nazariyaga binoan, to'r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo'zg'alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi birining qo'zg'alishi yashil rang sezgisi va uchinchi birining qo'zg'alishi binafsharang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko'ra, yorug'lik to'lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo'zg'atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug'lik to'lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, amma bu ta'sir bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlar har birining qanchalik qo'zg'aganligiga qarab, rang sezgilari har xil namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg'iz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stlog'ida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog'liq ekanligi aniqlangan. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan, tayoqchalarda ko'rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'sir etganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan par-chalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish nervini qo'zg'atib, yorug'lik sezgisi hosil qiladi, qorong'ilikda esa purpur o'z funksional holatini qayta tiklaydi.

D) Ko'rish sezgilarida yuz beradigan maxsus hodisalar:

1. Rang kontrast (kuchsizlanish tufayli).
2. Shapko'rlik.

3. Rang ajrata olmaslik (traxoma) — kunduzi va tunda yuradigan hayvonlar shular jumlasidandir.

Eshitish sezgilar

Eshitish sezgilarining vazifasi tovushlarni eshitishdan iborat. Bular musiqa va turli-tuman shovqinlar bo‘lishi mumkin. Odatta, tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonlar, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topganlari- dir. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanadi va tovush balandligini, kuchini belgilaydi, boshqalari qo‘shiluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deyiladi. Musiqa asboblaridan taralayotgan tovushlarning o‘ziga xosligi fan tilida membr deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqin tovushlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo‘ladi.

Eshitish sezgilar organi qulqoq bo‘lib, tashqi qulqoq (qulqoq suprasii bilan eshituv yo‘lidan iborat), o‘rta qulqoq (nog‘ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg‘acha, sandon va uzangidan tashkil topgan), ichki qulqoq (qulqoq labirinti o‘zaro birlashgan uchta bo‘lakdan tuzilgan). Tashqi qulqoq havo to‘lqinlarini yig‘uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog‘ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to‘lqinlarini ichki qulqoqqa uzatadi. O‘rta qulqoq maxsus yo‘l orqali og‘iz va burun bo‘shlig‘i bilan tutashgan bo‘la- di. Ichki qulqoqning yuqori qismi uchta yarim doira kanaldan, o‘rta qismi kameradan va pastki qismi chig‘anoqdan tashkil top- gandir.

Ichki qulqoqning uchala bo‘limi endolimfa nomli maxsus suyuqlikdan iboratdir. Ichki qulqoqning asosiy qismi chig‘anoqdan iborat bo‘lib, uning ichida kortiy organi mavjud, u gumbaz shakliga ega, asosida esa membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo‘lib, ular tarang tortilgan turlarga o‘xshaydi, uning yuqori qismida maxsus tayoq- chasimon hujayralar mavjud va ular kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qillari bor maxsus hujayralar yordamida kortiy dugalari orqali miya katta yarimsharlari po‘stlog‘ining bo‘lagiga joylashgandir.

Eshitish sezgilarining fizik sabablari. Havo to'lqinlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilarini hosil bo'ladi. Agarda musiqaviy tovushlar havo to'lqinlarining tekis ritmik harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinlar ularning notejis harakatlaridan tug'iladi.

Hid bilish sezgilar

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kovagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan, ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, hid bilish marmazasi bosh miya yarimsharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi (ularning barchasi bug'lanadi va eriydi). Odatda, gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun kovagiga kirib keladi, natijada aksa ettirish holati hosil bo'ladi.

Ta'm bilish (maza) sezgilar

Ta'm bilish sezgilarini shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarini his qilish bilan tavsiflandi. Ular muayyan turkumga kiritilgan va kiritilmagan xilma-xil turlarga ega bo'lib, narsa va moddalarning nomlari bilan yuritiladi: nonning mazasi, qovuning mazasi kabilar.

Ta'm bilish sezgilarini tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismida tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida tayoqsimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kurtaklari» (so'g'onlari) bo'ladi. O'ziga xos xususiyatlari, sifatlari bilan tafovutlanuvchi ta'm bilish so'g'onlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun tilning orqa qismi achchiq mazani, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani aniq sezadi, lekin uning o'rtasi ta'm mazasini to'liq seza olmaydi. Ta'm bilish so'g'onlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchan nervlarning chekka uchlari joylash-

gan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlari hid bilish markazlariga yaqin joydadir.

Ta'm bilish sezgilari moddalarning kimyoviy xossalari ta'sirida hosil bo'ladi va so'g'onlar erigan moddalar ta'siri ostida qo'zg'alandi.

Hid va ta'm bilish sezgilari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, kimyoviy moddalarning ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi. Ammo ularning bittasi kontakt, ikkinchisi distant sezgilar toifasiga kiradi.

Teri sezgilari

Teri sezgilari tarkibi tuyush va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining sababi retseptorlarning teri va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidir.

Tuyush sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning birinchisi tegish va tarqalishni tuyush, ikkinchisi esa silliq yoki g'adir-budurni tuyush bilan ifodalanadi. Odatta, tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'alish kuchayganda siqiqni sezishga aylanadi, u yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanadi.

Tuyush sezgilari organi – teridagi va tashqi shilliq pardalar-dagi tuyush tanachalari deb nomlanuvchi tanachalardan iborat. Tanachalarning ichida, qisman tashqarisida (epiteliyda) tuyush nervining chekka tarmoqlari mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan. Ular barmoqlarning uchlarida, til uchida, labda zich joylashgan bo'ladi, shu bois sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir. Qaysi yerda tanachalar siyrak bo'lsa, demak, shu joylarda sezish ko'rsatkichi shunchalik pastdir.

Psixologiyada tuyush tanachalari va sezuvchi nervning chek-ka tarmoqlari zichligi esteziometr asbobi yordami bilan o'lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkulga o'xshash bo'lib, uning o'zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o'rtasidagi masofani o'lchaydi.

Tuyushning aniqlik darajalari: a) barmoq uchlarida 1 mm dan — 2 mm gacha, b) qo'l kaftida 10 mm, d) orqada 60—70 mm

masofada bir yo‘la ikki oyoqcha tegayotganligini sezish mumkin (masofa kamaysa, sezgirlik pasayadi).

Tuyush sezgilarining markazi bosh miya po‘stlog‘ining orqadagi markaziy pushtasida joylashgan deb taxmin qilinadi.

Tuyush sezgilarining tashqi, ya’ni fizik sababi – bu biron-bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

Harorat sezgilarini issiq yoki sovuqni sezish bilan ifodalanadi. Maxsus tanachalarning ichida issiqni yoki sovuqni sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari joylashgan bo‘ladi.

Ularning tashqi sababi – biron-bir haroratga ega bo‘lgan qat-tiq, suyuq va gazsimon jismlarning tanaga tegib turishidir. Issiqni yoki sovuqni farqlash qo‘zg‘atuvchi harorati bilan badan harorati o‘rtasidagi nisbatga ko‘ra belgilanadi. Masalan, qo‘zg‘atuvchining harorati badan haroratidan past bo‘lsa sovuqni, agarda yuqori bo‘lsa – issiqni sezamiz, his qilamiz.

Farqlash: jismlarning issiqlik o‘tkazuvchanligi – temir va yung.

Harorat sezgilar: a) tashqi qo‘zg‘atuvchilar; b) organizm ichida qo‘rqishdan qon tomiri torayadi, uyalishdan qon tomiri ken-gayadi.

Muskul-harakat sezgiları va statik sezgilar

Muskul-harakat sezgiları motor sezgiları, goho kinestetik sezgilar deb nomlanib, ularga og‘irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgiları kiradi. Ularning organları – gavda muskulları, paylar, bo‘g‘imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo‘lib, ularning ta’sirida hərəkat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul-harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta’sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

Statik sezgilar gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilaridir.

Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibular apparat retseptör vazifasi.

fasini bajaradi. Vestibular apparat qulq dahlizi va yarim doira kanallardan tashkil topgan bo‘ladi. Sezuvchi nerv tarmoqlari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda otolitlar alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallaridan tashkil topgandir.

Odatda, organizm avtomatik ravishda refleks yo‘li bilan muvozanat saqlaydi.

Organik sezgilar

Organik sezgilarning retseptorlari ichki organlarda: qizilo‘ngach, me’da, ichak, qon tomirlari, o‘pka va shu kabilarda joylashgan bo‘ladi.

Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgi retseptorlarining qo‘zg‘atuvchilaridir. Ular quyidagilardan iboratdir:

- a) og‘riq sezgilari;
- b) xush tuyg‘ular;
- c) noxush tuyg‘ular.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sezgi nima?
2. Sezgining neyrofiziologik asoslari nimadan iborat?
3. Sezgi turlarining psixologik tavsifini aytib bering.

II bo'lim. LORPATOLOGIYA

1-mavzu. Inson eshitish analizatorlari tizimi va tovushni his etish

Reja:

1. Eshitish analizatorlari haqida umumiy ma'lumot.
2. Tovush to'lqinlari.
3. Tovushni his etish.

Tayanch so'z va iboralar: eshitish, eshitish analizatorlari, tovush, tovush balandligi, tovushni his etish.

Odatda, biz qandaydir ovozlarni eshitishimiz mumkin. Reaktiv samolyot tovushi, do'stlar suhbat, qushlar ovozi, shamol yoki o't-o'lan ovozi. Biz atrofimizdagi tovushlarni ko'p vaqt bilmaymiz yoki his etmaymiz. Sababi miya mashina shov-qini yoki uzoq tovushlarni bloklab tashlaydi. Lekin birorta yangi ovozni eshitganimizda, unga eshitish qobiliyatimizni yo'naltiramiz.

Eshitish analizatorining adekvat ta'sir etuvchisi tovush to'lqinlari bo'lib, ular turli zichlikka ega bo'lgan muhitda har xil tezlik bilan tarqaladi. Quloq va yuqori nafas yo'llarida ko'pgina muhim analizatorli o'rinni topgan. Shulardan biri eshitish analizatoridir. U ekstraretseptor analizatorlar, ya'ni signallarni masofadan qabul qilib analizlovchilar turkumiga kiradi.

Eshitish analizatori filogenetik eng kech shakllangan, mu'rakkab tuzilishga va universal xususiyatlarga ega bo'lgan tuzilmadir.

Eshitish analizatorining adekvat ta'sir etuvchisi tovush to'lqinlari bo'lib, ular turli zichlikka ega bo'lgan muhitda har xil tezlik bilan tarqaladi. Tovush to'lqinlarining fazodagi harakatini sinusoidlar ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bunda amplituda tebranishlarning eng katta chegarasi, davr — nuqtaning to'liq aylanish vaqt, ya'ni fazaning 360 gradusga o'zgarishi, faza — tebranishning shu ondag'i holati deb tushuniladi. Boshqa ta'sir etuvchi-

lardan farqli, tovush to'lqinlarining eshitish analizatoriga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari bor.

Ulardan birinchisi, sog'lom odam eshitish analizatori havo orqali 16 dan 20.000 Gs gacha bo'lgan oraliqdagi tovush to'lqinlarini qabul qiladi. Bu ikki chegara odam qulog'inining eshitish diapazonini tashkil qiladi. 16 Gs dan past tovushlar infratovushlar va 20.000 Gs dan yuqori tovush to'lqinlari ultratovushlar deb yuritiladi.

Suyak to'qima orqali odam qulog'i chastotasi 225 ming Gs gacha bo'lgan ultratovushlarni qabul qila oladi. Eshitish diapazonidagi 16 Gs dan 500 Gs gacha bo'lgan to'lqinlar past chastotali, 500 dan 3000 Gs gacha – o'rta, 3000 Gs 8000 Gs dan tepaisi – o'ta yuqori chastotali tovushlar deyiladi.

Eshitish analizatorining turli chastotadagi tovush to'lqinlari ga har xil ta'sirchanligi uning ikkinchi o'ziga xos xususiyatidir. Bizning qulog'imiz 1000–3000 Gs oralig'idagi tovushlarga eng ta'sirchandir. Shu optimal eshitish chegaralaridan uzoqlashgan sari eshitish organining ta'sirchanligi pasayib boradi va 200 Gs dan 10.000 Gs atrofida tovushning bo'sag'a kuchi 1000 martacha ortadi.

Eshitish analizatorining boshqa xususiyatlaridan biri – ototopika – tovush manbayining joyi va yo'nalishini aniqlash, tovush to'lqinlarining absolyut kattaligi va oraliqlarini farqiga bog'liq bo'ladi.

Tovush to'lqinlari bir-biridan balandligi, jarangdorligi va tembri bilan farqlanadi.

Tovush balandligi uning chastotasi, tovushning 1 sek. ichidagi tebranishlar soni bilan belgilanadi va u Gs larda o'lchanadi. Tovushning jarangdorligi uning jadalligini aks ettirib, u quvvat yoki bosim birliklarida o'lchanishi mumkin. Lekin bu birliklar katta sonli chegaralar darajasida bir-biridan farqlanishi sababli ularni amaliy ishda qo'llash juda ko'p noqulayliklar tug'diradi. Tovushlar telefon ixtirochisi A.Bel nomi bilan yuritiladi va «bel» birligida belgilanadi. Buni yanada qulaylashti-

rish maqsadida har bir «bel» teng 10 qismga bo‘linadi va desibellar (db) deb ataladi.

140 db odam qulog‘i bardosh bera oladigan eng kuchli tovushdir. 30 db eng past tovush hisoblanadi, lektorning nutqi 60 db ga tenglashadi. Reaktiv uchkich atrofiga 100 db tovush tarqatadi. Tembr – tovushning xilma-xilligi bo‘lib, unda asosiy qismi – tonlar va qo‘srimcha qismlari – obertonlar deb yuritiladi.

I.P.Pavlovning analizatorlar ta’limotiga asosan, eshitish analizatori uch qismdan: periferik, o’tkazuvchi yo’llar va po’stloq qismlaridan tashkil topgan.

Eshitish analizatorining periferik qismi tovush o’tkazish va tovush qabul qilish bo‘limlaridan iborat.

Tovush o’tkazish qismiga tashqi va o‘rta qulq tuzilmalari, hamda ichki qulqning peri- va endolimfa bo‘shliqlari, bazilyar membrana, chig‘anoqning membranasi kiradi. Eshitishni qabul qilish qismini spiral a’zo tashkil qiladi. Tovushning o’tkazish qismi tovushni retseptor apparatga yetkazib berish uchun, qabul qilish qismi esa, mexanik tebranishlarni nerv impulsiga aylantirishga xizmat qiladi.

Tashqi qulq qulq suprasi va tashqi eshituv yo‘lidan tashkil topgan. Qulq suprasi murakkab tuzilgan burmalar va chuqurchalar hosil qiladi. Qulq suprasining yuqori qismi gialin tog‘aydan va pastki qismi yog‘li qo‘srimchadan tashkil topgan. Uning vazifasi tovush to‘lqinlarini yig‘ib tashqi eshituv yo‘liga yo‘naltirib berish, hamda ototopikada ishtirok etishdan iborat. Tashqi eshituv yo‘li ichi bo‘sh gorizontal va frontal bo‘shliqlarda o‘z yo‘nalishini o‘zgartiruvchi bo‘sh nayni eslatadi. Uning bo‘yi o‘rtacha taxminan 1 sm, eni – 0,9 sm, orqa yuqori yo‘nalishidagi uzunligi 2,5 sm, oldi pastkisi 3,1 sm ni tashkil qiladi. Tashqi eshituv yo‘lining 4 ta devori bo‘lib, uning ichkarigi 2/3 qismi suyaklardan va oldingi 1/3 qismi tog‘aylardan tuzilgan. Oldingi qismi terisida soch piyoqchalari, yog‘ va oltingugurt bezlari bor. Tashqi eshituv yo‘li tovush to‘lqinlarini o‘rta qulq sistemasiga o’tkazish, ayrim

chastotalarda ularni kuchaytirib berish va himoya vazifalarini bajaradi.

Nog'ora parda o'rta qulqoq sistemasining tashqi eshituv yo'llidan ajratib turadi. U nog'ora bo'shlig'iga tortilib turgan konus ko'rinishiga ega. U nog'ora suyak halqaning ariqchasiga chekkalari bilan birikadi. Nog'ora parda pastki tortilgan va yuqori bo'shashgan qismlardan iborat. Tortilgan qismi tashqi teri, o'rta sirkulyar va radial fibroz tolalari va ichki — shilliq qavatlardan, bo'shashgan qismi faqat tashqi va ichki qavatlardan hosil bo'lgan. Fiziologik nuqtayi nazardan nog'ora parda quyidagi funksiyalarni bajaradi: himoya, ekranizatsiya va tovushni o'tkazish — kuchaytirish.

O'rta qulqoq sistemasini nog'ora bo'shlig'i, so'rg'ichsimon o'simta va eshituv nayi hosil qildi. Nog'ora bo'shlig'i hajmi taxminan 1,5 sm/kub ga teng. Kub ko'rinishiga ega bo'lgan tuzilma bo'lib, uning 6 ta devori mavjud. Nog'ora bo'shlig'ini tashqi devori asosan nog'ora parda hisobiga, ichki devori suyak labirintning dahliz va chig'anoq qismlari hisobiga tashkil topgan.

Nog'ora bo'shlig'ida suyakchalar, nerv va qon tomirlari joylashgan. Uchta eshitish suyakchalari — bolg'acha, sandoncha, uzangicha nog'ora bo'shlig'ining tovush o'tkazish zanjirini tashkil qiladi. Ular bir-biri bilan richag tipi bo'yicha birlashgan. Richagning uzun yelkasini nog'ora pardaning ichki yuzasiga birlashgan bolg'acha dastasi va kalta yelkasini sandonning uzun oyoqchasi tashkil qiladi. Zanjirning ichki qismi uzangi asosi bilan tugaydi va u suyak labirint lateryal devoridan oval oynaga kelib birlashadi. Bundan tashqari, shu devorda dumaloq oyna ham bo'lib, u yupqa elastik ikkilamchi membrana bilan tortilgan.

Suyakchalar zanjiri tovush to'lqinlari kuchini kuchaytirishi, ularni ichki qulqoq suyaklariga yetkazish va himoya vazifalarini bajaradi.

Oxirgi funksiyasini bajarilishida nog'ora bo'shlig'i mushaklari — **m. tensor tumpani** nog'ora pardani tortuvchi va sandon —

m. stapedius larning roli katta. **m. tensor** tumpani, **n. trigeminus** shoxchasi va **m. stapedius**, **n. facialis** shoxchasi orqali innervatsiya qilinadi.

Nog'ora bo'shlig'i aditus ad antrum g'origa kirish yo'li orqali so'rg'ichsimon o'simtaning eng katta hujayrasi g'or bilan birlashadi. Undan tashqari joylashishiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lingan mayda hujayralar mayjud. Hujayralarning pnevmatizatsiyasining rivojlanishiga qarab pnevmanik, diploetik va sklerotik tiplar farqlanadi.

Nog'ora bo'shliqning oldingi qismiga eshitish (yevstaxiy) nayi ochiladi. Uning uzunligi o'rtacha 35–40 mm ni tashkil qiladi. Katta odamda u oldinga, ichkariga, pastga qarab yo'nalgan va burun halqumining yon devoriga o'rta chig'anoq orqa qismi darajasida ochiladi. Eshituv nayi devorlarining nog'ora bo'shlig'iga yaqin 2/3 qismi suyak va burun halqumga yaqin, 1/3 qismi tog'aydan tashkil topgan.

Eshituv nayi shilliq pardali tukli epiteliy qoplangan. Uning tukchalari burun halqum tomonga qarab harakatlanadi. Eshituv nayi nog'ora pardanering ikki tomonida bir xil havo bosimini saqlash, nog'ora bo'shlig'ini ventilatsiya va drenaj qilib turish vazifalarini bajaradi.

Ichki quloq murakkab tuzilishga ega bo'lgan tuzilmadir. U kompakt suyakdan tashkil topgan suyak labirint va uning ichida joylashgan bir-biri bilan birlashuvchi bo'shliq hamda yo'llardan iborat parda labirintdan tashkil topgan. Suyak labirint kimyoviy tarkibi orqa miya suyuqligiga o'xshash perelimfa bilan to'lgan.

Parda labirint yuqorida aytilgan suyuqliklardan elektrolit tuzilishi bilan farqlanadigan endolimfa bilan to'lgan.

Suyak labirint oldingi – chig'anoq, o'rta – dahliz va orqa – yarim aylanasimon kanallar qismlariga bo'linadi.

Parda labirint chig'anoq yo'li, dahlizning ikki – sferik va ellintik xaltachalari, oldingi, orqa va lateryal yarim aylanasimon yo'llar, endolimsatik xaltacha va ularni birlashtiruvchi yo'llardan iborat.

Chig‘anoq – markaziy suyak ustuni (modiolus) atrofida ikki yarim aylanish natijasida hosil bo‘lgan suyak nay bo‘lib, uni ko‘ndalang kesganda uchta qavatni ko‘rish mumkin. Yuqoriga – dahliz bilan birlashuvchi vestibulyar, pastki – ikkilamchi nog‘ora parda bilan yakunlanuvchi nog‘ora va o‘rta – chig‘anoq yo‘llari deb aytiladi. Vestibulyar va nog‘ora qavatlar o‘zaro chig‘anoq uchidagi xelikotremya orqali tutashadi va ular perelimfa bilan to‘lgan.

Uchburchak ko‘rinishiga ega bo‘lgan chig‘anoq yo‘li endolimfa bilan to‘lgan. Shu uchburchak asosini medial qismida yupqa suyak plastinkasi va uning davomini biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topgan asosiy membrana, yon tomonini qon tomirlarga boy bo‘lgan, «tomirli yo‘lga» gipotenuzasini ikki qator yassi hujayralardan tuzilgan, Reysner membranasini hosil qiladi.

Eshitish analizatorining periferik retseptori—spiral a’zo asosi membranada joylashgan.

Spiral a’zo suyab turuvchi va ta’sirlanuvchi hujayralardan tashkil topgan. Suyab turuvchi hujayralar ichida tunnel hosil qiluvchi ustun hujayralar ta’sirlanuvchi hujayralarni o‘z yuzasida ushlab turuvchi Deyters hujayralari, hamda trofik funksiyani bajaruvchi Klaudius va Bexterev hujayralari farqlanadi. Spiral a’zo tunneldan ichkarida bir qator bo‘lib joylashgan hujayralar ichki ta’sirlanuvchi va unga nisbatan tashqaridan 3–5 qator bo‘lib joylashganlari tashqi ta’sirlanuvchi hujayralar deb yuritiladi. Ichki hujayralarning umumiy soni 3500 va tashqi hujayralari 20.000 ga yetadi. Ta’sirlanuvchi hujayralar asosiy membranaga tegmaydi, yuqorida aytilganidek ular Deyters hujayralari ustida yotadi. Sezgi hujayralariga chig‘anoq bog‘lami neyronlarning periferik o’smalari kelib tutashadi.

O‘rta qulogdan ichki qulogqa o‘tayotgan tovush to‘lqlinlari parda tuzilmalar va chig‘anoq suyuqligining murakkab harakatini vujudga keltiruvchi va o‘z navbatida spiral a’zoning qo‘zg‘aluvchanlik holatiga olib keladi. Bu protsessning mohi-

yati – ta'sirylanuvchi hujayralarning mexanik energiyaning nerv qo'zg'alishi jarayoniga aylantirishdan iborat. Hosil bo'lgan impulslar mialin qobig'i yo'q bo'lgan tolalar bo'ylab chig'anoqning spiral tuguniga va u yerdan eshitish analizatorining birinchi neyroni aksonlari orqali uzunchoq miya 4 qorinchasi tubidagi ventral yadrolariga boradi. I neyron o'simtalari n. **Vestibulocochlearis** ning pars. cochleari qismini tashkil qiladi. Tola-larning bir qismi ko'prik darajasida qarama-qarshi tolalar bilan kesishadi, boshqa qismi esa o'z tomonida miya dastasi va lateryal sirtmoq tarkibida olivaga yetib boradi va shu yo'lda ikkinchi neyron yakunlanadi. Uchinchi neyron tolalari o'rta miya tomining orqa tepaliklari va medial tizzasimon tanachalar darajasigacha yetadi. Va nihoyat oxirgi 4-neyron tolalari ichki kapsula va gardishsimon tom orqali o'tib, miya po'stlog'ining eshitish qismi – chakka ko'ndalang burmalarida tugaydi. Demak, har bir chig'anoq bosh miya po'stlog'ining har ikki qismi bilan bog'langan.

Tovush to'lqinlari spiral a'zoga havo va organizmning to'qimalari orqali yetishi mumkin. Yuqorida biz havo orqali o'tkazish mohiyatlari bilan tanishdik. Tovush to'lqinlarining to'qimalar, aniqrog'i suyak orqali o'tishini, ularni tarqatayotgan manbaning, misol uchun komerton o'qchasini qutisi ustiga qo'yganda kuza-tish mumkin. Suyak bo'yicha o'tkazishning innersion va koligres-sion turlari mavjud.

Past tovushlar ta'sirida miya qopqog'i yagona birlik sifatida tebranadi va shu hisobiga eshitish suyakchalari innersiyasi hisobiiga uzangichning suyak labirint devorlariga nisbatan harakat-lanishi kuzatiladi, ya'ni bir xil tebranish innersion tipdir. Yuqori chastotali tovushlar ta'sirida miya qutisi segmentlari har xil faza-da tebranadi. Bu hol vaqtı-vaqtı bilan labirint kapsulaning siqlishiga va perelimfa, endolimfa bosimining o'zgarishiga olib keladi. Bu xil o'tkazish kompression turdir.

Yuqorida aytilganidek, chig'anoq darajasida tovushning tebranish harakatlarining nerv impulsiga aylanishi kuzatiladi. Bu ja-

rayonning dastlabki bosqichida labirint suyuqliklari, yumshoq labirint tuzilmalari asosiy o'rinni tutadi. Hozirgi kungacha tovush to'lqinlari ta'sirida ichki qulqoqda nerv impulslarini paydo bo'lishini tushuntiruvchi 20 ta xilma-xil nazariyalar taklif qilingan. Ularni 3 ta katta guruhga bo'lish mumkin:

- rezanator nazariyalar (Gelmgols 1863; Bud 1917; Vilkinson, Gey 1924);
- turuvchi to'lqinlar nazariyasi (Evold 1898 va boshqalar);
- yugurib yuruvchi to'lqinlar nazariyalari (Bekeshi 1928; Rank 1931; Fitcher 1952 va boshqalar).

Hamma nazariyalar asosini labirint suyaklar ta'sirida spiral a'zo asosiy membranasini harakatga kelishi natijasida ro'y beradi-gan o'zgarishlarni tushuntirish tashkil qiladi.

Gemgols nazariyasiga asosan, ko'ndalang chiziqlar ko'ri-nishidagi bazilyar plastinkaning chig'anoq asosidagi qismi yuqori chastotali va yuqoridagilari past chastotali tovushlarni qisishi, ya'ni chig'anoq darajasida tovushlar spektorining bir-lamchi analiz qilinishini tushuntirish mumkin. Har xil chasto-tadagi tovushlar chig'anoqning turli qismlarida qabul qilinishi Gemgolsdan keyingi klinik va eksperimental kuzatuvlarda ham tasdiqlanadi. Jumladan: Andreyev o'z tajribalarida avval itlar-da past chastotali tovushlarga shartli refleks hosil qilib, so'ng chig'anoqning yuqori qismini vayron qilgan va shundan so'ng ularni qilmasligini xuddi shunday holatni yuqori chastotali to-vushlarga shartli refleks hosil qilib, chig'anoq asosi zararlan-ganda kuzatgan. Bekeshning gidrodinamik yugurib yuruvchi to'lqinlar nazariyasiga asosan uzangiga asosning har bir harakati chig'anoq suyaklarining to'lqinlanishiga ular o'z navbatida esa membrananing deformatsiyasiga olib keladi. Bu deformatsiyani butun chig'anoq davomida yugurib yuruvchi to'lqin sifati-da ko'rsatish mumkin. Bekeshi tekshirishlariga ko'ra past chas-totali tovushlar asosiy membrananing butun uzunligi bo'ylab tarqaladi. Yuqori chastotali faqat oval teshik atrofidagina, ya'ni yugurib yuruvchi to'lqin hosil qiladi. Eshitish analizatorining

fiziologiyasini to'liq tushunish nazariyalarining ko'pligiga qaramay oxiriga yetmagan nazariyalar bu murakkab jarayonni bir tomonlama yoritadi, xolos. Tovush to'lqinlarini nerv impulsliga aylanishini bevosita kuzatish sharoiti yo'qligi muammo ni yechishni yanada qiyinlashtiradi. Qilingan va bajarilayotgan tekshirishlar teoretik topilmalar va eksperimental modellar natijalariga asoslangan. Eshitishni tekshirishning asosiy prinsiplari va usullarini ko'rib chiqamiz.

Tekshirish usullarini 4 guruhga bo'lish mumkin:

I guruh — eshitishni jonli nutq yordamida tekshirish.

Bu tekshirish usulining qo'llanilishi bir necha uning afzaliliklaridan kelib chiqadi:

- nutq yordamida eshitish va shu nutqni anglash qobiliyatini aniqlanadi;
- nutqning sotsial ahamiyatidan kelib chiqqan holda bemorning hayotiy va kasbga layoqati tekshiriladi;
- qilinayotgan davolashning nafini baholash mumkin;
- eshitish apparatlarini tanlashda foydalaniladi.

Eshitish shivirlab va suhbatli nutq yordamida tekshiriladi.

II guruhni kamerton tekshirish usullari tashkil qiladi. Qo'llaniladigan kamertonlar soniga ko'ra kichik (3 ta kamertondan) va katta (5,7 yoki 9 kamertondan) to'plamlar bor. Kamertonlar uchun lotin alifbosining harflari qo'llaniladi. Kamertonlar yordamida tovushlarni havo va suyak bo'yicha o'tkazilishi, hamda maxsus ishlab chiqilgan Veber, Rinne, Shvabax, Jelle, Federichi va boshqa atribalar tekshiriladi. Shu tekshirishlar natijasi asosida eshitishni o'tkazish yoki qabul qilish bo'yicha pasayishi haqidagi mulohaza yuritish mumkin.^{*} Eshitish qobiliyatini nutq va kamertonlar yordamida eshitish naylarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini tekshirish natijalarini o'zida mujassam etgan jadval, tekshiriluvchi shaxsning eshitish pasporti deb yuritiladi.

III guruhni elektroakustik usullari tashkil qiladi. Ular mohiyatiga ko'ra subyektiv va obyektiv turlarga bo'linadi. Subyektiv tekshirish usullari natijalari faqat eshitish a'zosining holati yoki

qo'llanilayotgan apparatlardan emas, balki tekshiriluvchining berilayotgan tovushlarni tushunish va ularga to'g'ri javob berishi-ga ham bog'liq. Bular qatoriga bosqichli audiometriya, nutq audiometriyasi eshitish ta'sirchanligining kengaytirilgan chastotalar diapazoni va ultratovush yordamida tekshirish kiradi. Obyektiv audiometriya yordamida tekshiruvchi xohishidan qat'i nazar eshitish a'zosining holati baholanadi. Impedansometriya, elektrokleografiya eshitishni miya po'stloq va dastasi potensiallarni qayd qilishlar obyektiv usullar hisoblanadi.

IV guruh eshitishni tovushga nisbatan shartsiz va shartli reflekslarning namoyon bo'lishiga qarab tekshirish. Shartsiz reflekslardan eng birinchi shakllanadigan va doimiy auronaliyebral va auropupilyar bo'lib, ular yordamida eshitish qobiliyatining taxminiy holatini aniqlash mumkin. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda keng qo'llaniladigan o'yinli audiometriyaning asosini ham tovushga nisbatan shartli reflekslar hosil qilib tekshirish tashkil qiladi. Shuni aytish kerakki, bu guruh tekshirish usullarini boshqa guruhlardan farqli embrional va bola tug'ilgan kunning birinchi soatlaridan boshlab qo'llash mumkin.

Vestibulyar analizatorning klinik anatomiysi, fiziologiyasi, tekshirish usullari.

Vestibulyar analizator muvozanat organi hisoblanib, muskulular tonusini idora etadi, gavdani ma'lum bir muvozanatda saqlaydi, gavda vaziyati va uning fazodagi muvozanati haqidagi informatsiyalarni miya po'slog'iga yetkazib beradi. Vestibulyar apparat retseptorlarning ta'sirlanishi tufayli muskullarda reflektor reaksiya sodir bo'ladi, bu esa gavdani muvozanatda saqlab turishiga sharoit yaratib beradi.

Chakka suyagining piramidasida ichki qulqoq yoki labirint bor, u chig'anoq bilan vestibulyar apparatdan iborat. Vestibulyar apparatga dahliz va uchta yarim doira kanallar (canales semicirculares) kiradi. To'g'ri shakldagi qambar yo'llardan iborat yarim doira kanallar unchalik aniq bo'lmasada, uchta o'zaro tik tekis-

likda, orqadagi kanal sagittal tekislikda, tashqi kanal esa gorizontal tekislikda yotadi. Har bir kanalning bir uchi kolba shaklida kengaygan bo'lib, «ampula» deb ataladi.

Parda labirint dahliz sohasida ikkita xaltachaga bo'linadi: biri — sacculus suyakning sferik botiq qismida bo'lib, chig'anoqqa ya-qin turadi; ikkinchisi — utriculus suyakning ellips shaklidagi botiq joyida bo'lib, yarim doira kanallarga yaqinroq yotadi.

Dahliz xaltachalari — sacculus va utriculus otolit apparat bor, u murakkab tuzilgan.

Har bir xaltachada dog'lar — macula sassuli degan tepachalar bor, ular retseptor hujayralarning to'plamlaridan iborat. Har bir retseptor hujayraning birinchi yarmi silindr shaklida, ikkinchi yarmi toraygan bo'lib, harakatchan bitta tuki va harakatlanmaydigan, bir-biriga yopishib ketgan 60—80 ta tuki bor. Retseptor hujayralarning tuklari kigiziga o'xshash tur to'qima ichiga kiradi, bu to'qima dirildoq konsistensiyali bo'lib, maculani qoplab turadi. Ana shu dirildoq massaning qovuzloqlarida bir talay mikroskopik kristall tuzilmalar bor, ular kalsiy fosfat-karbonat organik birikmasidan iborat bo'lib, uzunchoq olti burchakli shakldadir. Ana shu tuzilmalar «otolitlar» deb ataladi. Otolitlar qavati, yoki otolit membrana qolgan to'qimadan og'ir-roq bo'lib, retseptor hujayralarning to'qimalariga mexanik bosim ko'rsata oladi.

Parda labirintning yarim doira kanallarida retseptor hujayralar faqat ampulalarda bo'lib, cristal ampularis degan to'plamlarni hosil qiladi. Bu retseptor hujayralarning uzun tuklari bor. Gavda aylanganda kanallar endolimfasi harakatga keladi, shu payt retseptor hujayralarning tuklari to'kilishi mumkin. Hosil qiluvchi bipolar hujayralarning o'siqlaridan iborat bo'lgan nerv tolalari vestibulyar apparatning retseptor hujayralariga keladi. Retseptor hujayra bilan dendriti o'rtasida sinaps bor, bu sinaps qo'zg'alishni asetilxolin degan mediator yordamida o'tkazadi. Bipolar nevronlarning ikkinchi o'siqlari chiqishda eshituv nervining vestibulyar tarmog'ini hosil qiladi.

Gavdaning tezlangan yoki sekinlangan aylanma yoxud to‘g‘ri chiziqli harakati vestibulyar apparatning adekvat ta’sirlovchilari hisoblanadi. Vestibulyar apparat retseptorlari faqat harakat tezligining o‘zgarishidan ta’sirlanadi. Tezlanmagan yoki sekinlangan tekis harakat retseptorlarga ta’sir etmaydi. Vestibulyar apparatdan boshlangan afferent nerv tolalari orqali markaziy nerv sistemasiga doimo, hatto tinchlik sharoitida ham siyrak impulslar berib turadi. Aylanma harakatning boshlarida va oxirida impulslar chastotasi keskin darajada oshadi. Impulslarning tez-tez zalplari ayni vaqtida 25 sekund chamasi davom etadi. Aylanma harakat tekis bo‘lsa, yarim doira kanallaridan boshlangan afferent nerv tolalarida impulsatsiya bo‘lmaydi. Gavdaning tezlanuvchi yoki sekinlanuvchi to‘g‘ri chiziqli harakati, shuningdek silkinish, tebranish va gavda yoki boshni bir tomonga engashtirish otolit apparatning ta’sirlanuvchilari hisoblanadi, bular ta’sirida retseptor hujayralar tukiga otolit membranining bosimi o‘zgaradi. Biron tekislikdagi tezlangan yoki sekinlangan aylanma harakat yarim doira kanallardagi retseptorlarning ta’sirlovi hisoblanadi. Markazdan kechuvchi aylanma tezlanish yoki sekinlanish xarakteriga qarab, turli yarim doira kanallardagi retseptorlar turlicha ta’sirlanadi: aylanish yo‘nalishi bilan bir tekislikda yotgan kanal retseptorlari boshqa kanallarning retseptorlariga nisbatan qattiqroq ta’sirlanadi. Endolimfa harakati yarim doira kanallarida retseptorlarning ta’sirlovchisi hisoblanadi. Bu Evaldning tajribalarida isbotlangan. Evald nozik operatsiya qilib, hayvonning doira kanallaridan biriga «pnevmatik bolg‘acha» kiritgan, bu bolg‘acha harakatlantirilganda endolimfani siljita olardi. Hayvon tegishli tomonga aylantirilganda qanday reflektor harakatlar kuzatilsa, bunda ham shunday reflektor harakatlar kelib chiqishini tajriba ko‘rsatib berdi. Gavdani aylantirish natijasida vestibulyar apparat ta’sirlanishining eng xarakterli effektlaridan bir ko‘z nistagmidir. Nistagm shundan iboratki, ko‘zlar ritmik harakatlarni bajaradi; har bir harakatda ko‘zlar avvalo aylanishi yo‘nalishiga qarama-qarshi tomonga se-

kin harakatlanadi, so'ngra esa aylanish yo'nali shiga mos keluv-chi tomonga juda tezlik bilan harakatlanadi. Ba'zan gavdaning aylanishi natijasida boshning zarbsimon tebranma harakatlari – bosh nistagmi ham kelib chiqadi.

Gavda yoki bosh harakatlarida vestibulyar apparat ta'sirlanib, skelet muskullari tonusi qayta taqsimlanadi va tonik reflekslar kelib chiqadi. Vestibulyar apparatning ta'sirlanishidan vestibulo-motor reflekslar, vestibulo-sensor reaksiyalar yuzaga keladi. Vestibulyar apparat ta'sirlanganda vegetativ nerv sistemasidan innervatsiyalanadigan organlarning reflektor reaksiyalari ham paydo bo'ladi (vestibulo-vegetativ reflekslar). Vestibulyar analizator funksiyasini tekshirish usullari – aylantiradigan sinama calorik, pressor sinama va boshqalar vestibulyar analizatorning funksional holatini tekshirish kompleksiga kiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eshitish analizatorlari nima?
2. Tovush to'lqinlari qanday hosil bo'ladi?
3. Tovushni his etish qanday amalga oshiriladi?

2-mavzu. Inson eshitish analizatorlari anatomiysi va fiziologiyasi

Reja:

1. Qulinqing klinik anatomiysi.
2. Tashqi qulq haqida tushuncha.
3. Ichki qulq haqida tushuncha.
4. O'rta qulq haqida tushuncha.

Tayanch so'z va iboralar: qulq, anatomiya, fiziologiya, tashqi qulq, ichki qulq, o'rta qulq.

Qulqning klinik anatomiysi

Qulq odamning eshitish va muvozanat a'zosi, uning anatomiq tuzilishi va bajaradigan o'ziga xos vazifalari juda murakkab. Qulq tashqi, o'rta va ichki qulqqa ajratiladi.

Tashqi quloq – quloq suprasi va tashqi eshituv yo'lidan iborat. Quloq suprasi birinchi jabra yorig'ini o'rab turgan mezenxima to'qimasi bilan qoplangan. Embrion rivojlanishining ikkinchi oyidavomida quloq suprasi sohasida oltita do'mboqcha hosil bo'ladi. Do'mboqchalar o'rtasidagi chuqurcha ichkariga qarab o'rta quloqqa o'sib kiradi va tashqi quloq yo'lini hosil qiladi. Quloq do'mboqchalarining rivojlanishi va ularning birlashib ketishi natijasida quloq suprasi yuzaga keladi. Quloq suprasi kalla suyagining pastki jag' bo'g'imi va so'rg'ichsimon o'siqchaning o'rta sida joylashgan.

Quloq suprasi usti teri bilan qoplangan elastik tog'aydan tuzilgan. Uning orqa sathi bir tekisda silliq, botiq sathi oldinga qaragan, yarim oy shaklidagi teri burmalari va ular orasida hosil bo'lgan chuqurchalardan iborat. U yosh bolalarda juda yumshoq va qayishqoq bo'ladi.

Tashqi eshituv yo'li. Qulquning tashqi teshigi bilan nog'ora parda oralig'ida joylashgan «S»simon yo'l bo'lib, uning uzunligi yosh bolalarda 20–25 mm. Kanal oxirida quloq pardasi, ya'ni nog'ora parda joylashgan, u tashqi quloqni o'rta quloqdan ajratib turadi. Chaqaloq va yosh bolalarda tashqi quloq yo'lining suyak qismi rivojlanmagan.

Eshituv yo'lining tog'ay qismini sertuk teri qoplagan bo'lib, u qulqoq chirkini ishlab chiqaradi. Eshituv yo'li tog'ay qismining old va pastki devorida bir nechta yoriqchalar bor: ular santorin yoriqchalari deb yuritiladi.

Bu yoriqchalar orqali yallig'lanish jarayoni tashqi eshituv yo'lidan qulqoq oldi beziga va aksincha, qulqoq oldi bezidan tashqi eshituv yo'liga o'tishi mumkin.

Tashqi qulqoq tashqi uyqu arteriyasi tarmoqlari orqali qon bilan ta'minlanadi.

Sezuvchi nervlarga uch shoxli nerv tarmoqlari (tolalari) bilan bir qatorda, adashgan nervning qulqoqqa keladigan tarmog'i ham qatnashadi.

Nog'ora parda – tashqi eshituv yo'lini o'rta qulqoq bo'shlig'idan ajratib turadi. Tashqi eshituv yo'lining suyak qismi aylana shakli-

dagi tarnovcha bilan tugaydi, nog'ora pardanining cheti shu tarnov-chaga joylashadi.


Parda yupqa, bolalarda doira, kattalarda oval (yassi) shaklda bo'ladi. Chaqaloq quloq pardasining yuza epidermis qavati qalin bo'lib, yosh ulg'aygan sari asta-sekin nog'ora pardasi zichlashadi (taranglashadi) va juda yupqalashib qoladi.

O'rta qulog. O'rta qulog bir-biri bilan bevosita tutashgan nog'ora bo'shlig'i, so'rg'ichsimon o'siq va halqum bilan nog'ora bo'shlig'ini qo'shib turuvchi eshituv nayidan tashkil topgan.

Nog'ora bo'shlig'i va eshituv nayi birinchi jabra chuqurchasi hisobiga rivojlangan. O'rta qulog bo'shlig'i chakka suyagi toshsimon o'sig'inining ichida joylashgan bo'lib, embrion rivojlanayotgan davrda u suyuqlik bilan to'lgan bo'ladi. Bola tug'ilib, bir necha soat nafas olgandan so'ng, u suyuqlik havo bilan almashinadi.

Nog'ora bo'shlig'i. Nog'ora bo'shlig'i qulog pardasi bilan labirint o'rtasida joylashgan, hajmi 1 sm³ ga teng.

Nog'ora bo'shlig'inинг olti devori tafovut qilinadi:



13-rasm.

1. Yuqori devor – nog‘ora bo‘shtag‘ining tomi yupqa suyak qatlamidan iborat bo‘lib, u nog‘ora bo‘shtag‘ini kalla tubining o‘rta chuqurchasidan ajratib turadi va ustidan miyaning chakka bo‘lagini qoplab yotgan qattiq miya pardasi bilan yopilgan bo‘ladi.

2. Pastki devor yoki bo‘yinturuq venasiga qaragan devor – nog‘ora bo‘shtag‘ining tubini tashkil qiladi. Yosh bolalarda bu devorning suyak qismi yupqa bo‘ladi.

Nog‘ora bo‘shtag‘i yiringli yallig‘langanda, yiring shu sohadada to‘planadi, suyakning chirishi natijasida bo‘yinturuq venasiga o‘tib, turli xil asoratlar berishi mumkin.

3. Oldingi devorning yuqori qismida eshituv nayining teshigi, undan pastroqda esa ichki uyqu arteriyasi va uni o‘rab olgan vena chigallarini chegaralab turuvchi suyak plastinkasi joylashgan.

4. Orqa devor – so‘rg‘ichsimon o‘sinqqa qaragan devoridir. Nog‘ora bo‘shtag‘ining bu devori yuqoridan antrum bilan tutashadi, bu yo‘l so‘rg‘ichsimon o‘sinqchadagi doimiy katta g‘or (antrum) bilan bog‘langan.

5. Nog‘ora bo‘shtag‘ining ichki (medial) devori – ichki quloqqa qaraganligi uchun labirint devori deb ataladi. Bu devor ichki quloqni o‘rta quloq bo‘shtag‘idan ajratib turadi. Devorning qoq o‘rtasida bo‘rtib chiqqan do‘nglik bor. U ichki quloq chig‘anog‘ining turtib chiqishidan hosil bo‘ladi. Do‘nglikning orqa va pastki qismida chig‘anoqqa kiradigan yumaloq (oval) darcha nog‘ora parda bilan qoplangan.

6. O‘rta quloqning tashqi yoki lateral devori – tashqi quloq yo‘li va nog‘ora bo‘shtag‘ini ajratib turuvchi quloq pardasidan iborat.

Nog‘ora bo‘shtag‘ida bolg‘acha, sandoncha va uzangi deb ataladigan uchta eshituv suyakchasi joylashgan. Bu suyakchalar pay va bo‘g‘imlar yordamida bir-biri bilan birikib, nog‘ora parda bilan yassi darchani birlashtiradigan tutash va tez harakatlantiruvchi zanjirni hosil qiladi.

Bolg‘acha dastasi quloq pardaga tegib, uni tashqi quloq tomonga biroz bo‘rttirib turadi. Bolg‘achaning yumaloq boshi ik-

kinchi eshituv suyagi – sandonchaga, uning uzun oyoqchasi uchinchi eshituv suyagi – uzangichaga tegib turadi.

Shunday qilib, uchala eshituv suyaklari tashqi quloq bilan ichki quloq orasida zanjirga o‘xshash birikib joylashgan. Nog‘ora bo‘shlig‘ida quyidagi mushaklar bor:

1. Quloq pardasini tarang qiluvchi mushak. Bu mushak eshituv nayi ustidagi suyak tarnovchasidan boshlanib bolg‘acha das tasiga yopishadi.

2. Uzangi mushagi. Nog‘ora bo‘shlig‘ining orqa devoridan boshlanib, ingichka pay bilan uzangi boshchasisiga yopishadi.

Birinchi mushakni uch shoxli nerv tarmog‘i, ikkinchisini esa yuz nervi tarmog‘i ta’minlab turadi.

O‘rta quloqning qon va nerv bilan ta’minlanishi

O‘rta quloqni asosan venalar arteriyalar qon-tomirlari bilan ta’minlangan bo‘lib, limfa tik tugunlarga qo‘yiladi.

O‘rta quloq bo‘shlig‘ining shilliq qavati va eshituv nayi harakatchan tolalarni sezuvchi tolalar, yuz nervi hamda til-yutqin nervi bilan innervatsiyalanadi.

Eshituv nayi. Biz yuqorida eslatib o‘tganimizdek, u nog‘ora bo‘shlig‘ini halqum bilan birlashtirib turadi, uning uzunligi 3–3,5 sm ga teng. Nayning o‘rta quloq bo‘shlig‘i tomonga ochilgan 1/3 qismi suyakdan, halqum bo‘shlig‘iga ochilgan 2/3 qismi esa parda-tog‘aydan iborat. Nayning shilliq pardasi hilpillovchi epiteliy bilan qoplangan bo‘lib, uning tukchalari halqum tomonga qarab harakat qiladi. Eshituv nayi odatda puchaygan (yopiq) holatda bo‘ladi. Uning har gal yutish harakati vaqtida, unga yopishgan yumshoq tanglay mushaklarining qisqarishi natijasida ochilishidan o‘rta quloqning nog‘ora bo‘shlig‘iga havo o‘tadi.

Yosh bolalarda nayning uzunligi kattalarga nisbatan kalta (20–22 mm) va kengroqdir, u gorizontal tekislikda yotadi. Nayning halqumga ochilgan qismi, halqumning yon devorlarida joylashgan – rozenmyuller chuqurligida bo‘ladi.

Nayning o‘rta quloq va halqumga ochiladigan taraflari keng, suyak qismining tog‘ay qismi bilan birlashish joyi esa juda tor

bo‘ladi, shuning uchun ham ba’zilar eshituv nayini qum soatiga o‘xshatishadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq yoki yosh bolalarda kalta hamda keng nay ko‘pincha o‘rta qulinqing turli xil yallig‘lanishlariga olib keladi, chunki halqumdagagi turli mikroblar bu nay orqali osonlik bilan o‘rta qulqoqqa o‘tadi (kattalarga nisbatan). Agar turli sabablariga ko‘ra eshituv nayi havoni yaxshi o‘tkaza olmasa, unda o‘rta qulinqing nog‘ora bo‘shlig‘ida havo bosimi pasayib, qulqoq parda nog‘ora bo‘shlig‘iga bo‘rtib kiradi, natijada eshituv qobiliyati buziladi.

Eshituv nayining halqumga ochilgan teshigi atrofida limfoldi to‘qimalardan iborat.

Chakka suyagi. Chakka suyagi bir juft bo‘lib, juda murakkab tuzilgan. Bu suyak kalla bo‘shlig‘ining yonbosh devorini, uning tubini hosil qilishda qatnashadi. U o‘z ichida odam uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan eshituv va muvozanat saqlash a‘zolarini ham saqlab turadi.

Yosh bolalarda o‘rta qulinqing o‘tkir yiringli otitida shu yonoq o‘sig‘i ham yallig‘lanishi mumkin. Chunki yonoq o‘sig‘ida ko‘pgina kataklar bo‘lib, ular osonlik bilan yallig‘lanadi va yiringli otitning asorati hisoblanadi.

Nog‘ora qismi – chakka suyak tashqi eshituv yo‘lini oldindi-pastki va qisman orqa tomonidan chegaralab turadi. Bu qism yon tomondan so‘rg‘ichsimon o‘siq va medial (ichkari) tomonidan toshsimon qismlar bilan qo‘shilib tursa, pastki tomonidan bigizsimon o‘siqning ildizini o‘rab, qin hosil qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tashqi eshituv yo‘li ancha kalta bo‘lib, ichki va qisman oldindi tomonga yo‘nalib, nog‘ora bo‘shlig‘iga ochiladi.

Emadigan bolalarda suyakning nog‘ora qismi unchalik rivojlanmagan «taqa» shaklidagi halqadan iborat bo‘lib, tashqi eshituv yo‘lining suyak qismi rivojlanmagan bo‘ladi. Yosh bolalarda 1 yoshdan boshlab 2–3 yoshgacha to‘la halqa bo‘lib, suyaklanib yetiladi.

Toshsimon qismi – chakka suyagining boshqa qismlariga nisbatan qattiqroq tuzilgan, shuning uchun bu bo'lakni toshsimon yoki shakliga qarab (uch tomonli piramidaga o'xshaydi) piramida deb ataladi.

So'rg'ichsimon o'siqcha – tashqi eshituv yo'lining orqasida joylashgan bo'lib to'sh-o'mrov mushagi o'siqqa yopishib turadi.

So'rg'ichsimon o'siqcha bola tug'ilganidan so'ng yuqorida-gi mushak yordamida kattalashib rivojlanadi. Uning katakchalar 2–3 yoshdan boshlab 5–6 yoshgacha rivojlanadi. So'rg'ichsimon o'siqchaning tashqi yuzasida tekis uchburchak sl'taklidagi bo'lakcha bo'lib, uning oldingi tomonida kichkina suyak o'siqchasi bor. Bu o'siqchaning ustki chegarasi chakka chizig'i – linea temporalis bo'lib, bu yonoq o'sig'inining orqaga qarab davom etgan chizig'idir, uning orqa tomonida silliq uchburchakli chuqurcha bor. So'rg'ichsimon o'siqning oldingi devori tashqi eshituv yo'lining orqadagi suyak devorini tashkil qiladi.

Tashqi eshituv yo'li ustki suyak o'siqchasi va chakka chizig'i o'rta quloq operatsiyalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mo'ljal (belgi) hisoblanadi.

Ichki qulog. Ichki qulog yoki labirint chakka suyagining toshsimon qismi ichida joylashgan bo'lib, tashqi tomondan suyadan, ichki tomondan esa uni takrorlovchi parda labirintidan iborat. Labirint uch qismga: dahliz (vestibulum), yarim halqasimon kanallar va chig'anoqqa bo'linadi.

Suyak va parda labirint o'rtasi perilimfa suyuqligi bilan to'la, perilimfa orqa miya suyuqligidir.

Labirint uzunligi – 15 mm, kengligi – 8 mm, balandligi – 10 mm dir.

Suyak labirint. Suyak labirint dahlizining uzunligi 6 mm, kengligi 3,5 mm va balandligi 5–6 mm.

Labirint dahliziga 2–3 tomchi suyuqlik sig'adi. U tashqi tomondan o'rta qulogqa qaragan bo'lib, yumaloq va yassi darchalar orqali o'rta qulogning nog'ora bo'shilg'iga tutashadi. Orqa tomondan beshta teshik yordamida uchta yarim doira shaklida-

gi halqa bo'shlig'i bilan birlashgan. Labirint dahlizi old tomonga nisbatan kattaroq teshik orqali chig'anoqqa o'tib ketadi. Labirint dahlizining 8 ta teshigi bor, 5 tasi yarim doirasimon halqalarga, ikkitasi o'rta qulqoq bo'shlig'iga va bittasi chig'anoqqa ochiladi.

Crista vestibuli deb ataluvchi qirra, labirint dahlizining ichki tomonida joylashgan bo'lib, u dahliz ichini chuqurchaga ochiladi. Dahliz suyuqlik yo'li, labirint bo'shlig'ida joylashgan perilimfa suyuqligini miyaning qattiq po'stlog'i ostidagi bo'shliqqa qo'yadi.

Yarim halqasimon suyak kanallari. Bu kanallar uchta: gorizontal, frontal, sagittal yarim halqasimon kanallardir. Ular o'zaro bir-biriga tik joylashgan.

Chig'anoq suyak kanaldan iborat bo'lib, tik o'qqa ikki yarim marta gajak hosil qilib o'ralgan, uning tashqi ko'rinishi xuddi chig'anoqni (shilliqqurt) eslatadi.

Chig'anoqdan bo'shlig'i ichiga spiral suyak plastinkasi (yupqa tangasimon) buralib, aylanma holida lamina spiralis osseaga chiqadi. Bu plastinka chig'anoq bo'shlig'ini ikki-ga, ya'ni dahlizga olib kiruvchi dahliz narvoni-scala vestibuli va chig'anoq teshigi orqali nog'ora bo'shlig'iga olib kiradi. Spiral (burma) suyak plastinkasi bilan spirali joylashgan. Spirali dan chiquvchi periferik tolalari suyakdan iborat spiral (burama) plastinkadagi mayda tor kanalchalar orqali o'tib, Kortiy a'zosiga borib to'xtaydi.

Parda labirint – devori biriktiruvchi to'qima pardadan tuzilgan bo'shliq va kanallardan iborat. U suyak labirint ichida, ana shu labirint shaklini qaytarib, bo'shlig'ini qo'sh qavat qilib yotadi. Parda labirint ichidagi suyuqliknii endolimfa deyiladi.

Parda labirint ichki qulqoq dahlizi sohasida ikkita bo'shliq: bachadoncha va qopchalarni hosil qiladi. Pardadan tuzilgan yarim halqasimon kanallar shaklan yarim suyak halqasimon kanallarga o'xshasa ham ulardan uch marta torroq. Yarim halqasimon kanallar oyoqlarining kengaygan qismida pardali yarim halqasimon kanallar ham kengaygan, bu yerning ichki yuzalarida am-

pula qirrasi (taroqsimon – crista ampullaris) bo'lib, bu qirralar sohasida tayanchli va unda neyroepitelial qilsimon (tuksimon) hujayralar joylashgan.

Bachadoncha va qopcha sohalarining ich tomonida oq dog'lar bor, bular yassi epiteliydan vujudga kelgan. Oq dog'lar yuzasi shilliqsimon modda (otolit parda) bilan qoplangan va uning tarkibida mayda ohak zarrachalari mavjud. Ular olti qirrali shaklda bo'lib, kalsiy va magniy tuzlaridan tuzilgan otolitlar deyiladi.

Pardadan iborat chig'anoq, suyak chig'anoqning 1/4 qismini tashkil qilib, boshlanishda boshi berk (tutash) bo'ladi. U suyak chig'anoqning yo'lini takrorlaydi, ya'ni ikki yarim aylana hosil qiladi va boshi berk holda chig'anoq cho'qqisida tugaydi.

Chig'anoq sohasida endolimfa dahliz va chig'anoq narvonlari orasida bo'ladi. Dahliz narvoni dahlizdan boshlanib, parda chig'anoqning uchiga borganda nog'ora narvoniga qo'shiladi.

Pardadan tuzilgan chig'anoq yo'li suyak chig'anoq ichida joylashgan bo'lib, ichida eshituv a'zolari joylashgandir.

Suyak spiral (burama) kanal ichidagi parda spiral kanal bilan birga aylanib, parda chig'anoqning tashqi devori, suyak kanalining tashqi devoriga borib qo'shilib ketganligi uchun parda chig'anoq ostki tomonda suyak spiral kanalga tegib yotadi.

Uchburchak shakliga ega bo'lgan kanalning yuqori (dahliz narvoniga qaragan) tomoni-membrana vestibularis (Reissneri) bilan, ostki tomoni asosiy plastinka – membrana basilaris bilan chegaralangan bo'lib, bu devor bag'rida eshitish apparati – Kortiy a'zosi joylashgan. Membrana basilarisda bir necha ming fibrozli tolalar tortilgan, bular turli xil tovushlarni turlicha rezonanslash (yangratib berish) vazifasini bajaradi. Bu torlar ustida Kortiy a'zosining epithelial hujayralari joylashgan, bular orasida eshituv hujayralari bor.

Eshituv a'zosining faoliyati – tovush o'tkazish va eshitish qanday ro'y berishi haqida biroz to'xtalib o'tmoqchimiz. Qulogni

eshitish vazifasi jihatidan, asosan ikki qismga bo'lishimiz mumkin.

1. Qulinqning tovush o'tkazuvchi qismi, bunga tashqi, o'rta hamda ichki qulq qusuqlıklari kiradi.
2. Qulinqning tovushni sezish (qabul qilish) qismi, bunga chig'anoq ichidagi Kortiy a'zosi kiradi.

Havodagi tovush to'lqinlari qulq suprasiga urilib, tashqi eshituv yo'li orqali qulq pardasiga borib uni tebratadi. Qulq pardasi o'z tebranishlarini eshituv suyaklari zanjiriga o'tkazadi. Avval bolg'acha, so'ngra sandoncha, nihoyat uzangi tebranadi. Bu eshituv suyakchalari, shu suyaklar orasidagi boyamlarni tebratadi. Qulq pardasining kuchli yoki kuchsiz tebranishi shu pardani taranglab turuvchi mushakning qisqarishiga bog'liq uzangi tebranar ekan, uning asosi yassi darchani qoplab turuvchi pardaga tutashganligi sababli, eshituv suyaklarida yuzaga kelgan tebranish ana shu parda orqali vestibulyar nervning retseptor qismiga o'tadi va bu yerdag'i perilimfa suyuqligini tebrantirib harakatga keltiradi.

Perilimfa tebranishi Reysner pardasi orqali endolimfaga o'tadi. Natijada tovush to'lqini endolimfa suyuqligini tebratadi. Endolimfa tebranishi Kortiy a'zosining eshituv torlariga uriladi, bu yerda esa eshituv analizatorining periferik uchi joylashgan. Qabul qilingan ta'sirot, eshituvni o'tkazuvchi nerv yo'li orqali markaziy nerv sistemasiga toki eshituv markazining miya po'stlog'idagi hujayralariga qadar boradi.

Qulq sezgi a'zolaridan biri, odamni tashqi muhit bilan aloqa qilish vositasidir. Eshitish analizatorining o'ziga xos qo'zg'atuvchisi — tovushdir. Tovush — bu bizni o'rab olgan muhitdagi to'lqinlarning harakatlantiruvchi zarrachalaridir.

Tovush tashqi energiyaning qo'zg'atuvchanlik ta'siri ostida tezkorlik bilan tebranishi natijasida hosil bo'ladi, uni tebratkich deyiladi. Eng sodda va antiqa tebratkichga *kamerton* kiradi. Tebranuvchi kamerton o'rab olgan muhitdagi havoning bir qismini harakatga keltirib, keyinchalik uning zichlanishi va siyraklanishi oqibatida tovush to'lqinini vujudga keltiradi.

Tovush to'lqinlarining tarqalish tezligi muhitning zichligiga bog'liq. Masalan: havoda bu tezlik 1 sekundda 332 metrga, suvda 1450 metrga, po'latda 5000 metrga teng. Tovush tezligi (jadalligi) *desibell* bilan belgilanadi.

Tovush analizatori tovushlarni jarangli, jarangsiz va yoqimli xillarga ajratadi.

Yuqori tovush jismning tebranish tezligini aniqlash bilan o'lchanadi va u gers (GC) bilan belgilanadi.

Odam 16 dan to 20 000 Gs gacha bo'lgan tovushni qabul qila oladi. U 16 Gs dan past (infratovush) va 20 000 Gs dan yuqori bo'lgan tebranishlarni qabul qila olmaydi (ultratovush).

Kuchuklar tovushni 30 000 Gs gacha, mushuklar esa 40 000 Gs gacha qabul qila oladi.

Tovush analizatorining tovushga bo'lgan sezuvchanligi bir xil emas.

Odam qulog'inining tovushlarga bo'lgan eng sezuvchanlik chegarasi 1000–4000 Gs gachadir.

Tovushning qayerdan kelayotganligini aniqlash qobiliyati «totopika» deb atalib, bu ikkala quloqning eshitish qibiliyatiga bog'liq. Bir qulog'i kar odamda bu faoliyat buziladi, shu sababli u tovush chiqqan joyni aniqlash uchun sog' qulog'i bilan turli tomonga aylanishga majbur bo'ladi. Sog'lom odamlar esa tovush chiqqan joyni osonlik bilan topadilar.

Tovush kelayotgan joy markaziy nerv sistemasi tomonidan aniqlanadi. Eshitish analizatorining turli tovushlarga sezuvchanligi oshishi yoki pasayishining fiziologik (jismoniyligi) muvofiqlanishi – **adaptatsiya** deb yuritiladi. Qattiq tovush eshitish sezuvchanligini pasaytiradi, past tovush esa (jimjitlik) uni oshiradi. Haddan tashqari eshitish analizatorini qo'zg'atish, uning charhashiga olib keladi. Bir tovush oqimini ikkinchi bir tovush oqimi ta'siri natijasida eshitishning buzilishi yoki eshitmaydigan holatga tushish – **maskirovka** deyiladi.

Agar tovush bir tomonidan eshitilsa, u qarama-qarshi tomondag'i quloqqa birmuncha kechikib keladi. Bu holat tovushning qay tomonidan kelayotganini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qulinqning klinik anatomiysi nima va qanday?
2. Tashqi qulq qanday tuzilgan?
3. Ichki qulq qanday tuzilgan va nima vazifani bajaradi?
4. O'rta qulq qanday tuzilgan va nima vazifani bajaradi?

3-mavzu. Inson eshitish organlarining asosiy patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi

Reja:

1. Eshitish qobiliyatining turg'un pasayishi.
2. Zaif eshitish haqida tushuncha.
3. Eshitish pasayishi sabablari.
4. Zaif eshituvchilikning kelib chiqish sabablari.

Tayanch so'z va iboralar: eshitish qobiliyati, zaif eshitish, eshitishning pasayishi, klinika, etiologiya.

Tibbiyot nogironlik bilan uzviy bog'langan, lekin uning mavqeyini birdaniga baholash va isbotlash qiyin. Muammoni tushuntirishning oddiy bir usuli: imkoniyati cheklangan insonlar albatta kasal bo'lishi lozimmi, degan savolni qo'yishdir. Savolni boshqacha qo'yish esa nogironlik kasalliklariga olib boradimi yoki aksimi deganidir. Uchinchi yo'l esa savolni nogironlik faqat tibbiy vositalar orqali yoki ularsiz ham hal etiladimi, tarzida qo'yishdir.

Eshitish qobiliyatining turg'un pasayishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Eshitish qobiliyatining turg'un pasayishi ko'pincha orttirilgan bo'ladi. Tug'ma shakli – bolaning ota-onasi kar bo'lsa, eshitadigan ona-otalarga qaraganda ko'proq uchraydi. Homiladorlikning birinchi 3 oyining ichida yuqumli kasallik bilan og'rish (qizamiq, gripp, qizilcha); radiatsiyalar bilan nurlanish, ayrim kimyoviy moddalar, dorilar (streptomitsin, aspirin); antibiotiklar – aminaglyukozidlar, xinin preparatlari; alkogol iste'mol qilish; homiladorlikning birinchi oylarida jarohatlanish sabab bo'ladi.

Orttirilgan eshitish qobiliyati buzilishlarining sabablari turli-tumandir. Eshitish qobiliyati buzilishining og‘ir turi – tovushni qabul qiluvchi apparat buzilganda kuzatiladi (ichki quloq, eshituv nervi); yengil turi – qulojni tovush o‘tkazuvchi qismi buzilganda kuzatiladi, ya’ni o‘rta quloq kasalliklarida (o‘tkir yiringli otit, surunkali yiringli otit).

Bolalarda uchraydigan eshitish qobiliyatining pasayishiga olib keladigan sabab burun va burun-halqum kasalliklari hamda shu kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan yevstaxiy nayi o‘tkazuvchanligining buzilishi. Ko‘pincha bunga sabab adenoid o‘smaclar bo‘ladi. Adenoidlar tufayli eshituv naydan havo o‘rta quloqqa bormaydi va o‘rta quloqda havo bosimi pasayadi, natijada nog‘ora parda ichkari tomon tortiladi, eshituv suyakchalar harakati o‘zgaradi. Sabablardan, yuqumli kasalliklar ahamiyatga ega. Chunki bolalar bunga moyil bo‘lishadi. Eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishiga quyidagi yuqumli kasalliklar olib keladi: serebrospinal meningit, qizamiq, skarlatina, gripp, parotit (tepki). Bu kasalliklardan ayrimlari (meningit, virusli gripp, tepki) eshitish analizatorining nerv apparatini (Kortiyev a’zo yoki eshituv nervi); boshqalari (qizamiq, qizilcha) – asosan o‘rta qulojni zararlaydi, lekin yallig‘lanish o‘rta quloqdan ichki quloqqa o‘tib Kortiyev a’zoni, retseptor hujayralarini qisman yoki butunlay zararlashi mumkin. Ayniqsa, yosh bolalar uchun xavfli bo‘lgan gripli otit bo‘lib, yallig‘lanish ichki qulojni va eshituv nervni zararlab eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishiga, karlikka olib keladi. Bolalarda uchraydigan virusli kasallik – epidemik parotit (tepki) – quloq oldi so‘lak bezining yallig‘lanishi ayniqsa, xavfli – to‘satdan eshitish qobiliyati butunlay buziladi; zararlanish odatda bir tomonlama bo‘ladi. Epidemik parotitda ichki quloqdagi retseptorlar halok bo‘lib karlikka olib keladi. Kasal onadan homilaga zaxmning yuqishi ham karlikka olib kelishi mumkin, chunki zaxmning infeksiyasi ichki quloqdagi nerv apparatini, eshituv nervining stvolini zararlaydi. Tug‘ruq vaqtidagi jarohatlar, bolani akusherlik qisqichlar

bilan tortib olish, tug‘ruq yo‘llarining torligi bola kallasining shaklini o‘zgartirib, ezib eshitishning turg‘un pasayishiga olib kelishi mumkin.

Eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishi tasnifini tuzishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

1. Eshitish faoliyati buzilishining darajasiga.
2. Patologik jarayonning paydo bo‘lishi vaqtini va rivojlanish tezligiga.
3. Nutq rivojlanganligi yoki yo‘qligi.
4. Eshitish qobiliyati buzilgan bolaning yashash shart-sharoiti.
5. Bola qanchalik yomon eshitsa, shuncha yomon gapiradi.
6. Eshitish qobiliyati erta yo‘qolsa, nutq ham shunchalik og‘ir buziladi.
7. Nutqni o‘stiradigan, saqlab qolishga qaratilgan maxsus choralar qancha erta boshlansa, bolada nutqni saqlab qolishga sharoit yaratiladi.

Eshitish qobiliyati buzilishining asosan ikkita shakli ajratiladi:

1. Karlar.
2. Zaif eshituvchilar.

Kar bolalar.

Ular ikki guruhgaga bo‘linadi:

- a) nutqi yo‘q karlar (kar-soqovlar);
- b) nutqi saqlangan karlar (ya‘ni karlik keyinchalik, nutqi rivojlangandan keyin yuzaga kelgan).

Kar-soqov bolalar.

Soqovlik – tug‘ma karlik yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi. Nutq apparatining periferik qismida yoki markaziy qismida hech qanday organik o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Bola eshitmagani uchun so‘zlarni taqqoslab eshita olmaydi; eshitmagani uchun bor nutqi ham yo‘qolib boradi. Karlikning tug‘ma shakli kam uchraydi. Ortitirilgan karlikning sabablaridan birinchi o‘rinda yuqumli se-rebrospinal meningit asosiy o‘rinni egallaydi. Kar-soqov bola-

lar o‘qiydigan mактабдаги текширishлар шуни ко‘рсаатдикі, 1600 болалар ичінде 72% менингітден кар бо‘lib qolganligi aniqlangan.

Nutqini saqlab qolgan kar bolalar. Maktab yoshida yoki bog‘cha yoshida кар бо‘lib qolgan болалар nutqi ustida maxsus ish оlib bo‘rilsa боланing nutqini saqlab qolish mumkin, agar bunday ishлар оlib borilmasa bola bor nutqini ham yo‘qotadi. Karlarda eshitish qobiliyati butunlay yo‘qolmaydi, ko‘pchiligidа ozgina bo‘lsa ham suqlanади. Kuchli tovushni ajratishadi, ayrimlari qulog‘ini oldida gapirganni qabul qilishadi. Orttirilgan karlikda eshitish qobiliyati qisman saqlanib qolgan болаларни quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

I – eng past chastotalarni qabul qiluvchi bolalar (128–256 Gs).

II – past chastotalarni qabul qiluvchilar (512 Gs gacha).

III – past va o‘rta chastotalarni qabul qiluvchilar (1024 Gs gacha).

IV – keng diapazondagi chastotalarni qabul qiluvchilar (2048 Gs va undan yuqori).

I гурухдаги кар болаларнинг ayrimlari qulоq oldida chiqarilgan kuchli tovushга reaksiya berади, hech qaysi undosh tovushларни, со‘zlарни ajrata olmaydi.

II гурухдаги кар болалар qulоq oldidagi kuchli tovushга (masalan, kuchli baqiriq) javob reaksiyasini berади, ayrimlari (a, u) harflарни ajratadi, lekin so‘z va jumlаларни ajrata olmaydi.

III гурухдаги кар болалар to‘g‘ri ovoz bilan gapirganda reaksiya berади, 3–4 harflарни ajratadi, ayrim tanish so‘zларни va jumlaларни ajratishadi.

IV гурухдаги кар болалар – 2 m masofадаги gapni eshitishadi hamda tanish bo‘lgan jumla va so‘zlарни ajratishadi.

Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar. Keyinchalik кар бо‘lib qolgan болалар, ya’ni mакtab yoshigacha yoki mакtab yoshida кар бо‘lib qolganлар. Улар кар бо‘lishдан oldin orttirgan nutqini qisman bo‘lsa ham saqlab qolishadi. Nutqning saqlanib qolish dara-jasi bir qator sabablarga bog‘liq bo‘лади:

- a) bola o'sib rivojlanayotgan muhitga;
- b) nutqni o'stirish uchun ishlar olib borilganligi yoki olib borilmaganligi;
- d) eshitishning qisman bo'lsa ham saqlanganligi yoki butunlay yo'qligi;
- e) eshitishning saqlangan qismini ishlata bilishligi va h.k.

Agar nutqini rivojlantirish ustida ish olib borilmasa, 4–5 yoshida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar maktab yoshi-ga yetganda gapirmaydilar. 2–3 yoshda eshitish qobiliyati bu-zilgan bolalar bilan nutqni rivojlantirish maqsadida maxsus ish olib borilsa, ularning nutqi yo'qolmasdan aksincha rivojlanadi. «Keyinchalik kar» bo'lib qolgan bolalar degan ibora ishlatilgan-da, karlikning necha yoshda paydo bo'lganligi emas, balki asosan karlikda nutq saqlanganligi nazarda tutiladi.

Sabablari: yuqumli kasalliklar ichida epidemik ensefalit asosiy sabablardan hisoblanadi.

Insonga biologik omillar nasliy ta'sir etadi. Bolaga ota-onasidan terisining rangi, sochi, ko'zi va boshqa tana qismlari bilan birga moddalar almashinuvi, nerv sistemasi ham o'tadi. Hatto nasliy kasalliklardan gemofiliya, shizofreniya, ba'zi endokrin sistemasinging buzilishi va nuqsonlar (eshitish yo'lining tug'ma berkligi – atreziya) ham o'tishi mumkin. Surdopedagog bolaning eshitishi buzilishiga qanday nasliy sabablar ta'sir et-ganini bilishi zarur. Meditsina genetikasi shu narsani aniqladiki, karlik va zaif eshituvchanlikning nasliy shakli 30–50%ni tashkil etadi (M.G.Blyumina,A.G.Moskovina, I.Tarasov). Ma'lum bo'lishicha, nasliy karlik va zaif eshituvchilikning 80%i oilalarda retsessiv tipda kechadi, 19%i dominant tipda ajdodlardan yosh avlodlarga, birgina ota-onadan bolalariga o'tadi, 1%i aralash tipda bo'ladi. Genetik neyrosensor karlik va zaif eshituvchilik qu-yidagi genetik nuqsonlardan paydo bo'ladi: ichki quloq (asosan spiral organda) tuzilishining normada shakllanishiga bog'liq.

Ichki quloqning gidrodinamik buzilishi juda katta rol o'ynaydi. Lekin tabiiy odatlar miya tuzilishi, nutq harakati organlari,

sezgi organlarini boshqarishga, bu faoliyatlarining rivojlanishiinsonning ta'limga tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Inson rivojlanishida biologik omillar turlichayuqtirish etadi. Embriyonlik davrda, homilaning rivojlanishida va tug'ilgandan keyin fiziologlarning aytishicha, eshitishning buzilishiga ichki rivojlanishning bir qancha sabablari ta'sir etadi. Onaning yuqumli kasalliklar qizilcha, gripp, skarlatina, qizamiq, antibiotiklar, alkogol ta'sirida zaharlanishi, ona va homilaning qon rezus faktori to'g'ri kelmasligi, gemolitik kasallik bilan tug'ilishi sabab bo'ladi. Tug'ilish jarayonidagi travmalar eshitishga ta'sir etishi mumkin. Tug'ilgandan keyin bola rivojlanishida yuqumli kasalliklar bilan kasal lanishi ham eshitishning buzilishiga olib keladi. Eng katta xavf tug'diradigan kasalliklar: ensefalit, meningit, qizamiq, skarlatina, gripp, burun va burun-quloq yo'llari kasalligi, quloqning o'tkir otiti va boshqalardir. D.I.Tarasov ma'lumotiga ko'ra, eshitishning pasayishiga yana bir sabab, e'tiborsizlik natijasida quloq yo'liga yet jismlarning tushib qolishidir.

Biologik nuqson asosida eshitish analizatorining hayot faoliyati buziladi. Tovushni qabul qilmaslik, miya po'stlog'iga axborotni o'tkazmaydi va atrof-olamdagи voqeа-hodisalarни salbiy fikrda qabul qiladi. Soqovlik ikkinchi biologik nuqson bo'lib, birinchi nuqsandan kelib chiqadi va bola ijtimoiy muhit bilan normadagi muloqot tizimini o'rнata olmaydi.

Tadqiqotchi olimlar: R.M.Boskis, I.M.Solovev, T.V.Rozanova, L.I.Tigranova, J.I.Shiflarning isbotlashlaricha, nutqning rivojlan masligi qator salbiy omillarni: atrofnı idroklash, ko'rgazmali va so'zli materialni eslab qolish, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishiga xalaqit beradi.

Bunday bolalarga ta'limga tizimini ilmiy asosda tuzib, imkoniyat yaratish kerak.

Maxsus maktablarda odatda eshitish qobiliyatining buzilishi bilan birga nutqi ham rivojlanmagan bolalar yuboriladi. Bola ning eshitishi qisman saqlanib nutqi rivojlanmagan bo'lsa, kel tirilgan tasnifga qarab ommaviy maktabga yuborib bo'lmaydi.

Aksincha, eshitishning pasayishi og‘ir darajada, bolaga sharoit tug‘dirish tufayli, nutqi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, uni ommaviy mактабда о‘qитиш керак. Agar eshitishning pasayganligi o‘z vaqtida aniqlanmasa, atrofdagilar beparvo bo‘lsalar, ya’ni nutqni o‘stirish ustida faol ish olib borilmasa, yoki oilada sharoit bo‘lmasa (masalan, kar-soqovlar oilasi), eshitish qobiliyati, qisman nutqi rivojlanmay qoladi. Shunday qilib, maxsus zaif eshituvchi bolarlar mактабида bolalarni saralashda eshitishning pasayish darajasi emas, balki nutqdagi yetishmovchiliklar nazarda tutiladi.

Nutq diapazonidagi eshitishning pasayishiga qarab zaif eshituvchilar quyidagi darajalarga bo‘linadi (L.V.Neyman):

Zaif eshitishning (qulog‘i og‘irlikning) darajasi	Nutq diapazondagi eshitishning yo‘qolishi
I – yengil	Nutq diapazondagi eshitishning yo‘qolishi 50 (db) dan oshmaydi.
II – o‘rta	Nutq diapazondagi eshitishning yo‘qolishi 50 dan to 70 db gacha.
III – og‘ir	Nutq diapazondagi eshitishning yo‘qolishi 70 dan oshadi (o‘rtacha 75–80 db)

Eshitishning yo‘qolishi 50 db dan oshmasa, oddiy balandlikdagi ovoz bilan gapirilgan so‘zlar 1 m masofada aniq eshitiladi; ya’ni bola bilan gaplashish mumkin.

Eshitishning yo‘qolishi 50 dan 70 db gacha bo‘lganda, to‘g‘ri ovoz bilan gapirgan so‘zlar 1 metrga yetmagan masofada eshitiladi, ya’ni gaplashish qiyinlashadi.

Zaif eshituvchanlik etiologiyasi va klinikasi. Zaif eshituvchanlik qandaydir darajada bolaning tashqi muhit bilan aloqaga kirishishining amalga oshirilishiga to‘sinqinlik qiluvchi, eshituv idrokining ma’lum bir foizi turg‘un pasayganligi bilan xarakterlanadi.

Zaif eshituvchanlikning sabablari ko‘p, ko‘pincha o‘rta qulogniн zararlanishi, turli xil infektion kasalliklar yoki tug‘ma eshituv funksiyasining to‘liq shikastlanmasligi oqibatida kelib chiqishi

mumkin. Zaif eshituvchanlikni keltirib chiqaruvchi bir qator kasalliklar mavjud. Ulardan biri nerv sistemasining meningo-ensefalitidir. Burun yoki tomoq orqali kelib chiqadigan kasalliklarning zaif eshituvchanlik, umuman eshitishning buzilishiga hech qanday aloqasi yo‘q.

Zaif eshituvchanlik bolaning nafaqat nutqiga, balki psixikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, ushbu ta’sir darajasi individual bo‘lib, bola nerv sistemasiga bog‘liq. Shu bilan birga intellektual ongning yuqoriligi va albatta tashqi dunyo sharoitiga bog‘liq.

Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, erta bolalik davrida nutq rivojlanguncha zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalarda nutq yaxshi shakllanmagan. Bu eng avvalo eshituv nazoratining pasayganligi bilan izohlanadi. Bunday bolalarning og‘zaki nutqida so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish ayrim tovushlar boshqa tovushlar bilan almashib ketishi kuzatiladi, undan tashqari jarangli undosh tovushlarni jarangsiz tovushga almashtirib talaffuz qilishlari mumkin. L.V.Neyman audiometrik tekshirishlar asosida zaif eshituvchilarni 4 guruhga bo‘ladi:

*1-guruhg*a baland ovozlarni va faqat tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

*2-guruhg*a baland ovozni va ayrim unli tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

*3-guruhg*a esa normal balandlikdagi ovozni eshitadigan, hatto ayrim tanish so‘zlarni ham ajrata oladigan bolalarni kiritgan.

*4-guruhg*a nutqiy tovush balandlikdagi ovozlarni 2 metr oraliq‘ida eshitib, tovush kuchaytirgich apparatlari yordamida o‘qituvchining tushuntirishlarini bemalol eshita oladigan bolalarni kiritgan.

Ushbu apparat yordamida o‘qituvchi muloqot qilish davomida saqlanib qolganlar eshituv qobiliyatidan faol foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq ular uchun davolash muolajalarini olib borish zarurdir. Shu bilan birga, eshituv apparatlari yordamida eshituv sezgisini rivojlantirish ham maqsadga muvofiq.

Zaif eshituvchilar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar, o'zgacha nerv diagnostik asoslarda olib boriladi. Chunki og'zaki nutqning ma'noli turini eshitishga imkon yaratadigan eshituv qobiliyatları saqlangan. Undan tashqari boshqa usullarga o'tib ketmay, boshqalar bilan muloqotga kirishishga imkon beradigan yetarlicha to'la bo'lmanan bir qator holatlardan bo'lsada, ko'pchilik zaif eshituvchilar og'zaki nutqqa ega bo'ladilar. Shunday zaif eshituvchi bolalar uchun ta'lim-tarbiyaviy jaryonning o'ziga xos ravishda rivojlanmay qolishi infeksiya ta'sirida o'rta quloqning kasallanganligi, ba'zi hollarda esa markaziy asab sistemasining meningit-ensefalit bilan kasallanganligidan bo'lishi mumkin.

Burun va tomoq kasalliklari ham eshitish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zaif eshitish bolalar nutqiga salbiy ta'sir etib, ularning asab sistemasini ma'lum darajada buzishi mumkin. Yosh bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qolishi natijasida ular nutqining to'la-to'kis bo'lmasligi, ba'zi harflarni to'la-to'kis ifodalay olmaslik (sh, s, z, d, f kabi), so'z, jumlalarning oxirgi harflarini noto'g'ri talaffuz qilish holatlari uchraydi. Chunki bolalar bilan so'zlashish paytida ular har bir so'z yoki jumlan ni to'la-to'kis eshita olmaganligi uchun o'z xohishicha ovoz chiqarib qo'yadi. Natijada asta-sekin agramatizm hollari yuzaga keladi. Eshitish qobiliyati pastligi natijasida unga qarata aytilayotgan jumlalarni oxirigacha nazorat qila olmaslikdan bola nutqida jarangdorlik bo'lmaydi.

Eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalarning umumiy maktabda asta-sekin ilm olishga ishtiyoqi so'na boradi. Tajribasi kam yoki malakasiz pedagoglar bunday bolalarni yalqov, dangasa, aqli zaif bolalar toifasiga kiritib qo'yadilar, vaholanki, bunday bolalar o'qitilayotgan dars mazmunini aniq eshita olmaydi, o'qituvchidan qayta-qayta so'rashga uyaladi, chunki sinfdoshlari uni «kar-so-qov» deb kamsitishlaridan cho'chiydi. Natijada bu o'quvchidan pedagog biror savolga javob berishini so'rasha, u o'zini yo'qotib qo'yadi, javoblari esa tavakkal, o'tilgan darsga taalluqli bo'lma-

gan javob berish, pedagog to'satdan savol bersa, u sarosimaga tushib qolishi ham mumkin.

Karlarning o'zaro muloqoti o'ziga xos imo-ishora vositasida amalga oshiriladi. Albatta bunda imo-ishoralar juda sodda ko'rinishga ega.

Asta-sekin imo-ishoralardan labning qimirlashiga qarab mu-loqot qilish mimikasi boshlanadi. Bunda kar o'ziga qarata ay-tilgan so'zlarni eshitma olmaydi, ammo gapirayotgan odamning lablariga razm solib turadi. Muntazam ravishda tajribali peda-gog yordamida ushbu usulda shug'ullana borishi yaxshi* sama-ra beradi.

Lab qimirlashidan o'qib olish malakasi osonlikcha kechmaydi. Bu usulni hamma karlar barobar o'zlashtira olmasliklari mum-kin. Har holda bu usul karlarning atrofdagilar bilan aloqada bo'lish omili bo'ladi.

Daktilogik – barmoqlar alifbosi deb ataladigan usulda kar bolalar o'zaro muloqotda bo'lishlari mumkin. Bunda so'z ifo-dasidagi harflar barmoqning turli holatlari bilan belgilanadi. Kaftdagagi barmoqlarni turli ko'rinishda – bukkan, yarim bukkan, orasini ochgan yoki birlashtirgan holda va h.k. ma'lum bir so'zni anglatish mumkin.

Muhit va unda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivoj-lanishi. Shaxsiy qobiliyatlar jamoa ichida yuzaga chiqadi. U ja-moatchiligi, mehnatsevarligi, atrof-muhit va insonlarga, o'z-o'zi-ga munosabatida aniqlanadi. Pedagogikada «muhit», «muhit ta'siri» tushunchalari keng ma'noda qo'llaniladi. Muhitlar bi-ologik, geografik, maishiy, ekologik, madaniy, ijtimoiy bo'la-di. Shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhit asosiy rol o'ynaydi. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar turli muhitni boshdan ke-chiradi. U atrof-olamdagagi alohida obyekt va boshqa bilimlarni to'plashga harakat qilib, dunyoqarashini kengaytiradi. Eshitishning buzilishi va nutqning yo'qligi bola rivojlanishiga chuqr ta'sir etib, o'ziga xos ijtimoiy muhitga kirib boradi. Bu muhit-da kar yoki zaif eshituvchi bola o'ziga xos ta'sirga egaki, uning

nutqi muloqot vositasi va tafakkur quroli sifatida shakllanmaydi. Bu o'ziga xoslikni hisobga olgan holda bolalar ta'lim-tarbiyasini buziladi. A.I.Dyachkovning ko'rsatishicha, eshitishi buzilgan bolaning rivojlanishiga muhitning ta'sirini aniqlashda bolaga atrofdagi ijtimoiy muhit muloqot vositasimi yoki ular zarur miqdorda yaratilganligini bilish muhimdir. Bolaning rivojlanish jarayoniga ijtimoiy muhit turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun unga ijtimoiy muhitda o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatishga sharoit yaratiladi.

Ijtimoiy omillar insonga har tomonlama ta'sir etadi (uzoq muddatli, qisqa muddatli, obyektiv, subyektiv, bir maqsadli, tartibsiz, ijjobiy yoki salbiy). Bir xil jamoa sharoitida ba'zi bolalar katta o'lchamda, ba'zilari kichik o'lchamda foydalanishi mumkin. Bu esa shaxsning faolligi, intiluvchanligi, tirishqoqligidan kelib chiqadi.

Surdopedagoglar bunday bolalarga tarbiya obyekti emas, balki subyekt, ya'ni faol ta'sir etuvchi, atrof-muhit ta'siri sifatida qarashi kerak.

Pedagog-tarbiyachilar yana shunga e'tibor berishlari lozimki, umuman eshitmaydigan kar bolalar kam uchraydi. Kar deb hisoblangan bolalarning aksariyatida biroz bo'lsa ham eshita olish qobiliyati bo'ladi.

Muntazam ravishda lor shifokor nazorati o'tkazilib turilganda, qulqasalliklarini davolash tugallanmagan holatlarini ham uchratib qolish va shoshilinch ravishda davolashni davom etirish mumkin. Oxirgi paytlarda eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar uchun ovozni kuchaytirib beruvchi juda qulay va shinanam tranzistor apparatlar ishlab chiqarilib, ular qulqoning ovoz eshitish kanaliga o'rnatib qo'yiladi. Mitti batareykali individual eshitish apparatlari, tranzistorlar 4, 3, 2 guruhga kiruvchi bolalar uchun ayni muddaodir. Individual eshitish apparatlari bilan ta'minlangan bolalarni pedagogik-tarbiya jarayonlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri ular talaffuzidagi iboralarning noaniqligi, jarangli bo'lmasligi, ifodadagi harflarning cho'zilib ketishi-

dir. Shu sababli pedagoglar har bir bola bilan individual ravishda nutqning to‘g‘ri ifodali bo‘lishi, to‘g‘ri talaffuzi yuzasidan ish olib borishi zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishi deb nimaga aytildi?
2. Zaif eshitish nima?
3. Eshitish pasayishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?
4. Zaif eshituvchilikning kelib chiqish sabablari qanday?

4-mavzu. Inson tashqi quloq kasalliklari

Reja:

1. Tashqi quloq kasalliklari.
2. Yiringli kasalliklar.
3. Yiringsiz kasalliklar.
4. Turli kasalliklar profilaktikasi.

Tayanch so‘z va iboralar: tashqi quloq, yiringli kasalliklar, yiringsiz kasalliklar, lor, nog‘ora parda.

Insonni tashqi muhit bilan bog‘laydigan sezgi organlaridan biri bu eshituv analizatoridir. Eshituv analizatori funksiyasining buzilishiga quloqning shamollash kasalliklari, o‘rta va ichki quloqqa ayrim zaharli moddalarining ta’siri, modda almashinuvining buzilishi, dori moddalarining ta’siri olib keladi. Quloq suprasining tuzilishi hammada har xil bo‘ladi, masalan, mikrotiya-quloq suprasining rivojlanmay faqatgina ayrim bo‘laklariniga bo‘lishi. Makrotya – quloq-suprasining katta hajmda bo‘lishi. Anotiya – butunlay quloq suprasining bo‘lmasligi. O‘rta quloqning yiringli yallig‘lanishi LOR kasalliklari ichida 2-o‘rinda turadi (halqum kasalliklaridan keyin) va qishloq hamda shahar aholisi orasida 21–22% ni tashkil qiladi. O‘rta quloqning yiringli yallig‘lanishi yuzaga kelishida atrof-muhit va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega.

Tashqi qulinqing kasalliklari. Tashqi eshituv yo'li kasalliklari – yallig'lanishi tashqaridan har xil infeksiyalarning tushishidan hosil bo'ladi (qulinqi har xil narsalar bilan kovlash, qashish). Yallig'lanish atreziyaga olib keladi – ya'ni tashqi eshituv yo'lining o'sib, bekilib qolishiga.

Atreziyaga ya'ni (kuyish, jarohatlanish, o'q otish natijasida chandiqlar hosil bo'lishi natijasida yuz beradi va eshitish qobiliyat turg'un pasayadi. Agar tashqi eshituv yo'lida ozgina yoriq bo'lsa ham eshitish qobiliyat o'zgarmaydi. O'rta qularda yiringli jaryon bo'lsa, tashqi qulinqing berk holati yomon oqibatga olib keladi, chunki yiring tashqariga oqib chiqolmay, balki ichki quloga va miya pardalariga o'tadi.

Tashqi eshituv yo'li bekilib qolganda asosan tovush o'tkazish apparati buziladi, ya'ni past tovushlarni qabul qilish buziladi; yuqori tovushlar qabul qilinadi, suyak o'tkazuvchanligi saqlanishi mumkin.

Qulog chirki. Normada qulodagi sariq modda eshituv yo'liga kirgan chang zarrachalari bilan qo'shilib, mayda dumaloq bo'lakchalarni hosil qiladi, ular uyqu vaqtida yonboshlab yotganda, sezilarsiz qulodan to'kiladi yoki tashqi eshituv yo'lining kirish qismida to'planadi va yuvinganda olinadi. Ba'zi kishilarda qulinqing shu yo'l bilan tozalanishi buziladi. Natijada eshituv yo'lida sariq modda yig'ilib qoladi. Bunga sabab:

1. Sariq modda ishlab chiqaradigan bezlar faoliyatining oshishi.
2. Tashqi eshituv yo'lining torligi, nuqsonlari, ya'ni noto'g'ri bukilgan, burilgan va h.k.
3. Sariq moddaning ximik xossalari buzilishi – yopishqoqligining ortishi, natijada tashqi qulog devoriga sariq modda yopishib qoladi. Sariq modda ko'payib, eshituv yo'lini berkitib qo'yadi.

Bemorning shikoyatlari quyidagilar: vannadan chiqqandan keyin yoki cho'milgandan keyin qulog yoki ikkala qulog birdan eshitmay qoladi; qulog'ida shovqin, boshida shovqin, o'zining ovozini o'zgargan holda idroklaydi.

Davolash. Qulq chirki (sernaya probka) maxsus tomchi dori bilan yumshatiladi, keyin iliq suv bilan maxsus shpris bilan qulq yuviladi – bu muolaja klinik yoki poliklinika sharoitida o'tkaziladi va uni shifokor yoki o'rgatilgan hamshira, feldsher bajaradi. Bemorning o'zi tozalashi mumkin emas (cho'p bilan yoki shpilka, gugurt cho'pi bilan).

Qulqdag'i yot (begona) jismlar. Ko'pincha bolalar o'zining yoki o'rtog'inining qulog'iga o'ynab har xil narsalarni solib yoki tiqib qo'yishi mumkin. Yozda ochiq havoda uxbab qolinsa qulqqa turli hasharotlar kirib qolishi mumkin.

Esda tuting, hech qachon yot jismlarni o'zizcha olishga harakat qilmang (shpilka yoki pinset bilan), yot jismni ichkariga krigizib, nog'ora pardani teshib, eshituv suyakchalarini buzib, ichki qulqqa o'tishi yoki tashqi eshituv yo'lining suyak qismida tiqilib qolishi mumkin – bunda yot jismni faqat operatsiya yo'li bilan olish mumkin.

Esda tuting, yot jismlar qulqqa tushsa 1–2 kun ichida hech qanday ziyon keltirmaydi, shuning uchun bemorni imkon boricha shifokor-mutaxassisga olib borish kerak.

Nog'ora parda kasalliklari. Parda nuqsonlari, jarohatlanishi alohida kam uchraydi. Uning tug'ma yo'q bo'lishi tashqi qulq atreziyasi bilan, nog'ora bo'shlig'inining rivojlanmay qolishi bilan, eshituv suyakchalari, o'rta qulq mushaklarining rivojlanmay qolishi bilan o'tadi.

Nog'ora pardaning teshilishi odatda shpilka bilan kovlaganda (gugurt cho'pi bilan yoki boshqa narsa bilan), yot jismlarni olishga harakat qilganda yuz beradi. Atmosfera bosimining tez o'zgarishi ham nog'ora pardasi teshilishiga olib keladi. Nog'ora pardaning teshilishi eshitish qobiliyatiga uncha ta'sir etmaydi. Xavfli tomoni – nog'ora bo'shlig'iga infeksiya o'tib – o'rta qulqning yiringli yallig'lanishiga olib keladi. Bu holda qulqni yuvish man etiladi!

Otgematoma – qulq suprasida qon yig'ilishi. Bu kasallikda qulq suprasi ezilishi yoki jarohatlanishi va teri ostiga qon

yig‘ilishi natijasida bo‘ladi. Klinikasida quloq suprasida qizg‘ish ko‘kintir shish, paypaslab ko‘rilganda yumshoq shish, ichida suyuqlik flyuktuatsiya bo‘ladi.

Kasallik boshlang‘ich davrida shu joyga muz qo‘yish, kechik-tirilgan holatlarda igna yordamida punksiya qilinadi va ichidagi suyuqlik tortib olinadi, quloq suprasi esa siqib bog‘lanadi.

Perixondrit — quloq suprasining tog‘ay qismi yiringlab, yal-lig‘lanishi. Quloq suprasining tog‘ay ustiga biror infeksiya tushi-shi natijasida bo‘ladi. Klinikasida quloq suprasida qizarish, shish, paypaslab ko‘rilganda og‘riq, mahalliy haroratning ko‘tarilishi. Bemorga tez tibbiy yordam ko‘rsatilmasa, tog‘ay chirib, tog‘ay o‘z shaklini yo‘qotishi mumkin. Perixondritni saramas kasalligi bilan qiyosiy tashxislash lozim. Davolashda quloq suprasining yiringlagan qismi kesib ochilib, bog‘lam qo‘yish lozim. Kasallikning er-ta holatlarida mahalliy bog‘lamlar, fizioterapevtik tavsiyalar berish kerak.

Tashqi eshituv yo‘lining oltingugurt tiqini — bu kasallikning belgilari quloqdagi eshituvning to‘satdan pasayishi yoki umuman bo‘lmasligi, shovqin.

Tashqi eshituv yo‘lida oltingugurt ishlab chiqaruvchi bezlar bo‘lib, shu bezlar faoliyati kuchayishi (gipersekretsiya) natijasida oltingugurt massasi tashqi eshituv yo‘lida yig‘iladi, ko‘p holatlarda bermor qulog‘iga suv tushganida oltingugurt massasi shishib, tashqi eshituv yo‘li berkilib qoladi. Davolash uchun tashqi eshituv yo‘lini yuvish, oltingugurt massasi qattiq holatlarda bir necha kun mobaynida steril yog‘ tomchisi tomizish lozim bo‘ladi.

Tashqi eshituv yo‘lining yet jismi — bu holatlar ham tezkor tibbiy yordamga muhtoj bo‘lib, ko‘p holatlarda bolalarda uchraydi, chunki bolalar turli jismlarni qulog‘iga solishi mumkin. Jismlardan farqli o‘laroq, tirik hasharotlar pashsha, chivin hatto suvarak bo‘lishi ham mumkin. Bunday holatlarda quloqqa spirit yoki yog‘ tomizilib, so‘ngra tashqi eshituv yo‘lini yuvish lozim.

Tashqi eshituv yo‘li chipqoni: bu kasallik tashqi eshituv yo‘li-da tuk follikulasining yiringli yallig‘lanishi bo‘lib, klinik belgilari kuchli og‘riq, tashqi eshituv yo‘lidagi shish, harorat ko‘tarilishi. Bu kasallikning asosiy sabablari tashqi eshituv yo‘lini mexanik jarohatlash (barmoq, gugurt cho‘pi bilan). Davolashda tashqi eshituv yo‘lining chipqon chiqqan qismi kesib ochilib, rezina chiqargich qo‘yish lozim, kasallikning erta holatlarida mahalliy malhamlar, fizioterapevtik tavsiyalar berish kerak, umumiy davo sifatida albatta antibakterial davo berish lozim.

Otomikoz – bu tashqi eshituv yo‘lining zamburug‘lar bilan zararlanishidir, bu kasallik klinikasida tashqi eshituv yo‘li-da kuchli qichishish, tiniq suyuq ajralma kelishi, tashqi eshituv yo‘li yuvib ko‘rilganda plyonkasimon hosila ajralib chiqadi. Otomikozni davolash uchun zamburug‘ga qarshi dori vositalaridan mahalliy va umumiy davo maqsadida foydalaniladi.

Ekzema – quloq terisining orqa tomonidan so‘rg‘ichsimon o‘sintaga tutashgan qismidan boshlanib so‘ngra butun quloqqa tarqaladi. Bu kasallikning asosiy sabablaridan organizmning umumiy kasalliklari: qandli diabet, podagra, raxit va boshqalar.

Yosh bolalarda o‘tkir otit. Bolalarda uchraydigan o‘tkir otiting o‘ziga xos xususiyatlari, ayrim hollarda o‘zgacha kechadi, ya’ni boshqa a’zo sistemalari xastaliklari (raxit, zotiljam, O‘RK, me’d-a-ichak kasalliklari)da, tez-tez qusishda qusiq massasi keng va kalta eshituv nayi orqali o‘rta quloqqa tushadi va kasallik rivojlanadi. Ko‘krak yoshidagi bolalarda kasallikni kechishi ishtahaning pasayishi va ko‘krakni emayotgan paytida chinqirab yig‘lashi bilan kechadi. Otoskopiya manzarasi ishonchli bo‘lmaydi – nog‘ora parda bola chinqirab yig‘layotgan paytda qizardi, lekin quloqda hech qanday kasallik sezilmaydi. Bu paytda nog‘ora parda kulrang ham bo‘lishi mumkin, quloq suprasiga bosib ko‘rilganda kuchli og‘riq bo‘ladi. Chunki bolalarda eshituv yo‘li suyaklanmaganligi uchun kalta bo‘ladi, bunda supachaga bosish yallig‘langan nog‘ora pardaga bosish bilan barobar. Bola kasal qulog‘ini yostiqqa bosib yotadi. Bu yoshda so‘rg‘ichsimon

o'simtasi yallig'lanishi—antrit deyiladi. Bu holatda bajariladigan operatsiya antrotomiya deyiladi.

1. Otoreya – qulqodan yiringli ajralmalarning 6 va undan ko'p hafta bo'lishi. Yiringli ajralmalar doimo yoki vaqtiga qarab bo'lishi mumkin.

2. Nog'ora pardada perforatsiya bo'lishi (ko'p hollarda atrofi qalinlashgan bo'lishi).

3. Eshitishning pasayishi, kechishiga qarab bosh aylanishi, qulqodan shovqin bo'lishi, bosh og'rishi va h.k. O'rta qulqodan surunkali yiringli yallig'lanishi 2 xil ko'rinishda bo'ladi: epitimpanit, mezotimpanit. Surunkali yiringli mezotimpanit o'rta qulqodan shilliq qavatining o'rta va pastki qismining yallig'lanishi bilan kechadi. Bemorlar eshitishning pasayishi va qulqodan yiringli ajralma ajralishiga shikoyat qiladilar. Perforatsiya nog'ora pardaning tarang qismida bo'ladi. Qulqodan ajralayotgan ajralma shilliqli, shilliq-yiringli va hidsiz bo'ladi. Mezotimpanitning qo'zish sabablari: qulqqa suv tushishi, yuqori nafas yo'llari kasalliklari va boshqalar. Xuruj davrida yiringli ajralma ko'payadi, qulqodan og'riq paydo bo'ladi, harorat ko'tariladi, eshitish konduktiv tipda pasayadi. Eshitishning pasayishi perforatsiya kattaligiga bog'liq bo'lmay, balki o'rta qulqodagi eshitish suyakchalarining harakatiga va chig'anoq darchasi membranasi harakatiga bog'liq bo'lib, 40–50 Db dan kam bo'lmaydi. Eshitishi pasaygan bemorlarning 50%ida qulqodan past chastotali shovqin kuzatiladi. Surunkali yiringli epitimpanit ancha og'ir kechadi. Kasallik asosan nog'ora bo'shlig'ining yuqori qismida kechadi, jarayon o'rta va pastki qismlarga, nog'ora bo'shlig'i suyagi devoriga, eshitish suyakchalariga ham tarqalishi mumkin. Yallig'lanishning nog'ora bo'shlig'i ustki qismida bo'lishiga sababi, bu yerda shilliq qavatda burmachalarning bo'lishidir. Nog'ora pardadagi perforatsiya uning bo'shashgan qismi yoki suyak qismida bo'ladi. Ajralma qo'lansa hidli bo'ladi, sababi suyak chirishi va purinlarning (indol, skatol) ajralishi va anaerob infeksiyaning

qo'shilishidir. Eshitishning pasayishi mezotimpanitnikiga qaraganda ancha past bo'ladi. Eshitish pasayishining aralash turi ko'proq uchraydi. Otoskopiyyada yiring, granulyatsiya, polip va xolestatomani ko'rish mumkin.

Xolestatoma – teri epidermal qismining konsentrik holda yig'ilishi va ularning parchalanishidan hosil bo'lgan xolessterin massadir. Odatda u qo'shuvchi to'qimadan iborat parda – matriks hosil qiladi. Matriks ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan va suyakka jips yopishgan, hatto o'sib kirgan bo'lishi mumkin. Xolesteatoma suyak to'qimasini kollagenaza fermenti bilan destruksiyaga uchratib, hattoki yuz nervining kanalida fistula hosil qilishi mumkin, natijada labirintit va yuz nervining fala ji paydo bo'ladi.

Yiringli labirintit o'ta xavfli bo'lib, ichki quloqning nerv hujayralari o'lib, infeksiya miya tomonga o'tib ketadi. Xolesteatoma borligini aniqlashda chakka suyagini Shyuller va Mayer bo'yicha rentgenografiya qilish alohida ahamiyatga ega.

Surunkali yiringli otidlarni davolash konservativ va jarrohlik usulida bo'ladi. Nog'ora bo'shlig'inining suyak qismida jarayon yo'qligi kasallikni konservativ davolashga ko'rsatmadir, suyak kariyesi va xolesteatomada esa jarrohlik amaliyoti qo'llaniladi. Har bir bemorni davolash nevropatolog, okulist, terapevt shifokorlari bilan birga olib boriladi. Kasallikni davolashda nog'ora bo'shlig'i tozalanadi, granulyatsiya va poliplar olinadi. Bundan tashqari, antibakterial, immunomodulyatorlar, so'rlitiruvchilar, dezintoksikatsion, desensibilizatsion va mahalliy davo qo'llaniladi. Jarrohlik amaliyoti 2 maqsadni o'z ichiga oladi:

1. Chakka suyagidan patologik o'choqni olib tashlash va miyaga yiringli protsess tarqalishining oldini olish.

2. Tovush o'tkazuvchi yo'lning funksional holatini tiklash, eshitishni yaxshilash.

Birinchi maqsadni amalgal oshirishda radikal usul qo'llaniladi. Radikal jarrohlik usulini qo'llashga mutloq ko'rsatmalar:

1. O'rta quloq suyagining kariyesi.

2. Xolesteatomaning borligi.
3. Surunkali mastoiditning bo'lishi.
4. Yuz nervi falaji.
5. Labirintit.
6. Jarayonning miya ichiga tarqalishi.

Miyacha ichi asoratlari.

Etiologiyasi: streptokokk, stafilokokk, protey, ko'k yiring ta-yoqcha va h.k. Patogenezi: mikroorganizmning miya ichiga kirish yo'llari:

1. Kontakt yo'l — infeksiya chirigan suyakdan to'g'ridan to'g'ri miya chanog'iga kirib boradi.
2. Tabiiy yo'llar orqali, ya'ni qon-tomir va nerv tolalari bo'ylab.
3. Labirintit yo'li — bunda infeksiya nerv tolalari bo'ylab ichki eshituv yo'li orqali perilimfatik tarqalishi mumkin.
4. Limfogen.
5. Gemotagen.

Otogen meningit.

Kasallikning asosiy belgilari: eng birinchi va ko'p uchraydigan simptom qattiq bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, quşish. Bemorning umumiy ahvoli og'ir, kasallik avj olgan sari bemor hushidan ketadi va alahsiraydi, boshi orqaga egilgan, oyoqlari tanaga bukilgan, tana harorati $39^{\circ}\text{--}40^{\circ}\text{C}$, yurak urishi tezlashgan, meningial belgilari kuzatiladi.

Miya va miyachaning otogen absessi.

Miya absessi asosan miyaning chakka qismida uchraydi va miya qobig'iga yaqin joylashgan bo'ladi. Bu holda infeksiyaning o'rta qulqodan miya ichiga tarqalishi to'g'ridan to'g'ri bo'ladi.

Absessning klinik ko'rinishi joylashgan joyiga, kattaligiga va absess joylashgan joydagi to'qimaning reaksiysi va rivojlanish bosqichiga bog'liq bo'ladi. Kasallikning yuzaga kelishida 4 bosqichni ko'rish mumkin:

- 1) boshlang'ich;
- 2) yashirin;

3) aniq belgilar;

4) terminal.

Boshlang'ich bosqichi 1–2 hafta davom etadi va bosh og'retig'i, bo'shashish, tana haroratining ko'tarilishi, ko'ngil aynishi va qusish bo'ladi. Bular miya absessining ensefalit bosqichi ham deyiladi.

Yashirin-latent bosqichi 2–6 hafta davom etadi. Bu davrda yuqorida sanalgan belgilar yo'qolib ketadi yoki kamayadi.

Aniq bosqichi 2 hafta davom etadi. Bu bosqichda ju'da ko'p belgilar paydo bo'ladi. Ularni shartli ravishda 4 guruhga bo'lish mumkin.

I guruh simptomlari yiringli holatga xos belgilar – bo'shashish, ishtahananing pasayishi, ichning yaxshi yurmasligi, tilning karashligi, qondagi yallig'lanishga xos o'zgarishlar.

II guruh simptomlari – umumiy miya kasallanishiga xos simptomlar bilan miya bosimining oshishi kuzatiladi. Bosh og'retig'i, bradikardiya, ko'z tubidagi o'zgarishlar, bo'yin mushaklarining qotishi va Kerning simptomini musbatligi.

III guruh simptomlari – miya qobig'i ostidagi yadrolar va miyadagi o'tkazish yo'llarining buzilishi natijasida yuza-ga keladigan belgilardir. Bunga bir tomonlama bo'ladigan falajlar va shollar kiradi. Absessda qarama-qarshi tomonda yuz nervining markaziyligi kuzatiladi. Ko'z nervining paralichi, tutqanoqlar, piramidal, Babinskiy va Oppengeym simptomlari paydo bo'ladi.

IV guruh simptomlari absessning qayerda joylashganligini ko'rsatuvchi belgilardir. Amnestik va sensor afaziya mavjud bo'ladi.

Miyacha absessida – miyachaning jarohatlangan tomonda-gi mushaklarda tonus pasayishi ro'y beradi. Ataksiya – harakat koordinatsiyasi buziladi. Miyacha absessiga xos bo'lgan simptom *adiodoxokinezdir*.

Qonda leykotsitlarning ko'payishi va SOE ortishi bilan (20–70 mm) orqa miya suyuqligi bosimi oshadi, rangi o'zgarmaydi,

oqsil miqdori va hujayralar soni qisman ko‘payadi (subaraxnoidal bo‘shliqda).

Miya va miyachalarda absessni aniqlashda elektroensefalografiya, exografiya, reografiya, ventrikulografiya, angiografiya va kompyuterli tomografiya tekshirishlari ahamiyatga ega.

Terminal bosqich bir necha kun davom etadi va miya shishi, hayotiy muhim markazlarning falajlanishi va absessni miya qorinchalariga yorilishi bilan bemor vafot etadi.

Miya va miyachalarda absessni meningitdan, yiringsiz lokal ensefalitdan, yiringli labirintitdan farqlashimiz kerak.

Otogen sepsis – o‘rta quloqning o‘tkir yoki surunkali yiringli yallig‘lanishida infeksiyaning qon tomirlarga kirishidir. Bu vena tomirlari miya qattiq pardalarining sinuslari orqali yoki limfa tomirlari orqali otogen sepsis ko‘p hollarda sigmasimon sinus devorining yallig‘lanishidan boshlanadi. Uni tashqarisiga yiringni yig‘ilishini perisinoz absess deyiladi. Keyinchalik bu yerda sinusni o‘zi yallig‘lanadi: pereflebit, sinus devorida tromb hosil bo‘ladi, keyinchalik sinusni butunlay to‘sadigan tromb hosil bo‘lib, sinusda qon aylanishi to‘xtaydi. Kasallik rivojlanishi bilan tromb o‘sib kattalashadi. U miya tomoni, ikkinchidan yurak tomoniga qarab o‘sishi mumkin. Tromb parchalanishi va infeksiyalanishi yiringni kichik va katta qon aylanish doirasiga tuishiga yo‘l ochadi.

Otogen sepsis simptomlarini ko‘rib chiqamiz: uning belgilari 2 guruhga bo‘linadi:

1. Umumiy simptomlar.

2. O‘choqli simptomlar – katta vena tomirlarining jarohatlanishidan kelib chiqadi – qattiq miya pardasi sinuslari va ichki bo‘yinturuq venasi.

Umumiy belgilari: bemorning tana harorati tez va yuqori ko‘tariladi – 39–40°C, et uvishadi, bir necha soatdan keyin harorat yana pastga tushadi. Puls tezlashadi. Bemorning terisi oqaradi va yer rangida bo‘ladi. Ayrim hollarda teri va ko‘z sklerasi sarg‘ayadi.

Otogen sepsis vaqtida yiring boshqa a'zolarga: o'pkaga, bo'g'im-larga, teri ostiga, mushaklar orasiga metastaz berishi mumkin. Bu bemorning ahvolini og'irlashtiradi.

O'choqli simptomlarga quyidagilar kiradi:

1. Grizenger simptomi – so'rg'ichsimon o'simtaning orqasida teri qizarib shishib, ushlaganda og'riq beradi. Bu yerda komissar venalar sigmasimon sinus bilan qo'shilgan joyidir.

2. Uayting simptomi – so'rg'ichsimon o'simtaning oldi tomoni bosib ko'rilmaga og'riq beradi va bemor boshini kasal qulqoq tomonga egadi.

3. Fossa simptomi – vena Jugularis auskultatsiya qilib ko'rilmaga, unda hech qanday qon harakati eshitilmaydi.

Otogen sepsisni davolashda bemorga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yib, jarrohlik usulini qo'llab, kuchli antibiotiklar va degidratisiya qiluvchi dorilarni qo'llash bemor hayotini saqlab qoladi. O'tkir yiringli o'rta otitda antrotomiya, surunkali o'rta otitda esa radikal jarrohlik usuli qo'llaniladi. Otogen meningitda o'rta va orqa miya bo'shliqlari ochiladi.

1. Miya abssesslarida igna bilan yiring tortib olinib, abssessning ichi antiseptik dorilar bilan yuviladi.

2. Ochiq usuli – igna bo'yicha yiring ochilib, abssess ichiga yiring chiqib turadigan drenaj qo'yiladi.

3. Abssessni qobig'i bilan olib tashlash. Bizda asosan ikkinchi usul qo'llaniladi.

Bemorlarga ko'rsatiladigan jarrohlik usulidan tashqari bir qancha dori-darmonlar ham qo'llaniladi. Penitsillin vena tomiriga 20.000.000 YeD birligida, ampitsillin 5 g bu ham vena tomiriga. Ko'p hollarda seporin va ristomitsin ham yaxshi ta'sir qiladi. Agar yiringda ko'k yiring tayoqchasi topilsa, unda gentamitsin va kobenitsillin yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Yashin tezligidagi boshlangan meningitda kefzol (sefazolin)ni 500 mg dan 4 marta qo'llash foydalidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tashqi qulqoq kasalliklariga nimalar kiradi?

2. Yiringli kasalliklar qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Yiringsiz kasalliklar eshitish qobiliyatiga qanday ta'sir qiladi?
4. Turli kasalliklar profilaktikasi qanday amalga oshiriladi?

5-mavzu. Inson o'rta quloq kasalliklari

Reja:

1. O'rta quloqning o'tkir yallig'lanishi.
2. Yosh bolalarda o'tkir o'rta otitning kechishi. 3. Antrit haqida tushuncha.
4. Mastoidit haqida tushuncha.

Tayanch so'z va iboralar: tashqi quloq, o'rta quloq, otit, antrit, mastoidit, kataral otit, aerootit.

Quloqning yiringsiz kasalliklari: o'rta quloqning surunkali katari, koxlear nevrit, otoskleroz, Menyer kasalligi.

O'rta quloqning surunkali katari (adgeziv otit).

O'rta quloqning surunkali katari (adgeziv otit) asosan o'rta quloqning o'tkir yallig'lanishining asorati, eshituv naychasi faoliyatining buzilishi asosida kelib chiqadi.

Klinikasi: bemor asosan eshitishning pasayishiga va ayrim hollarda shovqin paydo bo'lishiga shikoyat qiladi.

Otoskopiyada nog'ora parda xiralashgan, ichkariga tortilgan, bolg'achani uzun oyoqchasini qisqarishi va har xil chandiqlar ko'rindi.

Ko'p hollarda eshituv nayining funksiyasi buzilgan bo'ladi.

Kamertonal va audiometrik tekshiruvlarda eshitish qobiliyati tovush o'tkazuvchi tipda buziladi.

Davolash:

1. Konservativ.
2. Jarrohlik yo'li bilan.

Otoskleroz

1893-yil Politser tomonidan «otoskleroz» degan nom bilan labirint suyagida bo'ladigan o'zgarishlarni atagan. Otosk-

leroz kasalligida labirintning qattiq, zich suyagi g‘alvirsimon, qon tomirlarga boy bo‘lgan spongioz suyak bilan almashadi. Kasallik uzangi asosida, oval teshik atrofida, ayrim hollarda yumaloq teshik atrofida uchraydi.

Bu o‘zgarishlar uzangining qimirlamay qolishiga va eshitishning pasayishiga olib keladi. Otoskleroz kelib chiqishidagi gipotezalar: mexanik va fizik faktor, nasl-konstitutsion kasalliklar, endokrin o‘zgarishlar. Otoskleroz bilan 20 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan ayollar kasallanib, homiladorlik paytida va tug‘ruqdan keyin rivojlanadi.

Shikoyati: qulqoqda og‘riq, eshitish pasayishi, bosh aylanishi, bosh og‘rig‘i, eslash qobiliyati pasayishi.

Klinik turlari:

1. Timpanal formasi.
2. Koxlear formasi.
3. Aralash formasi.

Timpanal formasida eshitish pasayishi tovush o‘tkazuvchi bo‘limlarning zararlanishida bo‘ladigan o‘zgarishlar va suyak bilan havodan o‘tkazish o‘rtasida katta yo‘lakcha, ya’ni rezerv bo‘lishi bilan bog‘liq.

Koxlear formasida eshitish pasayishi ham suyak va havodan tovush to‘lqinlarini o‘tkazishning buzilishiga xos bo‘lgan belgilar bilan xarakterlanadi. Bu formada suyak-havo rezervi bo‘lmaydi.

Aralash formasida suyak va havodan tovushni qabul qilish birgalikda pasayadi.

Timpanal formasida «parakuzis Villizi» sindromi bo‘ladi. Kamerton bilan tekshirganda, asosan tovush o‘tkazishning buzilishini aniqlash mumkin, ya’ni Veber yomon eshitadigan tomonda, Jele va Rinne manfiy tomonda bo‘ladi. Otosklerozning qo‘s himcha belgilardan qulqoqda oltingugurt suyuqligi yo‘qligi, Shvars belgisi bo‘ladi.

Davolash:

1. Konservativ: vitaminlar (B12, B6, B1, A, E), gormon modalar, fizioterapevtik metodlar.

2. Jarrohlik yo‘li bilan davolashda quyidagi usullar qo‘llaniladi: uzangini bilvosita va bevosita harakatga keltirish, uzangi asosidagi tasma suyagini teshish, bo‘lakchalarga ajratish, otosklerotik zonalarni ajratish, stapedostomiya, stapedoplastika.

Eshituv nervining yallig‘lanishi.

Bu qulqasalliklarining 20–40%ni neyrosensor kam eshitish tashkil qiladi. Bu kasallik 1909-yilda professor Ye.A.Yevdonenko tomonidan «Neyrosensor kam eshitish» deb ataldi.

Sabablari:

1. Infekzion kasalliklar: gripp, qizamiq, tepki, qorin tepkisi va boshqalar.

2. Zaharli moddalar ta’sirida: pestitsidlar, og‘ir metall tuzlari, etil spiriti, uglevod 2-oksiidi va boshqalar.

3. Dorivor moddalar ta’sirida: aminoglikozidlar, xinin, salitsilatlar, diuretiklar va boshqalar.

4. Travma ta’sirida.

5. Endogen faktorlar – organizmda modda almashinuvining buzilishi natijasida har xil moddalarning to‘planishi (mochevina, kreatinin).

6. Yurak-qon tomir kasalliklarida, qandli diabetda.

Kasallikning kelib chiqishida immun tizimdag‘i kamchiliklar, allergologik holat ham rol o‘ynaydi. Kasallikning boshlanishida bemor qulqada paydo bo‘lgan shovqinga, keyinchalik esa eshitishning pasayishiga shikoyat qiladi.

Neyrosensor kam eshitishning 2 turi mavjud: o‘tkir va surunkali.

O‘tkir neyrosensor kam eshitishda klinik belgilar bir necha daqiqadan bir-ikki kun va oy mobaynida rivojlanib boradi.

Surunkali neyrosensor kam eshitishda eshitish asta-sekin, oy-lab, yillar davomida rivojlanadi.

Kamertonal va audiometrik tekshiruvlarda eshitish pasayishi tovush to‘lqinlarini qabul qiluvchi tizimning zararlanishini ko‘rsatadi. Bu holatda suyak va havodan qabul qilish parallel holatda pasayadi, havo-suyak ta’siri bo‘lmaydi.

Davolashning asosiy maqsadi:

- birinchidan, kasallikni keltirib chiqaruvchi faktorga qarshi;
- ikkinchidan, nerv hujayralari va tolalari faoliyatini tiklashga qaratilgan.

Davolash:

- 1) biostimulyatorlar;
- 2) vitaminlar;
- 3) modda almashinuvini yaxshilovchi preparatlar;
- 4) qon aylanishini yaxshilovchi preparatlar;
- 5) VNSni tinchlantiruvchi;
- 6) nerv tolalaridan impuls o'tishini yaxshilovchi preparatlar.

Eshitish judayam pasayib ketishida yoki yo'qolishida, ya'ni kar bo'lib qolishda asosan yosh bolalarning eshitishini sun'iy tiklash, surdopedagog bilan muntazam ravishda shug'ullanishga, bolarlarni maxsus maktab internatlarda ta'lif va tarbiya olishiga katta e'tibor berish kerak.

Surdologiya fani — qulqoq eshitishining pasayishi bilan shug'ullanadi. Vrach surdolog qulqoq kasalliklarining turini aniqlab, uni tekshirishdan o'tkazadi va eshitish darajasini aniqlaydi.

Eshitishni protezlash — bu fan bemorda eshitishni apparatlar yordamida tiklash bilan shug'ullanadi. Eshitishni protezlash maxsus shifokor tomonidan tekshirishlar o'tkazib, eshitish apparatini tanlash bilan yakunlanadi.

Eshitish apparati turlari:

- suyakdan qabul qiluvchi;
- tashqi eshituv yo'liga qo'yuvchi.

Eshitish darajasi susayishiga qarab apparatlar tanlab olinadi.

Eshitishni tiklash, ya'ni eshitishni reabilitatsiya qilish murakkab muammo bo'lib, bunda eshitishni tiklash konservativ va jarrohlik usulida davolash orqali olib boriladi. Apparat taqqan bemorlar davriy ravishda ko'rikdan o'tkazilib, surdolog va surdopedagog kuzatuvida bo'ladi.

Mastoidit — so'rg'ichsimon o'simtaning suyak elementlarini parchalaydigan o'rta quloqning o'tkir yiringli yallig'lanishi-

dir. Aynan so‘rg‘ichsimon o‘samtaning suyak to‘qimasi destruksi-yasi tufayli mastoidit o‘tkir o‘rta otitdan farqlanadi. Mastoidit g‘or tomi, labirint, yuz nervining jarohatlanishi kabi asoratlar qoldiri-shi mumkin.

Belgilari: o‘tkir o‘rta otit kechayotgan paytda, yoki 2–3 haf-ta o‘tgach qulogda, qulog orti sohasida og‘riq kuchayadi, og‘riq spontan bo‘ladi, eshitish pasayadi, qulogda shovqin, quyuq sarg‘imtir yiring oqishi, tana haroratining 38–39°C gacha ko‘tarilishi, umumiy ahvolning og‘irlashishi kuzatiladi.

Otoskopiya: tashqi eshituv yo‘li orqa devori suyak qismi osi-lishi, shish, ba’zida yiring oqishi, nog‘ora parda qizargan, qalillashgan, perforatsiyadan yiring oqib turishi ko‘rinadi. Tash-qi ko‘rikda qulog suprasi oldinga va pastga egilgan, qulog orqasi terisi shishgan, qizargan bo‘ladi. So‘rg‘ichsimon o‘simta bosilgan-da og‘riq kuzatiladi. Chakka suyagi rentgenografiyasida so‘rg‘ich-simon o‘siq sohasida soyalanish va ba’zi katakchalarini suyak de-vorining destruksiyasi kuzatiladi.

Davosi: xirurgik – mastoidotomiya.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘rta qulogning o‘tkir yallig‘lanishi deb nimaga aytiladi?
2. Yosh bolalarda o‘tkir o‘rta otit qanday kechadi?
3. Antrit nima?
4. Mastoidit nima?

6-mavzu. Inson ichki qulog kasalliklari

Reja:

1. Ichki qulog anomaliyasi haqida ma’lumot.
2. Labirintit haqida tushuncha.
3. Menyer kasalligining tavsifi.

Ichki qulogning yallig‘lanishi.

Labirintit – ichki qulogning o‘tkir yoki surunkali yallig‘la-nishi bo‘lib, u chegaralangan yoki tarqalgan xarakterga ega bo‘li-shi mumkin.

Kelib chiqishiga qarab quyidagilarga bo'linadi: timpanogen, meningogen, gemitogen va jarohat tufayli.

Timpanogen labirintit ko'pincha surunkali, ba'zan esa, o'rta qulinqing o'tkir yallig'lanishining asoratlari bo'lib, bu kasalliklarga nisbatan labirintit 1,5–5% ni tashkil etadi. Yallig'lanish jarayoni o'tkir hamda surunkali otitda o'rta qulodidan ichki qulqqoqha o'tishi chig'anoq darchasining membranasimon tuzilmasi va dahliz darchasi orqali yuz beradi.

Meningogen yoki liarogen labirintit miya pardasidagi yallig'lanish ichki eshituv yo'li, dahliz suv yo'li va chig'anoq suv yo'li orqali tarqalganda kuzatiladi. Meningogen labirintit epidemik, grippli, tuberkulyozli, skarlatinali, qizamiqli, tifli meningitlarda yuzaga kelishi mumkin.

Gematogenli labirintit umumyuqumli kasallikkarda, epidemik parotitda (tepki), zaxmda va boshqa infeksiyalarda infeksiyaning ichki qulqqoqha tushishiga sharoit yaratib beradi.

Jarohattan keyin labirintit ichki qulinqing nog'ora parda bilan o'rta qulok orqali to'g'ridan to'g'ri jarohatlanganida to'satdan yot jismlar (spitsa, shpilka) bilan jarohatlanishda kuzatiladi.

Labirintitning asosiy belgilari: ichki qulodqa vestibulyar va eshituv retseptorlar faoliyatining buzilishi.

Vestibulyar belgilari bosh aylanishi, spontan nistagm, muvozanatning yo'qolishi, vegetativ reaksiyalar xos. Bosh aylanganada odatda jismlarning bemor atrofida bir tekislikda aylanishi yoki bemorning o'zining aylanishlari kabi soxta sezgilar bilan ifodalanadi. Ayrim hollarda yurib turganda ishonchszilik—xuddi tushib yoki yiqilib ketayotgandek sezgilar bo'ladi. Muvozanat buzilganda bemor bir tomonga og'ib ketadi, yoki yiqilib tushadi, birovlarning yordamisiz harakat qilolmaslik, oyoqlarini keng qilib tashlab yurishlik kuzatiladi.

Vegetativ reaksiyalar: ko'ngil aynishi, qayt qilish, terlash, rang oqarishi yoki qizarishi, taxikardiya yoki bradikardiya, yurakda og'riq, yoqimsiz hislar sezish kuzatiladi.

Tovush analizatorining buzilishi, qulqoqda shovqin bo‘lishi va eshitish qobiliyatining butunlay yo‘qolishi diagnostik ahamiyatga ega.

O‘tkir labirintit 2–3 hafta davom etadi, so‘ng bemor sog‘aya boshlaydi. Ba’zan o‘tkir labirintit surunkali yashirin shaklda o‘tadi, bunda kasallik yillab davom etadi va insonni ishga yaroqsiz qilib qo‘yadi.

Ichki qulqoqning retseptor strukturasi halokatga uchraganda muvozanat faoliyati ikkinchi labirint bilan po‘stloq proprietseptiv va eshituv analizatori hisobiga moslashadi.

Chig‘anoq faoliyati tiklanmaydi. Zararlangan tomonda eshitish qobiliyati yo‘qoladi.

Davolash: kompleks ravishda olib boriladi.

Showqindan zararlanish.

Kuchli shovqin uzoq vaqt ta’sir etsa Kortiyev a’zoning tuklli hujayralarida o‘zgarishlar kuzatiladi. Keyin o‘zgarish nerv tolalariga va spiral nerv tuguniga o‘tadi. Eshitish qobiliyatining tobora pasayishi kuzatiladi. Bunday holat ayrim kasblarda kuzatiladi (qozon yamaydiganlar, to‘qimachilikda va h.k.)

Havo kontuziyasi.

Atmosfera bosimining keskin o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi (portlash to‘lqinlari va kuchli tovushning keskin, birdaniga ta’siri eshitish analizatoriga ta’sir etadi va hamma bo‘limlarida o‘zgarishlar kuzatiladi). Nog‘ora pardanining yorilishi, o‘rta va ichki qulqoqqa qon quyilishi, Kortiyev a’zo hujayralarining buzilishi, natijada eshitishning turg‘un pasayishi kuzatiladi.

Eshitish funksiyasining buzilishlari.

Eshitish analizatorining shikastlanishi oqibatida eshitish qobiliyatining pasayib ketishi – karlik, zaif eshitish, eshitish agnoziyasi kabi nuqsonlar paydo bo‘ladi. Yosh bolalardagi eshitishning pasayishi ko‘pincha eshituv nervlari shikasti bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarning 70%dagи karlik – meningit kasalligi bilan og‘riganda eshitish a’zolarining anomal rivojlanishi, turli shikastlar sabab bo‘ladi.

Karlikning toifalari.

Karlik turlarini har xil prinsiplarda toifalarga ajratishadi. Masalan, qachon karlik paydo bo‘lganiga qarab ham ajratishadi. Homila davridayoq eshitish a’zolarining rivojlanmay qolishi yoki shikastlanishi, tug‘ilgandan so‘ng esa boshlang‘ich davrda har xil sabablarga ko‘ra eshitmay qolishi va h.k. Ko‘p hollarda, bolalarning yosh davrida periferik retseptorlarning – eshitish masablari, ovoz qabul qiluvchi markazning shikastlanishi natijasida ham karlik paydo bo‘ladi.

Albatta, kar bolalarda sog‘lom bolalarga xos bo‘lgan barcha xususiyatlar mavjud. Ammo kar bolalarda nutqning yo‘qligi tu-fayli ular psixologiyasida atrof-muhitga moslashish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. O‘z navbatida, nutq fikrlash bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi sababli, kar bolalarda fikrlash jaryoni alohida xususiyatga ega bo‘ladi. Bu xususiyat shundan iboratki, kar bolalardagi fikrlash qobiliyati ko‘rish, sezish, hid bilish kabi analizator asosida rivojlanadi, ya’ni ularning fikrashi aniq – obrazli bo‘ladi. Ammo bu holat hech qachon aqli zaiflik belgisi bo‘lmagan. Bunday bolalar maxsus bog‘cha yoki maktablarda tarbiya olsalar, hayotiy zarur so‘zlar aytishga o‘rgana oladilar va abstrakt fikrlash qobiliyati ham shakllana boradi. Bolalardagi bunday nuqson qanchalik ertaroq aniqlansa, ularning so‘z boyligi shunchalik ortadi va muloqot qila olishga imkon yaraladi. Og‘zaki nutqqa ertaroq o‘rgatilgan kar bolalar muntazam shug‘ullanma borib, suhbatdoshining gaplarini uning lab qimirlashiga qarab anglab oladigan bo‘ladi. Bunday samaraga, albatta malakali pedagoglar yordamida erishiladi. Ammo hanuzgacha yetarli darajada mukammal bo‘lgan metodik qo‘llanmalarning yo‘qligi, maxsus bog‘cha va maktablarning yetarli emasligi, qolaversa, malakali pedagog—tarbiyachilarning kamligi bois, kar bolalarning ko‘pchiligi og‘zaki nutqni egallay olmayapti va atrofdagilar bilan mimika yoki qo‘l harakati bilan muloqotda bo‘ladilar.

Shuni ham eslatib o‘tishimiz zarurki, ba’zi bir (Tartman, Myuller, Kussmaul kabi) mualliflar kar bolalarni chala jis-

moniy rivojlangan, aqli zaif, ko'p hollarda tajang va kasalmand bo'ladilar, deb kamsitgan. Bunday fikrga XVIII asrda A.Radishev qarshi chiqib, karlar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflagan.

Karlar xarakteridagi tajanglik, ba'zi hollardagi qo'pollik, yoki jazaval bo'lishlik, avvalo ular hayotida odamlar bilan doimiy muloqotda bo'la olmasliklaridan kelib chiqadigan noqulayliklar, ishsizlik, qashshoqlik kabi hukm surgan illatlar eski davrga xos bo'lgan ko'rinishlardir. Keyingi davrdagi tadqiqotlar esa kar insonlarning ham yaxshi xislatlar egasi ekanligini tasdiqladi. Ular da ham mehnatsevarlik, o'z o'qituvchi-tarbiyachilariga sodiqlik, halollik, adolatlilik – ya'ni barcha sog'lom odamlarga xos bo'lgan xislatlar yetarli ekanligi ayon bo'ldi. Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarida va turli xil kasblarda kar odamlar samarali mehnat qilmoqdalar.

Ularning hayotga tez moslanib ketishida malakali pedagog-tarbiyachilarning roli muhim.

Eshitish analizatorining patologiyasi.

Eshitish qobiliyatining turg'un pasayishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Eshitish qobiliyatining turg'un pasa yishi ko'pincha orttirilgan bo'ladi. Tug'ma formasi – bolaning ota-onasi kar bo'lsa, eshitadigan ona-otalarga qaraganda ko'proq uchraydi. Homiladorlikning birinchi 3 oyining ichida yuqumli kasallik bilan og'rish (qizamiq, gripp, qizilcha), radiatsiyalar bilan nurlanish, ayrim kimyoviy moddalar, dorilar (streptomitsin, aspirin), antibiotiklar – aminoglyukozidlar, xinin preparatlari, alkogol iste'mol qilish, homiladorlikning birinchi oylarida jarohatlanish sabab bo'ladi.

Orttirilgan eshitish qobiliyatini buzilishlari sabablari turli-tumandir. Eshitish qobiliyati buzilishining og'ir turi bu – tovushni qabul qiluvchi apparat buzilganda kuzatiladi (ichki quloq, eshituv nervi). Yengil turi – quloqni tovush o'tkazuvchi qismi buzilganda kuzatiladi, ya'ni o'rta quloq kasalliklarida (o'tkir yiringli otit, surunkali yiringli otit).

Bolalarda uchraydigan eshitish qobiliyatining pasayishiga olib keladigan sabab burun va burun-halqum kasalliklari va shu kasallar bilan bog‘liq bo‘lgan yevstaxiyev nayi o‘tkazuvchanligining buzilishi. Ko‘pincha bunga sabab adenoid o‘smlar bo‘ladi. Adenoidlar tufayli eshituv nayidan havo o‘rtal quloqqa bormaydi va o‘rtal quloqda havo bosimi pasayadi, natijada nog‘ora parda ichkari tomon tortiladi, eshituv suyakchalari harakati o‘zgaradi. Sabablaridan yuqumli kasalliklar ahamiyatga ega. Chunki bolalar bunga moyil bo‘lishadi. Eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishiga quyidagi yuqumli kasalliklar olib keladi: cerebrospinal meningit, qizamiq, skarlatina, gripp, parotit (tepki). Bu kasalliklarning ayrimlari (meningit, virusli gripp, tepki) eshitish analizatorining nerv apparatini (koritiyev a’zo yoki eshituv nervni), boshqalari (qizamiq, skarlatina)—asosan o‘rtal quloqni zararlaydi, lekin yallig‘lanish o‘rtal quloqdan ichki quloqqa o‘tib, Kortiyev a’zoni retseptor hujayralarini qisman yoki butunlay zararlashi mumkin. Ayniqsa yosh bolalar uchun xavfli bo‘lib, yallig‘lanish ichki quloq va eshituv nervini zararlab, eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishiga, karlikka olib keladi. Bolalarda uchraydigan virusli kasallik — epidemik parotit (tepki) — quloq oldi so‘lak bezining yallig‘lanishi ayniqsa xavfli, to’satdan eshitish qobiliyati butunlay buziladi. Zararlanish odatda bir tomonlama bo‘lib, epidemik parotitda ichki quloqdagi retseptorlar halok bo‘lib, karlikka olib keladi. Kasal onadan homilaga zaxmning yuqishi ham karlikka olib kelishi mumkin, chunki zaxm infeksiyasi ichki quloqdagi nerv apparatini, eshituv nervining stvolini zararlaydi. Tug‘ruq vaqtidagi jarohatlar, bolani akusherlik qisqichlari bilan tortib olish, tug‘ruq yo‘llarining torligi bolarining bosh shaklini o‘zgartirib, ezib, eshitishni turg‘un pasayishiga olib kelishi mumkin.

Eshitish qobiliyatining turg‘un pasayishi tasnifini tuzishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- 1) eshitish faoliyatining buzilish darajasiga;

2) patologik jarayonning paydo bo‘lish vaqtini va rivojlanish tezligiga;

- 3) nutq rivojlanganligi yoki yo‘qligi;
- 4) eshitish qobiliyati buzilgan bolaning yashash shart-sharoiti:
 - a) bola qanchalik yomon eshitsa, shuncha yomon gapiradi;
 - b) eshitish qobiliyati erta yo‘qolsa, nutq ham shunchalik og‘ir buziladi;
 - d) nutqni o‘siradigan, saqlab qolishga qaratilgan maxsus cholarlar qancha erta boshlansa, bolada nutqni saqlab qolishga sharoitdir.

Eshitish qobiliyati buzilishining asosan ikkita formasi ajratiladi:

1. Karlar.

2. Zaif eshituvchilar, ya’ni qulog‘i og‘irlar.

Kar bolalar. Ularni ikki guruhga bo‘lishadi:

- a) nutqi yo‘q karlar (kar-soqovlar);
- b) nutqi saqlangan karlar (ya’ni karlik keyinchalik, nutqi rivojlangandan keyin yuzaga kelgan).

Kar-soqov bolalar.

Soqovlik – tug‘ma yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi. Nutq apparatining periferik yoki markaziy qismida kar-soqovlarda hech qanday organik o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Bola eshitmagani uchun so‘zлarni taqqoslab eshita olmaydi, eshitmagani uchun bor nutqi ham yo‘qolib boradi. Karlikning tug‘ma formasi kam uchraydi. Orttirilgan karlikning sabablaridan birinchi o‘rinni yuqumli serebrospinal meningit egallaydi. Kar-soqov bolalar o‘qiydigan maktabdagi tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, 1600 bolalar ichida 72% meningesdan kar bo‘lib qolgan.

Nutqini saqlab qolgan kar bolalar.

Maktab yoki bog‘cha yoshida kar bo‘lib qolgan bolalar nutqi ustida maxsus ish olib borilsa, bolaning nutqini saqlab qolish mumkin. Agar bunday ishlar olib borilmasa, bola bor nutqini ham yo‘qotadi. Karlarda eshitish qobiliyati butunlay yo‘qolmaydi,

ko‘pchiligidagi ozgina bo‘lsa ham saqlanadi. Kuchli tovushni ajratishadi, ayrimlari qulog‘i oldida gapirganni qabul qilishadi. Ortтирсанда оштитиш қобилиятине кимене саqlанып болаларни куидаги гуруларга бо‘лиш мумкин.

I – eng past chastotalarni qabul qiluvchi bolalar (128–256 Gs).

II – past chastotalarni qabul qiluvchilar (512 Gs gacha).

III – past va o‘rta chastotalarni qabul qiluvchilar (1024 Gs gacha).

IV – keng diapazondagi chastotalarni qabul qiluvchilar (2048 Gs va undan yuqori).

I guruhdagi kar bolalarning ayrimlari quloq oldida chiqarilgan kuchli tovushga reaksiya beradi, hech qaysi undoshli tovushlarni, so‘zlarni ajratolmaydi.

II guruhdagi kar bolalar quloq oldidagi kuchli tovushga (masalan, baqiriq, parovoz gudogi) javob reaksiyasini beradi, ayrimlari (a, u) harflarni ajratadi, lekin so‘z va jumlalarni ajratolmaydi.

III guruhdagi kar bolalar to‘g‘ri ovoz bilan gapirganda reaksiya beradi, 3–4 harflarni, ayrim tanish so‘zlar va jumlalarni ajratishadi.

IV guruhdagi kar bolalar 2 m masofadagi gapni eshitishadi, hamda tanish bo‘lgan jumla va so‘zlarni ajratishadi.

Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar.

Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar, ya’ni mактаб yoshi-gacha yoki maktab yoshida kar bo‘lib qolganlar kar bo‘lishidan oldin orttirgan nutqini qisman bo‘lsa ham saqlab qolishadi. Nutqni saqlanib qolish darajasi bir qator sabablarga bog‘liq bo‘ladi:

- a) bolaning o‘sib-rivojlanayotgan muhitiga;
- b) nutqni o‘stirish uchun ishlar olib borilishi, yoki olib borilmasligi;
- d) eshitishning qisman bo‘lsa ham saqlanganligi, yoki butunlay yo‘qligi;

e) eshitishning saqlangan qismini ishlata bilishligi va h.k.

Agar nutqini rivojlantirish ustida ish olib borilmasa, 4–5 yoshida eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalar maktab yoshiga yetganda gapirmaydilar. 2–3 yoshda eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan nutqni rivojlantirish maqsadida maxsus ish olib borilsa, ularning nutqi yo‘qolmasdan, aksincha rivojlanadi. «Keyinchalik kar» bo‘lib qolgan bolalar degan termin ishlatilganda, karlikning necha yoshda paydo bo‘lganligi emas, balki asosan karlikda nutq saqlanganligi nazarda tutiladi. Sabablari: yuqumli kasalliklar ichida epidemik ensefalit asosiy sabablardan hisoblanadi.

Maxsus maktablarda odatda eshitish qobiliyatining buzilishi bilan birga nutqi ham rivojlanmagan bolalar tarbiyalanadilar. Bolaning eshitishi qisman saqlanib, nutqi rivojlanmagan bo‘lsa, keltirilgan tasnifga qarab ommaviy mактабга yuborib bo‘lmaydi. Aksincha, eshitishning pasayishi og‘ir darajada bo‘lganda bolaga sharoit tug‘dirish tufayli, nutqi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, uni ommaviy mактабда o‘qitish kerak. Agar eshitishning pasayganligi vaqtida aniqlanmasa, atrofdagilar beparvo bo‘lsalar, ya’ni nutqni o‘stirish ustida faol ish olib borilmasa, yoki oilada sharoit bo‘lmasa (masalan, kar-soqovlar oilasi), eshitish qobiliyati bilan birga qisman nutqi ham rivojlanmay qoladi. Shunday qilib, maxsus zaif eshituvchi bolalar mактабида bolalarni saralashda eshitishning pasayish darajasi emas, balki nutqdagi yetishmovchiliklar nazarda tutiladi.

Nutq diapazonidagi eshitishning pasayishiga qarab zaif eshituvchilar quyidagi darajalarga bo‘linadi (L.V.Neyman):

1. Zaif eshitishning (qulog‘i og‘irlikning) darajasi.
2. Nutq diapazonidagi eshitishning yo‘qolishi:
 - I—yengil. Nutq diapazonidagi eshitishning yo‘qolishi 50 dan (dB) desi belldan oshmaydi.
 - II—o‘rta. Nutq diapazonidagi eshitishning yo‘qolishi 50 dan to 70 dB gacha.
 - III—og‘ir. Nutq diapazonidagi eshitishning yo‘qolishi 70 dan oshadi (o‘rtacha 75–80 dB).

Eshitishning yo'qolishi 50 dB dan oshmasa, to'g'ri ovoz bilan gapirgan so'zlar 1 m masofada aniq eshitiladi; ya'ni bola bilan gaplashish mumkin.

Eshitishning yo'qolishi 50 dan 70 dB gacha bo'lganda, to'g'ri ovoz bilan gapirgan so'zlar 1 metrga yetmagan masofada eshitiladi, ya'ni gaplashish qiyinlashadi

Zaif eshituvchanlik etiologiyasi va klinikasi.

Zaif eshituvchanlik qandaydir darajada bolaning tashqi muhit bilan aloqaga kirishishining amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi, eshituv idrokinining ma'lum bir foizi turg'un pasayganligi bilan xarakterlanadi.

Zaif eshituvchanlikning sabablari ko'p, ko'pincha o'rta qulooqning zararlanishi turli xil infektion kasalliklar yoki tug'ma eshituv funksiyasining to'liq shikastlanmasligi oqibatida kelib chiqishi mumkin. Zaif eshituvchanlikni keltirib chiqaruvchi bir qator kasalliklar mavjud. Ulardan biri nerv sistemasining meningoensefalitidir. Burun yoki tomoq orqali kelib chiqadigan kasalliklarning zaif eshituvchanlik, umuman eshitishning buzilishiga hech qanday aloqasi yo'q.

Zaif eshituvchanlik bolaning nafaqat nutqiga, balki psixikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, ushbu ta'sir darjasasi individual bo'lib, bola nerv sistemasiga bog'liq. Shu bilan birga, intellektual ongning yuqoriligi va albatta tashqi dunyo sharoitiga bog'liq.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, erta bolalik davrida nutq rivojlanguncha zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalarda nutq yaxshi shakllanmagan bo'lar ekan. Bu eng avvalo eshituv nazoratining pasayganligi bilan izohlanadi. Bunday bolalarning og'zaki nutqida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, ayrim tovushlar boshqa tovushlar bilan almashib ketishi kuzatiladi, bundan tashqari, jarangli undosh tovushlarni jarangsiz tovushga almashtirib talaffuz qilishlari mumkin. L.V.Neymon audiometrik tekshirishlar asosida zaif eshituvchilarni 4 guruhga bo'ladi:

1-guruhgaga baland ovozlarni va faqat tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

2-guruhgaga baland ovozni va ayrim unli tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

3-guruhgaga esa normal balandlikdagi ovozni eshitadigan, hatto ayrim tanish so‘zlarni ham ajrata oladigan bolalarni kiritgan.

4-guruhgaga nutqiy tovush balandlikdagi ovozlarni 2 metr oraliq‘ida eshitib, tovush kuchaytirgich apparatlari yordamida o‘qituvchining tushuntirishlarini bemalol eshita oladigan bolalarni kiritgan.

Ushbu apparat yordamida o‘qituvchi muloqot qilish davomida saqlanib qolganlar eshituv qobiliyati aktiv foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq ular uchun davolash muolajalarini olib borish zarurdir. Shu bilan birga, eshituv apparatlari yordamida eshituv sezgisini rivojlantirish ham maqsadga muvofiq.

Zaif eshituvchilar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar o‘zgacha nerv diagnostik asoslarda olib boriladi. Chunki og‘zaki nutqning ma’noli turini eshitishga imkon yaratadigan eshituv qobiliyatlarini saqlangan. Bundan tashqari boshqa usullarga o‘tib ketmay, boshqalar bilan muloqotga kirishishga imkon beradigan yetarlicha to‘la bo‘lmagan bir qator holatlardan bo‘lsada ko‘pchilik zaif eshituvchilar og‘zaki nutqqa ega bo‘ladilar. Shunday zaif eshituvchi bolalar uchun ta’lim-tarbiyaviy jarayonning o‘ziga xosligi infeksiya ta’sirida o‘rtacha qulquning kasallanganligi, ba’zi holalarda esa markaziy asab sistemasining meningit-ensenfalit bilan kasallanganligidan bo‘lishi mumkin.

Burun va tomoq kasalliklari ham eshitish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zaif eshitish bolalar nutqiga salbiy ta’sir etib, ularning asab sistemasini ma’lum darajada buzishi mumkin. Yosh bolalarda eshitish qobiliyatining yo‘qolishi natijasida ular nutqining to‘la, to‘kis bo‘lmasligi, ba’zi harflarni to‘la-to‘kis ifodalay olmaslik (sh, s, z, d, f kabi), so‘z, jumlalarning oxirgi harflarini noto‘g’ri talaffuz qilish holatlari uchraydi. Chunki bolalar bilan so‘zla-

shish paytida ular har bir so‘z yoki jumlanı to‘la-to‘kis eshita olmaganligi uchun o‘z xohishicha cho‘ldirab qo‘yadi. Natijada asta-sekin agramatizm hollari yuzaga keladi. Eshitish qobiliyati pastligi natijasida unga qarata aytilayotgan jumlalarni oxirigacha nazorat qila olmaslikdan bola nutqida jarangdorlik bo‘lmaydi.

Eshitish qobiliyati past bo‘lgan bolalarning umumiyl maktabda asta-sekin ilm olishga ishtiyogi so‘na boradi. Tajribasi kam yoki malakasiz pedagoglar bunday bolalarni yalqov, dangasa, aqli zaif bolalar toifasiga kiritib qo‘yadilar, vaholanki bunday bolalar o‘qitilayotgan dars mazmunini aniq eshita olmaydi, o‘qituvchidan qayta-qayta so‘rashga uyaladi, chunki sinfdoshlari uni «kar-so-qov» deb kamsitishlaridan cho‘chiydi. Natijada bu o‘quvchidan pedagog biror savolga javob berishini so‘rasa u o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, javoblari esa tavakkal o‘tilgan darsga taalluqli bo‘lman javob berish, pedagog to‘satdan savol bersa, u sarosimaga tushib qolishi ham mumkin.

Karlarning o‘zaro muloqoti o‘ziga xos imo-ishora va mimika vositasida amalga oshiriladi. Albatta bunday imo-ishoralar juda soddha ko‘rinishga ega.

Asta-sekin imo-ishoralardan labning qimirlashiga qarab mu-loqot qilish mimikasi bo‘shashtiriladi. Bunda kar o‘ziga qarata aytilgan so‘zlarni eshita olmaydi, ammo gapirayotgan odamning lablariga razm solib turadi. Muntazam ravishda tajribali pedagog rahbarligida ushbu usulda shug‘ullana borishi yaxshi samara beradi.

Lab qimirlashidan o‘qib olish malakasi osonlikcha kechmaydi. Bu usulni hamma karlar baroobar o‘zlashtira olmasliklari mumkin. Har holda bu usul karlarning atrofdagilar bilan aloqada bo‘lish omili bo‘ladi.

Daktilogik—barmoqlar alifbosi deb ataladigan usulda kar bolalar o‘zaro muloqotda bo‘lishlari mumkin. Bunda so‘z ifodasidagi harflar barmoqning turli holatlari bilan belgilanadi. Kaftdagi barmoqlarni turli ko‘rinishda — bukkan, yarim bukkan, orasini

ochgan yoki birlashtirgan holda va h.k. ma'lum bir so'zni anglatish mumkin.

Pedagog-tarbiyachilar yana shunga e'tibor berishlari lozimki, umuman eshitmaydigan kar bolalar kam uchraydi. Kar deb hisoblangan bolalarning aksariyatida biroz bo'lsa ham eshita olish qobiliyati bo'ladi.

Muntazam ravishda lor shifokor nazorati o'tkazilib turilganda, quloq kasalliklarining davolash tugallanmagan holatlarini ham uchratib qolish va shoshilinch ravishda davolashni davom ettirish mumkin. Oxirgi paytlarda eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar uchun ovozni kuchaytirib beruvchi juda qulay va shinam tranzistor apparatlar ishlab chiqarilib, ular quloqning ovoz eshitish kanaliga o'rnatib qo'yiladi. Mitti batareykali individual eshitish apparatlari, tranzistorlar 4, 3, 2 guruhga kiruvchi bolalar uchun ayni muddaodir. Individual eshitish apparatlari bilan ta'minlangan bolalarni pedagogik-tarbiya jarayonlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ular talaffuzidagi iboralarning noaniqligi, jarangli bo'lmasligi, ifodadagi harflarning cho'zilib ketishidir. Shu sababli pedagoglar har bir bola bilan individual ravishda nutqning to'g'ri ifodali bo'lishi va to'g'ri talaffuzi yuzasidan ish olib borishlari zarur.

Menyer kasalligi.

Menyer kasalligini birinchi marotaba fransuz shifokori Menyer 1861-yilda kuzatib, yozib qoldirgan.

Kasallikning kelib chiqishi to'laligicha hal qilinmagan bo'lib, asosan vegetativ nerv sistemasida bo'lgan o'zgarishlar (angionevroz) ichki quloq qon tomirlari o'tkazuvchanligining oshib ketishiga, bu esa endolimfa suyuqligining ko'payib ketishiga (endolimfatik gidrops) olib kelishi bilan bog'langan.

Kasallikning klinik belgilari:

1. Kasallik o'tkir xurujlar holida, hech qanday asossiz sabablar bilan boshlanadi.
2. Uchlik belgilari: sistemali bosh aylanishi (nistagm II–III st), eshitish pasayishi va quloqda shovqin paydo bo'lishi, ko'ngil aynishi va quish.

3. Kasallik tez-tez xuruj qilib, bir-ikki kungacha davom etadi.
4. Xurujlar o'rtasida vestibulyar analizatorning funksiyasi to'la tiklanishi bilan xarakterlanadi.

Davolash:

1. Konservativ:

- eomir kengaytiruvchi preparatlar (nikotin kislota, austilamin, papaverin);
- VNSga ta'sir qiluvchi preparatlar (aeroid, belloid, belatamisol);
- elektrolitlar almashinuvini yaxshilovchi preparatlar: 4% natriy gidrokarbonat

2. Jarrohlik.

- endolimfa qopchasiga shunt qo'yish, o'rta qulquning nerv tizimi (xordopleksusotomiya)ni kesish, bo'yin simpatik tugunchasini olib tashlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ichki qulq anomaliyasi deb nimaga aytildi?
2. Labirintit nima?
3. Menyer kasalligi nima va u qanday kechadi?

7-mavzu. Inson eshitish qobiliyatini o'rganish metodlari

Reja:

1. Eshitish analizatori fiziologiyasini o'rganuvchi subyektiv va obyektiv usullar.
2. Akumetriya.
3. Audiometriya.
4. Subyektiv shovqin.

Eshitish analizatori fiziologiyasini o'rganuvchi subyektiv va obyektiv usullar

Eshitish analizatori fiziologiyasini o'rganish bilan otorinolaringologiyaning **audiologiya** bo'limi shug'ullanadi. Eshitish qobiliyatini miqdoriy o'lchashga audiometriya deyiladi. Psixofiziologik

nuqtayi nazardan qaraganda, audiometrik tekshirishlarni **obyektiv** va **subyektiv** usullarga bo‘lishimiz mumkin.

Subyektiv usullar bemorning tekshiruv savollariga bergan javobi va ularni vrachning o‘zi tahlil qilishiga, ularning erkiga asoslangan. Vaholanki, bemor eshitsa ham eshitmaslikka olishi mumkin, yoki eshitmasa ham «eshitdim» — deyishi mumkin (aggravatsiya, simulyatsiya). Bundan tashqari, kichkina bolalar yaxshi tushunmaslik, qo‘rqish, aqliy faoliyatining rivojlanishiga qarab bir xil topshiriqlarni turlicha bajarishlari mumkin. Chaqaloqlar va homila esa umuman eshitishi xususida shikoyat ham qilmaydi yoki tekshirishlarga befarq qaraydi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

Subyektiv usullar

1. Akumetriya (eshitish pasporti). Bu har qanday poliklinika sharoitida ham amalga oshirsa bo‘ladigan, o‘up mablag‘ talab qilmaydigan, umumiylamaliyot shifokorlariga ham qo‘l keluvchi usul hisoblanadi.

2. Audiometriya.

- Tonal, bo‘sag‘a audiometriyasi.
- Tonal bo‘sag‘a usti audiometriyasi (Si-Sitest, Fouler, Lyusher test va boshqalar).
- Gap (Rechevaya) audiometriyasi.
- Shovqin audiometriyasi.
- O‘yin audiometriyasi.
- Ultra va infratovushli audiometriya.

Obyektiv usullar

Obyektiv usullar esa tekshiruvchi va tekshiriluvchining ruhiy holati, aqli, idroki, ongi, erkiga bo‘ysunmagan holda organizmda tovush natijasida kuzatiladigan shartli va shartsiz reflekslar va biopotensiallarni registratsiya (qayd qilishga) qilishga asoslangan. Bu usullarga quyidagilar kiradi:

Eshitish tufayli chaqirilgan potensiallarni registratsiya qilish:

- uzun latent;
- o‘rta latent;

- qisqa latent.

Timpanometriya

Impedansometriya

Akumetriya (eshitish pasporti)

Quyidagi 13 ta sinamalar natijalari aks etgan, bemorning kasallik tarixida yoziluvchi jadval «Akumetriya yoki (eshitish pasporti)» deyiladi (1-jadval).

I-jadval

Akumetriya (eshitish pasporti)

AD (auriculus dextra)	Sinamalar	AS (auriculus sinistra)
	S.Sh.(subyektiv shovqin)	
	Sh.G.(shivirlab gapirish)	
	O.G.(odatdagi gapirish)	
	B.G. (baqirib gapirish)	
	S128 havo (pasporti)	
	S128 suyak (pasporti)	
	S2048 (pasporti)	
	Wb (Veber sinamasi)	
	R (Rinne sinamasi)	
	Sch (Shvabax sinamasi)	
	(Jelle sinamasi)	
	(Bingo sinamasi)	
	F(Federichchi sinamasi)	

Akumetriya uchun past (S128) va yuqori (S2048) chastotali kamertonlar va sekundomer kerak bo'ladi xolos.

Subyektiv shovqin

Faqat bemorning o'ziga eshitiluvchi, atrofdagilarga eshitilmaydigan har xil shovqinlar (musiqa chalinganga o'xshash, suvning sharillashi, traktor tarillashi, zavodning g'uvillashi va boshqa) subyektiv shovqin deyiladi.

S.Sh. qulquning yiringsiz kasalliklari (koxlear nevrit, adgeziv o'rta otit, otoskleroz, Menyer kasalligi)da kuzatiluvchi simptom (kasallik belgisi) hisoblanadi.

Agar bemor shovqinga shikoyat qilsa, akumetrik jadvalning ushbu qulqqa mos katagiga plyus (+) qo'yiladi. Agar yo'q bo'lsa, shu katakka minus (-) yoxud abs (fransuzcha absent – yo'q so'zidan olingan) yoziladi.

Sh.G. (shivirlab gapiresh)

Eshitish qobiliyatini shivirlab gapiresh orqali ham miqdoriy tekshirishimiz mumkin. Bu usulni 4–5 yoshli bolalardan boshlab tekshirishimiz mumkin.

Tekshirish tinch xonada, o'pkaning qoldiq havosi yordamida shivirlab gapirib tekshiriladi. Kasalga eshitgan gapini qattiq takrorlashi zarurligi tushuntiriladi. Bunda bemorning har bir qulog'i alohida tekshiriladi. Bemor yon tomonga qarab turadi. Qarama-qarshi qulog'i barmoq bilan qulq do'mbog'ini bosish orqali mahkam berkitiladi (hamshira berkitishi mumkin). Labdan o'qimasligi uchun kaft bilan ko'z pana qilinadi. Bemor vrachdan 6 metr uzoqda turadi.

Tekshirish bemorning ona tilida, uning yoshini, so'z boyligini hisobga olgan holda olib boriladi. Tekshirish uchun ikki xonali sonlar, bemorga tanish bo'lgan predmetlarning nomlarini talaffuz qilishdan foydalanamiz. Buning uchun maxsus so'zlar yozilgan jadvallardan ham foydalanishimiz mumkin (oftalmologlarning Sivsov jadvali kabi).

Fizikadan ma'lumki, tovush kuchi masofaga teskari proportional holatda kamayib boradi. Tovush to'lqinining ushbu xususiyatini hisobga olgan holda Sh.G. ni qancha masofadan eshitishi tekshiriladi va tovush bo'sag'asi aniqlanadi. Normada Sh.G. 6 metrdan ko'proq masofadan eshitiladi.

Akumetrik jadvalning tekshirilayotgan qulqqa mos katagi-ga Sh.G. natijasi yoziladi. Natijalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- >6 m,
- 1...6 m,
- ad concha ...99 sm;
- abs

O.G. (odatdagি gapisirish)

Bu ham shivirlab gapisirishni tekshirish kabi amalga oshiriladi. Odatda (normada) O.G. 50 metrdan kam bo'limgan masofadan eshitiladi. Bu tekshirishni Sh.G. eshitmagan bemorlarda tekshirgan ma'qul¹. Agarda bordiyu bemorning bitta qulog'i yaxshi eshitadigan bo'lsa, yomon eshitayotgan qulog tekshirilganda sog' qulog bilan eshitib olib noto'g'ri natija berishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun, yaxshiroq eshitagan qulog maskirovka qilinadi. Buning uchun kaft bilan qulog suprasi ishqalanadi yoki kaft bilan qulog suprasi orasiga bir parcha qog'oz olib ishqalash orqali maskirovka qilinadi. Tuzilishi soat qo'ng'iroq'ini eslatuvchi, knopkasi bosilganda chiqillagan tovush chiqaruvchi Barani shaqillog'i ham maskirovka uchun ishlataladi. Bunda ham quyidagicha natijalar olishimiz mumkin:

- >10 m,
- 1...6 m,
- ad concha ...99 sm;
- abs

B.G. (baqirib gapisirish)

Baqirib gapisirish ham xuddi oddiy gapisirishga o'xshash tekshiriladi. Bunda ham albatta maskirovka qilinishi shart. Bu usul oddiy gapisirishni eshitmagan bemorlarda amalga oshiriladi.

¹ Kandel, Eric R.; Schwartz, James H.; Jessell, Thomas M. (2000). Principles of Neural Science Fourth Edition. United State of America: McGraw-Hill. p. 324.

S₁₂₈ havo (pasporti)

Odam qulog‘i havo va suyak orqali eshitadi. Havo orqali eshitganda tovush o‘rta qulinqing tovush kuchaytiruvchi qismlari orqali Kortiyev a’zosiga yetib boradi. Suyak orqali eshitish vibration va kompression nazariyalar orqali tushuntiriladi.

Eshitish kamerton yordamida tekshiriladi. Past tovush chiqaruvchi kamerton vakili S128 tenorga urish bilan qo‘zg‘atiladi. Kamertonning faqat oyoqchasidan ushslash tavsiya etiladi. Agarda shoxlaridan ushlansa kamerton tez so’nadi. Tenorga urilgandan boshlab vaqt hisobi olib boriladi. Buning uchun sekundomer yoki qo‘l soatining sekundomeri ishlatiladi. Qo‘zg‘atilgan kamerton tashqi eshituv yo‘lidan 0,5 sm uzoqlikda tutiladi. Uning shoxlari qulq suprasi yoki boshqa joyga tegmasligi kerak. Adaptatsiya bo‘lmasligi uchun kamerton vaqtiga bilan tashqi eshituv yo‘li dan uzoqlashtirib turiladi.

Normada (odatda) kamerton o‘z pasportida ko‘rsatilgan vaqt (ko‘pincha bu vaqt 60—70 sek) mobaynida eshitilishi kerak. Kamertonning pasporti nima, u qanday aniqlanadi? Bu har bir kamertonning texnik xarakteristikasi. Uni aniqlash uchun yaxshi eshitadigan 10 ta odamning ushbu kamertonni eshitish qobiliyati tekshiriladi va o‘rtacha eshitish vaqtini aniqlanadi.

Natijalar quyidagicha yoziladi:

5", 10", 40", 70" va hokazo.

S₁₂₈ suyak (pasporti)

Qo‘zg‘atilgan kamerton so‘rg‘ichsimon o‘simgaga antrum sohasiga qo‘yiladi va vaqt hisobi olib boriladi. Odatda suyak orqali eshitish pasporti 2 baravar kam bo‘ladi.

S₂₀₄₈ (pasporti)

Yuqori chastotali kamerton S₂₀₄₈ shoxiga chertish orqali qo‘zg‘atiladi va faqat havo orqali eshitishi tekshiriladi. Odatda uning pasporti 40". Bu tovushning ichki qulqqacha singishi juda oson. O‘rta qulq strukturalari yemirilgan bo‘lsa ham tovush

qabul qilish keskin kamaymaydi. Shuning uchun bu tovush Kortiyev organi va nerv o'tkazuvchi yo'llar xastaligi to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi.

Yuqoridagi uch ko'rsatkich (S_{128} havo, S_{128} suyak, S_{2048}) eshitish analizatori funksiyasi to'g'risida yetarlich ma'lumot beradi. Lekin, bu uchta ko'rsatkichni aniqlash uchun ko'p vaqt talab etiladi va vrachning vaqtini o'g'irlaydi. Shuning uchun kamertonlar bilan o'tkaziladigan sinamalar qo'llanilishi maqsadiga muvofiq.

Wb (Veber sinamasi)

Kuzatilgan S_{128} kamerton kalla tepasiga yoki burun ildizi sohasiga yoxud yuqorigi jag' oldingi tishlariga qo'yilib, bemorning qaysi qulog'i ushbu tovushni qattiqroq eshitayotgani so'raladi (aniqlanadi). Vaqt hisobi olib borilmaydi. Normada ikkala qulqoq baravar eshitishi kerak yoki kallaning o'rtasida eshitadi. Bordiyu tovush o'tkazuvchi yo'llarda shikastlanish bo'lsa, o'sha qulqoq yaxshiroq, qattiqroq eshitadi. Agarda nerv o'tkazuvchi yo'llarda shikastlanish bo'lsa, Veber «kamroq» shikastlangan qulqoqqa lateralizatsiya qiladi. Natijani strelkalar bilan belgilaymiz:

Norma.

←	Wb (Veber sinamasi)	→
---	---------------------	---

Agar qaysi qulqoda lateralizatsiya kuzatilsa, qarama-qarshi tomondag'i strelka (ko'rsatkich) olib tashlanadi.

Veber o'ngga yo'nalgan.

←	Wb (Veber sinamasi)	→
---	---------------------	---

R (Rinne sinamasi)

Qo'zg'atilgan S_{128} kamerton oyog'i antrum sohasiga qo'yiladi. Eshitish tugashi bilan kamerton qo'shimcha qo'zg'atilmasdan tashqi eshituv yo'liga yaqinlashtirilib, havo orqali eshitishi tekshiriladi. Kamertonning pasportidan bilamizki, havo orqali eshitish suyak orqali eshitishga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p. Shuning uchun normada tashqi eshituv yo'liga yaqinlashtirilgan

kamerton suyakdan keyin yana shuncha vaqt eshitiladi. Bu sinama normada plusus (+) bilan belgilanadi.

Agarda tovush o'tkazuvchi yo'llarda kasallik bo'lsa (o'rta otitlarda) Rinne minus (-) ishorasini olishi mumkin, ya'ni havoga nisbatan suyak orqali yaxshiroq eshitadi.

Bu sinamani boshqacharoq ham tekshirish mumkin. Qo'zg'atilgan kamerton antrum sohasiga qo'yiladi va tezda tashqi eshituv yo'liga yaqinlashtiriladi. Bunda bemor qaysi holatda qattiqroq eshitgani so'raladi. Normada albatta, havo orqali qattiqroq eshitadi.

Nevritlarda ham normadagidek, Rinne sinamasi musbat bo'ladi. Rinne musbat bo'lishi qulogda kasallik yo'q degani emas.

Swb (Shvabax sinamasi)

Qo'zg'atilgan S₁₂₈ kamerton oyoqchasi bemor antrumi sohasiga suyakka qo'yiladi va kasal «bo'ldi, boshqa eshitmayapman» degach, tekshiruvchi kamertonnii o'zining antrumi sohasiga qo'yadi. Normada bemordan keyin vrach eshitmasligi kerak. Bu holda Shvabax (N) qilib tegishli katakka yoziladi.

Agar kasalning tovush qabul qiluvchi apparatida kasallik bo'lsa, vrach bemordan keyin yana qo'shimcha eshitadi. Ya'ni, bemorning eshitishi tekshiruvchiga nisbatan qisqa. Bu holda tegishli qulog katagiga «qisqargan» so'zi yoziladi.

Qulog'i oqayotgan bemorlarda (tovush o'tkazuvchi apparati shikastlanganlarda) yuqoridagining teskarisi, ya'ni tekshiruvchiga nisbatan bemorning uzoqroq vaqt suyak orqali eshitishi kuza tiladi. Bunda Shvabax sinamasi «uzaygan» deyiladi.

Shvabax sinamasi tekshirilayotganda tekshiruvchining o'ziga rang bo'lsa yoki past eshitsa natijalar noto'g'ri bo'ladi.

(Jelle sinamasi)

Qo'zg'atilgan S128 kamerton oyoqchasi bemor antrumi sohasiga suyakka qo'yiladi va tashqi eshituv yo'lidagi havo bosimi politser balloni yordamida oshiriladi. Bunda bosim nog'ora pardas

si undan suyakchalar orqali oval darchaga beriladi va uzangicha plastinkasining harakatini chegaralaydi. Natijada normada eshitish pasayadi yoki Jele sinamasi manfiy. Otoskleroz kasalligida uzangicha plastinkasi azaldan suyakdagi distrofik jarayonlar tufayli yopishib darchaga ketganligi bois ovoz balandligi o'zgarmaydi.

Jelle sinamasi otoskleroz kasalligini tashxislaydigan spetsifik sinnamalardan biri hisoblanadi.

(Bing sinamasi)

Bu sinama ham otoskleroz kasalligini aniqlash uchun «qo'llaniladi. Buning uchun qo'zg'atilgan S128 kamerton antrum sohasiga qo'yiladi. Barmoq bilan ushbu qulqoq tashqi eshituv yo'li yopilib, suyak orqali va yopiq qulqoq orqali eshitish qobiliyati solishtiriladi. Normada tashqi eshituv yo'li yopilganda suyak orqali eshitish yaxshilanadi yoki eshitish vaqtin uzayadi. Otosklerozda esa o'zgarmaydi.

F (Federichchi sinamasi)

Qo'zg'atilgan S128 yoki S512 kamerton oyoqchasi bemor antrumi sohasiga suyakka qo'yiladi. Kasal «bo'ldi, boshqa eshitmayaman» degach, tekshiruvchi kamerttonni qulqoq do'mbog'i (tragus) ustiga qo'yadi. Eshitishi buzilmagan odam qulqoq do'mbog'i orqali so'rg'ichsimon o'simtaga nisbatan ko'proq yoki qattiqroq eshitadi. Otosklerozda esa teskari — so'rg'ichsimon o'simta orqali yaxshiroq eshitadi.

Chaqaloqlar eshitish qobiliyatini tekshirish.

90 db 3000 Gs polosali shovqin ta'sir ettirilganda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiluvchi reaksiyalar:

- ko'zni yumishi;
- cho'chib tushishi — Moro reaksiyasi;
- jimb qolishi (harakatining to'xtashi);
- oyoq va qo'llarini harakatga keltirishi;
- yurak ritmining o'zgarishi;
- boshini yonga burishi;

- aftini burishtirishi;
- emish harakati paydo bo‘lishi;
- uyg‘onishi;
- nafas olish ritmining o‘zgarishi;
- ko‘zini ochishi.

Audiometriya.

Koxlear analizatorning vazifasi — eshitishni tekshirish audio-metrlar deb nomlanuvchi **elektroakustik apparatlar** yordamida ham tekshiriladi. Audiometriyani bir qancha (0.125, 0.25, 0.5, 1, 2, 4, 8 kgs) chastotali kamertonlar bilan tekshirishga o‘xshatish mumkin. 10000 Gs dan yuqori tovushlar havo orqali eshitiladiyu, lekin differensiyatsiya qilinmaydi. Shuning uchun bu chastotalar audiometriyada tekshirilmaydi. Ayrim mualliflarning fikricha, 500—4000 Gs gacha diapazonni tekshirish eshitish qobiliyati to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun yetarlidir (A.S.Rozenblyum, 1980).

Bu uslubning gapirish va kamertonlar bilan tekshiruvlarga nisbatan qator afzallik tomonlari mavjud:

- tovush kuchini detsibellarda aniq dozada uzoq vaqt davomida berish imkoniyati;
- eshitish qobiliyati juda past bemorlarni tekshirish imkoniyati;
- bir vaqtning o‘zida ikkala qulojni tekshirish va turli xil bo‘sag‘a usti diagnostik testlarni o‘tkazish imkoniyati;
- eshitishni displayda ko‘rish va printerda chiqarish;
- «Danac» firmasi chiqargan kompyuterli audiometr esa avtomatik va manual rejimlarda tekshirib vrachning vaqtini te-jash mumkinligi.

Audiometrlarning tuzilishi va asosiy ishlash prinsipi

Audiometrning asosiy bloki bor. Unda tovushlar hosil qiluvchi moslama va boshqaruv knopkalari, display va printer joylashgan.

Tovush o‘tkazmaydigan kamerasi bor. Uning o‘rniga kichik bir xonani jihozlab, moslash mumkin. Buning uchun uning devorlari, tomi, poli eski matras, ko‘rpa va matolar bilan qoplanib, izolyatsiyalanadi (xuddi radio yoki telestudiyadagi kabi). Kame-


rasida chiroq, ventilator va bemor bilan muloqot qilish uchun mikrofon bor.

Havo orqali va suyak orqali eshitishni tekshirish uchun bemorning qulog‘iga taqiladigan uning ikkita havo telefoni bor.

Bemor eshitganda bosadigan yoki «audiometrik topshiriq» bajarilganda bosadigan knopkasi bor.

Tonal bo‘sag‘a (zo‘rg‘a eshitiluvchi tovushlar bilan tekshirish) audiometriyasi

Havo va suyak telefononiga turli chastotalarda (0.125, 0.25, 0.5, 1, 2, 4, 8 kGs) tonlar beriladi, eng sekin, zo‘rg‘a eshitiluvchi bo‘sag‘a aniqlanadi. Olingan natijalar maxsus audiometrik blankka yoziladi va nuqtalar tutashtirilib, grafigi chiziladi (rasmga qarang).



Bunda eshitish o‘tkirligi aniqlanadi. Havo va suyak orqali eshitishlar o‘zaro solishtirilishi bilan tovush o‘tkazuvchanlik, qabul qilish yoki aralash tipdag‘i eshitish pasayishi aniqlanadi.

Tekshirishlar ertalab nonushtadan keyin o‘tkazilgani maqsadga muvofiq. Bu paytda simpatik va parasimpatik nerv sistemasi tonusi tenglashgan bo‘ladi.

Eshitishni tekshirish yaxshi eshitadigan qulodidan boshlanadi. Bunga sabab, bola tonning nimaligi va u qanday bo‘lishini bilib olishi ko‘zda tutiladi. Tovushlar 1000 Gs dan boshlanadi. Chun-

ki bu tovush eshitish analizatorining optimal xususiy toni bo'lib, eshitilish bo'sag'asi eng yaxshi. Keyin sensonevral kam shikast-lanuvchi past chastotalar 500, 250, 125 tekshiriladi, va nihoyat 2000, 4000, 8000 lar tekshiriladi. Har bir tonni tekshirishdan oлdin yaxshi eshitish bo'sag'adan baland qattiqlikdagi tovush beriladi. Bu tovush asta, 5 dB dan kamaytirilib, eshitmay qolgach yana asta 5 dB dan oshirib boriladi va elas-elash eshitilgan nuqta belgilanadi, ya'ni audiometrning yashil «Enter» tugmachasi bosiladi. Tovush tonlarini 2–3 sekund davomida uzib-uzib berish lozim, har bir uzelish orasidagi interval 1,5–2 sek.dan kam bo'lmasligi kerak. Tovushlarni ritmik ravishda bermaslik kerak. Aks holda bola ritmiga e'tibor berib, soxta ma'lumot beradi.

Suyak orqali eshitish ham shu tartibda amalga oshiriladi. Agarda bitta qulqoq yaxshiroq, ikkinchisi yomon eshitadigan bo'lsa (farq 30–40 dB dan oshsa) maskirovka qilib tekshiriladi. Bunda yaxshi eshitadigan qulqoqqa eshitish bo'sag'asidan 20–30 dB intensivroq «oq shovqin» berish kerak. Bu shovqin 70dB dan oshmasligi kerak.

Bitta va umumiy ikkala qulqoq eshitish qobiliyati necha foizga kamayganligini V.G.Yermolayev uslubi bilan Fletcher modusini qo'llagan holda baholash mumkin. Bunda havo orqali eshitish dB laridan foydalilanadi. Ma'lumki, U.Fletscher (1950) bitta qulqoqdagi 500 va 4000 Gs chastotalar eshitish pastligi dB laringning 10%ni, 1000 va 2000 Gs lardagi pasayishning 40% oladi. Bu olingan sonlar yig'indisi esa bitta qulqoqning eshitish foizi bo'ladi.

Ikkala qulqoq uchun umumiy eshitish pasayishi Fletcher formulasi $\frac{7x+y}{8}$ dagi bo'linma bilan aniqlanadi. Bu yerda: x — yax-

shi eshitadigan qulqoq uchun hisoblangan son, y — yomon eshitadigan qulqoq son ko'rsatkichi.

Tonal bo'sag'a usti (nisbatan qattiqroq, intensiv eshitiluvchi tovushlar bilan tekshirish) audiometriyasi (Karxard, Lyusher, Fouler, sisi-test va boshqalar)

Amerikalik otolog E.Fowler (1930) qulog‘i og‘ir kasallarni tekshirib, normal gapirganda ularning eshitmasligi, sal qat-tiqroq gapirganda esa «Men karmanmi, nega baqirasan» deb xafa bo‘lishiga e’tiborni qaratgan. Keyinchalik u buni «феномен рекрутования, вравнивания или ускоренного нарастания громкости (FUNG)» deb atagan. Bu fenomen odatda koxlear analizator shikastlanganda kuzatiladi. Retrokoxlear shikastlanishlarda FUNG kuzatilmaydi.

Karxard bo‘yicha bo‘sag‘a eshitish adaptatsiyasini aniqlash sinamasi. 500–4000 Gs eshitish sohasidagi xohlagan 2 ta chastotani havo orqali eshittirish orqali amalga oshiriladi. Oldin tanganlangan chastotaning bo‘sag‘asi aniqlanadi. Keyin, sekundomer yordamida tekshiriluvchi ushbu bo‘sag‘a tovushni 60 sekundgacha eshitish-eshitmasligi aniqlanadi. Agar adaptatsiya holati kuzatilib, tovush 60 sek dan kam eshitilsa, ton 5 dB qattiqlashtiriladi. Shunday qilib, bola 60 sek mobaynida to‘xtovsiz eshitadigan, bo‘sag‘adan baland eng kichik intensivlik aniqlanadi.

Normada bu 5–10 dB dan oshmaydi.

Agar Kortiyev a’zosi shikastlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 15–20 dB ni tashkil etadi.

1–3 min dan so‘ng keyingi chastotalar tekshiriladi. 2 va undan ortiq chastotalarda ushbu holat kuzatilsa, Karxard sinama ijobiy deb baholanadi.

Lyusher bo‘yicha tovushning differensial yoki ajratish bo‘sag‘a kuchini aniqlash sinamasi. Bunda havo telefoniga eshitish bo‘sag‘asidan 40 dB qattiqlikdagi 500–4000 Gs diapazonidagi tovushlardan biri beriladi. Maxsus-modul yordamida asosiy tovush 6 dB dan 0,4 dB gacha bo‘lgan qattiqlikda kuchaytiriladi.

Bunda normada tovush qattiqligi 0,8–2 dB oshgandagina tovush goh kuchayib, goh susayib turganini farqiga boramiz.

Agar bemor 0,8 dB dan kam ko‘rsatkichlarda tovush «o’sishi-ni» sezsa, FUNG ijobiy deyishga asos bor.

Diskomfort bo‘sag‘alarini aniqlash sinamasi. Nutq sohasi chastotalaridan birida havo orqali tovush asta-sekin bola bezovta

bo‘lguncha kuchaytirib boriladi. Diskomfort bo‘sag‘asi va eshitish bo‘sag‘asi orasidagi farq (ayirma) eshitishning dinamik dia-pazoni deyiladi.

Odatda, normada bu diapazon chastotaga bog‘liq holda 50–100 dB ni tashkil etadi.

Agar tovush o‘tkazuvchi yo‘llar shikastlangan bo‘lsa, diskomfort bo‘sag‘a kuzatilmaydi.

Agar tovush qabul qiluvchi yo‘llar shikastlangan bo‘lsa, diskomfort bo‘sag‘a me’yorida yoki oshgan bo‘lishi mumkin.

Balans sinamasi yoki Fouler bo‘yicha qattiqliklar tenglashuvi sinamasi. Nutq sohasi chastealaridan biri havo orqali tekshiriladi. Bu sinamani o‘tkazish uchun o‘ng va chap quloq bo‘sag‘alari orasidagi farq 30–40 dB dan kam bo‘lmasligi kerak. Oldin ikkala quloqning eshitish bo‘sag‘asi aniqlanadi. Shundan so‘ng ikkala quloqqa bo‘sag‘adan ziyod 10 dB beriladi.

Agar shundan so‘ng tovush ikkala quloqda baravar kuchaysa, yomon eshituvchi quloqda FUNG yo‘q deyiladi.

Agar shundan so‘ng yomon eshituvchi quloqdagi tovush qattiqroq eshitilsa, FUNG bor deyiladi va ikkala quloqdagi tovush kuchi baravarlashguncha yaxshi eshitadigan quloqqa beriladigan tovush kuchaytirib boriladi.

Intensivlikning qisqa oshishlarini (o‘sishlarini, kuchayishlarini) sezish indeksini aniqlash sinamasi (Ipl yoki si-si test). Nutq sohasi chastealaridan birida havo orqali tekshiriladi. Quloqqa uning eshitish bo‘sag‘asidan 20 dB qattiqroq eshitiluvchi tovush beriladi. Shu uzuksiz ton qo‘srimcha har 5 sekunddan 1 dBelga kuchaytirilib boruvchi ton beriladi. Bu «kuchaytirishlar, zo‘rayishlar» soni 20 tadan kam bo‘lmasligi kerak va u 100% deb olinadi. Tekshirishdan maqsad, berilgan kuchaytirish (zo‘raytirishlar) sonini aniqlashdan iborat. Agar berilgan kuchaytirishlarning 0 dan 20% gachasi sezilsa, bu norma hisoblanadi. Agar bu ko‘rsatkich 60–80 foizni tashkil etsa, chig‘anoq elementlari shikastlanganligidan dalolat beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eshitish analizatori fiziologiyasini o‘rganuvchi subyektiv va obyektiv usullarga nimalar kiradi?
2. Akumetriya nima?
3. Audiometriya nima?
4. Subyektiv shovqin deganda niman tushunasiz?

8-mavzu. Yordamchi eshitish apparatlari

Reja:

1. Eshitish apparatlari.
2. Zamonaviy eshitish apparatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: eshitish, eshitish apparatlari, tanlash, koxlear, implantant.

Eshitish apparatlari, tovushni yaxshi kuchaytirib beradigan asboblar eshitish pasayganda yoki eshitish qobiliyati butunlay yo‘qolganda ishlatiladi.

Hozirgi zamon eshitish apparatlari tovushni kuchaytirib berishga asoslangan. Eshitish apparatlari mikrofon, tovush kuchaytirgich va telefonidan iborat. Tovushni bevosita suyak orqali o‘tkazib berish uchun qulqoq orqasiga telefon, tovushni havo orqali o‘tkazib berish uchun esa tashqi eshituv yo‘liga maxsus moslama tiqib qo‘yiladi. Eshituv a’zosining tovush qabul qiluvchi yoki tovushni o‘tkazib beruvchi qismi zararlanganiga qarab, unga loyiq eshitish apparatlari buyuriladi. Eshitish moslamalarining ko‘zoynakka o‘xhash, shuningdek, cho‘ntakda turadigan xillari bor. Ushbu apparatlardan foydalanganda eshitish, xususan, nutq bir qadar yaxshilanadi.

Mazkur moslama nutqnigina emas, balki binodagi boshqa tovushlarni ham qo‘shib kuchaytiradi. Shuning uchun qulog‘i og‘ir bemor o‘zi uchun yangi bo‘lib tuyulgan tovush sharoitiga birdaniga ko‘nika olmasligi mumkin. Eshitish apparatlariga o‘rgangan kishi esa nutqni begona tovushlardan ajratib, yaxshi qabul qiladi, baland tovushlarga chidami ortadi. Bemor tavsiya etilgan bir

nechta mashqlarni bajarganidan keyingina eshitish apparatlari dan foydalanishi mumkin.

Mashq avval tinch xonada yolg'iz bir kishi bilan, keyin shovqinli yerda, so'ngra esa ko'pchilik orasida gaplashib o'tkaziladi. Eshitish apparatlari texnik jihatdan nosoz bo'lib, nutqqa begona shovqinlar qo'shilib ketsa yoki qitirlasa, bemor tez toliqadi, qulog'i shang'illaydi, boshi og'riydi. Eshitish apparatlari uchun otorinolaringolog (LOR) vrach tavsiyasi bilan maxsus eshituv protezi tayyorlash tavsiya etiladi.

Har bir iste'molchi bunday moslamani tanlashda avvalo, u haqdagi kerakli ma'lumot bilan yaqindan tanishishi zarur. Bunda moslamaning tashqi ko'rinishi, o'lchami, bajaradigan ishi ham muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha odamlar turli kompaniyalarning taklifi yoki yaqinlarining tavsiyalari bilan ushbu qurilmani xarid qiladilar. Ba'zida shunday holatlar ham bo'ladiki, noto'g'ri tanlangan eshitish moslamasi insonlarning hayotiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Odatda bu moslama maxsus shifokorning tavsiyasi bilan beriladi. Mazkur moslashgan qurilma quloqning ichki qismiga yoki uning orqasiga qo'yib foydalanishi, quloqning o'lchami va shakliga mos ravigsha tanlanishi kerak.

Apparatni taqdim etuvchi mutaxassis uning sozligini tekshirib, foydalanish tartib-qoidalari bilan bat afsil tanishtirib o'tishi kerak. Dastlab, iste'molchi uchun o'rta yoki yuqori quvvatda ishlaydigan moslama maxsus jihoz orqali o'rganiladi. Shundan so'nggina tovarga buyurtma qabul qilinadi.

Har bir fuqaro yaxshi bilishi kerakki, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlar o'z vaqtida, belgilangan tartibda, to'la hajmda amalga oshirilishi lozim. Asosiysi, ko'rsatiladigan xizmatlar iste'molchilar hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilangan.

Mabodo, eshitish moslamalarining kafolat muddati davomida nuqsonlari aniqlansa, ya'ni ishlab chiqarishda nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni sifatlisiga almashtirib olishi mumkin. Tovardan foydalanish jarayonida mikrofoni ishlamay qolishi, shovqin chiqarib ishlaydigan holatlar ham uchrab turadi. Bunday paytda iste'molchi moslamani kafolat muddatida servis xizmatidan bepul ta'mirlatib olish huquqiga ega bo'ladi.

Eshitish				
Sfera	Predmetning nomi (SXT kodi)		Tushuntirish	
Eshitish apparat-lari	51	Eshitish apparatlari 22.06.06		Odamning kiyimida taqib yuradigan yoki bo'yinda osilib turadigan asbob. Bu asbob tovush chiqaradi. <input type="checkbox"/>
	52	Qulqoq atrofiga qo'yadigan apparat 22.06.15		Ovozni baland qilish uchun belgilangan qulqoq apparati. <input type="checkbox"/>
	53	Qulqoq yoki eshitish kanali uchun belgilangan apparat 22.06.12		Qisman yoki to'liq eshitish kanalida joylashadigan asbob. Bu apparatning qulqoqda ovozni baland eshitish uchun olib yurishadi. <input type="checkbox"/>
	54	Eshitish apparatlarga quvvat beradigan akkumulyator		Eshitish apparatlariga quvvat beradigan akkumulyator. Quyoshdan elektr energiyadan foydalilanadi. <input type="checkbox"/>

A lo q a p r e d - metlari	55	Ovozni kuchay-tiradigan telefonlar 22.24.03		Eshitish qobiliyati past bo'lgan odamlar uchun mo'ljallangan ovozni kuchaytiradigan telefonlar.	<input type="checkbox"/>
	56	Aloqa uchun belgilangan video apparati		Video yordamida ishlatalidigan aloqa uchun belgilangan apparat.	<input type="checkbox"/>
	57	Matn aloqasi uchun apparat		Sim orqali beriladigan / simsiz (batareykadan quvvat oladigan) 2 – 4 kishi orasidagi muloqot.	<input type="checkbox"/>
	58	Imo-ishoraning ovozga aylantirish programmasi		Imo-ishoralarni nutqqa va nutqni matnga yoki til ishoralariga aylantiradigan asbob.	<input type="checkbox"/>
	62	Ko'rishlari va eshitishlari past bo'lganlar uchun kommunikator		Nutqni Braylya tiliga aylantiradigan apparat va yozuvlarni o'qish uchun ekranada ko'rsatadi.	<input type="checkbox"/>
	59	Eshik qo'ng'iroq 2.27.03		Eshikda qo'ng'iroq bo'l ganda pirpiraydigan apparat.	<input type="checkbox"/>
S i g - nal be- radigan p r e d - metlar	60	Yong'inga qarshi signalizatsiya 22.27.09		Tutun bo'l ganda ovoz chiqaradigan signalizatsiya (stroboskop yoki vibratsiya qiladigan apparat). Bu apparat asosan yostiqning tagiga joylashtiriladi.	<input type="checkbox"/>
	61	Har xil ovoz beradigan vibratsiyali braslet 22.27.09		Foydalanuvchilarga har xil tovushlar paydo bo'l ganda (masalan, telefon, eshikning qo'ng'iroq'i, farzand yig'lashi va hokazolardan xabar beradi).	<input type="checkbox"/>

Boshqa pre d - metlar	63	Televizor tit- ralari 22.18.21		Televizorning audioqismi yozilgan so'zga aylanib, ekranda paydo bo'ladi.	<input type="checkbox"/>
	64	Nutqni aniqlash avtomatik siste- ma		Auditor ma'lumot nutqini aniqlash avtomatik siste- madan olingan. Bu matn sifatida eshitishlari past bo'lgan odamlar uchun aks etiladi.	<input type="checkbox"/>

AQSHda 300 milliondan oshiq aholi bo'lsa, shundan 37 mil-
lioni kar. Ularning ko'pchiligi ishlaydi. Qonunan har bir korxo-
na, xususiy yoki davlat organi bunday insonlarning to'laqonli
faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratib berishi kerak.

Nyu-York shifokor olimlari eshitish qobiliyati cheklangan yoki
undan butkul mahrum bo'lgan odamlarga yordam berishning
yangi yo'llarini aniqladilar.



14-rasm.

Amerikada aholining qariyb 10 foizi kar. Ko'pi maxsus apparat taqadi. Nyu-Yorkda tanilgan bastakor Jey Alan Zimmerman asarlari mashhur sahnalarda sahnalashtirilgan. Bu san'at-korni «Brodvey Betxoveni» deyishadi. Chunki u buyuk nemis bastakori singari kar. Uning asarlaridan biri «Robot» deb ataladi, sun'iy moslama taqqan inson. «Masala aynan shunda: qulog'imga sun'iy moslama o'rnettirib, robotga aylanaymi? Agar bu bilan eshitish qobiliyatim qaytganida, rozi bo'lardim», — deydi Zimmerman.

Yaxshi eshita olmaydigan bastakor suhbatdoshining lablariga diqqat bilan boqadi. Musiqa bastalayotganida, faqat tovush bilan emas, balki nur, yorug'lik bilan ham o'z his-tuyg'ularini ifodalashga harakat qiladi.



15-rasm.

Qulogqa taqadigan moslamalarning turi ko'p. Qulog'i ichidagi nozik soch tolalari tovush to'lqinlarini miyaga uzatadi. Shu tolalarning zaiflashishi Zimmermanning eshitish qobiliyatini pasay-

tirgan. Qulog ichiga jajji protez o'rnataladi va odam yana eshit-a boshlaydi. Lekin uning eshitish qobiliyati hech qachon to'la bo'lmaydi.

Zimmerman olimlar yaxshiroq vosita ixtiro qilishini kutmoq-da. Tadqiqotchilar esa buning ustida allaqachon ishlay boshla-ganini, parranda ularga umid baxsh etganini aytadi.

Vashington Universiteti tibbiyot fakulteti professori Mark Vorkol yangi izlanishlar va samara haqida shunday deydi: «Qush qulog'ining qiziq bir qobiliyati bor. U zaiflashgan yoki zararlan-gan retseptorlarni qayta tiklay oladi. Masalan, qushning¹ qulog'i kar bo'lib qolsa, bu uzoq davom etmaydi. Bir necha haftadan so'ng o'lik yoki zaif hujayralar yangilanadi»¹.

Bolalar ayniqsa yordamga muhtoj. Ammo parrandadan farq-li o'laroq, odam organizmida asab hujayralari qayta tiklanmaydi.



16-rasm.

¹ Disability and Discourse Analysis. Jan Grue. University of Oslo, Norway. – 2015. '-51

Ilmiy tajribalar odam terisi, ichaklari va jigar hujayralari qayta tiklanish qobiliyatiga ega ekanini isbotlagan.

Beylor Tibbiyot Instituti mutaxassisni Endryu Grovs deydiki, olimlar shunday qobiliyatni asab hujayralarida ham rivojlantirishga harakat qilmoqda. «Qush deyarli kar bo‘lmaydi, chunki uning organizmida zaiflashgan yoki zararlangan retseptorlar qayta tiklanadi. Biz ayni shunday qobiliyatni odam hujayralarida rivojlantirmoqchimiz», — deydi olimlar.

«Muammoni ikki sodda jarayonga ajratish mumkin. Birinchi: ta’mirlash uchun ko‘proq hujayra talab qilinadi. Demak, hujayralar bo‘linib, ko‘payishi kerak. Ularning bo‘linishiga nima turtki bo‘ladi va qaysi damda ular bo‘linishdan to‘xtaydi? Shuni aniqlash zarur», — deydi olim.

Bu muammo hal etilishi uchun yana ancha izlanish lozim. Kamida 10 yil vaqt va millionlab dollar mablag‘ kerak.

Bastakor Jey Alan Zimmerman esa operatsiyaga ko‘nmayapti. U kasallikka qarshi davo topilishini kutmoqda. Musiqa bastalab, o‘z ijodini xalq bilan baham ko‘rishda davom etmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eshitish apparatlari nima?
2. Zamonaviy eshitish apparatlarining qanday turlarini bilasiz?

9-mavzu. Zaif eshituvchi bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari

Reja:

1. Zaif eshituvchi bolalarning psixik xususiyatlari.
2. Zaif eshituvchi bolalarning fiziologik rivojlanishi.
3. Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan ishlar.

Tayanch so‘z va iboralar: zaif eshituvchi, psixik rivojlanish, fizik rivojlanish, psixika.

Nogironlikni o‘rganish inson tanasi va sur’atini o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu fanlar o‘rtasidagi o‘zaro mulo-

qotni yanada yaxshilab, nogironlikni tadqiq etishning ma'lum bir fan tarmog'iga ta'sirini o'rganish borasidagi savollarni qo'ymoqda. U sotsiologiya, adabiyot, gender, bioetika, ijtimoiy ish, huquq, ta'lim va tarix fanlari doirasida nogironlikni tadqiq qilish bo'yicha bizning fikrlarimizni o'zgartirmoqda.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishi eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi qonun-qoidalariga bo'ysundi. Bu umumiyligini qonun-qoidalar quyidagi qoidalar bilan xarakterlanadi:

- Surdopsixologiyada bolaning ruhiy rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligi ta'limoti muhim o'ringa ega. Biologik omillarga nerv tizimining xususiyati temperament tiplari, qobiliyati kiradi. Bolaning tug'ilishgacha hayotida — homila davridagi bosqichning davom etishi ona kasalligi, u qabul qilgan dorilar, tug'ish travmalari ham biologik omil turkumiga kiradi. Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat — siyosat, idealogiya tipi, madaniyat, fan va san'at rivojlanish darajasidir. Ijtimoiy muhit shu jamiyatdan qabul qilingan ta'lim-tarbiya tizimining belgilari, inson rivojlanishining manbayi sanaladi. Ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish bilan emas, balki faol formada faoliyatning turli ko'rinishlari — o'yin, muloqot, mehnat, bilim olishda namoyon bo'ladi. Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Eshitishning buzilishi biologik omillar asosida tug'ruq patologiyasi, ximik zararlanish asosida amalga oshishi mumkin. Bolalik davrining xususiyatlari kattalarga nisbatan miya strukturasining to'liqsizligi, ruhiyat komponentlarining shakllanmaganligi, nerv tizimining plastikligi va kompensatsiyaga moyilligi bilan asoslanadi. Eshitishning buzilishida kompensatsiya rolini ijtimoiy omillar — oilaviy tarbiya, emotsiyonal tarbiya, ota-onaning ta'limi darjasasi, ularning mutaxassislar bilan munosabati, korreksion ishdagi ishtiroki katta ahamiyatga ega.

- Barcha bolalarning ruhiy rivojlanishidagi umumiyligini qonuniyat bu ularni vaqt bo'yicha tashkillashtirish hisoblanadi: bola

hayotining turli bosqichlarida o'zgaruvchi ritm shakllanish xususiyatlari bilan belgilanuvchi mazmun bolaning ta'lif-tarbiyasi jarayoni hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishi ruhiy komponentlarning chuqur shakllanishi, psixologik davr-ontogenizning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi.

- Bolalar ruhiy rivojlanishi hayot bosqichida miyaning faol shakllanishi bilan asoslanadi.

Bir yoshdan ikkinchisiga o'tishda funksional aloqalarning murakkabligi kuzatiladi. Shuning uchun yosh davri turli pedagogik ta'sirlarga yuqori ta'sirchanligi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichlar senzitiv deb nomlanadi. Har bir yosh davrida aloqa va munosabatlar, psixik funksiyalar qayta qurilishi amalga oshiriladi.

Senzitiv bosqichlar mavjudligi endi shakllanayotgan ruhiy funksiyalarga ta'lif ta'siri kuchli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Nutqning rivojlanishidagi senzitiv bosqich (1 yoshdan 3 yoshgacha) eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy korreksiyasida muhim o'rinni tutadi.

- Bola psixikasi har bir yosh bosqichida o'ziga xosdir, bu bola rivojlanishidagi integratsion jarayonlar, funksional munosabatlar natijasi o'laroq maydonga chiqadi.

• Yuqori ruhiy funksiyalarni rivojlantirish sanaladi. Bu boshqa odamlar, kattalar bilan hamkorlik shakli sifatida namoyon bo'lib, asta-sekin bolaning ichki funksiyasiga aylanib boradi. Yuqori ruhiy funksiyalar murakkab tuzilmalar bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ular maxsus tashkil etilgan vositalar bilan jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichida shakllanib boradi. «Natural» psixik funksiyalarning oldingi strukturasi o'zgaradi, ular madaniylashib, ongliylik, ixtiyoriylik, asoslanganlik sifatlariga ega bo'la boshlanadi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanish qonuniyatları ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanish qonuniyatlariga xos bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar atrof-muhit bilan muloqotda qiyinchiliklar-

ga duch keladilar, ularda shaxs va o‘z-o‘zini anglashning rivojlanish xususiyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Turli buzilish, nuqsonlarga ega bolalarning ruhiy rivojlanish tahlili, L.V.Vigotskiy ta’rifi bilan aytganda, nuqson strukturasidan tuzilgan tahlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o‘rinda — eshitishning buzilishi bo‘lib, u o‘z navbatida ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko‘ra chaqaloqlik, maktabgacha bo‘lgan davrda o‘xhash holatda namoyon bo‘ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo‘ladi, funksional o‘zaro munosabatlar strukturasini o‘zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo‘lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir. Nutqning boshqa jihatlarini rivojlantirish hali eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil kechadi. Ikkilamchi nuqsonlar eshitish buzilishidagi psixologo-pedagogik korreksiyaning asosiy obyekti hisoblanadi. Bola ruhiy rivojlanishining o‘ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligidadir.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ta’lim-tarbiyasida tushirib qoldirilgan yillar yuqori sinflarda kompensatsiya qilinaolmaydi, buzilishlarning bartaraf qilinishi uchun uzoq muddat kuch tabab etiladi. Ruhiy rivojlanish jarayonida birlamchi va ikkilamchi buzilishlar o‘rtasidagi har xil munosabatlar izdan chiqadi. Ta’lim jarayonidagi dastlabki to‘sinq — bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzilishidagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to‘sqinlik qila boshlaydi. Buzilishlarning barcha tiplarida bolaning ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos qonun-qoidalarni tasniflash mumkin (B.I.Lubovskiy). Buzilishning barcha tiplarida ma’lumotni qabul qilish, qayta ishslash, saqlash va qo’llash qobiliyatining pastligi kuzatiladi.

Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalgaga oshmaydi. Idrok, demak diqqatsiz yuz bersa yuzaki, fragmentar sodda tarzda amalgaga oshadi. Shu bois, o'quvchilarning o'quv fanlarini to'la, keng o'zlashtirishlarida, ma'lumotlarni tushunishlarida diqqat jaryoni o'ta muhimdir. Ma'lumki, diqqat ilk yoshlardanoq rivojlanan boshtagi. Chaqaloqlardagi «Bu nima ekan?» refleksi aynan diqqat rivojidan darak beruvchi holatdir. Buning asosida mo'ljallash refleksi yotadi. Buning barchasi ixtiyorsiz diqqatning shakllanishiga olib keladi. Maktab yillarida bolalarda ixtiyoriy diqqat tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Shu bilan birga, diqqat xususiyatlari: turg'unlik, bo'linuvchanlik, taqsimlanish, ko'chish kabilalar ham tez sur'atlar bilan takomillashib boradi. Diqqatni biror joyga to'play olish, uni shu nuqtada ma'lum muddat ushlab turish diqqatning sifatlaridandir. Diqqatni bo'la olish har bir shaxsning qo'lidan kelavermaydi. Bu narsa asab tolalari, hujayralarning harakatchanligiga bog'liq. Diqqat asosan o'quv faoliyati asosida amalgaga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir vatqning o'zida ham ko'rgazma materiallarni idrok qilish, ham o'qituvchining labidan o'qib olishlari amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda I va II signal tizimlari orasida munosabatlar tez shakllanmaydi. Sinflar yuqorilashgan sari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bosh miyadagi qo'zg'alish markazlari izchillashib boradi. Asta-sekin bu holat normal bolalar xususiyatlariiga yaqinlashib boradi. Bu ishlar surdopedagogning ishini birmuncha murakkablashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, tarbiyachilar og'zaki ko'rsatmalar bilan bolalar diqqatini boshqara olmaydi. Bu toifa bolalarda diqqatini ko'rish va tebranish qo'zg'atkichlari orqali boshqarib borish imkoniyati mavjud.

Bu bolalar diqqatini to'plash, yig'ish, tarbiyalashda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og'zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan mulo-qot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo'ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o'stirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Bu bolalar o'qiydigan maktab, sinfdagi bolalarning 8–12 tadan oshmasligi ham ular diqqatini shakllantirishda ijobiy tomonlardan biri hisoblanadi. Ikkinchi xususiyat bu — bolalarning nutqni o'ziga xos idrok etish jarayonlaridir. Shu narsa juda muhimki, gapirayotgan kishining lablariga butun diqqatni qaratish oson ish emas. «Labdan o'qish, — degan edi F.F.Rau, bu nutq a'zolari dan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir». Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni boshdan kechirmoq kerakki, bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun. Shu bois, bu toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq, ko'proq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengilashib, o'quv materiallarini egallashlari osonlashadi. Daktil nutqni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining dastlabki yillarida keng qo'llanilishi tavsiya etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini ushlab turishning uchinchi xususiyati, sharti surdopedagogning sinfdagi o'zini to'g'ri tutishidir. Surdopedagog quyidagi qoidalarga amal qilmog'i zarur. Butun sinfga yuzi bilan qaragan holda darsni olib borishi. Mumkin qadar sinfda bilim berganda yurmasligi, to'g'ri kelgan holda tushuntirmasligi lozim. Ko'rgazmali qurollar namoyish qila turib, bir vaqtning o'zida uni tushuntirishga harakat qilmasligi kerak.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning diqqatlarini to'plashning to'rtinchi sharti shuki, darsda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali qurollardan foydalanish lozim. Beshinchi sharti shundan iboratki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati ovozli qo'zg'at-gichlarga bog'liq emas.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatini to'plash, bir marmorda ma'lum muddat ushlab turishning asosiy omillaridan biri mimikalaridir. Bu narsa juda katta ta'sirga, jalb etuvchi kuchga ega. Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning saqlanib qolgan eshitish qobiliyatlarini o'stirishga ham alohida e'tibor beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqat maxsus ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi. Agar maxsus ta'lim-tarbiyada bu toifa bolalarda idrok, diqqat rivojlanmasa, shakllanmasa, demak maxsus ta'lim o'z oldiga qo'ygan maqsadni to'g'ri hal etmagan bo'ladi.

Xotira o'tmishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalar yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Eslab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Agar inson o'z oldiga materialni eslab qolish maqsadini qo'ymasa, material irodaviy harakatlarsiz, istaksiz esda saqlansa, bu ixtiyorsiz eslab qolish sanaladi. Agar inson oldida materialni eslab qolish, uni egallash maqsadi tursa, bu ixtiyoriy eslab qolishdir. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, barcha figuralarni bir vaqtida ko'rsatishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda obyektni eslab qolishida farqlar kuzatildi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatishda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sog'lom o'quvchilarga nisbatan yomon eslab qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarning ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qynalishi dalillandi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususiyati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdag'i so'zlarni idrok etishi tadqiq etilgan:

- ko‘rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so‘zlar;
- taktil analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisi ni ifodalovchi so‘zlar;
- ovozli hodisalarni ifodalovchi so‘zlar.

Tadqiqot natijalari tahlili ko‘rsatishicha, ko‘ruv orqali qabul qiluvchi so‘zlarni, ifodalovchi so‘zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo‘lgan va sog‘lom bolalarda farq kuzatilmaydi. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so‘zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo‘lgan va sog‘lom bolalar o‘rtasida farrq mavjud. Bu turdosh so‘zlarni eslashda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalardan qoladi. Lekin teri analizatori orqali idrok etilayotgan so‘zlarni eslashda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar eshituvchi bolalardan ustunligi kuzatildi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar asosan ovoz chiqaruvchi hayvonlar va ovoz chiqarib ishlaydigan mexanizmlarni ifodalovchi so‘zlarni yaxshi eslab qolishi namoyon bo‘ldi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda obyektlarning ovozi haqidagi tasavvur saqlangan analizatorlar faoliyati asosida amalga oshadi. Eshituv tasavvurlari doirasidagi fe’llar ko‘ruv vibratsiyasi, taktil doirasidagi fe’llar bilan almashtirilishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘p kuzatiladi. Ayrim eshitishida nuqsoni bo‘lgan V sinf o‘quvchilari so‘zlarni, fe’llarni quyidagicha almashtirib qo‘llaydilar: qor yaltiraydi, daryo to‘lqinlanadi, muz sinadi, bo‘laklanadi, shamol esadi, bo‘ron u yoqdan bu yoqqa boradi.

Eslab qolish va so‘zlarni bayon etish D.M.Mayans tomonidan o‘rganilmoqda. U eshitishida nuqsoni bo‘lgan va sog‘lom bolalar eslab qolganni bayon qilishda ma’nosiga ko‘ra so‘zlarni almashtirishni tekshirgan va eshitishida nuqsoni bo‘lganlarda quyidagi guruhdagi so‘zlar almashtirilishini aniqlagan:

- so‘zlar tashqi belgiga ko‘ra almashtiriladi (sharf—shkaf, gul—kul, ketdi—keldi);

- almashtirish asosida ma'nodoshlik yetadi. Bunda predmetli sharoit bo'yicha almashtirish kuzatiladi (qanot-qush, yer-qum, bo'yoq-qalam);
- so'zlar tashqi belgisi va ma'nosiga ko'ra almashtiriladi (boq-di—ko'rdi, keldi-ketdi).

D.M.Mayans eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning turli grammatik kategoriyalardagi so'zlarni eslab qolish xususiyatlarini ham tadqiq etgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar avvalo ot turkumiga oid so'zlarni egallaydilar. Sifat, fe'l turkumiga oid so'zlarni qiyinchilik bilan egallaydilar. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda ot turkumiga oid so'zlarni egallashda farq ko'rindi.

Tafakkur — haqiqatni bevosita va umumlashgan holda aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Hozirgi kunda bolalar tafakkuri rivojlanishining uch bosqichi — ko'rgazmali—harakat, ko'rgazmali—obrazli, so'zli—mantiq tavsiflanadi. So'nggi bosqichda umumlashish, tushunchaning shakllanganlik darajasi, ishlatiladigan material xarakteriga ko'ra konkret tushunchali va abstrakt tushunchali tafakkur tasniflanadi.

So'zlashuv nutqini sog'lom bolalarga nisbatan kech egallovchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uning o'ziga xos xususiyatlari bir qator faylasuf va psixologlar e'tiborini jalb etib kelgan, chunonchi kar bolaning ruhiy jarayonlarini o'ziga xosligi nutqni tafakkur shakllanishi va rivojlanishidagi rolini bilish uchun keng imkon yaratadi.

Ko'rgazmali—harakat tafakkuri predmet bilan tashqi harakatni o'zida jamlaydi, bunda bola maqsadga erishish vositasi sifatida turli predmetlardan foydalanadi.

Amaliy vazifalarni amalga oshirishda muammoni hal etishni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish zaruriyati yuzaga keldi. Bu ko'rgazmali—harakat umumlashmalarining shakllanishiiga olib keladi.

A.V.Zaporojes umuman nutqi mavjud bo'lmagan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali harakat tafakkurining xususiyatlarini tadqiq etgan. U bolalarga uzoqlashtirilgan predmetni olish uchun lineykadan, tayoqdan foydalanishni ko'zda tutuvchi topshiriq beradi. Harakatni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish vositalarini umumlashtirish yo'nalishi bo'yicha amalga oshadi. Bu umumlashtirish uchun sensor va motor komponentlarning yaxlitligiga xosdir, chunki ularda funksional mohiyat, predmetlarning tashqi ko'rinishi o'xshashligi aks etadi. Bu bog'liqlik eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tashqi belgilar ga emas, balki ichki belgilarga ko'ra predmetlarni bir sharoitdan boshqasiga olishdagi qiyinchilik yuzaga kelishini asoslaydi. Ay-nan bir predmetni boshqa materiyadan yasash, yoki uni boshqa rangga bo'yashni bolalar yangi vazifa sifatida qabul qiladilar.

Ko'rgazmali-harakat tafakkurining o'ziga xosligi, bir sharoitdan boshqasiga o'tishda bola harakati va predmet aloqasi, munosabati tamoyili to'liq namoyon bo'lmashligi bilan belgila-nadi.

Shunday qilib, nutqiy rivojlanishgacha tafakkurning inert, harakatchan emasligi kuzatiladi. Ma'lum nuqtayi nazardan bola narsani anglab, undan qiyinchilik bilan ajraladi. Nonutqiy mu-loqot imo-ishora yoki so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun asosiy omil sanaladi. Kar bola nutqini rivojlantirish uning tafakkurini rivojlantirishda muhim o'ringa ega. A.V.Zaporojes fikrcha, bolaning amaliy tajribaga va sensor tarbiyaga ega bo'lishi asosidagina bu jarayon amalga oshishi mumkin. Bolaning amaliy tajribasi inson qo'li bilan yaratilgan predmetlar bilan topishi, harakatlarni natijalar bilan qiyoslash, sabab-oqibat alo-qalarini belgilashdir. Shuningdek, bolalar predmetlararo munosabatlarni ham anglaydilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkurining rivojlanishdan orqada qolishi nutqi mavjud bo'lmagan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ham uchraydi. N.V.Yashkova tad-qiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalar-ga nisbatan katta yoshlarda ko'rgazmali-harakat vazifalarini

hal eta olishi aniqlangan. 9–10 yoshlardagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun kattalar harakatiga taqlid qilish xosdir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar harakatni umumlash-tirish usuliga ega bo‘lmaydilar, shu sababli bu vazifani o‘rgatish uchun to‘rt marotaba ko‘p vaqt va uch marotaba ko‘p ko‘rgazma kerak bo‘ladi.

Ikkinch bosqich – ko‘rgazmali obrazli tafakkurga o‘tishda ikki o‘zaro sharoit muhim ahamiyatga egadir. 1-sharoit – bolalarda aynan predmetlarni ifodalovchi obraz, model, obyektlarni farqlash malakasini shakllantirishdir. Bunda predmet haqidagi tasavvurlar tizimi shakllanadi, obrazlar strukturasi takomilla-shadi, murakkablashadi, predmetlar obrazini tavsiflash malaka-si shakllanadi.

A.R.Luriya va F.L.Yudovich nutqiy rivojlanishi orqada qol-gan sog‘lom egizak bolalar tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari ni tadqiq etgan. Bolalar harakatni so‘zdan ajratish, rejalashtirish, elementar tasniflash malakasiga ega bo‘limganlar. Predmet ifodasi, belgi, munosabatlarini anglab bolalar predmet obrazlari bilan tafakkur harakatlarini amalga oshiradilar.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uzoq muddat davomida ko‘rgazmali–obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V.Rozanova o‘z tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘rgazmali–obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktab ta’limining boshida, I sinfdagi bolalarda eshituvchilarga nisbatan rivojlanish tempi ortadi. Yuqori sinfdagi bolalarda ko‘rgazmali–obrazli tafakkur rivojlanishidagi o‘ziga xoslik murakkab masala-larni yechishda ko‘rinadi. Bu kar va eshituvchi bolalarda masala yechish faoliyati mazmuniga ko‘ra farqlanish bilan asoslanadi. (Matritsani tuzish asosida yotuvchi munosabat, belgilarni aks ettirish aniqligi, to‘laligiga ko‘ra farqlanadi.) Masala yechishni to‘liq angolmaslik karlarda kuzatilgan, shu sababli bir vazifadan ikkinchisiga o‘tishda qiyinchiliklarga uchraydi. Vazifalarni amalga oshirishni nutqqa bog‘liqligi kuzatilgan. Eshitishida nuqso-

ni bo‘lgan bolalar imo-ishora nutqi va so‘zlardan vazifa tahlili-da qanchalik ko‘p foydalansa, uni shunchalik muvaffaqiyatli hal eta olingan.

To‘liq ko‘rgazmali—obrazli tafakkur so‘zli—mantiq tafakkuri-ning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘rgaz-
mali—obrazli tafakkurni rivojlanish model tasavvurlarni umumlashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Ko‘rgazmali—obraz-
li tafakkurni shakllantirish so‘zlash nutqining shakllanishi bi-
lan bog‘liq bo‘lib, ko‘rgazmali—obrazli tafakkurni so‘zlash—
mantiq tafakkuri bosqichiga o‘tishi sog‘lom bolalarga nisbatan
eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda uzoq muddat davomi-
da amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarining rivojlanishi-
da namoyon bo‘ladi. Fikrlash operatsiyalari tizimga tashkil-
lashtirilgan umumiylar harakatlardir. Bu fikrlash operatsiyalari
asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan
bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nisbatan
kech shakllanadi.

J.I.Shif tadqiqotlarida, kar, zaif eshituvchi bolalarda ko‘rgaz-
mali umumlashtirishda o‘xshashliklar kuzatiladi. Masalan, bola-
lar qalamlarni tasniflashda dastlab ikki tomonga spektrning
sovuuq va issiq tomonlariga ko‘ra ajratadilar, so‘ng qalamlarni
ranglariga ko‘ra 5–6 stakanlarga soladilar. Karlar bu bosqich-
da eshituvchi bolalarga nisbatan orqada qoladi. Keyingi bosqich-
da eshituvchi bolalarda umumlashtirish, shakllantirish amalga
oshadi, lekin eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda bu jarayon
shakllanishdan orqada qoladi. Ular uchun harakatlarni umum-
lashtirish qiyin kechadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ha-
rakatlar nomini qiyinchilik bilan egallaydilar, masalan, fe’llarni
arashtirib yuboradilar, harakatlarga to‘liq tavsif berolmaydilar,
ba’zan faqat harakatni amalga oshiruvchi predmetni tavsiflash
bilan cheklanadilar.

Analiz va sintez jarayoni rivojlanishida ham orqada qolish ku-
zatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda
amalga oshadi.

Taqqoslash jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oshadi. I.M.Solovyov ta'kidlashicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'smirlik chog'ida taqqoslash texnikasini egallashda yutuqlar kuzatiladi, taqqoslash sifati ortadi.

Abstraksiyalash jarayoni sujetli—rasm, o'yin va o'quv faoliyati jarayonida amalga oshadi. Sujetli—rasm o'tishning xarakterli xususiyati o'rindosh predmetlarni qo'llash hisoblanadi. Almashtiriluvchi predmetlar xususiyatini ajratish va taqqoslash abstraksiyaga asoslanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar almashtirilgan predmetlarni qo'llashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Hatto almashtirish uchun funksional mumkin bo'lgan predmetlar ular tomonidan har doim qo'llanilmaydi, ularni real funksional ahamiyatida ajratish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qiyin tarzda kechadi. N.I.Shif ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun almashtiruvchi vosita sifatida tanishga nisbatan, notanish predmetlarni qo'llash qulaylik tug'diradi. Abstraksiya jarayonida orqada qolish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatida ham orqada qolishga sabab bo'ladi. 7–8 yoshlarda bola idroki ta'sirini anglash, asta-sekin murakkablashuvchi sharoitda operatsiyalarini hal etish imkonini beradi.

Fikrlash operatsiyalarini amalga oshirish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nisbatan kechroq amalga oshadi. T.V.Rozonova ma'lumotlariga ko'ra, II sinfning sog'lom o'quvchilari maydon saqlanishiga ko'ra masalalarni muvaffaqiyatli yechadilar, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar IV sinf o'quvchilari maydonni baholash bo'yicha fikrlash operatsiyalarini yecha olmaydilar. Faqat X sinfdagina yangi masala yechimi usuli sifatida ikki kattalik munosabati, o'zaro qaytarish munosabati bilimlarini qo'llay oladilar.

So‘zli—mantiq yoki tushunchali tafakkur rivojlanishida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda sog‘lom bolalarga nisbatan o‘ziga xoslik kuzatiladi. So‘zli—mantiq tafakkur nutqiy vositalar asosida shakllanuvchi mantiqiy konstruksiyalar, tushunchalarni qo‘llash bilan shakllanadi. Tafakkur va nutqni rivojlantirish o‘zaro bir-biriga bog‘liq holda turli yo‘nalishda rivojlanadi. 2 yosh atrofida eshituvchi bola o‘z hayotida katta yangilik yaratadi: har qaysi predmet o‘z nomiga ega bo‘ladi, ya’ni nutqning simvolik funkisiyasini oladi. Shu paytdan boshlab, nutq va tafakkur rivojlanishi o‘zaro bog‘lanadi, tafakkur nutqiy, nutq intellektual bo‘ladi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarda tafakkur va nutqning rivojlanish yo‘nalishi eshituvchilarga nisbatan kech amalga oshadi. Kundalik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, intensifikatsiya qilish yetarli emas, chunki har qanday so‘z yoki fraza tafakkur rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Omrok fikricha, so‘z ma’nosini tushunish imkonini amalgalashiruvchi nutqiy vositalarni ta’limda qo‘llash samarali natija beradi. Nutqiy vositalar bolalarning real bilish faoliyatida qo‘llanishi lozim.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kattaliklarni taqqoslash, kattaliklar o‘zaro munosabatini tushunish, masala mazmunidan uni ko‘rgazmali ifodalash, berilgan munosabatlarda ko‘rgazmali sharoitda ajratishni ifodalovchi bir qator masalalarni hal etishda qiyinchiliklarga uchraydi. Asosiy qiyinchiliklar matn mazmuni bo‘yicha xulosa chiqarish, ma’lumotlarni analiz va sintez qilishda yuzaga keladi. Bunda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar mazmunan to‘liq bo‘lмаган, lekin nutqiy vositalar bilan ifodalangan javoblarni bayon etadi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ta’lim jarayonida ularning tafakkur xususiyatlarini hisobga olish darkor. T.V.Rozonova o‘zgacha yondashuvni talab etuvchi bolalarning 3 guruhini tasniflaydi.

Birinchi guruhga ko‘rgazmali va tushunchali tafakkur rivojlanishi yuqori darajada bo‘lgan bolalar kiradi. Ular eshituvchi

bolalar bilan ko'rgazmali—obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bir xil bo'ladi, lekin tushunchali tafakkurli rivojlanishi bo'yicha uch yil orqada qoladi. Bu bolalar yuqori o'zlashtirishga ega bo'la-di, maktab dasturini ijobiy egallaydi, masalalarni mustaqil yo-zadilar.

Ikkinchi guruhga eshituvchi bolalardan ko'rgazmali tafakkur, tushunchali tafakkur darajasiga ko'ra orqada qoluvchi, bu tafakkur turlarining o'rta darajasini namoyon qiluvchi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasniflanadi. Ta'lim jarayonida ular sur-dopedagogning yordamiga muhtoj bo'ladilar.

Uchinchi guruhga ko'rgazmali tafakkurning yuqori daraja-si, tushunchali tafakkurning past darajasi namoyon bo'lgan eshi-tishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamlaydi. Ko'rgazmali—obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bu bolalar eshituvchi bolalar bilan bir xil bo'ladi, lekin so'zlashuv nutqini egallahsha ular qiyinchilikka uchraydilar. Shu sababli ular maktab dasturini egallahsha qiyin-chilikka uchraydilar, fikrlash aberratsiyalari to'liq bo'lmaydi, ye-tarli darajada umumlashmagan bo'ladi.

To'rtinchi guruhga tushunchali tafakkur darajasining yuqori ko'rsatkichi, ko'rgazmali—obrazli tafakkurning past darajadali-gi kuzatilgan bolalar jamlanadi. Bunday disroporsiya nutqiy vo-sitalarni yetarli tabaqalamay o'qitish, sujetli-rolli o'yin, tasviriy faoliyatning ommaviy turlariga ahamiyat bermaslik asosida ke-lib chiqadi. Disproporsiya oqibatida bu bolalarda matematika fa-nidan orqada qolish, maktab dasturini egallahsha qiynalish yu-zaga keladi. G.V.Rozonova tomonidan eshitishda nuqsoni mavjud bolalar tafakkuri rivojlanishidagi munosabatlar tipini tasniflash-ning amalga oshirilishi o'z vaqtida tashxis qo'yish, disproporsiyaning sababini aniqlash, ularga nisbatan korreksion dastur tu-zilishi lozimligini ko'rsatdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zaif eshituvchi bolalarning psixikasining o'ziga xos xususi-yatlari qanday?

2. Zaif eshituvchi bolalarning fiziologik rivojlanishi qanday?
3. Zaif eshituvchi bolalar bilan qanday ishlar olib boriladi?

10-mavzu. Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar

Reja:

1. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari.
2. Nutqning lingvistik tavsifi.
3. Nutqning klinik tavsifi.
4. Nutqning pedagogik tavsifi.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq, ekspressiv nutq, dīslaliya, rinolaliya, disfoniya, dizartriya, rinofoniya, alaliya, afaziya, ovoz.

Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlarini, ya’ni nutq faoliyatining tuzilishi va ishlashi jihatidan tashkil etilishini bilish, birinchidan, nutqning murakkab mexanizmini normada tasavvur qilish, ikkinchidan, nutq patologiyasi (buzilishi) tahliliga differential yondashish; uchinchidan, tuzatuvchi ta’sir yo’llarini to‘g’ri belgilashga imkon beradi.

Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir.

Nutq harakatlari murakkab a’zolar tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o‘ynaydi.

XX asrning boshlaridayoq nutq funksiyasining miyadagi maxsus «alohida nutq markazlari»ning mavjudligi bilan bog’lagan nuqtayi nazar keng yoyilgan edi.

I.P.Pavlov bu qarashga yangi yo’nalish berdi. U bosh miya qobig‘ining nutq funksiyalari lokalizatsiyasi murakkab bo‘libgina qolmay, balki o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ham isbotlab berdi va uni «dinamik lokalizatsiya» deb atadi.

1. Hozirgi vaqtida P.K. Anoxin, A.N.Leontyeva, A.R.Luriya va boshqa olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, har qanday psixik funksiyalarning asosi alohida «markazlar» bo‘lmay, balki markaziy asab tizimining turli joylarida joylashgan murakkab funksiyalar tizimi hisoblanadi.

Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi. Til – bu fonetik, leksik va grammatic vositalar tizimidir. Gapiruvchi o'z fikrini bayon etish uchun zarur so'zlarni tanlaydi, ularni til grammatikasi qoidalariga asoslanib bog'laydi va nutq a'zolari artikulyatsiyasi orqali talafluz etadi.

Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolaring harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Shu bilan birga bu harakatlarni maxsus ixtiyoriy kuch ishlatmasdan ro'yobga chiqarish mumkin bo'lgan avtomatik bo'lishi lozim. Aslida ham xuddi shunday bo'ladi. Odatda, gapiruvchi faqat o'z fikrini nazorat qiladi, nafas olganda uning tili og'zida qanday holatda bo'lishi va hokazolar haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Bu nutqni talaffuz etish mexanizmi faoliyati oqibatida sodir bo'ladi. Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini tushunish uchun nutq apparatining tuzilishini yaxshi bilish zarur.

Nutq apparatining tuzilishi

Nutq apparati o'zaro chambarchas bog'langan ikki qismdan: markaziy (yoki boshqaruvchi) nutq apparati va periferik (yoki bajaruvchi) qismdan tashkil topgan. Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig'idan, qobiq osti tugunlaridan, o'tkazuvchi yo'llar, o'zakdan (avvalo, uzunchoq miyada), yadrolar va ovoz, nafas, artikulyatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Markaziy nutq apparati va uning bo'limlari vazifasi nimalardan iborat?

Nutq, boshqa oliy nerv faoliyatining ko'rinishlari singari, reflekslar asosida shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyati bilan bog'liqidir. Biroq bosh miya qobig'inining ayrim bo'limlari nutqning hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Bular chap (chapaqaylarda o'ng) yarim sharning peshana, chakka va

ensa qismlaridir. Bosh miya qobig‘ining bu qismlarida nutq faoliyatida faol ishtirok etuvchi:

- 1) nutq harakat analizatori;
- 2) nutq ko‘rvu analizatori;
- 3) nutq eshituv analizatori joylashgan.

Nutq harakat analizatori bosh miya qobig‘ining chap peshan qismida joylashgan bo‘lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og‘zaki nutqning paydo bo‘lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizatori bosh miya qobig‘ining chap chakka qismida joylashgan bo‘lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro‘y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig‘ining orqa bo‘lagi katta rol o‘ynaydi. Bu bosh miyaning ko‘rvu markazi hisoblanib, yozma nutqni o‘zlash-tirish uchun xizmat qiladi.

Markaziy nutq apparatining nutq apparatiga boruvchi bu yo‘l nutq mexanizmining faqat bir qismini tashkil qiladi. Uning boshqa qismi orqaga, ya’ni periferiyadan markazga qaytuvchi aloqadan iborat.

Endi periferik nutq apparatining tuzilishini ko‘rib chiqamiz.

Periferik nutq apparati uch bo‘limdan iborat:

- 1) nafas bo‘limi;
- 2) ovoz bo‘limi;
- 3) artikulyatsion bo‘lim.

Nafas bo‘limiga ko‘krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi.

Nutqni talaffuz etish nafas olish bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq nafas chiqarish fazasida hosil bo‘ladi. Nafas chiqarish jarayonida havo oqimi bir vaqtning o‘zida tovush hosil qiluvchi va artikulyatsion funksiyani bajaradi. (Shu bilan birga, asosiy funksiyasi havo almashinuvini ham bajaradi.) Nafas olish nutq jarayonida, odam jim turgan odatdag‘i vaqtidan jiddiy farq qiladi. Nafas chiqarish nafas olishdan biroz uzoqroq bo‘ladi (nutqdan tashqari vaqtida nafas olish va nafas chiqarishning davomiyligi deyarli bir xil bo‘ladi). Bundan tashqari nutq talaffuz qilinayotgan vaqtida nafas olish harakatlari soni odatdag‘i

nafas olish va nafas chiqarish (nutqsiz) vaqtidagidan ikki murotoba kamdir.

Uzoq nafas chiqarish uchun ko‘p havo zapasi kerak bo‘lishi tushunarlidir. Shuning uchun nutq jarayonida havo olish va chiqarishning hajmi ko‘payadi (taxminan 3 marta). Nutq vaqtida nafas olish nisbatan qisqa va chuqur bo‘ladi. Nutq vaqtidagi nafas olishning yana bir xususiyati shundaki, nutq jarayonidagi havo chiqarish havo chiqarish muskullarining faol harakati ostida sodir bo‘ladi. Bu esa uzoq va chuqur nafas chiqarishga imkoniyat yaratadi va bundan tashqari, havo oqimi bosimini ko‘paytradi (busiz jarangdor nutqning bo‘lishi mumkin emas).

Ovoz bo‘limi hiqildoq va u bilan birga joylashgan ovoz paychalaridan tashkil topgan.

Hiqildoq nafas yo‘lining burun bo‘shlig‘idan keyingi qismi. Hiqildoq havoning traxeyaga o‘tishini ta‘minlaydi va unga qattiq, suyuq moddalar tushishiga to‘sinqilik qiladi. Hiqildoq bo‘yining oldingi qismida joylashgan hiqildoq do‘ngi, ayniqsa, ozg‘in kishilarda ko‘zga yaqqol ko‘rinib turadi. Ana shu do‘nglik kekirdak olmosi deb ataladi. Hiqildoq gapirganda, yo‘talгanda, ashula aytganda oson harakatlanadi. Hiqildoq toq uzuksimon, shoxsimon va juft cho‘michsimon, shoxsimon tog‘aylardan iborat. Hiqildoq asosi bir-biri bilan bo‘g‘imlar orqali birikkan tog‘aylardan tashkil topgan bo‘lib, bo‘g‘imlarda harakat maxsus muskullar harakati yordamida ro‘y beradi. Hiqildoqda ovoz paychalarini joylashgan bo‘lib, ular nafas olganda, qattiq yoki sekin gapirganda muayyan holatni egallaydi.

Erkaklarda hiqildoq ayollarga nisbatan kattaroq, ovoz paychalarini esa uzunroq va qalinoqdir. Ayollarda ovoz paychalarining uzunligi 18–20 mm, erkaklarda 20–24 mm gacha bo‘ladi.

O‘g‘il va qiz bolalarda balog‘atga yetish davri boshlangunga qadar hiqildoqning kattaligi va tuzilishida farq bo‘lmaydi. Hiqildoqda o‘zgarish qizlarda 12–13, o‘g‘il bolalarda 13–15 yoshda sodir bo‘ladi. Bu vaqtida hiqildoqning kattaligi qizlarda 1/3, o‘g‘il bolalarda 2/3 qismiga o‘sadi va ovoz paychalarini cho‘ziladi.

Ilk yoshdagi bolalarda hiqildoqning shakli voronkasimon bo‘ladi. Bolaning o‘sishiga qarab hiqildoq asta-sekin silindrsimon shaklga yaqinlashadi.

Ovoz psychalari o‘zining massasi bilan hiqildoqning ko‘p qismini egallab oladi va tor ovoz tuynugini qoldiradi.

Odatdagi nafas olishda ovoz tuynugi keng ochiladi, teng yonli uchburchak shakliga keladi. Bunda nafas olayotgan va nafas chiqarayotgandagi havo keng ovoz tuynugidan bemałol o‘tib ketadi.

Ovoz (yoki fonatsiya) qanday sodir bo‘ladi? Ovozning hosil bo‘lishida ovoz psychalari qisqargan holatda bo‘ladi. Chiqarilayotgan havo oqimi qisqargan ovoz psychalari orasidan o‘tayotib, ularni biroz chetga suradi. Keyin yana chiqarilayotgan havo oqimi bosimi ostida o‘zining pishiqligi hamda hiqildoq muskulinarining harakati bilan o‘z holiga qaytadi. Chiqarilayotgan havo oqimining bosimi tamom bo‘lgunga qadar ovoz psychalarining qisqarishi va cho‘zilishi davom etaveradi.

Ovoz psychalarining tebranishi tufayli chiqarilayotgan havo oqimi ovoz psychalari ustida tebranish chastotasiga aylanadi. Bu tebranishlar tevarak-atrofqa yetkaziladi va biz uni ovoz tovushlari deb qabul qilamiz.

Ekspressiv (eslash) nutq – bu til yordamida o‘z fikrini bayon qilish tashqariga yo‘naltirilgan va bir qancha bosqichlardan o‘tuvchi; g‘oya – ichki nutq – tashqi o‘z fikrini aytish.

Imressiv (idrok qilish) nutq – bu atrofdagilar nutqini tushunish (og‘zaki yoki yozma) jarayon, hamda bir qancha bosqichlardan o‘tadi:

- nutqiy xabarni idrok qilish axborot lahzalarini ajratish – idrok qilingan umumiy ma’nodagi sxemada ichki nutqni shaklantirish;
- kuy-intonatsiyali (intonatsiya, ovoz, bo‘yash);
- temp-ritmik (nutq tempi va ritmi);
- uzuq-yuluq temp (asossiz pauzalar, tutilish, so‘z va tovushlarda urg‘uli bo‘g‘inni aniq o‘qish tutilmasdan, tutqanoq-

siz (fiziologik iteratsiya, poltern) va tutqanoqlik ko‘rinishidagi duduqlanish).

Nutq turli ko‘rinish va turlardagi murakkab psixik faoliyatdan iborat. U ekspressiv va impressiv nutqqa ajratiladi.

Nutq faoliyati mustaqil umumiy to‘rtta turga ajratiladi, ular-dan ekspressiv nutqqa og‘zaki va yozma nutq (xat kabi), impressiv nutqqa esa – og‘zaki nutqni tushunish va yozma nutqni tushunish (o‘qish) kiradi.

Og‘zaki nutq – murakkab, ko‘pqirrali jarayonni o‘ziga qamrab oladi: nutqning fonetik tomoni (nutqdan tovushni ma’noli ajralishi); leksik-grammatik (so‘zlar, iboralar, ma’lumotlar); kuy-intonatsiyali (intonatsiya, ovoz, bo‘yash); temp-ritmik (nutq tempi va ritmi). Og‘zaki dialogli va monologli bo‘lishi mumkin.

Mustaqil yoki aytib turib yozilgan va o‘qish mumkin bo‘lgan, og‘zaki nutq asosiga yozma nutq quriladi va rivojlanadi. U yoki bu nutq komponentlariga ko‘ra quyidagi lingvistik buzilishlarga bo‘linadi:

1. Fonetik buzilishlar – bitta yoki bir nechta tovush guruhlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish (shipillovchi, hushtakli, o‘rta va orqa til tovushlari; undosh tovushlarning qattiq-yumshoqligini, karlik-jarangliligining buzilishi).

2. Leksik-grammatik buzilishlar. Bu buzilishlarning orasi ajratiladi: cheklangan lug‘at zaxirasi; qashshoqlashgan ibora; iborada noto‘g‘ri tuzilgan so‘zlar; noto‘g‘ri ishlatilgan kelishiklar va qo‘srimchalar; chala gapirish, so‘zlarning joyini almashtirib gapirish.

3. Kuy-intonatsiyali buzilishlar: urg‘uni noto‘g‘ri ishlatish (so‘zda – grammatik, iborada – mantiqiy); tovushning tembri, balandligi, kuchi bilan bog‘liq buzilishlar (tinch, bo‘g‘iq, vaqilovchi, qisilgan, ma’nosiz, vizillovchi, past ovoz, modullashma-gan).

4. Templi ritmik buzilishlar: tezlashgan temp bosh miya po‘st-log‘ida hayajonlanish jarayonlarining ustun kelishiga bog‘liqligi (taxilaliya); sekinlashgan temp, tormozlanish jarayonlarining

ustunlik qilishi (bradilaliya); uzuq-yuluq temp (asossiz pauzalar, tutilish, so'z va tovushlarda urg'uli bo'g'inni aniq o'qish tutilmasdan, tutqanoqsiz (fiziologik iteratsiya, poltern) va tutqanoqlik ko'rinishidagi duduqlanish).

Yozma nutqdagi buzilishlar:

xatlar:

fonemani grafemaga noto'g'ri qayta shifrlash; chala yozish; so'zda harflarni tushirib qoldirish va aralashtirib yuborish; gapda so'zlarni qayta joylashtirish va kelishmaslik; chiziqdan chiqib ketish va boshqalar;

o'qish:

tovushlarni almashtirish va aralashtirish; harflab o'qish; so'z tarkibida tovush-bo'g'inni buzish; o'qilgan narsani tushunishning buzilishi; agrammatizmlar.

Nutqning klinik tatsifi. Nutq rivojlanishi jarayonlarining bolalik davrida o'ng yarim shar ahamiyatli o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda aytilayotgan nuqtayi nazarlar shundan iboratki, bola nutqi paydo bo'lishining erta davrida yetaricha bo'limgan tushunish va erkinlik nutq aktining tashkil topishi uchun albatta o'ng yarim sharning faol ishtirotiga bog'liq. Nutq vositalarining ongli va erkin shakllanishini qo'lllashda yetakchi rolni nutq bo'yicha dominantlik qilayotgan miya yarim sharining (odatda chap) bo'linmalariga tegishlidir (E.G.Simerniskaya, 1985).

Bolalik davrida nutq buzilishining alohidaligi ularda qaytarilish qobiliyatining borligidir, chunki bola miyasining yuqori darajada nafisligi (plastikligi) bilan bog'liq.

Bolalik davrida kuzatilgan nutq buzilishlari fiziologik (bosh miyaning ustki (periferik) markaziy tarkibining yetilish muddatiga bog'liq) va patologik (kasallangan) ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Nutqning patologik buzilishi markaziy va ustki (periferik) buzilishining xarakteriga qarab organik va funksional qismlarga bo'linadi.

Nutq buzilishining klinik turlari:

1. Ustki xarakterdagi:

mexanik dislaliya – (artikulatsiya apparatining turli xil buzilishlari oqibatida tovush chiqarishning buzilishi); funksional dislaliya (artikullash funksiyasining buzilishi – artikulatsiya a'zolari qurilmasining saqlanishi oqibatida, noto'g'ri, noaniq artikulatsiya apparatining harakati);

rinolaliya – nutqning prosodiya tomoni va tovush chiqarishdagi buzilishlar, bиринчи navbatda – alveolar o'simta, milk, qattiq va yumshоq tanglay, labdagi yoriq (nezarasheniya) ko'rinishidagi ovozlar, artikulatsiya apparatining qurilishi buzilishini keltirib chiqaradi. Tovush chiqarganda havo oqimi faqat og'iz orqali emas, balki burun bo'shlig'i orqali ochiq o'tishi va yopiq, burun bo'shlig'idagi me'yoriy o'tishning adenoidlar, o'simtalar, burun suyagining qiyshiqligi, burunda surunkali jarayonlar oqibatida buzilishlarning ko'rinishi mumkin;

rinofoniya – nutq tovushlarining me'yoriy artikulatsiyasida ovoz tembrining buzilishi, fonatsiya jarayonida og'iz va burun bo'shlig'i ishtirokining muvofiqlashmasligini hisobga olinishi;

disfoniya – ovoz apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fonatsyaning ishdan chiqishi. Yoki fonatsyaning (afoniya), yo'qligi yoki ovozning (disfoniya) kuchi yo'qligi yoki tembrning buzilishi ko'rindi. Balki, markaziy va ustki (periferik) xarakterdagi ovoz tashkil qiluvchi mexanizmning organik va funksional tartibsizliklarini keltirib chiqaradi.

2. Markaziy xarakterdagi:

dizartriya – markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida til tovush tizimining buzilishi (tovush chiqarish, prosodiya, ovozlar). Dizartriya, ko'pincha talaffuz qilishning buzilishi bilan chegaralanmaydi, lekin nutqni tushunish va leksik-grammatik tomonlariga tegishli bo'ladi;

alaliya – bola rivojlanishining bachadonda homila yoki ilk davrida bosh miya po'stlog'ining nutq zonasida organik shikastlanishi oqibatida nutqning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi (nutq shakllanishiga qadar). Motorli alaliyada murojaat qilingan nutqni qiyosiy saqlangan imkoniyatda tushunish uchun qiyinchiliklar

shaxsiy nutqning rivojlanishiga tegishli bo'ladi. Sensorli alaliyada buning teskarisi kuzatiladi: u yoki bu darajada, atrofdagilarning nutqini tushunish buziladi;

afaziya — bosh miyaning og'ir jarohatlanishi tufayli, shamollash jarayonlari va o'simtalar tufayli nutq zonalarini qamrab oluvchi ilgari bo'lgan nutqni to'la yoki qisman yo'qotish. Afaziya mexanizmi asosida nutq stereotipining yo'qolishi yotadi, shunga ko'ra talaffuz qilish ko'nikmalari yoki begona nutqni tushunish imkoniyatlari yo'qoladi. Yosh bolalarda (5–7 yosh) nutq buzilishi afaziya turidagi miya shikastlanishida asosan o'chadi va ko'proq nutq-eshitish xotirasiga tegishli bo'ladi (L.S.Svetkova, 1988);

disgrafiya yoki agrafiya — yozuv jarayonining o'ziga xos, qisman mos yoki butunlay ishdan chiqishi. Gap tuzilmasi va tovush-bo'g'inlar tizimining buzilib ko'rinishida, harflarning optik-fazoviy obrazlari noaniq ko'rindi. Bosh miya yarim shari chap qismining qaysi joyi shikastlanmasin orqa peshana, chakka, gardan — yozuv buzilishi mumkin;

disleksiya (aleksiya) — bosh miyada gardan-chakka-tepa qismlarining rivojlanmaganligi oqibatida o'qishning qattiq buzilishi.

Nutqning pedagogik tavsifi. Nutqida bir xil buzilishi bo'lgan bolalarni bir guruhg'a birlashtirilsa korreksiya ishlarini olib borish qulay bo'ladi.

Odatda, guruhlar quyidagi buzilishlarga qarab ajratiladi:

- fonetik-fonematik buzilishlar (FFB, tovush talaffuz qilishdagi ko'pgina kamchiliklari, bor bolalar bilan: funksional va mexanik dislaliyalar, rinolaliyalar dizartriyaning yengil ko'rinishi);
- nutqning to'liq rivojlanmaganligi (NTR, turli darajadagi nutqning rivojlanmaganligi nutqida ko'pgina leksik-grammatik kamchiliklari bor bolalar bilan: dizartriyaning, alaliyaning, disleksiyaning va aleksiyaning, hamda disgrafianing va agrafiyaning murakkab ko'rinishlarida);

- (rinosofoniyaning, disfoniyaning, afoniyaning) kuy-intonation kamchiliklari va (duduqlanish, iteratsiya, poltern, taxilaliya, bradilaliya bilan) nutqning tempo-ritmik tomonlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari qanday?
2. Nutqning lingvistik tavsifini aytib bering.
3. Nutqning klinik tavsifini aytib bering.
4. Nutqning pedagogik tavsifini aytib bering.

11-mavzu. Inson nutq organlarining markaziy tizimi

Reja:

1. Nutq apparati qismlari.
2. Markaziy nutq organlari tizimi.
3. Markaziy nutq organlari xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq apparati, markaziy tizimi, nutq organlari, nutq organlari fiziologiyasi.

Tibbiyot nogironlik bilan uzviy bog‘langan, lekin uning mavqeyini birdaniga baholash va isbotlash qiyin. Muammoni tushuntirishning oddiy bir usuli: imkoniyati cheklangan insonlar albatta kasal bo‘lishi lozimmi degan, savolni qo‘yishdir. Savolni boshqacha qo‘yish esa nogironlik kasalliklarga olib boradimi yoki aksimi deganidir. Uchinchi yo‘l esa savolni nogironlik faqat tibbiy vositalar orqali yoki ularsiz ham hal etiladimi, tarzi-da qo‘yishdir.

Nutq apparati o‘zaro chambarchas bog‘langan ikki qismidan: markaziy (yoki bajaruvchi) qismidan tashkil topgan.

Markaziy nutq apparati – bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig‘idan, qobiq osti tugunlaridan, o‘tkazuvchi yo‘llar, o‘zakdan (avvalo uzunchoq miyada), yadrolar va ovoz, nafas, artikulatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Markaziy nutq bo‘limining vazifasi – nutq, boshqa oliv nerv faoliyatining ko‘rinishlari singari, reflekslar asosida

shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyat bilan bog'liqdir. Biroq bosh miya qobig'ining ayrim bo'limlari nutqning hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Bular chap (chapaqaylarda o'ng) yarim sharning peshana, chakka va ensa qismlaridir. Bosh miya qobig'ining bu qismlarida nutq faoliyatlida aktiv ishtirok etuvchi:

- nutq harakat analizatori;
- nutq qo'ruv analizatori;
- nutq eshituv analizatori joylashgan.

Nutq harakat analizatori bosh miya qobig'ining chap peshana qismida joylashgan bo'lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og'zaki nutqning paydo bo'lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizatori bosh miya qobig'ining chap chakka qismida joylashgan bo'lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro'y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu bosh miyaning ko'ruv markazi hisoblanib, yozma nutqni o'zlash-tirish uchun xizmat qiladi. Qobiq osti yadrolari nutqning sur'ati va ifodaliligini boshqaradi. Periferik nutq apparatining hamma a'zolari bosh miya nervlari bilan ta'minlanadi. Ulardan asosiyлари: uch tarmoqli, yuz, til-halqum, sayyor, qo'shimcha va til osti nervlaridir.

Uch tarmoqli nerv pastki jag'ni harakatga keltiruvchi muskularni innervatsiyalaydi; yuz nervi mimik muskullarni va lablarni harakatga keltiruvchi — lunjlarni shishiruvchi va ichga tortuvchi muskullarni; til halqum nervi va sayyor nervi — hiqildoq va ovoz boyqlarini, halqum va yumshoq tanglay muskullarini innervatsiyalaydi. Bundan tashqari til-halqum nervi tilning sezuvchi nervi bo'lib hisoblanadi. Sayyor nerv esa nafas va yurak a'zolarining muskullarini innervatsiyalaydi. Qo'shimcha nerv bo'yin muskulalarini harakat nervlari bilan ta'minlaydi.

Bu sistema bo'yicha bosh miya nervlari orqali nerv impulsleri markaziy nutq apparatidan periferik nutq apparatiga yuboriladi. Nerv impulslarini harakat nervlari bilan ta'minlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutq apparati qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Markaziy nutq organlarining qanday tizimlari mavjud?
3. Markaziy nutq organlari xususiyatlari qanday?

12-mavzu. Inson nutq organlarining periferik tizimi

Reja:

1. Nutq apparati qismlari.
2. Periferik nutq organlari tizimi.
3. Periferik nutq organlari xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq apparati, periferik tizim, nutq organlari, nutq organlari fiziologiyasi.

Tibbiyot nogironlik bilan uzviy bog‘langan, lekin uning mavqeyini birdaniga baholash va isbotlash qiyin. Muammoni tushuntirishning oddiy bir usuli: imkoniyati cheklangan insonlar albatta kasal bo‘lishi lozimmi degan, savolni qo‘yishdir. Savolni boshqacha qo‘yish esa nogironlik kasalliklarga olib boradimi yoki aksimi deganidir. Uchinchi yo‘l esa savolni nogironlik faqat tibbiy vositalar orqali yoki ularsiz ham hal etiladimi, tarzi-da qo‘yishdir.

Nutq apparati o‘zaro chambarchas bog‘langan ikki qismdan: markaziy (yoki bajaruvchi) qismdan tashkil topgan.

Markaziy nutq apparati – bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig‘idan qobiq osti tugunlaridan, o‘tkazuvchi yo‘llar, o‘zakdan (avvalo uzunchoq miyada), yadrolar va ovoz, nafas, artikulatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Periferik nutq apparati tarkibiga: burun, og‘iz, halqum, hi-qildoq, traxeya, bronxlar, o‘pka, ko‘krak qafasi diafragma kiradi.

Burun – nafas olish yo‘llarining boshlang‘ich qismi. Shu bilan birga burun hid bilish organidir.

Burun uch qismdan iborat:

- ichki qism;

- o‘rta qism;
- ildizi.

Burun tashqi tomondan teri bilan, ichki tomondan shilliq pardaga bilan o‘ralgan bo‘lib, shilliq pardada mayda bezchalar, tuklar, yuza joylashgan qon tomirlar bor. Burun orqali nafas olinganda, havo ilib, tozalaniib, keyin o‘pkaga o‘tadi.

Burun nutq organi vazifasini ham bajaradi.

Og‘iz ovqat hazm qilish kanalining boshlang‘ich qismi bo‘lib, og‘iz nutq va ta’m bilish a’zosi ham.

Ayrim hollarda burun orqali nafas olish buzilganda — og‘iz nafas olish vazifasini bajaradi.

Og‘iz ikkiga bo‘linadi:

1. Og‘iz dahlizi — yoriqsimon bo‘sqliq bo‘lib, oldidan va yonidan lablar va lunjlar bilan; orqa tomonda esa milklar va tishlar bilan chegaralangan.

2. Og‘iz bo‘shtlig‘i — tishlarni orqa qismida joylashgan va halqumgacha bo‘lgan bo‘shtiliqlarni egallaydi.

Lablar — og‘iz aylanma mushaklaridan tuzilgan. Tashqi tomondan teri bilan, ichki tomondan shilliq parda bilan o‘ralgan.

Shilliq parda lablardan yuqori va pastki jag‘larni yacheykasiga o‘tib milkni hosil qiladi. Og‘izning aylanma muskullari qisqarganda yuqori lab pastki labga yopishadi. Bundan tashqari lablar atrofida boshqa mushaklar joylashgan va ular lablarning turli harakatlarini ta’minlaydi.

Lunjlar ham mushaklardan tuzilgan bo‘lib, ichki tomondan shilliq bilan qoplangan. Og‘iz shaklini o‘zgartirishda bir qator muskullar ishtirot etadi. Chaynashda ishtirot etadigan mushak — chakka mushagi, ichki va tashqi qanotsimon mushaklar.

Chaynov va chakka mushaklari — tushirilgan pastki jag‘ni ko‘taradi. Qanotsimon mushaklar ikkala tomonda barobar qisqarib — pastki jag‘ni oldinga turib chiqaradi. Chaynov muskululari — uch tarmoqli nervning harakatlantiruvchi tarmoqlari bilan nervlanadi.

Tishlar – ular ikki yoyga (yuqori va pastki) o‘xshab, yuqori va pastki jag‘larning yacheykalarida joylashgan. Har tishda uchta (3) qism tavofut etiladi:

- koronkasi;
- bo‘yni;
- ildizi.

Shakli va faoliyatiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- a) oldingi tishlar;
- b) mayda jag‘ tishlar;
- d) katta jag‘ tishlar.

Birinchi tishlar 6–8 oyida paydo bo‘lib, 2–3 yoshida hamma sut tishlari chiqib bo‘ladi ($20 = 10$ ta tepada, 10 pastda). Sut tishlarining haqiqiy tishlarga almashinishi 7 yoshdan boshlanib, 13–14 yoshda tugaydi. Faqat aql tishlar 18–30 yoshda chiqadi. Doimiy tishlar 32 ta: 16 ta tepada 16 ta pastda. Tishlar koronkasining shakli va ildizning soniga qarab farqlanadi. Koronkaning shakliga qarab tishlarni: ovqatni kesuvchi; o‘sib oluvchi; burdalovchi qoziq tishlar, maydalovchi kichik jag‘ tishlar, ezuvchi katta jag‘ tishlar deyiladi. Tish ichida bo‘shliq bo‘lib, buni tishning eti yoki pulpa deyiladi. Tishning asosiy massasi dentin moddadan tashkil topgan. Dentin tish koronkasi sohasida emal bilan, ildizlari sohasida — sement bilan qoplangan.

Qattiq tanglay — suyak plastinkasidan iborat bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘idan ajratib turadi. Shakli jihatdan bo‘rtib chiqqan gumbazning yuqori qismini eslatadi. Orqada yumshoq tanglayga o‘tadi.

Yumshoq tanglay — muskul qavatidan tuzilgan bo‘lib, u o‘rta qismida uzayadi va tilchani hosil qiladi. Yumshoq tanglay tilchasi bilan normada osilib turadi, muskullar qisqarganda tepaga va orqaga ko‘tariladi.

Til — bu massiv muskulli a’zo. Til ovqatni mexanik jihatdan ishlashda, so‘zlash jarayonida qatnashadi. Til shilliq parda bilan qoplangan. Tilni o‘rta qismi — til tanasi deyiladi, oldingi qismi — til uchi va orqa qismi — til ildizi deyiladi. Til 2 guruh muskulardan tashkil topgan.

- 1-guruh tilni xususiy mushaklari; suyakdan boshlanib, tilni shilliq pardasining har xil qismlariga yopishadi.
- 2-guruhdagi mushaklar ikkala tomonidan ham tilning shilliq qavatiga birikkan bo‘ladi.

1-guruh muskullar qisqarganda butun til harakatlanadi. 2-guruh muskullar qisqarganda tilning ayrim qismlarini joylashishi va shakli o‘zgaradi. Tilning pastki qismidagi shilliq parda og‘iz bo‘shlig‘ining tagiga o‘tib, o‘rtada yog‘ilib, til yuganini hosil qildi. U ayrim hollarda yaxshi rivojlanmay, tilning harakatini cheklaydi.

Halqum – ovqat hazm qilish va nafas yo’llarining bir qismidir. U ichi bo‘sh qavar a’zo bo‘lib, muskullar, fibroz pardalardan tashkil topgan, ichki tomonidan shilliq parda bilan qoplangan. Halqum – og‘iz va burun bo‘shlig‘ini – yuqoridan hiqildoq va pastdan qizilo‘ngach bilan bog‘lab turadi. Oldinda joylashgan a’zolarga mos holda halqum uch qismiga bo‘linadi:

- burun halqum;
- o‘rta og‘iz qismi – og‘iz-halqum;
- pastki hiqildoq qismi – ya’ni hiqildoq halqum.

Burun halqum faqat nafas olishda ishtirok etadi, uning devorlari puchaymaydi va ular harakatsizdir.

- A) yuqori chegarasi – bosh suyakning asosi;
- B) orqa devorini – umurtqa tashkil etadi;
- C) oldingi devori yo‘q, bu yerda burun bilan tutashadi;
- E) pastki chegarasi – qattiq tanglay.

Tish harakatida bu chegara orqaga surilib, umurtqaga yopishadi va burun halqumni o‘rta qismidan ajratadi. Burun halqumda halqumga ochiladigan Yevstaxiy nayining teshiklari bor. Eshituv nayining teshigidan orqaroqda burun-halqumni har bir devorida chuqurcha – halqum cho‘ntagi bor bo‘lib, odatda o‘ngga limfadenoid to‘qima to‘plangan bo‘ladi. Bu limfadenoid tuzilmalar halqum murtaklari deb ataladi.

2. Halqumning o‘rta qismi – o‘rta og‘iz qism – burun halqumning davomi bo‘lib,

- a) pastki chegarasi – til ildizi;
- b) orqa devorini – umurtqa tashkil etadi;
- c) oldi tomondan og‘iz bo‘shtlig‘i bilan birlashadi – kattakon teshik orqali – bu teshikni bo‘g‘iz deyiladi;
- e) yuqori chegarasi – qattiq tanglay.

Hiqildoq yuqorida yumshoq tanglay bilan chegaralanadi, pastda tilni ildizi bilan chegaralanadi, yon tomondan – oldingi va orqa tanglay yoylari bilan chegaralanadi.

Yumshoq tanglayning o‘rta qismi o‘simta shaklida cho‘zilgan bo‘lib, u tilcha (uvula) deb ataladi. Yumshoq tanglay yon bo‘limlarida ajralib, oldingi va orqa tanglay yoylarini hosil qiladi. Ular-da muskullar joylashgan bo‘ladi. Bu muskullar qisqarganda qarama-qarshi yoylar yaqinlashib, yutinish aktida, sfinkter sisatida ishtirok etadi. Yumshoq tanglayning o‘zida muskul joylashgan bo‘lib, yumshoq tanglayni ko‘taradi va halqumni orqa devoriga qisadi. Bu muskulning qisqarishi tufayli eshitish nayining teshigi kengayadi (Yevstaxiy nayi).

Yumshoq tanglayning ikkinchi muskuli uni yon tomonlarga tarang qilib tortadi va cho‘zadi, eshitish nayining faqat og‘zini kengaytiradi.

Tanglay yoylari orasida uchburchak o‘yoqchalarda tanglay murtaklari joylashgan. Murtaklar normada himoya vazifasini bajaradi.

Hiqildoq – tog‘ay va yumshoq to‘qimalardan tuzilgan keng, kalta nayga o‘xshaydi. U bo‘yin sohasida 4–6 bo‘yin umurtqalari ro‘parasida joylashgan bo‘lib, 9 tog‘aydan iborat. Uchtasi toq, ya’ni:

1. Qalqonsimon tog‘ay.
2. Hiqildoq qopqog‘i (ustki tog‘ayi).
3. Uzuksimon tog‘ay.

Juft tog‘aylar: cho‘michsimon; shoxsimon hiqildoq tog‘ay, ponasimon hiqildoq tog‘aylardan tuzilgan.

Hiqildoq tog‘aylari bir-biriga nisbatan ma’lum harakatchanlikka yo‘l qo‘yadigan boylamlar va bo‘g‘imlar orqali o‘zaro birlashgan.

Hiqildoq muskullari tashqi va ichki muskullarga ajratiladi:

1-guruhga tashqi hiqildoqni muayyan bir holatda tutib turadigan, uni ko'taradigan va tushiradigan 3 ta juft muskullar kira-di. Bu muskullar hiqildoqning oldi va yon yuzasida joylashgan.

2-guruh (ichki)dagi muskullar esa — uchta guruhga bo'linadi:

- ovoz pardalarini tortuvchi muskul;
- ovoz yorig'ini kengaytiruvchi muskul;
- ovoz yorig'ini toraytiruvchi muskul.

3. Halqumning pastki, ya'ni hiqildoq — halqum bo'limi.

Og'iz-halqum va hiqildoq-halqum o'rtasidagi chegara hiqildoq qopqog'ining yuqori cheti va til ildizi hisoblanadi.

Hiqildoq-halqum pastda voronkasimon torayib qizilo'ngachga o'tadi. Halqumning hiqildoq qismi 4—5 va 6-bo'yin umurtqala-rining oldingi sathida joylashgan.

Halqum pastki bo'limining asosiy qismi hiqildoqning orqasida shunday joylashadiki, hiqildoqning orqa devori halqumning ol-dingi devori bo'lib qoladi.

Halqumda 2 xil muskullar bor:

- qisuvchi (yuqori, o'rta va pastki) — ketma-ket, to'lqinsimon qisqarib, ovqatni yutishni ta'minlaydi, ya'ni ovqatni qizilo'ngach-ga yo'naltiradi;
- ko'taruvchi — boylama muskullar halqumni yuqoriga ko'taradi va ovqatni qizilo'ngach tomon suradi.

Traxeya-kekirdak, hiqildoqning davomi hisoblanib, u bevosita uzuksimon traxeya boylami bilan bog'langan (16—20).

Traxeya uzun silindrsimon nay bo'lib, (uzunligi 11—13 sm) 6-bo'yin umurtqa tanasining sathidan boshlanadi, 4—5-ko'krak umurtqalari sathida esa 2 ta asosiy bronxga bo'linadi. Bo'lingan joyni traxeya ayrisi deyiladi (bifurkatsiyasi). Traxeyani yoni doi-miy hisoblanadi:

Erkaklarda 15—22 mm, ayollarda 13—18 mm, ko'krak yoshida-gi go'daklarda 6—7 mm, 10 yoshli bolalarda 8—11 mm.

Traxeyani ichki tomondan tebranuvchi silindrik epiteliy qopla-gan. Shilliq parda bilan o'ralgan. Kiprikchalarining harakati yu-

qoriga tomon yo'nalgan. Traxeya devorining bo'sh turgan uchlari orqaga yo'nalgan 16–20 tog'aysimon boylamlardan tuzilgan.

Traxeya ayridan ikkita asosiy bronxlar bor bo'lib, o'ng tomondagisi chap tomonga qaraganda kaltaroq va kengroq. O'ng bronxning uzunligi 3 sm, chapniki 5 sm, o'ng bronxlar traxeyaning davomi hisoblanadi. Shuning uchun yot jismlar shu yerga tushadi. Birlamchi bronxlar o'pkaga yo'nalib, ikkilamchi bronxlarga bo'linadi.

O'ng bronx – uchtaga bo'linadi, chap bronx – ikkiga bo'linadi, shunga qarab o'ng tomondagi o'pka uch bo'limdan, chap tomondagi o'pka ikki bo'limdan tuzilgan. O'pkaning alveolalari da havo almashinadi: nafas olingandagi havodan qonga kislород o'tadi va qondan karbonat angidrid havoga o'tadi.

O'pkalar ko'krak qafasida joylashadi, ular orasida bo'shliq bo'lib, unda yurak, aorta, qizilo'ngach joylashgan.

Tashqi tomordan o'pka seroz parda bilan (plevra) qoplangan. Tovush hosil bo'lismida nafas olish apparatining uchta asosiy bo'limi:

- o'pka, bronxlar, traxeya (pastki rezanator);
- hiqildoqning tovush apparati, xususan tovush boylamlari;
- og'iz bo'shlig'i, burun va uning atrofidagi qo'shimcha sinuslarni rezonatsiya qiladigan pastki jag', lab, tanglay va lunjlarining harakati tufayli o'z shaklini o'zgartiruvchilar ishtirok etadi (yuqoridagi rezinotor).

Periferik nutq apparatining vazifasi uch bo'limdan iborat:

- nafas bo'limi;
- ovoz bo'limi;
- artikulatsion bo'lim.


Nafas bo'limiga ko'krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi. Nutq talaffuzi nafas olish bilan uzviy bog'liqdir. Nafas yordamida organizmning kislород bilan to'yinishi ro'y beradi va gaz almashinuvi chiqindilari tashqariga chiqariladi.

Kattalarning bir daqiqalik o'pka hajmi 6–8 l havo atrofida barobariga kattalashishi mumkin. Odam normal osoyishta na-

fasda 500–600 m havo oladi va chiqaradi. Bu nafas havosi deb ataladi. O'pkaning hayotiy hajmi nafas, qo'shimcha va zaxira havodan tashkil topgan. Inson o'pkasining hayotiy hajmi doimiy emas, u katta tebranishlarga uchrab turadi. Bolalar o'pkasining hajmi uning yoshiga bog'liqdir. Katta odam minutiga 16–20 marta nafas olib chiqaradi, maktabgacha yoshdagi bola 25–30, yangi tug'ilgan chaqaloq 50 martagacha. Jismoniy zo'riqishda yutilayotgan havo miqdori burun orqali yetmaydi va odam og'iz orqali yoki aralash nafas olishga o'tadi.

Nutqdagi nafas. Nutq davomida nafas organlari gaz almashish biologik funksiyasini oshirish bilan birga ovoz hosil qilish va artikulatsion funksiyasini ham bajaradi.

Tinch holatda nafas chiqarish ong yordamiga muhtoj bo'lmaydi, u avtomat boshqariladi. Ma'lumki, nutq nafas chiqarish fazasida vujudga keladi. Nutq davomidagi nafas olish nafas chiqarishga nisbatan qisqaroqdir, chiqarish esa uzoqrokdir.



17-rasm. Ovoz boyamlarining joylashishi. A-nafas olganda, B-tovush chiqarganda, B-nafas chiqarganda

Shuni ta'kidlash lozimki, nutq vaqtidagi nafas chiqarish ko'krak qafasi nafas chiqaruvchi mushaklari va hiqildoq ko'p qismini egallagan ovoz psychalarining faol harakatiga bog'liq.

Odatdagi nafas olishda ovoz tuynugi keng ochiladi va uchbur-chak shaklga keladi. Havo bu tuynukdan bermalol o'tadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va nutqi yo'q bolalarda ko'pincha nutqiy nafasning nuqsonlari kuzatiladi: ular ko'p miqdorda havo to'ldirib yuboradi yoki aksincha, yetarlicha nafas olmaydi, shuningdek, nutqda havoni rejasiz sarflaydi. Tovush kuchi chiqarayotgan havo zo'riqishi va ovoz boylamlari tebranishining amplitudasiga bog'liq. O'pka ko'proq havo bilan to'lganda va katta tezlikda baland ovoz yuzaga keladi. Lekin halqumda yuzaga kejadigan ovoz kuchi juda zaif bo'ladi, uning kuchi rezonator yoki (nadstav) naychada paydo bo'ladi. Shu tarzda ovozning kuchi va balandligi hosil bo'ladi.

Tovushni talaffuz qilishda tovush yorig'i avvaliga berk turadi, ya'ni tovush boylamlari tarang va bir-biriga yopishgan holatda turadi, so'ngra o'pka, bronxlar va traxeyadagi havo bosimi tufayli, u juda qisqa vaqtgacha ochiladi va shu paytda tovush yorig'idan havo o'tadi, undan so'ng tovush burmachalari yana bir-biriga yopishadi, bu tebranma harakatlar soni chiqayotgan tovush soni balandligiga mos keladi. Zarur balandlikdagi tovushni talaffuz qilish uchun kishi hiqildoq muskullarini qisqartirib, reflektor ravishda tovush burmachalariga ma'lum uzunlik va taranglikni, yuqorigi rezinatorlarga esa ma'lum shaklni beradi.

Shivirlab gapirganda tovush burmachalarining oldinagi bo'limlarida qisilish ro'y beradi, havo tovush yorug'i orqa li o'tib, orqa bo'limda shovqin hosil qiladi, u *shivirlagan tovush* deb ataladi.

Tovush balandligi, kuchi va tembri bo'yicha farq qiladi.

Erkaklarda hiqildoq va tovush burmachalari o'lchamining bolalar va ayollarga qaraganda kattaligi tufayli, erkaklarda tovush bir oktavaga past bo'ladi. Tovushni *sinishi* yoki uning mu-

tatsiyasi balog‘at yoshiga yetganda (12–16 yoshlar orasida) yuzaga keladi.

O‘g‘il bolalarda tovush diskant yoki altdan tenor, baritone yoki basga o‘tadi, qizlarda esa – sapranoga o‘tadi.

Artikulatsion bo‘limning asosiy a‘zosi tildir, chunki u hamma unli va undosh tovushlarning hosil bo‘lishida qatnashadi. Tovushlarning balandligi va aniqligi rezanatorlar yordamida hosil bo‘ladi. Rezanatorlar halqum, og‘iz, burun bo‘shlig‘idan iborat, bu bo‘shliqlar tovushlarni talaffuz etishga imkon yaratadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

2. Periferik nutq organlari tizimi nima?
3. Periferik nutq organlarining qanday xususiyatlari bor?

13-mavzu. Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi

Reja:

1. Nutq organlari kasalliklari.
2. Markaziy nutq organlari kasalliklari.
3. Periferik nutq organlari kasalliklari.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq organlari, markaziy tizim, periferik tizim, kasalliklar, etiologiya, patologiya.

Nutq sistemasi kasalliklarining etiologiyasi:

- onaning homiladorlik davridagi infektion kasalliklar (qizamiq, sitomegaliya, toksoplazmoz, gripp va h.k.);
- onaning yurak-qon tomir va endokrin tizimidagi buzilishlar, homiladorlikning toksikozlari, homila va ona qonining immunologik to‘g‘ri kelmasligi, homiladorlik davrida jismoniy va ruhiy jarohatlar, asfiksiyalar, ona qornidagi travmalar;
- meningit, ensefalit, meningoensefalit, bosh miya travmalar;
- ona qornidagi paytda va tug‘ilgandan keyingi zararli omillarning ta’siri miya suyuqligi va qobig‘ida turli o‘zgarishlarni kel-

tirib chiqaradi, bu esa kelgusida ularning normal rivojlanishini izdan chiqaradi.

Periferik nutq apparatining patologiyasi. Tanglay kasalliklari. Yumshoq tanglay falaji – ko‘pincha bunday holat bolalarda difteri-yada kuzatiladi. Yumshoq tanglay umuman, mutlaqo ko‘tarilmaydi yoki qisman ko‘tariladi. Ayrim hollarda yumshoq tanglayning yarmi falajlanadi, natijada yumshoq tanglayning yarmi ko‘tarilib, ikkinchi yarmi qimirlamaydi. Hamma holatda ham yumshoq tanglay o‘z faoliyatini bajarmaydi, ya’ni og‘iz bo‘shlig‘ini, og‘iz halqum qismini burun halqumdan ajratmaydi yoki qisman ajratadi. Natijada manqalik yuzaga keladi, yutish buziladi – yutilgan suyuqlik burundan chiqadi.

Yumshoq tanglayning falajlanishini aniqlash oson, buning uchun bolaga «a» degan tovushni chiqarishni so‘rab, yumshoq tanglay harakati kuzatilsa, quyidagilarni ko‘rish mumkin: ikki tomonlama yumshoq tanglayning falajida yumshoq tanglay osilib turaveradi yoki bir yoni ko‘tarilishi mumkin (bir tomonlama falajlanishda). Bir tomonlama falajlanishda tilcha sog‘ tomonga tortiladi.

Davolash. Difteriya tufayli falaj hech qanday davosiz o‘tib ketadi. Tiklanishni medikamentsiz davo, elektr bilan davolash tezlashtiradi. Falaj turg‘un bo‘lsa – muntazam logopedik mashqlar o‘tkaziladi.

Tildagi nuqsonlar kam uchraydigan til anomaliyalariga tilning butunlay bo‘lmasligi – aglosiyani misol qilish mumkin. Bu esa tovushlar talaffuzining buzilishiga olib keladi. Til juda kichkina bo‘lishi mumkin (mikroglosiya), yoki haddan tashqari katta bo‘lishi mumkin (makroglosiya) – til og‘izga sig‘may, tishlarni orasidan o‘tib tashqariga chiqadi.

Nuqsonlardan ko‘p uchraydigani tilning yugani kalta bo‘lishi, natijada tilning harakati erkin bo‘lmaydi, cheklanib qoladi, natijada nutq buzilib, bola duduqlanib gapiradi. Yukanini kesish bu nuqsonni bartaraf etadi.

Jag'lar va tishlarda uchraydigan nuqsonlar. Bu nuqsonlariga og'iz yopilganda hosil bo'ladigan nuqsonlar kiradi – prikus nuqsonlari:

- prognatiya;
- trogeniya;
- ochiq prikus;
- yonlama ochiq prikus.

1. Prognatiya – yuqori jag' va tishlar oldinga chiqib ketgan bo'ladi, oldingi pastki tishlar yuqorilardan ancha ichkarida joylashadi. Yuqori tishlar pastki tishlarga tayanmagani uchun pastki tishlar uzayib, qattiq tanglayga tegishi mumkin.

2. Trogeniya – pastki jag' va tishlar oldinga turtib chiqishi.

3. Ochiq prikus – yuqori va pastki tishlar orasi ochiq qoladi. Oldingi tishlar orasi ochiq qoladi, bunga oldingi ochiq prikus deyiladi.

4. Agar oldingi qatordan tishlar birlashib, yon tomondagi jag' tishlar orasi ochiq qolsa, yonlama ochiq prikus deyiladi.

Prikus anomaliyalardan tashqari yana tishlarni joylashishi-da, tishlarning onda-sonda uchrashi, ba'zi tishlarning umuman yo'qligi, tishlarning shakli o'zgarishi, tartibsiz joylashishi, ortiq-cha tishlar bo'lishi – talaffuzning buzilishiga olib keladi.

Tishlarni tenglashtirish maxsus shinalar qo'yish orqali bajari-ladi. O'z qatoridagi ortiqcha chiqqan tishlar olib tashlanadi.

Shinalar 5–6 yoshdan 12 yoshgacha qo'yilsa yaxshi natija beradi, chunki suyaklar hali qotib qolmaydi. Bolalar bilan albatta logoped shug'ullanishi kerak.

Muskullar nervyanishining buzilishi. Lablar va lunjlarning erkin harakati yuz nervi falajlanganda buziladi – asosiy sabab o'rta qulquning yallig'lanishi, chunki yuz nervi nog'ora bo'shlig'i yonidagi suyak kanalidan o'tadi. Yuz nervi jarohatlanishi mumkin, yoki infeksiya ta'sir etishi mumkin, masalan, gripp, ayrim hollarda yuz nervining falaji, markaziy nerv sistemasiga qon quyilishi yoki o'smalar paydo bo'lishidan kelib chiqadi. Odatta yuz nervi bir tomonlama zararlanadi. Yuz asimmetrik ho-

latga keladi. Yuz nervi zararlangan tomonda ko'z yumilmaydi, qosh ko'tarilmaydi, peshana tirishmaydi, og'iz burchagi va lunj tushgan, tishlarni taqillatish mumkin bo'lmay qoladi, og'iz qarama-qarshi tomonga tortilib ketadi, lunjlarni shishira olmaydi yoki hushtak chala olmaydi, chunki lab yig'ilib birlashmaydi va havo yoriqdan kirib-chiqib turadi.

Yuz nervining falajida undosh va lablangan unli harflarni taffuz qilish buziladi. Ko'p hollarda yuz nervining falaji tuzaladi va harakat to'liq tiklanadi.

Ba'zan falaj turg'un bo'ladi, lekin bu holda ham fizioterapiya, fizkultura va logopedik mashg'ulotlar orqali sezilarli darajada kompensatsiyaga erishish mumkin.

Og'iz bo'shlig'inining kasalliklari — og'iz bo'shlig'ida uchraydigan kasallikklardan—nutqqa ta'sir ko'rsatadigan nuqsonlardan eng ahamiyatliligi, qattiq va yumshoq tanglay, til, jag' va tishlardagi nuqsonlardir.

Lab va tanglayda uchraydigan nuqsonlar. Lab va tanglayda uchraydigan anomaliyalardan bu lab va tanglaydagi yoriqlar yuqori labdagi yoriqlar yengil hisoblanib, bir tomonda yoki ikki tomonda bo'ladi. Bir tomonlamada lab yorig'i bir tarafga qaragan bo'lib, burun teshigi bilan birlashadi. Ikki tomonlamada esa, yuqori lab uchg'a bo'linadi, ya'ni ikkita yon tomonga va bitta o'rtadagi labga. Lab yorig'ida tishlarning soni va joylanishi ham o'zgaradi. Labdagi, tanglaydagi yoriqlar go'dakning ovqatlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola ema olmaydi, ko'krakni ham, so'rg'ichni ham ema olmaydi, ovqat burun bo'shlig'idan o'tib ketadi, bola qalqib ketaveradi, yo'taladi, qayt qiladi. Ovqatning nafas yo'liga o'tib ketishi bronxlar va o'pkaning yallig'lanishiga olib keladi. Shuning uchun paydo bo'ladigan asoratlar va ovqatlanishning buzilishi ko'p hollarda bolaning halok bo'lishiga olib keladi. Tirik qolganlarda keyinchalik nutqida o'zgarishlar bo'lib, bola manqalanib gapiradi, so'zлari ravon bo'lmaydi, ovozi past bo'ladi.

Burun katagining bitib ketishi yoki torayishi – bu kasallik tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda burunga kirish qismi berk bo‘lishi mumkin (atreziya).

Burunning nuqsonlari (qo‘shaloq burun), umuman burunning bo‘lmasligi, tashqi burun bir yoki ikkala pallasining bo‘lmasligi ko‘pincha boshqa organlar va gavda qismlarining rivojlanish nuqsonlari bilan birga uchraydi.

Burun nuqsonlari faqat xirurgik yo‘l bilan davolanadi.

Burunning bitib ketishi ko‘pincha yuqumli kasallikkarda uchraydi, ya’ni yaralar paydo bo‘lishi tufayli (difteriya, sifilis).

Burunning lat yeishi, shikastlanishi erkaklarda va yosh bolarlarda ko‘p uchraydi. Lat yeganda burunning suyaklari, to‘sig‘i sinishi mumkin. Natijada, burunning shakli o‘zgaradi, o‘ng yoki chapga qiyshayadi. Lat yeganda shilliq pardaga qon quyiladi, shish paydo bo‘lib, keyin u absesssga aylanib, absess tufayli burunning tog‘ay to‘sig‘i yemirilib, burun to‘g‘ri bo‘lmasdan egarsimon bo‘lib qoladi – burundan nafas olish, burun bo‘shlig‘ining rezonator faoliyati buziladi.

Davolash – xirurgik yo‘l orqali bola 18 yoshga kirganida, ya’ni yuz skeleti rivojlanib bo‘lganidan so‘ng o‘tkaziladi.

Higildoqning rivojlanish nuqsonlari – ko‘pincha higildoq ushti tog‘ayida o‘zgarishlar bo‘ladi, u rivojlanmay qolishi, yoki umuman bo‘lmasligi mumkin, yoki bir necha bo‘lakchalarga bo‘lin-gan bo‘lishi mumkin.

Halqumda paydo bo‘ladigan chandiqlar. Ayrim yuqumli kasallikkarda (skarlatina, difteriya) halqumning shilliq pardasi juda chuqur zararlanadi, hatto ayrim joylarida nekrozga uchrab o‘ladi va shu yerlarda chandiqlar paydo bo‘ladi. Sifilitik yaralar ham chandiqlarga olib keladi.

Chandiqlarning joylashishi turli xil bo‘ladi.

Ayrim hollarda yumshoq tanglayga, uning yoylari tilini butunlay o‘zgartiradi, yoki chandiqlar yumshoq tanglayning qoldiqlari halqum orqa devoriga birikib bitib qolishi natijasida og‘iz bo‘shlig‘i – og‘iz halqum bo‘limi butunlay burun-halqum

bo'limidan ajralib qoladi. Burun bilan nafas olib bo'lmaydi yoki qiyinlashadi, manqalik kuzatiladi, talaffuzda nuqsonlar kuzatiladi.

Halqumning kuyishida ham o'xhash holatlar kuzatiladi.

Halqum va qizilo'ngachning termik, kimyovviy, elektrdan va nurdan kuyishlari farq qiladi.

Og'iz bo'shlig'i, halqum va qizilo'ngachning termik kuyishi odatda qaynoq ovqat, ko'pincha suyuqliklarni yutishdan, ba'zan bu bo'shliqlarga issiq havo, gaz yoki bug' kirishidan kelib chiqadi. Halqum va qizilo'ngachning kimyoviy kuyishlari odatda ancha og'ir bo'ladi. Ular suyuq zaharlarni ko'pincha konsentrangan kislota va ishqor eritmalarini tasodifan yoki atayin ichishdan so'ng paydo bo'ladi (sirka, essensiya, kaustik soda).

O'tkir laringit. Hiqildoq shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi – o'tkir laringit – gripp, yuqori nafas yo'llarining qatorida – shu yo'llarning yallig'lanishi hiqildoqqa tarqalishi mumkin. Ovozni zo'riqtirish, chekish, laringitga moyillikka olib keladi. Buning ustiga organizm umumansovqotsa yoki mahalliy sovish yuz bersa (zax va sovuq havodan nafas olish, muzqaymoq yeyish, muzdek suv ichishi) hiqildoqning yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

Belgilari: tomog'i qiriladi, quriydi, achishadi, qichishadi, quruq yo'tal paydo bo'ladi, ovozi xirillab chiqadi, yoki umuman ovozi chiqmaydi (afoniya), hiqildoq ko'zdan kechirilganda – tovush pardalari qizarib, bo'rtib turadi, soxta ovoz pardalari tovush chiqarishga harakat qilganda bekilmaydi (shuning uchun ovoz xirillab chiqadi yoki ovoz butunlay chiqmaydi (afoniya). O'tkir laringit to'g'ri davolansa 7–10 kun ichida tuzaladi.

Asosiy davo – hiqildoqqa butunlay tinchlik berish – tovush rejimiga rioya qilish (gapirmaslik). Bemor 5–7 kun ichida umuman gapirmasligi kerak, o'tkir garmdori, gorchitsa, sirka iste'mol qilishi mumkin emas. Juda issiq va sovuq ovqat yeyish, chekish, spirtli ichimliklar ichish mumkin emas. Davolovchi muolajalar – iliq ichimliklar, bo'yinga isituvchi kompress bog'lash, pardan in-galatsiya.

Dori-darmonlar bilan davolash hiqildoqqa yallig‘lanish protsessini tugatish va kasallik asoratlarining oldini olishga qaratilgan.

Nutq apparatining tuzilishi.

Nutq apparati o‘zaro chambarchas bog‘langan ikki qismdan: markaziy (yoki boshqaruvchi) nutq apparati va periferik (yoki bajaruvchi) qismdan tashkil topgan.

Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig‘idan, qobiq osti tugunlaridan, o‘tkazuvchi yo‘llar, o‘zakdan (avvalo, uzunchoq miyada), yadrolar va ovoz, nafas, artikulatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Markaziy nutq apparati va uning bo‘limlari vazifasi nimalardan iborat?

Nutq boshqa oliy nerv faoliyatining ko‘rinishlari singari, reflekslar asosida shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyati bilan bog‘liqdir. Biroq bosh miya qobig‘ining ayrim bo‘limlari nutqning hosil bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi. Bular chap (chapaqaylarda o‘ng) yarimsharning peshana, chakka va ensa qismlaridir. Bosh miya qobig‘ining bu qismlarida nutq faoliyatida faol ishtirok etuvchi:


- 1) nutq harakat analizatori;
- 2) nutq ko‘rvuv analizatori;
- 3) nutq eshituv analizatori joylashgan.

Nutq harakat analizatori bosh miya qobig‘ining chap peshana qismida joylashgan bo‘lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og‘zaki nutqning paydo bo‘lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizatori bosh miya qobig‘ining chap chakka qismida joylashgan bo‘lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro‘y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig‘ining orqa bo‘lagi katta rol o‘ynaydi. Bu bosh miyaning ko‘rvuv markazi hisoblanib, yozma nutqni o‘zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Qobiq osti yadrolari nutqning sur’ati va ifodaliligini boshqaradi.

O'tkazuvchi yo'llar. Bosh miya qobig'i periferik nutq a'zolari bilan o'zaro bog'liqidir. Bunda nerv yo'llarining ikki: markazdan qochuvchi va markazga intiluvchi turlari ishtirot etadi.



18-rasm. Nutq apparatining tuzilishi:

1 – bosh miya; 2 – burun bo'shlig'i; 3 – qattiq tanglay; 4 – og'iz bo'shlig'i; 5 – lablar; 6 – tishlar; 7 – til uchi; 8 – til orqasi; 9 – til ildizi; 10 – kichik tilcha; 11 – halqum; 12 – hiqildoq; 13 – traxeya; 14 – o'ng bronx; 15 – o'ng o'pka; 16 – diafragma; 17 – qizilo'ngach; 18 – umurtqa; 19 – orqa miya; 20 – yumshoq tanglay.

Markazdan qochuvchi (harakatlanuvchi) nerv yo'llari bosh miya qobig'ining periferik nutq apparati faoliyatining boshqaruvchi muskullari bilan bog'laydi. Markazdan qochuvchi yo'l bosh miya qobig'ining Broka markazidan boshlanadi.

Periferiyadan markazga, ya'ni nutq a'zolari qismidan bosh miya qobig'iga, markazga intiluvchi yo'llar o'tadi.

Markazga intiluvchi yo'l proprioretseptorlarda va baroretseptorlarda boshlanadi. Proprioretseptorlar muskullar harakat a'zolarining bo'g'inli qatlamlarida joylashgan bo'ladi. Proprioretseptorlar muskullarning qisqarishi ta'sirida harakatga keladi. Proprioretseptorlarning vazifasi muskullarimiz faoliyatini nazorat qilishdir. Baroretseptorlar o'zlariga nisbatan bo'lgan bosimning o'zgarishi natijasida harakatga keladi va ular halqumda joylashgan bo'ladi. Biz gapirgan vaqtimizda markazga intiluvchi yo'l orqali bosh miya qobig'iga kelayotgan proprio va baroretseptorlar harakati ro'y beradi. Markazga intiluvchi yo'l butun nutq organlari faoliyatida umumiy reguluator (boshqaruvchi)lik rolini bajaradi.

Stvol yadrosidan bosh miya nervlari boshlanadi. Periferik nutq apparatining hamma a'zolari bosh miya nervlari bilan ta'minlanadi. Ulardan asosiyları: uch tarmoqli, yuz, til-halqum va sayyor nervlar — hiqildoq va ovoz boyqlamlarini, halqum va yumshoq tanglay muskullarini innervatsiyalaydi. Bundan tashqari, til-halqum nervi tilning sezuvchi nervi bo'lib hisoblanadi. Sayyor nerv esa nafas va yurak a'zolarining muskullarini innervatsiyalaydi. Qo'shimcha nerv bo'yin muskullarini innervatsiyalaydi, til osti nervi til muskullarini harakat nervlari bilan ta'minlaydi.

Bu tizim bo'yicha bosh miya nervlari orqali nerv impulsleri markaziy nutq apparatidan periferik nutq apparatiga yuboriladi. Nerv impulsleri nutq a'zolarini harakatga keltiradi.

Markaziy nutq apparatining nutq apparatiga boruvchi bu yo'l nutq mexanizmining faqat bir qismini tashkil qiladi. Uning boshqa qismi orqaga, ya'ni periferiyadan markazga qaytuvchi aloqadan iborat.

Endi periferik nutq apparatining tuzilishini ko'rib chiqamiz. Periferik nutq apparati uch bo'limdan iborat: 1) nafas bo'limi; 2) ovoz bo'limi; 3) artikulatsion bo'lim.

Nafas bo'limiga ko'krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi.

Nutqni talaffuz etish nafas olish bilan uzviy bog'liqdir. Nutq nafas chiqarish fazasida hosil bo'ladi. Nafas chiqarish jarayonida havo oqimi bir vaqtning o'zida tovush hosil qiluvchi va artikulatsion funksiyani bajaradi. (Shu bilan birga, asosiy funksiyasi havo almashinuvini ham bajaradi.) Nafas olish nutq jarayonida, odam jum turgan odatdag'i vaqtdan jiddiy farq qiladi. Nafas chiqarish nafas olishdan biroz uzoqroq bo'ladi (nutqdan tashqari vaqtida nafas olish va nafas chiqarishning davomiyligi deyarli bir xil bo'ladi). Bundan tashqari, nutq talaffuz qilinayotgan vaqtida nafas olish harakatlari soni odatdag'i nafas olish va nafas chiqarish (nutqsiz) vaqtidagidan ikki marotaba kamdir.

Burmalar osti laringiti (soxta bo'g'ma).

Bu o'tkir kataral laringitning bir turi bo'lib, tovush burmalar osti bo'shlig'iда hosil bo'ladi. Odatda 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi.

Bu bolalar hiqildog'ining anatomik tuzilishi teshigining torligi va burmacha osti bo'shlig'i kletchatkasining g'ovakligiga bog'liq. Kasallikning boshlanishi odatda burun yoki hiqildoq shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi bilan bog'liq. Soxta bo'g'ma laringospazmiga moyilligi diatez bilan kasallangan bolalarda ko'proq uchraydi.

Belgilari: soxta bo'g'ma odatda to'satdan, yarim kechada, quvvuq yo'tal xuruji bilan boshlanadi. Bola uyg'onib, o'rinda bezovtalanadi. Bunday paytda, nafas olish hushtak chalgandek shovqinli, qiyinlashgan bo'ladi, inspirator hansirash yuzaga keladi. Tirnoqlar va ko'rinib turadigan shilliq pardalar ko'karib ketadi. Qo'rquvdan bolaning yo'tali yanada zo'rayadi. Tekshirishda quyidagilar ko'rildi: bo'yinturuq chuqurchasi, o'mrov usti va o'mrov osti bo'shliqlari, epigastral soha yumshoq to'qimalarining ichiga tortilganligi aniqlanadi. Bu holat bir necha minutdan to yarim soatgacha davom eta-

di. Shundan keyin bola g'araq-g'araq terlaydi, nafas olishi normal-heshadi, bola uyquga ketib, ertalab sog'lom uyg'onadi.

Ammo kasallik xuruji bir necha kundan yoki 1–2 haftadan keyin yana qaytalashi mumkin. Nafas olishning buzilishi va yo'tal doimiy bo'lishi mumkin.

O'tkir tumov – burun bo'shlig'i shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi. Bu bolalarda ham, kattalarda ham ko'p uchray-digan kasallikdir. O'tkir tumovning sababi—organizmning mahalliy va umumiy qarshilik kuchining pasayib ketishi va burun bo'shlig'idagi patogen mikroblar faolligining oshishidir. Asosan bu umumiy sovqotish, oyoqdan sovuq o'tib organizmning himoya—reflektor mexanizmlarini buzadi. O'tkir tumov boshlanayotganda burun va halqum quriydi, achishadi, burundan nafas olish qiyinlashadi, ko'z yoshlanadi, bosh og'riydi, aksa urish bezolta qiladi. Behollik, et uvishishi, ba'zan ko'z sohasida, peshana sohasida og'riq paydo bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi. Burun bo'shlig'inining shilliq pardasi yallig'lanishi natijasida qalin tortadi, bu esa burundan nafas olishni qisman yoki butunlay berkitib qo'yishi mumkin. Hid sezish, ta'm bilish ham pasayadi, bemor manqalanib gapiradi. Birinchi kunlardan boshlab ko'p miqdorda tiniq suyuqlik ajraladi. Kasallikning 4–5-kunlarida ajralayotgan suyuqlik avvaliga qo'ng'ir, so'ngra sariq rangda bo'ladi. Bir necha kun o'tgach burundan ajralayotgan suyuqlik miqdori kundan—kun kamayib, shilliq pardadagi shishlar qaytadi, burundan nafas olish va hid sezish tiklanadi, 8–14 kundan keyin kasallik tuzaladi. Yosh bolalarda Yevstaxiy naychasi qisqa va keng bo'lganligi sababli, o'tkir yallig'lanish halqumdan o'rta quloqqa o'tishi mumkin va quloqning yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

Davolash. Organizmning sovuq va issiqqa, namlik va quruqlikka chidamini oshirish zarur. Bolalar havo qanday bo'lishidan qat'i nazar, havoda o'ynashlari, yurishlari kerak. Kiyimi juda issiq ham, juda yupin ham bo'lmasligi kerak. Havoda o'tkaziladigan gimnastik mashg'ulotlar juda foydalidir; yozgi, qishki sport bilan shug'ullanish juda ham yaxshi natija beradi.

Burundagi poliplar – ular doirasimon o’smalardan iborat in-gichka oyoqchasi bo’ladi, rangi kulrang yoki sarg‘ish—qizil rangda, yuzasi silliq bo’ladi, qattiq-yumshoqligi mayda va ko‘p miqdorda bo’ladi. No‘xatdek yoki bitta katta bo‘lib, burun yo‘lining hammasini egallashi mumkin. Bemorning shikoyatlari – nafas olishning keskin ravishda qiyinlashuvi. Burun berkligi tufayli bemor manqalanib gapiradi, tez-tez boshi og‘rib turadi. Eshitish qobiliyati pasayishi mumkin. Davolash – xirurgik yo‘l orqali.

Manqalik – deb ovoz tembrini patologik o‘zgarishga va so‘zdag-i tovushlar talaffuzining buzilishiga aytildi, bunday patologiya ovoz va nutq hosil bo‘lishida burun bo‘shlig‘ining ishtiroki bu-zilishi natijasida yuzaga keladi. Manqalikning ikkita shakli ajratiladi:

1. Ochiq.
2. Berk.

Ochiq manqalikda tovushlarni talaffuz qilayotganda havo faqat og‘izdan emas, balki burundan ham o‘tadi.

Berk manqalikda havo faqat og‘izdan o‘tadi. Burunning ikkala katagini atreziyasida yoki boshqa turlarida patologiyani – burun yo‘llarini berkilishiga olib keladigan – burun rezonansini qisman yoki butunlay izdan chiqaradi va berk manqalikka olib keladi. Ovozning bir qator obertonlari yo‘qoladi, ovoz past bo‘ladi. Burun ishtirokida talaffuz qilinadigan tovushlar buziladi: «m» va «n» o‘rniga «b» va «d» (malika–balika; nyanya–dyadya). Kar-so-qovlarda ham berk manqalik kuzatiladi, chunki ular tovushlarni eshitish orqali to‘g‘rilay ololmaydilar.

Davolash. Operatsiya usuli bilan; keyin logoped shug‘ullanadi. Funksional manqalik (kar-soqovlikda) logopedik ishlar yordamida to‘g‘irlanadi. Tovushlarni talaffuz etishda burun bo‘shlig‘i ishtirok etmaydigan – normada yumshoq tanglay halqumni orqa devoriga yopishib, halqumning og‘iz qismini burun qismidan ajratadi, talaffuz qilishda hosil bo‘lgan havo og‘iz tomon o‘tadi va nutq normal tembriga ega bo‘ladi. Agar havoning ko‘proq qismi burunga o‘tib ketsa, manqalik yuza-

ga keladi, shunday holat qattiq tanglayning yorig‘ida, yumshoq tanglay kalta bo‘lib qolganda, yumshoq tanglayning parezi va falajlanishida kuzatiladi. Ochiq manqalik funksional ham bo‘lishi mumkin, masalan, kattalashib ketgan yumshoq tanglay pardalari orasidagi murtaklar xirurgik yo‘l bilan olib tashlanaadi. Manqalik yo‘qoladi. Ochiq va yopiq manqalik kar-soqovlarda kuzatiladi.

Davolash. Qattiq va yumshoq tanglaydagi nuqsonlar operatsiya yo‘li bilan tuzatiladi. Logoped operatsiyadan oldin ya undan keyin muntazam ravishda bemor bilan shug‘ullanishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutq organlarining qanday kasalliklarini bilasiz?
2. Markaziy nutq organlari kasalliklariga nimalar kiradi?
3. Periferik nutq organlari kasalliklariga nimalar kiradi?

14-mavzu. Inson nutqi nuqsonlarini o‘rganish metodlari

Reja:

1. Sistemali nutq buzilishlariga ta’rif.
2. Alalik bolalarning kliniko-pedagogik-psixologik tavsifi.
3. Afaziyalı bolalarning kliniko-pedagogik-psixologik tavsifi.

Tayanch so‘z va iboralar: alaliya, afaziya, asteniya, anomaliya, duduqlanish.

Alaliya – homila ichi yoki bolaning erta rivojlanish davrida bosh miya po‘stlog‘ida nutq zonalarining organik shikastlanishi natijasida nutqning umuman yo‘qligi yoki chala rivojlanishidir.

Adabiyotlarda alaliya tushunchasiga ma’nodosh sifatida «tugma afaziya», «antogenetik afaziya», «disfaziya», «nutq rivojlanishi shining ortda qolishi», «til o‘zlashtirishning buzilishi» va boshqa atamalar qo’llaniladi.

XX asrning 30-yillarigacha, «alaliya» va «afaziya» tushunchalari o‘rtasida aniq chegara bo‘lmagan, keyinchalik esa «alaliya»

— nutqning chala rivojlanishi ajratila boshladi. 50—60-yillarga kelib esa bu ajratishlar ko‘pchilik mualliflar tomonidan e’tirof etila boshladi.

Hozirgi kunda alaliyani o‘rganishning hamma muammolari o‘z yechimini topmagan, lekin logopediyaning zamonaviy bosqichida alaliyaga bo‘lgan qarashlar turlicha yondashishga nisbatan bir xil fikrlash tomon ko‘proqdir.

A.Libman (1925) alaliyaning 4 ta shaklini farqlaydi:

- motor alaliya;
 - sensor alaliya;
 - sensomotor alaliya;
 - alaliya va og‘ir mogilaliya o‘rtasidagi o‘tuvchi shakli.
- V.A.Kovshikov bo‘yicha alaliyaning 2 ta turi bor:
- impressiv (sensor);
 - ekspressiv (motor).

Alaliya nutq rivojlanishining faqatgina vaqtincha funksional orqada qolishi emas. Bunda nutqning butun shakllanish jaryoni markaziy asab tuzilishidagi patologik holat sharoitida kechadi.

Alaliyada nutq va nutqqa aloqasi bo‘lmagan belgilar o‘rin tutadi. Alaliyada til buzilishlari ustun turadi.

Nutqqa bog‘liq bo‘lmagan belgilar ichida motor, sensor, psixopatologik simptomlar farqlanadi.

Hozirgi kunda alaliya mexanizmlari haqidagi munozaralar murakkab va bahslidir.

Alaliya mexanizmini tushuntiruvchi sabablar shartli ravishda sensomotor, psixologik va til mexanizmlariga bo‘linadi.

Sensomotor yo‘qolishi tarafdorlari alaliyani sensomotor funksiyalar (agnoziya, aproksiya) patologiyasi bilan bog‘laydi.

Psiyologik yo‘nalish tarafdorlari fikricha, alaliyada ruhiyat faoliyatining ayrim tomonlarining patologiyasi kuzatiladi.

Til konsepsiysi tarafdorlari nutqning to‘liq rivojlanmasligini idrok etish va nutq jarayonlarining o‘zaro mos kelmasligi natijasida kelib chiqadi, deb hisoblashadi.

Oxirgi nuqtayi nazar eng tasdiqlovchi hisoblanib, hozirgi zamonaviy qarashlarga mos keladi.

Afaziya – bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishidir.

Afaziya grekcha so'z bo'lib, a – yo'q, fazes – nutq so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, nutqning yo'qligi ma'nosini beradi. Afaziya atamasi ilk bor XIX asrda fransuz olimi Trusso tomonidan olib kirilgan edi. Afaziya markaziy organik kelib chiqishga ega bo'lgan og'ir nutq buzilishlari qatoriga kiradi. Afaziyada nutqni tushunish va nutqiy harakatlarning to'la yo'qolishidan tortib to artikulatsiyadagi uncha muhim bo'lмаган qiyinchiliklar, fikrning nozik jihatlarini tushunmaslik, u yoki, bu so'z, iboralarni eslab qolish holatlarini kuzatish mumkin.

Afaziya ko'pincha agnoziya va apraksiya bilan chambarchas bog'liqlikda bo'ladi va yana qator oliv nerv faoliyatidagi buzilishlarni kuzatish mumkin bo'ladi.

Afaziyada nutq buzilish mexanizmlarining buzilishida zararlanmagan boshqa miya mexanizmlarining patologik o'zgargan mexanizmlarga bo'y sunishini kuzatish mumkin, miya va undagi nuqsonga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu bilan nuqsonning kompensatsiya qilinishi ta'minlanadi.

Miya tizimlarining bog'langanligi va miyaning kompensator yaxlit ta'sir etishi natijasida ko'pincha nutqdan ayrim bir ko'rinishlar saqlanib qoladi. Umuman olganda, afazikning nutqi tub o'zgarishlarga uchrab, juda uzoq vaqt davomida impressiv va ekspressiv tomondan atrofdagilar nutqidan farq qiladi.

Afaziya shuningdek psixologlar va tilshunoslar e'tiborini ham tortadi (nutqning hosil bo'lish muammozi, uning tafakkur bilan bog'liqligi).

Afaziyaning juda ko'p turlari mayjud bo'lib, turli olimlarda u turlichayko'rinishda bo'ladi. Xususan, Pravdinaning «Logope-diya» darsligida uning 6 ta L.R.Luriya ajratgan turlari: akustika-gnostik, akustika-mnestik, semantik va afferent, efferent va dinamik afaziylar.

Afaziyani 2 ta yirik guruhga, ya’ni motor va sensor afaziyaga ajratish mumkin.

Mo’mnova va Ayupovalarning «Logopediya» darsligida uning 4 ta turi ajratiladi:

- Motor afaziya – mustaqil nutq so‘rash qobiliyatining yo‘qolishi.
- Sensor afaziya – atrofdagilar nutqini idrok etish qobiliyatining buzilishi.
- Amnestik afaziya – ayrim so‘zlar va ularning ahamiyati unutish.
- Total afaziya – gapirish va nutqni idrok etish qobiliyatlaning yo‘qolishi.

Alaliya va afazianing klinik xarakteristikasi nutq me-xanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi bilan bog‘liq.

Nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi va harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalaniladi. Nutqiy sistema bosh miya a’zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining o‘ziga xos vazifasini bajaradi.

L.R.Luriya miya faoliyatini uchta funksional blokka ajratadi.

Birinchi blok bosh miya po’stloq osti zonalari: yuqori ustun va limbik soha. U bosh miya qatlami tonusining normalligi va uning tetiklik holatini ta’minlaydi.

Ikkinci blok orqa miya qatlami katta yarim sharlari bo‘laklarini o‘z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqlaydi. U bilish (gnostik) jarayonini amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblandi.

Uning tuzilishi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi doiralariga ajraladi. Birlamchi doira – miya qatlamining proyeksiyon doiralaridir, uning neyronlari juda ham yuqori darajada o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda alohida sezgi a’zolaridan sezgi axborotlarini qabul qilish hodisasi yuz beradi.

Miya apparatlarining birlamchi doiralar ustidan ikkilamchi doiralar qurilgandir.

Ular birlamchi doira orqali olingan qo'zg'alishlarni tahlil qildi. Ikkilamchi doiralar birlamchi doiralar kabi o'zining ixtiyoriy modalligi (ko'rish, eshitish va boshqa doiralar)ni saqlaydi. Birlamchi va ikkilamchi doiralar u yoki bu analizatorning bosh miya qatlami birikmasini o'zida namoyon etadi.

Uchlamchi doiralar analizatorlarning miya qatlami bo'lmalarini o'zgartirish doiralari hisoblanadi. Ular turli modallikda olingan sezgi axborotlarini tahlil, sintez, integratsiya qilish vazifasini o'taydi. Ularning faoliyati asosida sintezlarning beqaror va tashqi darajasidan simvolik darajaga, e'tiborni qaratish munosabatlari, murakkab mantiqiy grammatik qurilishi haqidagi bilimlar bilan ish qurishga o'tish sodir bo'ladi.

Uchinchi blok hatto yarim sharlar qobig'ining oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soha)ni o'z ichiga oladi.

Bu blok inson faoliyatini rejalashtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. U shuningdek miya qobig'i ostidagi a'zolar faoliyati barcha sistemalarning tonusi va tetik holatini ular faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq moslashtirishni amalga oshiradi.

Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga, har bir blok nutq jarayonida alohida, maxsus o'ziga xos xususiyati bilan ishtirot etadi.

Shunday qilib, nutq jarayonida bosh miya qobig'ining turli qismlari turlicha ishtirot etadi. Bosh miya qobig'i qaysidir qismining jarohatlanishi nutq faoliyati buzilishining o'ziga xos aomatlariga olib keladi.

Nutq buzilishlarining shakl va turlari haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun dastlabki shart hisoblanadi.

Duduqlanishga ta'rif.

Duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlari (tungi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zg'aluvchanlik, his-hayajonli zo'riqish). Konstitutsion moyillik (vegetativ nerv sistemasining kasallanishi va oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi uning ruhiy shikast-

lanishga alohida duchor bo‘lishi). Nasliy buzilishlar (duduqlanish nutq apparatining zaifligi asosida rivojlanadi. U avloddan-avlodga resessiv alomat tarzida o‘tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, ekzogen omillarning ta’sirini e’tiborga olish kerak.

Duduqlanish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta’limotning rivojlanish tarixida eng qadimiyalaridan biri, deb hisoblash mumkin. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish fanning rivojlanishi va mualliflarning bunday nutq buzilishlariga qanday nuqtayi nazardan yondashganliklari va yondashayotganliklari darajasi bilan bog‘liq.

Duduqlanish periferik turdag'i, nutq apparati muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur’at-ohangining buzilishidir.

Qadimgi davrlarda duduqlanishni ko‘proq bosh miyada namlikning to‘planib qolishi (Gippokrat) yoki artikulatsion apparat qismlarining o‘zaro noto‘gri munosabatini Aristotel bilan bog‘liq holdagi kasallik deb qarashgan. Duduqlanish paytida nutq apparatining markaziy yoki periferik bo‘limlarida buzilish bo‘lishi mumkinligini Galen Sels va Ibn Sino e’tirof etdilar.

Qadimgi vrachlar Itar, Vuazen, Shul Tess, Kolombo, Klenke, Norden erkaklar ayollarga nisbatan ko‘proq duduqlanishga moyil ekanliklarini ko‘rsatib o‘tishgan.

XVII–XVIII asrlarda duduqlanish periferik nutq apparatining takomillashmaganligi natijasidir, deb tushuntirishga harakat qilingan. Masalan, anatom Sanatorimi duduqlanuvchilar ning qattiq tanglayida tuyruk bo‘lib, shu orqali yopishqoq suyuqlik tilga oqib tushadi va nutq og‘irlashadi, deb tushuntiradi.

Bir qator boshqa mualliflar duduqlanishni nutq organlari funksiyasining buzilishi bilan bog‘laganlar. Haddan tashqari tez nafas chiqarish (Bekkerel) tilning og‘iz bo‘shlig‘ida ushlab turuvchi spazmatik qisqarishi (Itar, Li, Deffebax), tafakkur va nutq jarayonlarining o‘zaro kelishmovchiligi (Blyume), inson irodasining takomillashmaganligi (Merkel) bilan bog‘langandir.

XVI asrning oxirlarigacha duduqlanishga organizmning umumiy kasalligi (Gippokrat, Galen) yoki nutq organlarining noto'g'ri tuzilishi sifatida qarab kelindi. Bunday tushunchalarning mavjud bo'lishi duduqlanishni terapeutik va jarrohlik yo'li bilan davolashni davom ettirishga olib keldi. Masalan, jarroh Deffenbach 1841-yilda duduqlanishni davolash uchun til uzangisini qirqish, kuydirish kerakligini taklif etgan.

Jarrohlik metodi eramizdan avvalgi I asrdan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha qo'llanib kelindi. XIX asrda ushbu uersulning keraksizligi va hayot uchun xavfliligi (Antill, Pavel Eginskiy, Fabritsiy, Dionis, Peti, Bonne) isbotlangandan so'ng jarrohlik usuli bekor qilindi. Jarrohlik usuli duduqlanish artikulatsion apparatning patologik tuzilishi yoki til muskullari innervatsiyasining yetishmovchiligi sifatida tushunish natijasida kelib chiqqandir.

Ko'pgina adabiyotlarda duduqlanishni bartaraf etish uchun nutqni yengillashtiruvchi va to'g'irlovchi ortopedik apparatlar va turli harakat mashqlarini qo'llash mumkinligi haqidagi ko'rsatmalar uchraydi. Ortopedik maqsadda qo'llaniladigan mexanik moslamalar, Plutarx ta'rificha, dastlab Demosfen tomonidan qo'llanilgan. U o'zidagi duduqlanishni bartaraf etish uchun turli narsa (dengiz toshchalar)ni nutq mashqlari vaqtida til tagida ushlagan. Natijada bir qator mualliflar duduqlanishni bartaraf etish uchun turli mexanik moslamalarni qo'llashgan: Itar – til vilkasianni, Kolomba – tilni bosib turuvchi moslama, Ervede Sheguan – ikki qator tishlarga taqiladigan moslama va h.k.

Ortopedik moslamalar shunga qaramay, duduqlanishni bartaraf etishda mustaqil ahamiyatga ega bo'lmay, balki yordamchi qo'llanmalar sifatida tavsiya etilgan.

Vaqt o'tishi bilan yangi metodik yo'naliish – duduqlanishni maxsus mashqlar yordamida bartaraf etishning didaktik usuli rivojiana boshladи. Bu yo'naliishni yaratganlardan biri amerikalik pedagog Libir qator ovoz mashqlari tizimini taklif etdi. Undan fransuz shifokori Kolombo ham bir necha ovoz mashqlarining muallifi hisoblanadi.

XIX asr boshlarida bir qator fransuz tadqiqotchilari duduqlanishni nutq apparatining periferik va markaziy bo'limlariagi turli xil buzilishlar bilan tushuntirganlar. Vrach Vuazen duduqlanish mexanizmini markaziy nerv tizimi faoliyatining yetishmovchiligi bilan bog'lagan. Shifokor Delor otatsizm, lamdatsizm kabi nutq buzilishlari natijasi sifatida talqin qilib, ovoz apparatining organik jarohatlanishi duduqlanishga sabab bo'ladi, deb hisoblagan. U birinchi bo'lib duduqlanuvchilarining o'z nutqlariga akustik diqqatlarini qaratish zarurligini ko'rsatib o'tgan.

XIX asrda klinikaga «nevroz» atamasining kiritilishi duduqlanish tabiatiga to'g'ri yondashish imkonini berdi.

Duduqlanishni o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan Xristofor Laguzen, I.A.Sikorskiy, G.D.Netkachevlarni alohida e'tirof etish zarur. X.Laguzen duduqlanish asab-ruhiy buzilish, deb qaragan. U g'arb mualliflarini tanqid qilgan holda yuqorida fikrni ilgari surdi. Shu yilning o'zida uning kitobi nashr etildi. Ushbu kitobda muallif duduqlanishni bartaraf etishda faqatgina mashqlar bilan chegaralanib qolmay, balki psixo-terapevtik usullarni ham qo'llash zarurligini ko'rsatib o'tgan. I.A.Sikorskiyning «О заикании» nomli kitobida rus psixiatri birinchi bo'lib duduqlanishning boladagi nutq rivojlanish davrlari bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tdi.

Ko'pgina mualliflar duduqlanishni nasliy kamchilik sifatida e'tirof etganlar. Duduqlanishning yuzaga kelishida nasliy omil ma'lum o'rinni egallaydi.

Hozirgi kunda shu narsa aniqlandiki, duduqlanishning o'zi emas, balki ikkinchi signal tizimining zaifligi ehtimoli bilan o'tadigan tutqanoqli reaksiyalarga moyillik nasldan-naslga o'tar ekan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'pgina mualliflar duduqlanishga nevroz sifatida qaraganlar. Lekin nevroz tushunchasining o'zi ko'p vaqtgacha yetarli darajada aniq bo'lmasan. Hozirgi kunda nevroz mexanizmiga I.P.Pavlovning ta'llimoti nuqtayi nazaridan qaralyapti.

XIX asr oxirlarida duduqlanish bu murakkab psixofizik buzilishdir, degan fikrga kelindi. Duduqlanish boshqa nevrozlar kabi qo'zg'alish, tormozlanish va patologik shartli refleksning shakl-turish jarayonlaridagi zo'riqishni keltirib chiqaradigan turli sabablar natijasida paydo bo'ladi. Duduqlanish bu alomat ham, aloomatlar yig'indisi ham emas, balki markaziy nerv sistemasining umumiy xastalashuvidir.

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, ilk yoshdagi bolalardagi duduqlanish mexanizmini reaktiv nevroz va rivojlanishdagi nevroz nuqtayi nazaridan talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Rivojlanishdagi reaktiv nevroz oliy nerv faoliyatining buzilishi sifatida tushuniladi. Rivojlanishdagi nevroz davrida patologik stereotiplar asta-sekinlik bilan muhitning noqulay sharoiti haddan tashqari g'azablanish, siqilish, zaiflashuv hollarida sodir bo'ladi. Rivojlanishdagi duduqlanish bolaning ilk yoshida «fiziologik tili chuchuklik»ning ushlanib qolish holatida, murakkab iborali nutq formalari o'tishi jarayonida paydo bo'ladi.

XX asr boshlarida duduqlanishni tushunishdagi turlitumanlikni 3 ta nazariy yo'nalishga kiritish mumkin.

1. Duduqlanish koordinatsiyasining spastik nevrozi nutq marmazi ta'sirchanligining sustligidan kelib chiqadi. Bu fikrlar Gutsman, Kussmaul, Sikorskiyning asarlarida ifodalangan. Duduqlanish nutq apparatining bitta bo'limida pay tortilishi orqali kelib chiqadigan artikulatsiyaning birdaniga buzilishidir, degan nazariyaning tarafдорлари dastlab nutq apparati ta'sirchanligining tug'ma sustligini ta'kidlagan bo'lsalar, keyinchalik ular duduqlanishni nevrotizm tarkibidagi pay tortishish spazmasi, deb tushuntirganlar.

2. Duduqlanish psixologik xarakterdagi assotsiativ buzilish sifatida. Bu yo'nalish T.Gepfner va E.Freshels tomonidan ilgari surilgan. Mexanizmlarni tushunishdagi psixologik yondashuv keyinchalik o'zining rivojini topdi.

3. Duduqlanish ongli holat sifatida. U psixik jarohatlar zaminda rivojlanib boradi. Ushbu nazariyaning tarafдори A.Adler va Shnitder edilar.

XX asrga kelib duduqlanish mexanizmini I.P.Pavlovning insonning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotiga, shuningdek, nevroz mexanizmiga tayanib talqin qilgan. Yu.A.Florenskaya va Yu.A.Povorinskiy duduqlanishni nevroz simptomi deb qaragan bo'lsalar, V.A.Gilyarovskiy, M.E.Xvatsev, I.P.Tyapugin duduqlanishni nevrozning o'ziga xos shakli deb qarashgan. V.S.Kochergina duduqlanish markaziy nerv tizimining kasalligi deb qaraydi. Duduqlanish kelib chiqishida bosh miya po'stlog'ida nerv jaryonlari o'zaro munosabatlarining buzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Duduqlanish boshqa nevrozlar kabi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining nomutanosibligi natijasida kelib chiqadi. Ba'zi mualliflarning fikricha, bolalik davridagi duduqlanish mexanizmini reaktiv nevroz yoki rivojlanish nevrozi pozitsiyasidan tu-shuntirish maqsadga muvofiqlik (V.N.Myasishev).

R.M.Boskis duduqlanishning zaminida nutqiy qiyinchiliklar yotuvchi kasallik, deb hisoblagan. Bu qiyinchiliklar jumlalarni ifodalash, ularni jihozlashda ifodalanadi.

Duduqlanish patogenezini o'rgangan ko'pgina olimlar duduqlanuvchilarda turli vegetativ o'zgarishlar kuzatilishini aniqladilar.

Masalan, M.Zeeman 84% duduqlanuvchilarda vegetativ distoniya borligini ta'kidladi. Szondining fikriga ko'ra, 100 ta duduqlanuvchining 20%ida ekspiramid buzilishlar va bosh miya bosimi borligi aniqlanadi. Bu duduqlanuvchilar vazonevrotik bo'lib tug'iladilar, deb hisoblaydi.

Vegetativ asab sistemasining og'ir buzilish hollarida xususan duduqlanish ikkinchi planga ko'chadi, qo'rquv, hayajonlanish, vahima, badgumonlik, umumiyo zo'riqish yuz beradi, kishida titrashga, terlashga, qizarishga moyillik paydo bo'ladi. Bolalik davrida duduqlanuvchilarda uyquning buzilishi kuzatiladi. Kattroq yoshdagи duduqlanuvchi bu kabi kechinmalarni nutq buzilishi bilan bog'liq holda turg'un xulq-atvorni keltirib chiqaradi.

Gendner duduqlanuvchilarda xuruj vaqtida neyrovegetativ reaksiyaning o'zgarishini aniqladi: 100% holatda ularda ko'z qorachig'ining kengayishi kuzatiladi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki,

indikabacha yoshdagи duduqlanuvchilar miqdori 1,4% (K.P.Bekber bo'yicha), duduqlanuvchi kichik yoshli maktab o'quvchilari 1,6% (M.V.Sovak bo'yicha), katta yoshdagи duduqlanuvchilar 1% (M.E.Xvatsev bo'yicha)ni tashkil etar ekan.

Bir qator olimlar duduqlanuvchilar harakatlarini o'rgamib, ma'lum fikrlarga keldilar. Jumladan, N.A.Tugova ritmika mushq'ulotlarida kuzatishlar olib borib, duduqlanuvchilarning noto'g'ri harakatlarini diqqatning turg'unsizligiga, kuzatuvchanlik qobiliyatining sustligiga, o'qituvchi yo'riqnomalariga diqqati va irodasini qarata olmaslik va hokazolarga bog'ladi. B.I.Shostak duduqlanuvchi bolalarda motorikaning buzilishi kuzatilishini aniqladi. U bolalar harakatlarida ayrim nomutanosiblikni, beso'naqaylikni, yomon koordinatsiyalarni, ba'zida muskullarning haddan tashqari tarangligini kuzatdi.

Duduqlanishning dastlabki to'liq alomatlari I.A.Sikorskiyning «Duduqlanish» nomli ilmiy ishida ko'rsatib berilgan edi. Kishilarning turli yosh davrlarida duduqlanishning yuzaga kelishini M.Xvatsev, M.Zeeman, V.A.Gilyarovskiy, N.P.Tyapugin va boshqa ko'pgina olimlar o'rganishdi. Hozirgi davrda alomatlarning bir-biriga o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan 2ta guruhi ajratildi: biologik (fiziologik) va sotsial (psixik).

Fiziologik alomatlarga nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarning tortishishi, markaziy nerv tizimi va jismoniy salomatliklarning, umumiy va nutq harakatlarining buzilishi kiradi.

Psixik alomatlarga nutqda tutilish va his-hayajonli nutqning boshqa buzilishlari, nutqda qayd qilish fenomeni, logofobiyalar, nayrang ishlatish va boshqa ruhiy jihatlar kiradi.

Hozirgi davrga qadar taddiqotchilar duduqlanish mexanizmini nafaqat tibbiy va fiziologik jihatdan, balki neyrofiziologik, psixologik, psixolingvistik nuqtayi nazardan ham o'rganishga intilmoxda.

Duduqlanuvchilarni psixologik jihatdan ko'rsak, diqqat-e'tibor, xotira, tafakkur, ruhiy harakatni o'rganish shuni ko'rsatadi-ki, ularda ruhiy faoliyat tuzilishi, uning o'z-o'zini muvofiqlashti-

rish jarayoni o‘zgargan. Ular yuqori darajada avtomatlashtirilishi (xususan faoliyatga tezda kirishishni) talab qiladigan faoliyatni yomon o‘taydilar, lekin ixtiyoriy bajarilish bilanoq duduqlanuvchi va sog‘lom kishi orasidagi samaradorlik farqi yo‘qoladi.

Duduqlanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini tibbiy kuza-tishlar yordamida, tajriba-psixologik metodikalarni qo‘llash bilan tekshirish samaralidir. Ular yordamida xavotirlik, badgumonlik xususiyati, gumonsirash, ishonchsizlik, odamovilik, ruhiy tush-kunlikka moyillik, nuqsonga nisbatan sust-mudofaa va mudo-faa-tajovuzkorlik bilan ta’sir ko‘rsatish hollari aniqlangan.

Duduqlanish mexanizmlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish ham e’tiborga molikdir. O‘rganishning bu jihatida duduqlanuvchi nutq talaffuzining qaysi pallasida muskullar tortishuvi yuzaga kelishini aniqlashni taqozo qiladi. Nutq kommu-nikatsiyalari quyidagi bosqichlarga ajratib ko‘rsatiladi:

1. Nutqqa ehtiyojning borligi yoki kommunikativ maqsad.
2. Bayon qilish fikrining ichki nutqda tug‘ilishi.
3. Bayon qilishning tovush orqali bajarilishi. Bu bosqichlar nutq faoliyatining turli tuzilishlarida o‘z oqimining to‘liq va uzunligiga ko‘ra har xildir.

Duduqlanish muammosiga nisbatan turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqib, duduqlanishning paydo bo‘lish mexanizmlari bir xil emas, degan xulosaga kelish mumkin. Ayrim hollarda duduqlanish murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida e’tirof etiladi, u esa bosh miya qobig‘idagi nerv jarayonining izdan chiqishi, qobiq va qobiq osti o‘zaro munosabatlarining buzilishi umumiyligi nutqiy harakatlar (ovoz, nafas olish, artikulatsiya) sur’atining zaiflashuvi oqibati hisoblanadi.

Boshqa hollarda noto‘g‘ri nutq refleksi oqibatida paydo bo‘lgan, turli genezlarda dastlabki yuzaga kelgan murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida talqin etiladi.

Uchinchidan – nutqning murakkab, o‘ta funksional zaiflashuvi sifatida qarab chiqiladi. U umumiyligi hamda nutqiy dizontogenetika va shaxsning disgarmonik rivojlanishi oqibatida namoyon bo‘ladi.

To'rtinchidan — duduqlanish mexanizmini markaziy nerv sistemasining organik o'zgarishi asosida talqin qilish mumkin. Ammo har qanday vaziyatda ham uyg'unlikni tashkil qiladigan tizbiyotik va ruhiy buzilishlarni hisobga olish lozim.

Duduqlanishning namoyon bo'lishi haqida mualliflar o'z tekshirishlariga asoslanib turli xulosalarini bayon qiladilar. Zee-man duduqlanishning namoyon bo'lishida ulardagi effektiv labillik patologik tarzda oshib ketishi sabab bo'ladi, deb qaraydi. Novak esa 300ta duduqlanuvchilarni tekshirib, ularning 84,6%ida vegetativ asab tizimining distoniyasini kuzatgan. Kochergina o'tkazgan tekshirishlarda esa duduqlanuvchilardagi turli xil oliv asab tizimining buzilishlari namoyon bo'lishini aniqlagan. Bular: qo'zg'alishning oshib ketishi, xafaqonlik, o'jarlik hamda uyqu va ishtahaning buzilishlari, infeksion va boshqa turli kasalliklarga moyillik, jismoniy zaiflik, enurezlardir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ko'pchilik duduqlanuvchi bolalarda motorikaning buzilishi kuzatilgan. B.I.Shostak duduqlanuvchi bolalarni kuzatish jarayonida ularda ayrim beso'naqaylik holatlarini, harakatlarda yomon koordinatsiyani, ba'zan esa muskularning haddan tashqari tarangligini kuzatdi.

N.A.Vlasova va Ye.V.Raular duduqlanishni keltirib chiqaruvchi sabablarni quyidagicha tasniflaydilar:

- irsiy moyillik;
- sotsial maishiy sharoit;
- yuqumli kasalliklar;
- qo'rquv;
- noto'g'ri nutqiy tarbiya;
- organik buzilishlar;
- taqlid qilish natijasida.

Ammo hamma yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bolalar yoki hamma qo'rqqan bolalar ham duduqlanuvchi bo'lib qolavermaydi. Buning uchun bolaning nerv tizimi zaif bo'lib, shu kasallikka moyillik, zamin bo'lsagina ushbu nuqson yuzaga keliishi mumkin.

M.E.Xvatsev o‘zining qo’llanmasida («Заякание—недуг устранимое») duduqlanishni keltirib chiqaruvchi sabablarni sanab o‘tadi: bola nerv tizimining zaifligi va beqarorligi, tug‘ma yoki orttirilgan kasalliklar natijasida yoki noqulay hayot sharoitlari natijasida kelib chiqadi.

Duduqlanish deyarli 1–2 holatda nasldan-naslga o‘tadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar, jumladan Gutsman – 28,8%, Tromner – 33%, Migind – 42%, Zeeman – 34%, Sedlachkova – 30,9% holatlarda duduqlanishning nasldan-naslga o‘tishini isbotlab ber-ganlar.

Duduqlanish etiologiyasi tadqiqotchilarni qadimdan qiziqtirib kelmoqda. Bungacha X.Laguzen besamaralik, uyat, qo‘rquv, g‘azab, dahshatga tushish, boshning qattiq lat yeishi, og‘ir kasallanish, ota-onaning noto‘g‘ri nutqiga taqlid qilishni duduqlanish sabablariga qo‘sghan edi. I.A.Sikorskiy birinchi bo‘lib ta’kidlashicha, duduqlanish bolalar yoshiga xosdir. Chunki bu davrda nutq rivojlanishi tugallanmagan bo‘ladi. U irstiyatga muhim ahamiyat berdi. Bunda nimjon bolalardagi nutq mexanizmlari muvozanatini buzadigan boshqa ruhiy va biologik sabablarni (qo‘rquv, lat yeish, yuqumli kasalliklar, taqlid qilish) shartli ravishda hisobga oldi. G.D.Netkachyov duduqlanish sabablarini bolaning oilada noto‘g‘ri tarbiyalanishidan qidirdi va qattiqqo‘llik bilan hamda erkalatib tarbiyalashni zararli, deb hisobladi.

Hozirgi vaqtida duduqlanish sabablarini 2 guruhga: moyillik sababi va keltirib chiqaruvchi sababga ajratish mumkin.

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi: ota-onalarning nevropatik kasallanishi (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo‘shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari, yuqumli va jismoniy kasalliklar).

Duduqlanuvchining o‘zidagi nevropatik xususiyatlari (tungi qo‘rquv, enurez, kuchli qo‘zg‘aluvchanlik, his-hayajonli zo‘ri-qish).

Konstitutsion moyillik (vegetativ nerv sistemasining kasallanishi va oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi, uning ruhiy shikastlanishga alohida duchor bo'lishi).

Nasliy buzilishlar (duduqlanish nutq apparatining zaifligi mosida rivojlanadi, u avloddan-avlodga resessiv alomat tarzida o'tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ekzogen omillarning ta'sirini e'tiborga olish kerak.

Bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi: ona qornidagi va tug'ma jarohatlanish, asfiksiya: postnatal-yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik-almashinuv buzilishlari.

Ko'rsatilgan sabablar va ruhiy sohalarda turli xil patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, nutq rivojlanishining kechikishi, nutqning zaiflashuviga olib keladi va duduqlanishning rivojlanishiga imkon beradi.

Keltirib chiqaruvchi sabablar guruhida anatomik-fiziologik, ruhiy va sotsial sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Anatomik-fiziologik sabablar: ensefalit oqibatida yuzaga kelgan jismoniy kasalliklar; jarohatlar ona qornidagi, tug'ilish paytidagi, ko'pincha asfiksiya bilan, miyaning chayqalib lat yeyishi; miyaning organik buzilishi, bu paytda harakati muvofiqlashtiruvchi qobiq osti mexanizmlari yallig'lanishi mumkin; zaharlanish va markaziy nutq apparatini zaiflashtiruvchi boshqa kasalliklar natijasida nerv tizimining tamoman izdan chiqishi yoki o'ta charchashi; qizamiq, terlama, gjijalar, ayniqsa ko'kyo'tal, ichki sekretsiya almashinuv kasalliklari burun, halqum, hiqildoq kasalliklari; dislaliya, dizartriyaning va nutq to'liq rivojlanmaganligi hollardagi tovush talaffuzi apparatining mukammal rivojlanmaganligi.

Ruhiy va sotsial sabablar: qisqa muddatli – bir lahzalik ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish); uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan ruhiy shikast, bunda noto'g'ri oila tarbiyasi tushuniladi;

tantiqlik, buyruqqa asoslangan tarbiya, bir xil bo'limgan tarbiya, «namunali» bola tarbiyasi; surunkali ziddiyatli kechinmalar, ruhiy zo'riqish yoki hal etilmagan, umumiy g'ov bo'luvchi ziddiyatli vaziyatlar ko'rinishidagi uzoq muddatli salbiy hissiyotlar; ruhan juda og'ir kechadi; o'tkir samarasiz ta'sirni keltirib chiqaradigan kuchli, bexosdan paydo bo'luvchi iztiroblar; vahimali va o'ta shodlanish hollari; nutqning bolalarda noto'g'ri shakllanishi; nafas olish davomidagi nutqi, tez gapirish, tovush talaffuzining buzilishi, ota-onalarning tez, notekis nutqi; kichik yoshdagi bolalarni haddan ortiq nutq materiallari bilan zo'riqtirish.

Duduqlanish uchta darajaga ajratiladi: yengil, o'rtacha va og'ir.

Yengil darajada kishi asabiylashgan holatida yoki tez duduqlanuvchilar o'z nuqsonidan uyalmagan holda gapiradilar.

O'rtacha darajada kishi tinch, odatdagи vaziyatda oson gapiradi va kam duduqlanadi; his-hayajonli holatlarda kuchli duduqlanish yuzaga keladi.

Og'ir darajada kishi butun nutqi davomida, doimiy chalg'ituvchi harakatlar qilish bilan duduqlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sistemali nutq buzilishlariga ta'rif bering.
2. Alalik bolalarning kliniko-pedagogik-psixologik xususiyatlari nimada?
3. Afazik bolalarning kliniko-pedagogik-psixologik tavsifi qanday?

15-mavzu. Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psicho-fiziologik xususiyatlari

Reja:

1. Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixik xususiyatlari.
2. Nutqida nuqsoni bor bolalarda diqqat.
3. Nutqida nuqsoni bor bolalarda xotira va tafakkur.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq, nutqiy rivojlanish, diqqat, xotir, tafakkur.

Nogironlikni o‘rganish inson tanasi va qudratini o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu fanlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni yanada yaxshilab, nogironlikni tadqiq etishning ma’lum bir tan tarmog‘iga ta’sirini o‘rganish borasidagi savollarni qo‘ymoqda. U sotsiologiya, adabiyot, gender, ijtimoiy ish, huquq, ta’lim va turix fannari doirasida nogironlikni tadqiq qilish bo‘yicha bizning fikrlarimizni o‘zgartirmoqda¹.

Idrok sezgi a‘zolarimizga ta’sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks ettirishdir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, ayrim xossalarni esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug‘ini esa sezamiz. Idrok qilish his qilish bilan birgalikda bilish jarayonida teng ishtirok etadi.

Bilish jarayonining sharti sifatida, idrok qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga keladi. Idrok qilishning bir necha xil turlari mavjud bo‘lib, ular muayyan shakllari bo‘yicha farqlanadi: analizatorlarning ishtirokiga ko‘ra (ko‘rvu idroki, eshituv idroki, sezish idroki, hid bilish idroki, kinestetik idrok va h.k.); materianing mavjudligi shakliga ko‘ra: atrof-borliqni idrok etish, vaqtini idrok etish, harakatlarni idrok etish; psixik faolligiga ko‘ra: oldindan o‘ylangan, oldindan o‘ylanmagan idrok etish.

Ulug‘ qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy «Minerologiya» asarida sezgi va idrok haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: «Sezgilar beshta bo‘lib, ... ular qulqoq bilan eshitish, ko‘z bilan ko‘rish, burun bilan hidlash, til bilan tatib ko‘rish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir... ilm va ma’rifat faqatgina o‘shalar orqali hosil bo‘ladi».

¹ Disability and Discourse Analysis. Jan Grue. University of Oslo, Norway. – 2015. p-iix

«Sezgilar o‘z qo‘zg‘atuvchilari orqali qo‘zg‘aladi. Agar ular me’yorida bo‘lsa, yoqimli va zararsiz bo‘ladi, me’yordan ortiq bo‘lsa, dardli va halokatli bo‘ladi.

Ko‘rish sezgisini nur qo‘zg‘atadi, eshitishni havo orqali keluvchi ovozlar qo‘zg‘atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo‘ladi, ta’m ozuqaning mazasi bilan vujudga keladi. Ammo namlik bunda shartdir. Bu to‘rt sezgini his etuvchi maxsus organlar mavjuddir. Beshinchi sevgi – sezish esa butun badanda voqedir, ammo dastavval uni teri sezadi».

Sezgilar bilganlardan bir bo‘lagini fikrga yetkazsa, fikr uni yanglislardan tozalab aqlga topshiradi. Aql uni umumiy ishga aylantiradi. Faqatgina sevgi organlari yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar orqali idrok qilinadigan narsalarни o‘rganishda juda katta yutuqlarga erishmog‘i mumkin.

Shunday qilib, Abu Rayhon Beruniy o‘sha davrdayoq sevgi va idrokning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini, bunda analizatorlarning rolini, sevgi va idrokning xususiyatlari va o‘zaro bog‘liq jihatlarini aniq ko‘rsatib berdi.

Idrokning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi:

- 1) aralash va umumlashtirish: predmet va hodisalarini idrok etar ekan, inson nimalarni idrok etayotganini tushunadi va anglaydi;
- 2) predmetlilik: predmetlarning obrazlarini real predmetlar sifatida anglaydi;
- 3) yaxlitlilik: borliqdagi predmet va hodisalarining alohida sifatlari va belgilari doimiy mustahkam bog‘liqlikda bo‘ladi;
- 4) tizimlilik: kishi turli predmetlar yoki hodisalarning belgilarini yaxlit va mustahkam tizim sifatida anglaydi;
- 5) tanlash: bir necha predmetlar va ko‘rinishlar orasidan inson faqat bir nechta sinigina ajratib oladi, bu uning qanday faoliyat bilan shug‘ullanayotganiga, muayyan vaqtida unga qanday narsalar kerakli ekaniga va qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi;
- 6) o‘zgarmaslik: xuddi o‘sha predmetlar inson tomonidan o‘zgargan sharoitlarda ham bir xil qabul qilinadi (turli xil yoritilishida, turli xil qarash-

turli masofalarda). Lekin predmetlarning obyektiv xususiyatlari o'zgarmagan holda qabul qilinadi.

Sezgilar odatda sodda, elementar jarayonlar bo'lib hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga avvalo turli buyumlar (binolar, daraxtlar, mashinalar, uy jihozlari va h.k.) kiniadi. Biz san'at asarlari, musiqa, rasmlarni idrok qilamiz. Og'zaki va yozma nutqni idrok qilamiz. Bu narsa va hodisalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki boshqa ko'plab narsalar bilan makon va vaqt jihatdan bir-biri bilan bog'langan holda idrok qilinadi.

Bola dunyoga kelganda sezgilari shakllanib bo'lган bo'ladi. Lekin ushbu sezgilarning me'yordagi funksiyasi atrof-borliqni idrok etishlarini ta'minlaydi.

Idrok etish jarayoni to'g'ri shakllanishi uchun, maqsadga yo'naltirilgan hissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko'rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, obyektlarni eshitishni o'rgatish kerak, ya'ni unda idrok qilish harakatlarini shakllantirish kerak.

Idrok qilish jarayonida bolada asta-sekinlik bilan ko'rish, eshitish, harakat, bilish obrazlarini orttirib boradi. Lekin bunda bola predmetlarning munosabatlari va belgilarini idrok qilish jarayonida, bu munosabatlar va belgilar so'zlar bilan izohlangan bo'lishi kerak. Bu esa predmetning obrazlari haqida tasavvurlarni mustahkamlaydi, ularni yana ham aniqlashtiradi. Agar idrok qilingan obrazlar so'zlar bilan mustahkamlangan bo'lsa, bir qancha vaqt o'tganidan keyin ham bu obrazlar bola tasavvurida tiklanishi mumkin.

Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog'liqlik bo'lmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshi-

tish orqali idrok qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (G.F. Sergeyeva).

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomoni rivojlanishiiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson si-fatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulatsiya apparatida-gi kamchiliklar asosida tovush talaffuz qilishdagi o'zgarishlar, ko'pgina almashtirishlar, artikulatsiya apparat o'z funksiyasini to'liq bajarmasligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o'rinda ta'sir qilib, uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ba'zida nutq nuqsoniga ega bolalar ba'zi bir tovushlarni eshitib, ajratishlari mumkin, bu tovushlarni talaffuz etishda ham to'sqinliklar bo'lmaydi. Boshqa hollarda esa oson talaffuz etiladigan xuddi shunday tovushlar talaffuzida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda ayrim xususiyatlar kuzatiladi. Ya'ni, agar bolaning talaffuzida tovushlar qanchalik shakllangan bo'lsa, bola tovushlarni shunchalik idrok etadi va farqlaydi. Fonematik eshitishning shakllanishi bolalar nutqining hamma tomoniga ta'sir etadi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Ye.M.Mastyukova ko'rish orqali idrok qilishni tekshirish natijasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktab o'quvchilarida bu funksiya o'z normasida qoladi va ular obrazlarni yaxlitligicha idrok etadi va me'yordagi bolalardan farq qilmaydi, degan xulosaga keladi.

Biroq nutq nuqsonlariga ega bolalarga berilgan vazifalar mu-rakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar predmet obrazlarini belgilangan sharoitlarda ancha qiyinchilik bilan idrok qiladilar: qarorni qabul qilish vaqtি cho'ziladi, bolalar o'z javoblariga ishonmay ikkilanadilar, predmet-hodisalarini tanishda xatoliklar kuzatiladi, axborot ortgan sari predmetning belgilarini ajratish ham qiyinlashadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi soy'lom bolalarnikidan ajralib turadi: ular idrok etish uchun osonroq, oddiy tushuncha-

larni tanlashadi. Ko‘pchilik nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar geometrik shakllarni ko‘rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar.

Kichik maktab yoshidagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar ning ko‘rib idrok etishini tekshirish jarayonida dizartriya, alaliya kabi nutq kamchiliklarida idrokning quyidagi buzilishlari kuzatildi: optik, atrof-muhit, tasavvurlar, yuzaga tegishli bo‘lgan belgilar, barmoqlar va artikulatsiya a’zolari harakati, taktil-harakat a’zolari yordamida idrok etish (L.S.Svetkova, T.M.Pirsxayashvili).

Atrof-muhitni optik idrok etishning buzilishi bosh miyasi organik jarohatlangan bolalarda ko‘proq uchraydi. L.N.Benderning amaliy kuzatishlari natijasida nutqida kamchiligi bor bolalarda kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatida, xususan rasm chizish, konstruksiyalar yasash, grammatikani o‘rganish jarayonida sog‘lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan bu faoliyatlar ning sustligi kuzatildi. Optik-fazoviy gnozisning buzilish darajasidagi idrokning boshqa jarayonlarini ayniqsa fazoviy tasavvurlarning yetishmasligiga bog‘liq.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda optik atrof-muhitni idrok etish jarayonining buzilgani, shuningdek, boshqa idrok jarayonlari to‘liq emasligi natijasida atrof-muhitni tasavvur qilishning shakllanishida o‘ziga xos jihatlar kuzatiladi.

Alalik bolalarda idrokning buzilganligi ayniqsa rasmlarni chizishda kuchli namoyon bo‘ladi: rasm va tasvirlarda detallar miqdorining kamligi, oddiyligi, soddaligi, murakkab emasligi bilan ajralib turadi, shuningdek, optik atrof-muhitni idrok etishdagi buzilishlarning miqdori bilan xarakterlanadi.

Disleksik va disgrafik bolalarda atrof-muhitni idrok etishning buzilishi ayrim hollarda yozuv nuqsonlarida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, predmetlar orasidagi aloqalar, ular orasidagi faoliyat impressiv nutqning saqlanganligini bildiradi. Lekin ekspressiv nutqda, agar bolalar og‘ir nutq nuqsonlariga ega bo‘lsa, nutqiy muloqot vositalarini bu munosabatlarda noto‘g‘ri

ifodalaydilar. Bu ularning nutqida semantik tartibning saqlanmaganligi bilan bog'liq.

Artikulatsion organlarni tekshirish jarayonida (Tara metodikasi bo'yicha) idrok buzilishi ushbu organlar harakatlanishi bilan bog'liq. Bu hol ayniqsa dizartriya va motor alaliyada kuzatiladi.

Taktil-harakat a'zolari orqali idrok etish xususiyatlari R.L.Ringel metodikasi yordamida tekshiriladi. Bunda bolaga «sehrli quticha»ga joylashtirilgan predmetlar orasidan kerakli predmetni paypaslab aniqlash topshiriladi. Nutqida kamchiligi bor bolalarda, ayniqsa dizartriklar va alaliklarda mayda qo'l motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli taktil-harakat orqali idrok etish xususiyati ham buzilgan bo'ladi.

Nutqi buzilgan hamma bolalarda fonematik idrokning buzilishi, shubhasiz nutq-eshitish va nutq-harakat qilish analizatorlari faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. G.F.Sergeyevaning fikricha, dizartriya va rinolaliyada nutq-harakat qilish funksiyalarining buzilishi fonematik idrok jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bunda tovushlarni talaffuz qilishning buzilishi va idrokning buzilishi orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa kuzatiladi.

Agar nutqida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagি bolalarda shu psixik funksiya o'z rivojlanish me'yordan orqada qolgan bo'lsa, ularda predmetning yaxlit obrazini yetarlicha idrok etish shakllanmagan bo'ladi.

Idrok qilinayotgan predmetning dastlabki obrazi sezgilarning jami (yig'indisi)dan iborat bo'lmay, balki yaxlit, bir butun bo'laadi. Bu idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda esa predmetni yaxlit idrok etish qobiliyati ham buzilgan bo'ladi. Ular predmetning ayrim belgilarini idrok etmaydilar (L.I.Belyakova, Y.F.Garkusha, O.N.Usanova, E.L.Figero). Bolalar savodini chiqarishda optik-fazoviy idrok rivojlangan bo'lishi kerak. Miyaning organik shikastlanishi optik-fazoviy idrokning buzilishiga sabab bo'ladi.

A.P.Voronovaning nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagи bolalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari-

ning tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu toifadagi bolalarda harf idroki past rivojlangan bo'ladi: ular harflarni bir tekisda yoza olmaydilar, harflarni chaplashtirib yuboradilar, to'g'ri chiziqdan tepega yoki pastga tushib ketadilar. Bosma harflarni yozishda ham xuddi shunday qiyinchiliklarga uchraydilar. Shu sababli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar savodni egallahsha qiynaladilar. Ma'lum bo'lishicha, nutqi rivojlanmagan bolalar «o'ng tomon» va «chap tomon» tushunchalarini ajratib olishda qiynaladilar, shuning uchun o'z tana a'zolarining joylashish o'rnnini odatda to'g'ri aniqlay olmaydilar.

Alalik bolalarda fazoviy buzilishlar, ayniqsa, odam suratini chizishda yaqqol ko'rinadi: tasvirlashning qashshoqligi bilan, detallar sonining kamligi va oddiyligi, hamda o'ziga xos optik-fazoviy buzilishlarning mayjudligi bilan ajralib turadi. Biroq, nutqi buzilgan bolalarda fazoviy buzilishlarning o'rni rasmida ifodalangan hissiy jo'shqinlik evaziga kompensatsiya qilinadi.

Demak, idrok va nutq o'zaro chambarchas bog'liq. Har bir idrok nutqda ifodalananadi. Masalan, «bu kitob», «bu odam» va h.k. Odamning idroki sezgi organlariga ta'sir ko'rsatayotgan biron narsaning oddiygina obrazi emas, balki odamning tajribasi zaminida anglab, tushunib oladigan obrazdir. Idrokning mazmuni asosan odam hosil qilgan tajribaning boyligi, unda tafakkur va xayolning nechog'liq taraqqiy qilganligi bilan belgilanadi. Bunda nutq yetakchi o'rin egallaydi. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda esa idrokning barcha turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishda nutq kamchiliklarini to'g'rilash bilan birga idrokni rivojlantirish ham talab qilinadi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv qaratilishiga aytildi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun diqqat-e'tiborning o'zgaruvchanligi, ixtiyoriy diqqatning pastligi, o'z harakat-

larini rejaliashtirishdagi qiyinchiliklar kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

Diqqat ta'sir etuvchi analizatorlarning (ko'rish yoki eshitish) ishtirokiga ko'ra farqlanadi: nutqida kamchiligi bor bolalarda diqqatni toplash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagি bolalarda rang, shakl, figuralarning fazoviy joylashishini farqlashda xatolar ko'p uchraydi. Bunday bolalar diqqatining tarqoqligi tufayli biron-bir ishni oxiriga yetkaza olmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagи bolalarda diqqatni nutq va amaliy harakat o'rtasida bo'lish amalda bajarib bo'lmaydigan qiyin vazifa hisoblanadi. Bolalar diqqatida-gi kamchiliklar butun ish jarayoni davomida kuzatiladi. Ularda diqqatning ko'chishi, ya'ni bir narsadan ikkinchi boshqa narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishi qiyinchiliklar bilan kechadi. Buning sabablaridan bir ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o'rtasida bog'liqlikning borligi yoki yo'qligidir. Agar bunday bog'liqlik bo'lsa, diqqat tez va oson ko'chadi. Diqqat ko'chishining yengillik yoki qiyinlik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisba-
tan bolalarning munosabatlariadir. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda diqqat ko'chishining qiyinligi ularning o'z nuqsonlari-
riga nisbatan munosabatlari bilan ham belgilanadi. Ba'zi bolalar o'z nuqsonlarini anglab, undan uyaladilar, ba'zilar nuqsonlari-
ga parvo ham qilmaydilar va to'g'rilashga intilmaydilar. Mana shu omillar diqqatni toplashga va nutq kamchiliklarini yengish-
ga to'sqinlik qiladi.

Motor alalik bolalar bilan o'tkazilgan eksperimental tadqiqot-
lar natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- motor alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning miqdor ko'rsat-
kichlari darajasi nutqi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan
ancha past;

- motor alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning xarakteri ko'rish
va eshitish qo'zg'atuvchilarining ta'siriga bog'liq bo'ladi: bunda

nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar uchun berilgan vazifalarni bajarishda so'z bilan ifodalangan og'zaki ko'rsatmalardan ko'ra ko'rish orqali berilgan ko'rsatmalarga o'z diqqatini jamlash osonroq kechadi;

– motor alalik bolalar uchun faoliyatning reproduktiv turi (normada – produktiv) ko'proq xos bo'ladi, ularda biron vazifani bajarishda mustaqil izlanish, har xil variantlarni sinab ko'rish qobiliyati sust bo'ladi;

– o'yin faoliyatida esa motor alalik bolalar vazifani bajarishda normal bolalar bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatishlari mumkin, bu ularning aynan o'yin sharoitida ko'nikmalarни yuqoriroq darajada qo'llay olishlaridan, ya'ni faolroq faoliyat ko'rsata olishlaridan darak beradi, demak alalik bolalar faoliyatining sifati lo-goped ularning diqqatini qay darajada jamlay olishiga bog'liq;

– motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqat past darajada rivojlangan bo'ladi va bu ularda ruhiy jarayonlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi. Bunda: a) yo'l-yo'riqlarni bolalar aniq emas, balki uzuquyuluq idrok etadilar; ular berilayotgan vazifa shartlariga diqqatlarini jamlashga, uni bajarish usullari va vositalarini izlashga qiynaladilar; yo'l-yo'riqlarni aniqlashtirib olish maqsadida odatda nutqdan foydalanmaydilar; b) motor-alalik bolalar berilgan vazifalarni xatolar bilan bajaradilar, bunda xatolar xarakteri va vazifaning bajarilish vaqtini me'yordagi bolalarnikidan sifat jihatdan ancha farq qiladi; d) vazifalarni bajarishda barcha o'z-o'zini nazorat qilish turlari (oldingi, joriy va keyingi) shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo'ladi (O.N.Usanova, Y.F.Gargusha, 1985).

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, har qanday nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalarning ixtiyoriy diqqatini shakllantirish uchun uni faoliyat jarayonida muntazam va tizimli rivojlantirib borish kerak. Bunda diqqat buzilishining har bir nutq kamchiligidagi (alaliya, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish va h.k.) o'ziga xos namoyon bo'lish xususiyatlari hisobga olinishi va bu ish boshqa oliv psixik funksiyalarining rivojlanishi bilan yaqin aloqada olib borilishi shart.

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individual tajriba orttirilishiga bog'liqdir. Esda olib qolingga narsani keyinchalik kechadigan faoliyatda qo'llash uchun, uni esga tushirish kerak. Ulug' muallim va shifokor Ibn Sino nutq va xotiraning o'zaro bog'liqligiga e'tibor bergen va shunday degan edi: «Bolalar birga bo'lganda doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar».

Xotiraning bir necha turlari mavjud: ko'rgazmali-tasavvurli, so'zli-mavhum va oraliq. Bu turlar inson yuqori asab faoliyati birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro nisbatiga bog'liq bo'ladi. Xotira u yoki bu turining ustunligi, xususan, inson hayoti va faoliyatining turlari va shart-sharoitlariga bog'liq. Masalan: ko'rgazmali-tasavvurli xotira turi ko'pincha rassomlarda uchraydi.

Ko'rgazmali-tasavvurli xotira turli xil taassurotlarni eslab qolishda qanday analizator unumdon bo'lishiga qarab farqlanadi. Shunga muvofiq harakatlantiruvchi, ko'rish va eshitish xotirasini farqlaydilar. Bu turlar alohida juda kam uchraydi. Ko'p hollar da aralash turini uchratish mumkin: ko'rish-harakatlantiruvchi, ko'rish-eshitish, eshitish-harakatlantiruvchi.

Xotira hajmining buzilishi bosh miya yarim sharning disfunksiyasi, taqdim etilgan ma'lumotlarni tiklash tartibidagi qiyinchiliklar esa — o'ng yarim sharning disfunksiyasi bilan bog'liq.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotirasi bilan bog'liq muammollar bilan G.S.Gumennaya, M.I.Belyajova, Y.F.Garkusha, O.N.Usanova va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Bunday bolalarning ko'rish xotirasi ko'lami deyarli me'yordagidan farqlanmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda xotira funksiyalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan.

Dizartrik bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli juda kam. Bunday bolalarda bu sohadagi past natijalar idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq (I.T.Vlasenko). Bu bilan birga eshitish xotirasi kamchiliklarining darajasi nutq rivojlanishining pasayishiga olib keladi. A.R.Luriya va boshqalarning «10 ta so'z» metodikasi yordamida bolalar xotirasi tekshirilganda, nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar aniqlandi: ular vazifalarni bajarish jarayonida sekinroq mo'ljal olishadi va ularning natijalari me'yordan pastroq bo'ladi.

Motor alalik bolalar xuddi shu metodika asosida tekshirilganda, birinchi aytilgandan keyin (eshitib turib) faqatgina 3—4 ta so'zni qaytara olishi ma'lum bo'ldi, bunda ular bir so'zni bir necha marta qaytarishi mumkin, yoki yangi so'zlar bilan almashtiradi. Nutqida kamchiligi bor bolalar yo'l qo'yilgan xatolarini e'tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda xatolarni to'g'irlash bir xil past darajada bo'lar ekan. Ular 10 daqiqadan so'ng 5 ta so'zni, ertasi kuni 1—3 ta so'zni eslaydilar. Motor alaliyali bolalar uchun o'nta so'zning o'rtadagi qismlarini eslash ayniqsa qiyin kechadi.

Motor alalik bolalarning nutqi me'yorda rivojlangan bolalar bilan solishtirilganda, eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi ancha past ekani ma'lum bo'ldi. Motor alalik bolalar

tez-tez murakkab yo'l-yo'riqlarni eslaridan chiqarib qo'yadilar (uchta, to'rtta pog'onali), berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba'zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo'l-yo'riqni aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar (L.I.Belyakova, Y.F.Garkusha, O.N.Usanova, E.L.Figereo, 1991).

Faoliyat tuzilishining buzilishi yo'l-yo'riqni noaniq va uzuq-yuluq idrok qilish faqatgina eshitish xotirasining pasayishi bilan emas, balki diqqat xususiyatlari bilan ham bog'liq.

Qayta eslashdagi yo'lga qo'yilgan xatolarni nutq buzilishiga ega bolalar odatda sezmaydi va tuzatmaydi. Kechiktirilgan qayta eslash barcha nutq nuqsoniga ega bolalar toifasida bir xilda quyi (past) bo'lib chiqadi. Masalan: ular 10 daqiqadan keyin beshta so'zni, keyingi kunda bir-uchta so'zni qayta eslaydi.

Shunday qilib, nutqida kamchiliklarga ega bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi: ko'rish xotirasi ko'lami deyarli me'yorga to'g'ri keladi, geometrik figuralarning esda qolishi bundan mustasno; eshitish xotirasining umumiy pasayishi; kechiktirilgan qayta tiklashning quyi darajasi; mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi.

Ammo bu turdagи bolalarda, mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlangan bo'ladi.

Xotirani o'rganish uslubiyati. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning xotirasini tekshirish uchun bir qancha metodikalar ishlab chiqilgan. Ular bolalarda qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, mantiqiy va mexanik xotiraning rivojlanish darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan. Qisqa muddatli xotirani tekshirishda bolaga shunday ko'rsatma beriladi: «Men har bir qatorda uchtadan (to'rttadan, beshtadan) son bo'lgan to'rt qator sonlarni o'qiymen. Sening vazifang – bu sonlarni o'qilgan tartibda eslab qolish, keyin bo'lsa xayolda birinchi sonni ikkinchisi, ikkinchisini uchinchi bilan, uchinchini to'rtinchi bilan va h.k. qo'shish va olingan to'rtta yig'indini kerakli qatorga yozish-

dan iborat. Metodikada qo'llanadigan qatorlardagi raqamlar va qatorlar soni bolaning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi. Qatorlarni o'qish orasidagi vaqt yoshga ko'ra 15–25 sekund bo'lishi kerak.

Uzoq muddatli xotiraning rivojlanganlik darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan metodikada bolaga shunday ko'rsatma beriladi: «Hozir men bir qator so'zlarni o'qiyman, sen esa, ularni eslab qolishga harakat qil. Tayyorlan, diqqat bilan eshit: stol,sovun, odad, vilka, kitob, palto, bolta, daftар, sut, shim». So'zlar qatori bir necha bor o'qiladi. Tekshiruv 10 daqiqadan keyin va uch kun o'tib amalga oshiriladi.

Juftlikni eslab qolish metodikasi mantiqiy va mexanik xotira rivojlanishi darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan. Bunda bolalarga ikki qator so'z beriladi. Birinchi qatordagi so'zlar orasida ma'naviy bog'lanishlar mavjud, ikkinchi qatorda esa bunday bog'lanish yo'q.

Tadqiqotchi o'rganilayotgan qatordagi juft so'zlarni o'qiydi (juftliklar orasidagi vaqt – 5 soniya). 10 soniyalik tanaffusdan so'ng qatorning chap tomonidagi so'zlar o'qiladi, sinalayotgan bola esa eslab qolingga o'ng qatordagi so'zlarni yozadi.

Bolalar xotirasi psixologik jihatdan diagnostika qilinganda, uning eng muhim xususiyatlaridan biri so'z, mantiq, xotira va ma'nosiga qarab tushunish, eslab qolish salmog'inining ortishi alohida ko'rsatilgan. Logopedik mashg'ulotlarda nutq kamchili-giga ega bo'lgan bolalarning o'z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish va esga tushirish jarayonlarini muvofiqlashtirishga erishish mumkin.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Bu umumiy qonun-qoidalar quyidagi qoidalari bilan xarakterlanadi:

- Surdopsixologiyada bolaning ruhiy rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligi ta'limoti muhim o'rinda ega. Biologik omillarga nerv tizimining xususiyati tempera-

ment tiplari, qobiliyat kiradi. Bolaning tug‘ilishgacha hayotida – homila davridagi bosqichning davom etishi ona kasalligi, u qabul qilgan dorilar, tug‘ish travmalari ham biologik omil turkumiga kiradi. Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat-siyosat, idealogiya tipi, madaniyat, fan va san‘at rivojlanish darajasidir. Ijtimoiy muhit shu jamiyatdan qabul qilingan ta’lim-tarbiya tizimining belgilari, inson rivojlanishining manbayi sanaladi. Ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish bilan emas, balki faol formada faoliyatning turli ko‘rinishlari – o‘yin, muloqot, mehnat, bilim olishda namoyon bo‘ladi. Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Eshitishning buzilishi biologik omillar asosida tug‘ruq patalogiyasi, ximik zararlanish asosida amalga oshishi mumkin. Bolalik davrining xususiyatlari kattalarga nisbatan miya strukturasing to‘liqsizligi, ruhiyat komponentlarining shakllanmaganligi, nerv tizimining plastikligi va kompensatsiyaga moyilligi bilan asoslanadi. Eshitishning buzilishida kompensatsiya rolini ijtimoiy omillar – oilaviy tarbiya, emotsiyal tarbiya, ota-onaning ta’limi darajasi, ularning mutaxassislar bilan munosabati, korreksion ishdagi ishtiroki katta ahamiyatga ega.

- Barcha bolalarning ruhiy rivojlanishidagi umumiyoq qonuniyat uni vaqt bo‘yicha tashkillashtirish hisoblanadi: bola hayotining turli bosqichlarida o‘zgaruvchi ritmi shakllanish xususiyatlari bilan belgilanuvchi mazmun bolaning ta’lim-tarbiyasi jarayoni hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishi ruhiy komponentlarining chuqur shakllanishi, psixologik davr-ontogenezning o‘ziga xosligi o‘zida namoyon qiladi.

- Bolalar ruhiy rivojlanishi hayot bosqichida miyaning faol shakllanishi bilan asoslanadi.

Bir yoshdan ikkinchisiga o‘tishda funksional aloqalarning murakkabligi kuzatiladi. Shuning uchun yosh davri turli pedagogik ta’sirlarga yuqori ta’sirchanligi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichlar senzetiv deb nomlanadi. Har bir yosh davrida aloqa va

munosabatlar, psixik funksiyalar qayta qurilishi amalga oshiriladi.

Senzitiv bosqichlar mavjudligi, endi shakllanayotgan ruhiy funksiyalarga ta’lim ta’siri kuchli bo’lishi bilan xarakterlanadi.

• Qonuniyat L.S.Vigoteniyning bolalar rivojlanishidagi metamerafaza haqida ta’limotidir. Bola psixikasi har bir yosh bosqichida o’ziga xosdir, bu bola rivojlanishidagi integratsion jarayonlar funksional munosabatlar natijasi o’laroq maydonga chiqadi. Evolyutsiya va invalyutsiya jarayonining birlashishi yangi bosqichda oldingi bosqichdagilarning yangilanishi yoki mavjud bo’imasligini asoslaydi.

• Qonuniyat yuqori ruhiy funksiyalarni rivojlantirish sanaladi. Bu boshqa odamlar, kattalar bilan hamkorlik shakli sifatida namoyon bo’lib, asta-sekin bolaning ichki funksiyasiga aylanib boradi. Yuqori ruhiy funksiyalar murakkab tuzilmalar bo’lib, keilib chiqishiga ko’ra ijtimoiy hodisadir. Ular maxsus tashkil etilgan vositalar bilan jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichida shakllanib boradi. «Natural» psixik funksiyalarning oldingi strukturasi o’zgaradi, ular madaniylashib, ongliylik, ixtiyoriylik, asoslanganlik sifatlariga ega bo’la boshlandi.

Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatları ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo’ladi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar atrof-muhit bilan muloqotda qiyinchiliklaraga duch keladilar, ularda shaxs va o’z-o’zini anglashning rivojlanish xususiyatlari namoyon bo’la boshlaydi. Turli buzilish, nuqsonlarga ega bolalarning ruhiy rivojlanishi tahlili, L.V.Vigotskiy ta’rifi bilan aytganda, nuqson strukturasidan tuzilgan tahlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o’rinda – eshitishning buzilishi ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko’ra chaqaloqlik, maktabgacha bo’lgan davrda o’xhash holatda namoyon bo’ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo’ladi, funksional o’zar munosabatlar strukturasini o’zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qan-

chalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir, nutqning boshqa jihatlarini rivojlantirish ha-li eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil kechadi. Ikkila-mchi nuqsonlar eshitishdagi buzilishidagi psixologo-pedagogik korreksiyaning asosiy obyekti hisoblanadi. Bola ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligi dalillandi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lif-tarbiyasida tushirib qoldirilgan yillar, yuqori sinflarida kompensatsiya qilinolmaydi, buzilishlar bartaraf qilinishi uchun uzoq muddat kuch talab etadi. Ruhiy rivojlanish jarayonida birlamchi va ikkilamchi buzilishlar o'rtasidagi iyerarxik munosabatlar buziladi. Ta'lif jarayonidagi dastlabki to'siq bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzilishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to'sqinlik qila boshlaydi. Buzilishlarning barcha tiplarida bolaning ruhiy rivojlanishida o'ziga xos qonun-qoidalarni tasniflash mumkin (B.I.Lubovskiy). Buzilishning barcha tiplarida ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash qobiliyatining pastligi kuzatiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixik xususiyatlari qanday?
2. Nutqida nuqsoni bor bolalarda diqqat qanday rivojlangan?
3. Nutqida nuqsoni bor bolalarda xotira va tafakkur qanday rivojlangan?

16-mavzu. Kar-soqovlik. Kar-soqov bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari

Reja:

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq.
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish.
4. Rivojlanishning umumiy xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, soqovlik, zaif eshituvchi bola, daktiologiya, eshitish, nutq apparat, surdopedagog.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni differensial tashkil etish uchun har xil tamoyilli tasniflash mavjud. Buni ilmiy tadqiqot institutlari xodimlari, Rossiyaning qator maxsus maktab-internatlari ishlarida o'rgana boshladilar. Ushbu maktab o'quvchilarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu maktablarda o'qitish ishlari asosan birlamchi nuqsonni hisobga olgan holdagina olib borilar ekan.

Ushbu toifa bolalarning rivojlanishida faqatgina birlamchi nuqsonning holati asosiy rol o'ynamaydi, balki qator muhim omillar maydonga chiqadi.

Birinchi tasniflash XVI asrga to'g'ri keladi. Italiya olimi D.Kardano 3 guruh karlarni ajratishda karlikning vujudga keliш vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan:

1. Tug'ma karlar.
2. Erta kar bo'lganlar (nutqi rivojlangunga qadar).
3. Kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar).

XVIII asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lgan bolalarni guruhlarga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan.

XIX asrning birinchi yarmida rus surdopedagogi V.I.Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni bo'lak holda o'qitish kerakligini taklif qilgan.

Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishi-ga qarab ajratgan:

- yuqori nutq va tovushlarni qulog'inining yaqinida eshituvchilar;

- unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar;
- umuman eshitishida nuqsoni bo'lganlar.

Biroq kar bolalarning differensiyasi, faqat turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotganlarni o'qitish bilan ijobiy natijalar bermadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituchi o'quvchilar bilim yurtida Ya.T.Speshev ikkita bo'linma tuzdi:

- turli xildagi nutqlarga ega bo'lgan kar bolalar uchun;
- imo-ishora asosida muloqot qiluvchilar uchun.

Ya.T.Speshev tomonidan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutq saviyasini yaxshilash bo'yicha differensiallanadi, asosiy nuqson darajasi hisobga olinmaydi. Bunday hol ularni o'qitish mobaynida kerakli samara bermadi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lgan bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomonidan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo'lgan o'zlashtiruvchanliklari kuzatiladi. Bunday hol esa o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni aqliy rivojlanishi bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tasnifini ilmiy tu-shuntirish zarurati shu tariqa vujudga keldi.

L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishi ni o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi:

- kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyatini tek-shirishni tizimlashtirish boshlang'ich urinishidan, toki amaliyotda eshitishni o'lchagich uskunasini kamerton to'plamidan foydanishni amaliyotda qo'llash;
- kamertondan to audometrgacha bo'lgan davr;
- hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audio-metr.

Har bir davrga eshitish holati uchun baholash mezonlari L.V.Neyman tomonidan ishlab chiqildi. Natijada bolalarning eshitish funksiyasi hajmini bilish uchun mo'ljallangan uskunalar rivojlantirildi va yangilandi, kar va zaif eshituvchilarining eshitish qobiliyati holatini yana ham to'liq tushunchasi, bolalik davrida eshitish qobiliyati buzilishining yangi tasnifi berildi.

Eshitish funksiyasining qanchalik shikastlanganligini aniqlash uchun u tomonidan karlar va zaif eshituvchilarining eshitish qobiliyatini tonal audiometriya va nutq orqali tekshirish ishlari olib borildi.

L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi:

1-guruhda eng nuqsonli bo'lgan chastotalarni qabul qiladiganlar – 125–250 Gs.

Bu bolalar tovushlarning birortasini ham ajrata olmaydilar, faqat qulq oldida baland ovozni eshitadilar (baqiriq, poyezd gedogining ovozi).

2-guruh 125-250-500 Gs chastotalarni qabul qiladi.

Bu bolalar faqatgina eshitibgina qolmay, «o», «u» unlilarini ajratadilar. Yaqin masofada atrof-muhitdagi tovushni eshitadilar.

3-guruh nuqsonli bo'lgan va o'rtacha 125-250-500-1000 Gs. chastotalarni qabul qiladi.

Bu guruh bolalari qulq oldida so'zlashuv balandligidagi ovozlarga e'tibor beradilar, 3–4 unlilarni anglaydilar, ularning ko'pchiligi ba'zi tanish so'zlarni anglashadi.

4-guruh 125–2000 Gs. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar qulq oldida va uzoq bo'limagan masofadagi gaplarni eshitadilar. Tanish gaplar va so'zlarni, unli va undoshlarni ajratadilar.

Eshitish kamchiligidagi nutqiy rivojlanishlarning darjasи va xarakteri bir qator sabablar asosida yuzaga keladi. R.M.Boskis nutqiy rivojlanish darjasining quyidagi to'rt omil bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan. Zaif eshituvchi bolalarni eshitish chas-totasi hajmiga qarab kar bolalarnikidek guruhash to'g'ri kelmaydi. Chunki ko'pchilik zaif eshituvchilar keng diapazondagi 4000 Gs

va yuqori chastotani qabul qiladilar. Har bir guruh zaif eshituvchilar tomonidan ayrim gaplarni eshitish imkoniyatlari bo'yicha belgilanadi. 1-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 50 dB dan oshmaydi. Ularning chastotalarni qabul qilishi 125–8000 Gs atrofida. 1 m dan ortiqroq masofada so'zli tovush balandligida gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish mumkin. 2-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70 dB gacha. 1 m dan kamroq masofada so'zli tovush balandligidagi gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish birmuncha qiyinroq. 3-guruh tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70 dB dan yuqori. So'z tovushlari balandligida gaplarni ajratish qulq oldida ham qiyinlashadi; muloqot qilish faqat baland tovushda qulq yaqinida amalga oshiriladi.

Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq jarayonining qiyinlashuv, eshitish qobiliyatining pasayishi 15–20 dB da hosil bo'ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o'rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi. Zaif eshituvchilar bilan karlar o'rtasidagi taxminiy chegara esa 80 dB dir.

L.V.Neyman tomonidan yaratilgan eshitish nuqsoni tasnifi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifini ilmiy ta'riflashga ko'ra, maxsus differensiallab o'qitish kerakligini tasdiqlaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning yangicha pedagogik tasniflanishi R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilib, kompleks o'rganishga asoslangan. Nuqson strukturasini o'rganishga ilmiy yondashish R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilgan. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning har tomonlama rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asoslangan dalillarni solishtirib, o'rganilayotgan bolalarning rivojlanishdagi chetlashish asoslari.

Analizatorlar haqidagi I.N.Pavlov ta'limotiga ko'ra, sezish organlari yagona tizim holda tushuniladi, har bir sezish organining ish holati analizatorlarning o'zaro bog'liqligidadir. R.M.Boskis,

shuningdek, L.S.Vigotskiyning bolada biror-bir analizatorning buzilishi undagi ruhiyatning buzilib rivojlanishidagi murakkab strukturasi ta'limotiga ham asoslanadi. Biror-bir sezish organining yo'qolishi yoki nuqsonli bo'lishi barcha tizimga salbiy ta'sir etadi, barcha saqlanib qolgan sezish organiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Funksional holda shikastlanganlarga yaqin bo'lganlar boshqalarga ko'ra ko'proq jabrlanadilar. Biror-bir analizator qanchalik shikastlangan organlar bilan kamroq bog'liq bo'lsa, u shunchalik yaxshi ishlaydi.

R.M.Boskis tomonidan tuzilgan pedagogik tasnif eshitish qobiliyatining nutq bilan psixologik bog'lanishiga asoslangan. Tasnifning nazariy asosini quyidagi holatlar tashkil etadi:

- eshitish qobiliyatining buzilish darajasi;
- eshitish nuqsoni yuzzaga kelgan vaqt;
- eshitishning yo'qolganidan so'ng bolaning qaysi pedagogik sharoitlarda bo'lishi;
- bolaning yakka xususiyatlari.

Yuqoridagilardan tashqari, R.M.Boskis eshitishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni ikkita asosiy toifaga bo'lgan: karlar va zaif eshituvchilar. Kar bolalar sirasiga tug'ma yoki erta yoshda orttirgan karlik natijasida nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiritilgan. Zaif eshituvchi bolalar qatoriga eshitish qobiliyati pasaygan bo'lsa-da, minimal darajada nutqni mustaqil egallay oladigan bolalar kiritilgan. R.M.Boskis bu toifa bolalarni ikki guruhga bo'ladi.

ERTA KAR BO'LIP QOLGANLAR (2–3 yoshgacha). Ular umuman nutq malakalariga ega bo'lomaganlar.

Kech kar bo'lib qolganlar. Karlik kelib chiqishidan oldin ular ma'lum nutq malakalarini egallahsga tuyassar bo'lganlar va bu malakalarining ma'lum darajasi saqlangan bo'ladi.

ERTA YOSHDA ZAIF ESHITUVCHI BO'LIP QOLGAN BOLALARNING NUTQIY RIVOJLANISHINI ESHITISH QOLDIQLARI ASOSIDA TABIIY SHAROITDA, YA'NI TABIIY MULOQOTDA OLIB BORISH MUMKIN.

Kar bolalar nutqini shakllantirish, saqlangan analizatorlarni ishlatish, kompensatsiyalash asosida maxsus ta'limga tayangan holda amalga oshiriladi.

Faqatgina surdopedagog yordamida eshitish va ko'rish idroki (ovozi kuchaytirgich apparatlar yordamida) tashqi vibratsiyali hamda kinestetik siljishlarni rivojlantirish mumkin.

Pedagogik tasniflashni har bir surdopedagog uchun puxta bilish, har bir toifa bolalarni keng ma'noli, maxsus bir maqsadga yo'naltirgan ishlarni olib borishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif bo'yicha bolalar maxsus muassasalarga yo'llanma oladilar.

1-guruhdagi kar bolalar kar bolalar mакtabida ta'lim olishga yo'llanma oladilar. Ushbu maktablarda bolalarni bilimlar bilan qurollantirish so'zlashuv nutqini rivojlantirish bilan birgalikda jadal ravishda olib boriladi.

2-guruhdagi kar bolalar zaif eshituvchi bolalar maktablarida ta'lim olishga yo'llanma oladilar.

3- va 4-guruhdagi kar bolalar kam intensiv va tovush chastotasi xarakteri bo'yicha katta farqli tovushlarni juda yaqin masofada ajrata oladilar (maktab qo'ng'irog'i, har xil musiqa asboblari tovushi va hokazo). Shunday qilib, karlarning qabul qilish chastotalari hajmini kengaytirish ularda eshitish qobiliyatini kuchaytirish, nutqlarni va atrof-muhitdag'i tovushlarni farqlay olishga yordam beradi.

L.V.Neyman zaif eshituvchilarni uch guruhg'a, ularning tovush diapazoni atrofidagi eshitishning yo'qolishi kattaligiga qarab ajratadi (500 dan toki 4000 Gs).

Yuqorida aytiganidek, R.M.Boskisning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasniflanishi, eshitish va nutqni psixologik o'rganishlar asosida ko'rilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida o'ziga xos ko'rsatkichda, quyidagi nazariy taqsimlanishlarga asoslangan.

Yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi kattalarning o'xshash nuqsonidan farqli ravishda ko'riladi. Katta odamda nuqson paydo bo'lgunga qadar nutq, idrok va baracha shaxsiyatlar shakllangan bo'ladi. Bolalik davrida eshitishni

yo'qotish esa, bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bir qator ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'la-di. Eshitish nuqsoni bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, karlikning erta paydo bo'lishi esa nutqning umuman rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarning nuqsonli rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun shu holatdagi eshitish kamchiligi-da nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomonidan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorida rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, boshqa tomonidan, eshitishning me'yoriy rivojlanishi to'g'ri nutqning rivojlanish darajasi-ga aloqador bo'ladi. Bolada qanchalik nutqning darajasi yuqori bo'lsa, eshitish qoldiqlarini ishlatish imkoni shunchalik samarali bo'ladi. Bundan tashqari bolada eshitish nuqsoni qanchalik yengil bo'lsa, atrofdagilar nutqiga taqlid asosida nutqni mustaqil egal-lash imkoniyati shuncha keng bo'ladi.

Bolada eshitish funksiyasi nuqsoniga bahoning mezoni eshitish qoldiqlarini nutqiy rivojlanishi uchun ishlatish imkoni hisoblanadi. Bu mezon asosida karlik va zaif eshitishlik bir-biridan farqlanadi.

Karlik – eshitish qobiliyatining umuman yo'qolganligidir. Bundan nutqni mustaqil egallay olmasligi hamda o'zgalar nutqini faqat eng yaqin masofada idrok etish holatlari mavjud. Total karlik kam uchraydi.

Zaif eshitish – eshitish qobiliyatining pasayishi. Bunda zaif eshituvchi eshitish funksiyasi saqlangan holda ma'lum bir minimal nutqiy zaxirani mustaqil egallay olish imkoniyatiga ega.

Kar-soqov bolalar. Soqovlik – tug'ma karlik yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi. Nutq apparatining periferik qismida yoki markaziy qismida hech qanday organik o'zgarishlar bo'lmaydi. Bola eshitmagani uchun so'zlarni taqqoslab eshita olmaydi; eshitmagani uchun bor nutqi ham yo'qolib boradi. Karlikning tug'ma shakli kam uchraydi. Orttirilgan karlikning sabablaridan birinchi

o'rinda yuqumli serebrospinal meningit asosiy o'rinni egallaydi. Kar-soqov bolalar o'qiydigan maktabdagi tekshirishlar shuni ko'rsatdiki 1600 bolalar ichida 72% meningitdan kar bo'lib qolganligi aniqlangan.

Nutqini saqlab qolgan kar bolalar. Maktab yoshida yoki bog'cha yoshida kar bo'lib qolgan bolalar nutqi ustida maxsus ish olib borilsa bolaning nutqini saqlab qolish mumkin, agar bunday ishlar olib borilmasa bola bor nutqini ham yo'qtadi. Karlarda eshitish qobiliyati butunlay yo'qolmaydi, ko'pchiligidagi ozgina bo'lsa ham saqlanadi. Kuchli tovushni ajratishadi, ayrimlari qulog'i oldida gapirganni qabul qilishadi. Orttirilgan karlikda eshitish qobiliyati qisman saqlanib qolgan bolalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

I – eng past chastotalarni qabul qiluvchi bolalar (128–256 Gs).

II – past chastotalarni qabul qiluvchilar (512 Gs gacha).

III – past va o'rta chastotalarni qabul qiluvchilar (1024 Gs gacha).

IV – keng diapazondagi chastotalarni qabul qiluvchilar (2048 Gs va undan yuqori).

I guruhdagi kar bolalarning ayrimlari qulog oldida chiqarilgan kuchli tovushga reaksiya beradi, hech qaysi undoshli tovushlarni, so'zlarni ajrata olmaydi.



19-rasm.

II guruhdagi kar bolalar qulog oldidagi kuchli tovushga (masalan, kuchli baqiriq) javob reaksiyasini beradi, ayrimlari (a, u) harflarni ajratadi, lekin so'z va jumlalarni ajrata olmaydi.

III guruhdagi kar bolalar to'g'ri ovoz bilan gapirganda reaksiya beradi, 3–4 harflarni ajratadi, ayrim tanish so'zlar va jumlalarni ajratishadi.

IV guruhdagi kar bolalar 2 m masofadagi gapni eshitishadi hamda tanish bo'lgan jumla va so'zlarni ajratishadi.

Keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar. Keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar, ya'ni maktab yoshigacha yoki maktab yoshida kar bo'lib qolganlar. Ular kar bo'lishidan oldin orttirgan nutqini qisman bo'lsa ham saqlab qolishadi. Nutqning saqlanib qolish darajasi bir qator sabablarga bog'liq bo'ladi:

- a) bola o'sib va rivojlanayotgan muhitga
- b) nutqni o'stirish uchun ishlar olib borilganligi yoki olib borilganligi;
- d) eshitishni qisman bo'lsa ham saqlanganligi yoki butunlay yo'qligi;
- e) eshitishning saqlangan qismini ishlata bilishligi va h.k.

Agar nutqini rivojlantirish ustida ish olib borilmasa, 4–5 yoshida eshitish qobiliyatini yo'qtgan bolalar maktab yoshiga yetganda gapirmaydilar. 2–3 yoshda eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan nutqni rivojlantirish maqsadida maxsus ish olib borilsa, ularning nutqi yo'qolmasdan aksincha rivojlanadi. «Keyinchalik kar» bo'lib qolgan bolalar degan ibora ishlatilganda, karlikning necha yoshda paydo bo'lganligi emas, balki asosan karlikda nutq saqlanganligi nazarda tutiladi.

Sabablari: yuqumli kasalliklar ichida epidemik ensefalit asosiy sabablardan hisoblanadi.

Maxsus maktablarda odatda eshitish qobiliyatining buzilishi bilan birga nutqi ham rivojlanmagan bolalar yuboriladi. Bolaning eshitishi qisman saqlanib nutqi rivojlanmagan bo'lsa keltirilgan tasnifga qarab ommaviy maktabga yuborib bo'lmaydi. Aksincha eshitishning pasayishi og'ir darajada, bolaga sharoit tug'dirish tufayli, nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa, uni ommaviy maktabda o'qitish kerak. Agar eshitishning pasayganligi vaqtida aniqlanmasa, atrofdagilar beparvo bo'lsalar, ya'ni nutqni o'stirish ustida faol ish olib borilmasa, yoki oilada sharoit bo'lmasa (masalan, kar-soqovlar oilasi), eshitish qobiliyati qisman nutqi rivojlanmay qoladi. Shunday qilib maxsus zaif eshituvchi bolalar maktabida

bolalarni saralashda eshitishning pasayish darajasi emas, balki nutqdagi yetishmovchiliklar nazarda tutiladi.

Nutq diapazonidagi eshitishning pasayishiga qarab zaif eshituvchilar quyidagi darajalarga bo'linadi (L.V.Neyman)

Zaif eshitishning (qulog'i og'irlik) darajasi	Nutq diapazondagi eshitishning yo'qolishi
I – yengil	Nutq diapazondagi eshitishning yo'qolishi 50 (db) dan oshmaydi.
II – o'rta	Nutq diapazondagi eshitishning yo'qolishi 50 dan to 70 db gacha.
III – og'ir	Nutq diapazondagi eshitishning yo'qolishi 70 dan oshadi (o'rtacha 75–80 db)

Eshitishning yo'qolishi 50 db dan oshmasa, oddiy balandlikdagi ovoz bilan gapirgan so'zlar 1 m masofada aniq eshitiladi; ya'ni bola bilan gaplashish mumkin.

Eshitishning yo'qolishi 50 dan 70 db gacha bo'lganda, to'g'ri ovoz bilan gapirgan so'zlar 1 metrga yetmagan masofada eshitiladi, ya'ni gaplashish qiyinlashadi

Zaif eshituvchanlik etiologiyasi va klinikasi. Zaif eshituvchanlik qandaydir darajada bolaning tashqi muhit bilan aloqaga kirishi-shining amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi, eshituv idroki-ning ma'lum bir foizi turg'un pasayganligi bilan xarakterlanadi.

Zaif eshituvchanlikning sabablari ko'p, ko'pincha o'rta qulohning zararlanishi turli xil infektion kasalliklar yoki tug'ma eshituv funksiyasining to'liq shikastlanmasligi oqibatida kelib chiqishi mumkin. Zaif eshituvchanlikni keltirib chiqaruvchi bir qator kasalliklar mavjud. Ulardan biri nerv sistemasining meningoensefalistidir. Burun yoki tomoq orqali kelib chiqadigan kasalliklarning zaif eshituvchanlik, umuman eshitishning buzilishiga hech qanday aloqasi yo'q.

Zaif eshituvchanlik bolaning nafaqat nutqiga, balki psixikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, ushbu ta'sir darajasi individual bo'lib, bola nerv sistemasiga bog'liq.

Shu bilan birga intellektual ongning yuqoriligi va albatta tashqi dunyo sharoitiga bog'liq.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, erta bolalik davrida nutq rivojlanguncha zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalarda nutq yaxshi shakllanmagan. Bu eng avvalo eshituv nazoratining pasayganligi bilan izohlanadi. Bunday bolalarning og'zaki nutqida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish ayrim tovushlar boshqa tovushlar bilan almashib ketishi kuzatiladi, undan tashqari jarangli undosh tovushlarni jarangsiz tovushga almashtirib talaffuz qilishlari mumkin. L.V.Neyman audiometrik tekshirishlar asosida zaif eshituvchilarni 4 guruhga bo'ladi:

1-guruhgaga baland ovozlarni va faqat tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

2-guruhgaga baland ovozni va ayrim unli tovushlarni eshituvchi bolalarni kiritgan.

3-guruhgaga esa normal balandlikdagi ovozni eshitadigan, hatto ayrim tanish so'zlarni ham ajrata oladigan bolalarni kiritgan.

4-guruhgaga nutqiy tovush balandlikdagi ovozlarni 2 metr oraliq'ida eshitib, tovush kuchaytirgich apparatlari yordamida o'qituvchining tushuntirishlarini bermalol eshita oladigan bolalarni kiritgan.

Ushbu apparat yordamida o'qituvchi muloqot qilish davomida saqlanib qolganlar eshituv qobiliyatidan faol foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq ular uchun davolash muolajalarini olib borish zarurdir. Shu bilan birga, eshituv apparatlari yordamida eshituv sezgisini rivojlantirish ham maqsadga muvofiq.

Zaif eshituvchilar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar, o'zgacha nerv diagnostik asoslarda olib boriladi. Chunki og'zaki nutqning ma'noli turini eshitishga imkon yaratadigan eshituv qobiliyatları saqlangan. Undan tashqari, boshqa usullarga o'tib ketmay, boshqalar bilan muloqotga kirishishga imkon beradigan yetarlicha to'la bo'lмаган bir qator holatlardan bo'lsada, ko'pchilik zaif eshituvchilar og'zaki nutqqa ega bo'ladilar. Shunday zaif eshituvchi bolalar uchun ta'lim-tarbiyaviy jarayonning o'ziga xos

ravishda rivojlanmay qolishi infeksiya ta'sirida o'rta qulquning kasallanganligi, ba'zi hollarda esa markaziy asab sistemmasining meningitoensefalit bilan kasallanganligidan bo'lishi mumkin.

Burun va tomoq kasallikkari ham eshitish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zaif eshitish bolalar nutqiga salbiy ta'sir etib, ularning asab sistemasini ma'lum darajada buzishi mumkin. Yosh bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qolishi natijasida ular nutqining to'la-to'kis bo'lmasligi, ba'zi harflarni to'la-to'kis ifodalay olmaslik (sh, s, z, d, f kabi), so'z, jumlalarning oxirgi harflarini noto'g'ri talaffuz qilish holatlari uchraydi. Chunki bolalar bilan so'zlashish paytida ular har bir so'z yoki jumlanli to'la-to'kis eshita olmaganligi uchun o'z xohishicha ovoz chiqarib qo'yadi. Natijada asta-sekin agramatizm hollari yuzaga keladi. Eshitish qobiliyati pastligi natijasida unga qarata aytilayotgan jumlarlarni oxirigacha nazorat qila olmaslikdan bola nutqida jarangdorlik bo'lmaydi.

Eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalarning umumiy maktabda asta-sekin bilim olishga ishtiyobi so'na boradi. Tajribasi kam yoki malakasiz pedagoglar bunday bolalarni yalqov, dangasa, aqli zaif bolalar toifasiga kiritib qo'yadilar, vaholanki, bunday bolalar o'qitilayotgan dars mazmunini aniq eshita olmaydi, o'qituvchidan qayta-qayta so'rashga uyaladi, chunki sinfdoshlari uni «kar-so-qov» deb kamsitishlaridan cho'chiydi. Natijada bu o'quvchidan pedagog biror savolga javob berishini so'rasa, u o'zini yo'qotib qo'yadi, javoblari esa tavakkal, o'tilgan darsga taalluqli bo'lman, pedagog to'satdan savol bersa, u sarosimaga tushib qolishi ham mumkin.

Karlarning o'zaro muloqoti o'ziga xos imo-ishora vositasida amalga oshiriladi. Albatta bunday imo-ishoralar juda sodda ko'rinishga ega.

Asta-sekin imo-ishoralardan labning qimirlashiga qarab mu-loqot qilish mimikasi boshlanadi. Bunda kar o'ziga qarata aytilgan so'zlarni eshita olmaydi, ammo gapirayotgan odamning lablariga razm solib turadi. Muntazam ravishda tajribali peda-

gog yordamida ushbu usulda shug‘ullana borishi yaxshi sarma
ra beradi.

Lab qimirlashidan o‘qib olish malakasi osonlikcha kechmaydi. Bu usulni hamma karlar barobar o‘zlashtira olmasliklari mumkin. Har holda bu usul karlarning atrofdagilar bilan aloqada bo‘lish omili bo‘ladi.

Daktilogik – barmoqlar alifbosi deb ataladigan usulda kar bolalar o‘zaro muloqotda bo‘lishlari mumkin. Bunda so‘z ifodasidagi harflar barmoqning turli holatlari bilan belgilanadi. Kaftdagи barmoqlarni turli ko‘rinishda – bukkan, yarim bukkan, orasini ochgan yoki birlashtirgan holda va h.k. ma’lum bir so‘zni anglatish mumkin.

Pedagog-tarbiyachilar yana shunga e’tibor berishlari lozimki, umuman eshitmaydigan kar bolalar kam uchraydi. Kar deb hisoblangan bolalarning aksariyatida biroz bo‘lsa ham eshita olish qobiliyati bo‘ladi.

Muntazam ravishda lor shifokori nazorati o‘tkazilib turilganda, qulqasalliklarining davolash tugallanmagan holatlarini ham uchratib qolish va shoshilinch ravishda davolashni davom ettirish mumkin. Oxirgi paytlarda eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalar uchun ovozni kuchaytirib beruvchi juda qulay va shinanam tranzistor apparatlar ishlab chiqarilib, ular qulqoqning ovoz eshitish kanaliga o‘rnatib qo‘yiladi. Mitti batareykali individual eshitish apparatlari, tranzistorlar 4, 3, 2 guruhga kiruvchi bolalar uchun ayni muddaodir. Individual eshitish apparatlari bilan ta’minlangan bolalarni pedagogik-tarbiya jarayonlaridagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri ular talaffuzidagi iboralarning noaniqligi, jarangli bo‘lmasligi, ifodadagi harflarning cho‘zilib ketishidir. Shu sababli pedagoglar har bir bola bilan individual ravisha nutqning to‘g‘ri ifodali bo‘lishi, to‘g‘ri talaffuzi yuzasidan olib borishi zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar qanday bo‘ladilar?

2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishi qanday bo‘ladi?
3. Eshitishida nuqsoni bo‘lganbolalarda eshitish qanday bo‘ladi?
4. Rivojlanishning umumiy xususiyatlari nima?

17-mavzu. Inson ko‘rish analizatorlari anatomiyasi va fiziologiyasi

Reja:

1. Ko‘rish analizatorlari haqida umumiy tushuncha.
2. Ko‘rish analizatorlari anatomiyasi.
3. Ko‘rish analizatorlari fiziologiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar: ko‘rish, analizator, analizatorlar anatomiyasi, fiziologiyasi, nevronlar, ko‘rish qobiliyati

Inson ko‘zi hayratlanarli darajada murakkab tuzilma bo‘lib, u insonga ko‘rish qobiliyatini beradi va inson sezgilaridan eng muhimidir. Ko‘rish qobiliyati esa bizning atrofimizdagи olamni tushunish va muhitga mo‘ljal olishimizning asosidir. Biz atrofimizdagи olamga qaraganimizda, ko‘zlarimiz ko‘rishning muhim fundamental bo‘lagi bo‘lgan nurni qabul qiladi.

Ko‘rvuv analizatorining o‘tkazgich yo‘li to‘rtta nevron zanjiridan iborat. I-II-III nevron hujayralari ko‘z retinasi — to‘r pardasida joylashgan. Birinchi nevron hujayralari ko‘rvuv hujayralari yoki ko‘rvuv tayoqchalari va kolbachalar esa uning markazida bo‘ladi. Retinaning markazida sarig‘ dog‘da ko‘plab kolbachalar bo‘ladi, ular buyum-larni eng aniq ko‘rish joyi hisoblanadi. Kolbachalar kunduzi ko‘radigan va rangni sezadigan hujayralardir, tayoqchalalar esa buyum-larni qorong‘ida ko‘rishga yordam beradi. Ko‘rvuv hujayralarining protoplazmatik o‘sinqchalarida ko‘rvuv purpuri — rodopsin joylashgan bo‘lib, yorug‘lik ta’sirotni nerv impulsiga aylantirib beradi. Hosil bo‘lgan nerv impulslari birinchi nevron aksoni orqali ikkinchi nevronga, ya’ni bipolyar hujayralarning dendritlariga o‘tkaziladi. Ganglioz hujayra aksonlari yig‘ilib, ko‘rvuv nervini hosil qiladi.

Ko‘ruv yo‘llari miya oyoqchalarini tashqi tomonidan aylanib o‘tib, yuqoriga ko‘tariladi, miya moddasiga kiradi va ko‘rish yos-tiqchasi do‘ngi va oldingi ikki do‘ng birlamchi markazda to‘xtaydi yoki tashqi egri-bugri tanada to‘xtaydi. Shu yerda ko‘z pardalari gangloz hujayralari aksoni tugaydi va ikkinchi neyronдан ko‘rish yog‘dusi deb ataladigan *ko‘rish tutami* boshlanadi. Bu tutam ichki xaltaning orqa qismidan yo‘nalib miyaning gardan bo‘lagida tugaydi. Tolalarning ana shu tugallangan joyi po‘stloq-li ko‘rish analizatori hisoblanadi. Bu yerda ko‘rish analizatori birinchi neyronda hosil bo‘lgan nerv impulslarini nur va rang hissiyotlariga aylantirib beradi.

Shunday qilib, ko‘rish yo‘llari, birlamchi ko‘rish markazlari, Grasiole tutami, po‘stloq ko‘rish zonalari qarama-qarshi tomon-dagi ko‘zning xuddi shunday tarkiblari bilan o‘zaro bog‘liq.

Yorug‘ nur ta’sirida ko‘z qorachig‘i torayadi, qorong‘ilikdan kengayadi (qorachiqning to‘g‘ridan to‘g‘ri reaksiyasi). Ammo bir tomondagи ko‘zni yoruqlikka tushirilsa, ikkinchi tomondagи ko‘z qorachig‘i ham torayadi (qorachiqning nurga hamkorlik reaksiyasi).

Ko‘rish o‘tkirligi. Tekshirish o‘n qator qilib, jadval shaklida joy-lashtirilgan harflar yordamida olib boriladi. Bemor jadvaldan 5 m uzoqlikda turib, eng kattasidan boshlab eng kichigi bo‘lgan harflarni ilg‘ay olishi va aytishi kerak. Agar bemor 10 qator harflarning hammasini aniqlay olsa, ko‘rish o‘tkirligi 1.0 deb hisoblanadi (har bir ko‘z alohida-alohida tekshiriladi).

Agar bemor faqat birinchi qatordagi katta harflarni ko‘ra olsa, uning ko‘rish o‘tkirligi 0,1 deb hisoblanadi va hokazo. Ko‘ruv nervining uzilishi to‘la ko‘ra olmaslikka olib keladi (*amavroz*). Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi amблиопия deyiladi. Ko‘rish o‘tkirligi pasayishi refraksiyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq va bu kamchilik linzalar (oyna) yordamida to‘g‘rilanadi.

Ranglarni his qilish. Tekshirish professor Rabkin jadvali bo‘yi-cha olib boriladi. Bunda har bir ko‘z bilan jadvalning har varag‘ini bir ko‘z bilan o‘qiladi. Po‘stloq osti ko‘ruv nervi yoki po‘stloq zo-

nasi shikastlanganda ranglarni aniqlay olish birmuncha yoki butunlay buziladi. Ko'pincha qizil ranglarni anglash buziladi.

Ma'lumki, inson ko'zining faoliyatini ikki asosiy qismga bo'lib o'rganish mumkin – nur o'tkazuvchi hamda nur qabul qiluvchi. Nur o'tkazuvchi kiyim, shox parda, oldingi kamera suyuqligi, ko'z gavhari va shishasimon tanadan iborat bo'lib, bularning har birini optik muhitlar deb ataymiz. Optik muhitlar nafaqat nur o'tkazishdan tashqari, ushbu nurni ma'lum darajada sindiruvchi kuchga ham egadir. Nur sindirishdan maqsad esa, ko'zning optik sistemasi fokusini (tasvirini) aniq qilib nur qabul qiluvchi qismga, ya'ni to'r pardaga aniq tushirmoqlikdir. Optik sistemada nur sindirish xususiyati refraksiya deb ataladi. Yorug'lik nurlari ko'z optik sistemasidan o'tish jarayonida sinib, bosh (asosiy) fokusga yig'iladi. Optik sistemaning kuchli yoki kuchsizligi ana shu fokus masofasi bilan o'lchanadi. Optik sistema nurni qanchalik kuchli sindirsa, uning fokus masofasi shunchalik qisqa bo'ladi. Optik kuchni o'lhash uchun dioptriya birligi ishlataladi. Bir dioptriya deb fokus masofasi 1 m bo'lgan optik linza kuchi qabul qilingan.

Refraksiya turlari. Ko'z refraksiyasi deganimizda 2 turdag'i refraksiyani ajratishimiz zarur:

1. Fizikaviy refraksiya – ko'z optik sistemasining sindirish kuchi bilan belgilanadi.

2. Klinik refraksiya – ko'z optik sistemi asosiy fokusining to'r pardaga munosabati bilan belgilanadi. Oftalmologlar amaliy faoliyatida asosan klinik refraksiya o'rganiladi. Klinik refraksiya asosan uch xil ko'rinishda uchraydi. Agar asosiy fokus to'r pardaga aniq to'g'ri kelsa, bunday refraksiya – emmetrogsiya (to'g'ri refraksiya) deb ataladi. Qolgan hollarda, ya'ni asosiy fokus to'r pardaga aniq to'g'ri kelmasa, klinik refraksiya noto'g'ri, ametropiya deb ataladi. Optik sistemaning sindirish kuchi juda ham kuchli bo'lishi mumkin, u holda asosiy fokus to'r parda oldida yig'iladi. Bunday noto'g'ri refraksiya to'ri miopiya yoki ya-qindan ko'rish deb ataladi. Agar sindirish kuchi ko'z olmasiga nisbatan kuchsiz bo'lsa, asosiy fokus to'r parda orqasida yig'il-

di. Bu ko'rinishdagi noto'g'ri refraksiya turi gipermetropiya yoki uzoqdan ko'rish deb ataladi. Amalda refraksiyaning astigmatizm deb ataluvchi yana bir murakkab turi uchraydi. Astigmatizm bo'lgan bir ko'zda ikki xil turli refraksiya kuzatilishi mumkin. Masalan, ko'zning bir meridianida miopiya, ikkinchisida emmetropiya yoki bir meridianida gipermetropiya 2 dioptriya, boshqa meridianida esa 5 dioptriya bo'lgan holda astigmatizm kuzatilishi mumkin. Ko'z refraksiyasini aniqlash va uni korreksiya qilishda optik oynaklardan foydalilanildi. Bunday oynaklar yig'uvchi yoki tarqatuvchi sferik hamda silindrik bo'lishi mumkin. Yig'uvchi linzalar musbat (+) belgisi bilan belgilanib gipermetropik refraksiyali ko'zlarni korreksiya qilish uchun foydalilanildi. Tarqatuvchi linzalar esa (-) belgilanib, asosan miopik ko'zlarni korreksiyalashda qo'llaniladi. Astigmatik refraksiyani korreksiya qilish uchun esa maxsus silindrik oynaklar ishlataladi.

Yuqorida qayd qilinishiga ko'ra klinik refraksiya ko'zini aniq ko'rishi uchun sharoit yaratib beruvchi masofaga mos bo'lgan holatdir. Lekin inson faoliyatida turli masofalarda aniq tasvir ko'rishga to'g'ri keladi. Ko'zning buyumlar tasvirini turli masofadan to'r pardaga aniq tushirib berish xususiyatiga akkomodatsiya deb ataladi. Inson ko'zida akkomodatsiya, ko'z gavharining o'z qavariqligini o'zgartirish hisobiga, ya'ni ko'z optik sistemasi ning sindirish kuchi o'zgarishi hisobiga amalga oshiriladi. Akkomodatsiya jarayonida kipriksimon tanachaning muskuli qisqarishi birlamchi bosqich bo'lib, ikkilamchi ko'z gavhari elastikligi tu-fayli o'z qavariqligini o'zgartirishdir. Kipriksimon muskullar qis-qarganda kipriksimon tanani ko'z gavhari bilan bog'lovchi boy-lamlar bo'shashadi, natijada ko'z gavhari qavariqligi ko'payib, uning sindirish kuchi zo'rayadi. Bunday holat ko'z yaqin ma-sofadagi predmetni ko'rish jarayonida kuzatiladi. Akkomodatsiya bo'shashganda esa aks holat kuzatiladi, ya'ni kipriksimon muskullar bo'shashib, boyamlar taranglashadi, natijada gavhar qavariqligi kamayib, sindirish kuchi pasayadi. Bunday

holat uzoq masofadagi predmetni ko‘rish jarayonida kuzatiladi. Inson hayotining ma’lum bir bosqichida, 40 yoshdan (o‘rta hisobida) akkomodatsiya faoliyatida susayishlik kuzatiladi. Akkomodatsiyaning bunday fiziologik susayishiga **presbiopiya** deb ataladi. Presbiopiya mavjud bo‘lgan holda yaqindan ko‘rish qiyinlashadi. Shuning uchun 40 yoshdan so‘ng presbiopik oynakdan foydalaniladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko‘rish analizatorlari haqida nima bilasiz?
2. Ko‘rish analizatorlari anatomiysi qanday?
3. Ko‘rish analizatorlari fiziologiyasi nima?

18-mavzu. Inson ko‘rish analizatorlari patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi

Reja:

1. Ko‘rish a’zolarining to‘mtoq shikastlanishlari (kontuziyalar).
2. Ko‘rish a’zolarini teshib o‘tuvchi va teshib o‘tmaydigan shikastlanishlari.
3. Ko‘rish a’zolarining termik va ximik zararlanishi.
4. Ko‘rish a’zolarining shikastlanishini oldini olish.

Tayanch so‘z va iboralar: ko‘rish a’zolari, shikastlanish, termik jarohatlar, ximik zararlanish, profilaktika.

Inson ko‘zi va ko‘rish qobiliyatiga ta’sir etuvchi qator kasalliklar va yoshga doir o‘zgarishlar bor. Inson ko‘rish qobiliyatiga ta’sir etuvchi kasalliklar turlicha bo‘lib, yoshga qarab ularning shakllari va murakkabligi ham ortib boradi¹.

Ko‘rish a’zolarining shikastlanishini atrof to‘qimalar shikastlanishiga va ko‘z olmasi shikastlanishiga bo‘linishi ko‘p darajada shartlidir, chunki qovoqlar, ko‘z yosh a’zolarining va kon-

¹ Jack Kanski. Clinic Ophthalmology. A Systematic Approach – 2009., p.931.

yunktivaning mushak va ko'z soqqasining boshqa tuzilmalarini shikastlanishi ko'zning har xil darajada zararlanishiga olib keli-shi mumkin. Ko'z olmasining, shuningdek, atrofidagi to'qimalarining shikastlanishi to'mtoq (kontuziyalar), teshib kiruvchi, teshib kirmaydigan, shuningdek, kuyishlarga bo'linadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum sharoitlarda shox pardani sovuq urishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'R SSVning ko'rsatkichlari bo'yicha tez yordam kasalxonalariga birlamchi murojaat qiluvchilar ning ichida, ko'z shikastlanishi bo'yicha 50 foizdan ortig'inin ko'z olmasi mikrotravmalar hosil qiladi, ular birinchi shifokor largacha va shifokorlar yordamidan so'ng izsiz o'tib ketadi. Le-kin har qanday ko'z shikastlanishi qanchalik ahamiyatsiz bo'lmasin, oftalmologning kechiktirib bo'lmas va shartli ko'rishini talab qiladi. Ko'zning shikastlanishi respublikaning hamma regionlari da har xil bo'lib, 1000 ta odamga 1–4 tagacha uchraydi. Ko'z shikastlanishining darjasи aholi yoshi, jinsi, yil fasli va yashash joyiga, asosan oldini olish tadbirlariga ham bog'liq. Shahar aholisi ichida qishloq aholisiga nisbatan ko'z shikastlanishi 2 maro-taba ko'proq uchraydi.

Ko'z shikastlanishlari ichida mikrotravmalarning 80 foizi o'tmas shikastlanishlar, 10 foizi kesib o'tmaydigan va 2 foizi kesib o'tadigan, 6 foizini kuyishlar tashkil qiladi. Bolalar ko'z kasalliklari kasalxonalarida 60 foizini o'tmas, 30 foizini kesib o'tmaydigan, 10 foizini kuyishlar hosil qiladi (E.I.Kovalevskiy).

Ko'z shikastlanishi bilan bemorlarning asosiy qismini mikrotravmalardan tashqari tezkor ko'rsatma bilan kasalxonalar ning yoki dispanserlarning ofta'mologiya bo'limlariga yotqiziladi. Ko'zni kesib o'tuvchi shikastlanishlari bilan hamma bemorlar tezlik bilan gospitalizatsiya qilinishi shart.

Ko'z shikastlanishi bilan har bir bemorga tezkor xabarnoma tuziladi va yashash joyidagi sog'liqni saqlash bo'limining statistika bo'limiga yuboriladi. Bundan tashqari, shikastlanish sodir bo'lgan xo'jalik boshliqlariga xabar yuboriladi.

Ko'z olmasi va atrof to'qimalarining to'mtoq shikastlanishi (kontuziyalar).

Ko'z olmasining va atrof to'qimalarining to'mtoq shikastlanishi giperemiya, shish, qon quyilish, eroziyalar, ko'zning tegishli qo'shimcha apparatlari shikastlanishi va faoliyatining buziliishi (ptoz, yosh oqishi va boshqalar) bilan xarakterlanadi. To'mtoq shikastlanishlarni 4 ta og'irlik darajasiga ajratish qabul qilingan: 1-yengil, 2-o'rta, 3-og'ir, 4-juda og'ir. Deyarli har bir to'mtoq shikastlanish, har xil davomiylikda, ko'p yoki kam darajadagi og'riq bilan namoyon bo'ladi. Ko'z soqqasi sohasidagi to'mtoq shikastlanishlarda retrobulbar bo'shliqqa qon quyilishi, ko'z kosasi va burun devorlari suyaklarining sinishi yuzaga kelishi mumkin. Buning natijasida, ko'z olmasining bo'rtib chiqishi va surilishi, ikkilanish, qovoqlar emfizemasi kabi simptomlar yuzaga kelishi mumkin. Ko'zni harakatlantiruvchi mushaklarning shikastlanishi natijasida ko'zni har xil yo'nalishda siljishi va shikastlangan mushak tomonida harakatchanligining cheklanganligi yoki bo'lmasligi kuzatilishi mumkin.

Kam hollarda ko'z soqqasining og'ir to'mtoq shikastlanishi ko'zning yuqori tirqishi shikastlanishiga va bu keyinchalik tashqi hamda ichki oftalmoplegiyaga olib keladi.

Ko'z atrof to'qimalarining shikastlanishidagi birinchi yordam shikastlangan joyga 1–2 soniyaga sovuq qo'yishdan (yax, nam salfetkalar) iborat. Shifokor tezkorlik bilan qonning ivuvchalligini oshiradigan va qon tomirlarni toraytiradigan preraptatlarni (vikasol, vitamin K, askorutin, kalsiy xloridning 10 foizli eritmasi, suprastin) berishi kerak.

Ko'z atrof to'qimalari shikastlanishining og'irlik darjasasi, joylanishi, tarqalishidan qat'i nazar bemor kechiktirilmasdan oftalmologga yuborilishi kerak.

To'mtoq shikastlanishlar oqibati: 1-darajali shikastlanishda – tuzalib ketish; 2-darajali shikastlanishda – ko'z faoliyati deyarli o'zgarmasdan, kichik qoldiqli o'zgarishlar bo'lishi; 3-darajali –

katta morfologik va funksional o'zgarishlar; 4-darajali — qo'pol morfologik o'zgarishlar.

Ko'z olmasining to'mtoq shikastlanishi og'irlilik darajasi bo'yicha 3 darajaga bo'linadi: yengil, o'rtaligida yengil, o'rtaligida yengil shikastlanish uchraydi, ular davolangandan so'ng, 3—5 kunda izsiz o'tib ketadi (90 foiz holatda). To'mtoq shikastlanishlarni tashxislash va og'irlilik darajasini baholash murakkab emas va birinchi navbatda ko'rish faoliyatini o'zgarishi (ko'rish o'tkirligi, ko'rish), ko'zni old qismidagi o'zgarish (shox parda, old kameraning chuqurligi, suyuqligining tiniqligi, rangdor parda va qorachiq sohasining holati), oftalmotonusning kattaligi, shuningdek, paypaslaganda og'riq bo'lishi. To'mtoq shikastlanishning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi yoki asorati — shox parda eroziysi. U eroziya sohasida tiniqlikning yo'qolishi va shox pardanining (xiralashishi) nursizligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, shox pardani epiteliysini 1 foizli natriy flyuoressen bilan instilyatsiya qilinganda, natijasi qandayligi (defektlari) yaqqol ko'rindij, bunda ular och yashil tusni oladilar.

Kontuziyaning birinchi ko'p uchraydigan belgilaridan biri — rangdor va shox parda burchagidagi qon tomirlarning dilyatatisiyasi va yorilishidir, buning natijasida oldingi kamerada har xil intensivlikdagi qon quyilishlar — rangdor pardada qon izlari va kamera suyuqligidagi biroz qon qo'shilmasidan rangdor parda ham, qorachiq ham ko'rinxilmaydigan gifema va total qon quyilishiga gacha bo'lishi mumkin. Ikkinchi belgi — qon quyilish shishasimon tanada (gemoftalm) va ko'zning boshqa bo'limlarida ham bo'lishidan iborat. Qon quyilishining lokalizatsiyasi kattaligiga ko'ra, ko'rish faoliyati har xil darajada pasayadi.

To'mtoq shikastlanishning uchinchi, ko'p uchraydigan belgisi — rangdor pardani va kipriksimon tananing kontuziyasidir, bu rangdor pardanining pirpirashi (iridodonez), qorachiqning kengayishi, noto'g'ri shaklni olishi va yorug'likka reaksiyasining susayishi, oldingi kamera chuqurligining notekisligi, akkomadatsiyaning buzilishi va uzoq-yaqinni ko'rishning pasayishidan iborat.

Agar shikastlanish natijasida boylamlar uzilib ketsa, gavharning yarim siljishi va umuman siljib ketishiga, bu esa ko'rish qobiliyatining keskin pasayishiga olib keladi.

Keskin kontuziya bilan namoyon bo'lgan to'mtoq shikastlanish qon quyilishidan tashqari rangdor pardaning yorilishi yoki uzilishi (iridodializ), xorioideya va to'r pardaning yorilishi yoki uzilishi, to'r pardaning ko'chishi, ko'rish nervining yorilishi va umuman uzelishiga olib kelishi mumkin.

Bu patologiyaning hamma ko'rinishlari shikastlanishning kattaligi va lokalizatsiyasiga ko'ra birinchi navbatda markaziy va periferik ko'rish holatiga ta'sir qiladi, hatto ko'z ko'rmay qolishiga ham olib keladi. Ko'z olmasining to'mtoq shikastlanishidagi birinchi shifokor yordami quyidagilardan iborat:

Ko'z atrof to'qimalari kontuziyasidagi ko'rsatilgan birinchi yordamdan tashqari, konyunktival qopchaga antibiotik yoki sulfanilamid eritmasi, agar bo'lsa, og'riqsizlantruvchilar (novokain, dikain, lidokain) ham tomizish kerak. Yengil aseptik bog'lam qo'yiladi va bemorni kechiktirmasdan oftalmologga yuboriladi.

Oftalmologning vazifasiga zamonaviy usullar bilan shikastlanishning og'irlilik darajasini aniqlash va keyingi ambulator yoki statsionar sharoitda davolanishni davom ettirish muammosini yechish kiradi.

Kasalxonada simptomatik, yallig'lanishga qarshi, regenerator, neyrotrofik va so'rlitiruvchi davolashlar qilinadi.

Ko'z atrof to'qimalari va ko'z olmasining yaralanishi.

Ko'z atrof to'qimalarining yaralanishi avvalambor ko'zga ko'rinadigan yara yuzasi, qon quyilishi, qon ketishi, shish va tegishli a'zo faoliyatining buzilishi, shuningdek, keskin og'riq sindromi bilan xarakterlanadi.

Birinchi shifokorgacha bo'lgan yordam tezlik bilan iloji boricha aseptik, bosmaydigan bog'lam qo'yish va tezda maxsus klinikaga yuborishdan iborat. Birinchi shifokor yordami qoqsholga qarshi anatoksinni yuborish, dezinfeksiyalovchi eritma-

lar bilan yarani yuvish, antibiotik eritmalarini tomizish, antibiotiklarni mushak orasiga yuborish, aseptik bog'lam qo'yish. Morfologik va faoliyat natijalari yaralanishning lokalizatsiyasi, shuningdek, jarrohlik ishlovlarini o'z vaqtida va to'laqonlik bilan iloji boricha plastika va rekonstruksiya bilan qilina olishiga bog'liqdir.

Ko'z olmasining yaralanishi kesib o'tuvchi va kesib o'tmaydigan bo'lishi mumkin. Kesib o'tmaydigan yaralanish ko'z kapsulalari yaralanishi bilan to'mtoq shikastlanish orasidagi holatni egallaydi. Uning tashxislanishi to'mtoq shikastlanishi kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, birinchi shifokor yordamini va maxsus oftalmologik yordamni ko'rsatishda, keyinchalik davolashda ham prinsipial farqlik yo'q. Lekin yarani joylashishi va yarani xarakterida farqlik bor. Uning chetlari moslashgan bo'ladi va birlamchi bitish bilan choklar qo'yilmasdan tuzaladi. Ko'rsatma: bemorni tezlik bilan ko'z shifoxonasiga yotqizish.

Davolash oqibati odatda yaxshi, lekin katta kesib o'tmaydigan yaralanishda shox pardaning keskin xiralashishi va noto'g'ri astigmatizm kuzatilishi mumkin, bular ko'rish o'tkirligini pasaytiradi va korreksiyaga berilmaydi.

Ko'z olmasini kesib o'tuvchi har qanday kattalikdagi va lokali-zatsiyali yaralanishi, og'ir va infeksiyalangan hisoblanadi. Shikastlanish chuqurligi bo'yicha oddiy va murakkab—ko'zni ichki tuzilmalarining shikastlanishi yoki yaraga tushib qolishi, hamda ko'zga begona jism tushganda yoki tez ikkilamchi infeksiya yuza-ga kelganda asoratlangan bo'ladi.

Ko'z olmasining yaralanishini tashxislash odatda oddiy, hamma qila oladi va yaralanish kesib o'tadiganmi yoki kesib o'tmaydiganmi, degan savolga javob berish imkonini beradi. Ko'zni kesib o'tadigan yaralanishning asosiy belgisi, ochilib qolgan yara yoki moslashgan yaradir. Agar u shox parda zonasida joylashgan bo'lsa, unda deyarli doim ko'zning oldingi kamerasi yo'q yoki sayoz bo'ladi va unda qon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yarada ko'zni ichki tuzilmalari, rangdor parda, gavhar, shishasi-

mon tana qisilib qolishi mumkin, biroz paypaslaganda, ko‘zni keskin gipotoniyasi aniqlanadi.

Ko‘rish o‘tkirligi katta yoshdagи bolalarda aniqlanishi mumkin bo‘lsa, juda ham past bo‘ladi. Agar, yara sklera zonasida joylashgan bo‘lsa, unda sklera atrofida deyarli doim qon quylishlar bo‘ladi. Yarada ko‘zni ichki tuzilmalari: kipriksimon tana, xorioideya, to‘r parda, shishasimon tana, gavhar qisilib qolishi mumkin. Skleral shikastlanishda oldingi kamera normadan chuqurroq, ko‘zni paypaslaganda gipotonik. Ko‘rish o‘tkirliги sezilarli o‘zgarmasligi mumkin. Ko‘zni kapsulalarini har xil bo‘limlaridagi kesilgan yaraga shubhalanishda asosan shikastlanish anamnezi beradi. Anamnestik ko‘rsatmalar ko‘zning orqa bo‘limidagi kesib o‘tuvchi yaralarni aniqlashda ham asosiy roni o‘ynaydi.

Ularning belgilari: oftalmotonusning pasayishi, oldingi kameraga qon quylishi, qorachiq sohasida xiralanish, ko‘z tubidan refleksning pasayishi. Ko‘z olmasini har qanday kesib o‘tuvchi yaralanish korneal sindrom bilan birga kechadi.

Birinchi shifokorgacha bo‘lgan yordam, ko‘zni boshqa shikastlanishlari kabi, faqat boylash, ko‘zning harakatchanligini pasaytirish uchun binokulyar qo‘yiladi. Ko‘z kasalliklari shifoxonasida oftalmolog birlamchi jarrohlik amaliyotini o‘tkazishi kerak. Undan keyin albatta orbitaning obzor rentgenoskopiyasi ko‘zni ichida yet jism bor-yo‘qligini aniqlash uchun qilinadi. Agar yet jism bo‘lsa, ko‘zni Komberg-Baltin bo‘yicha rentgen lokalizatsiya usuli bilan tekshiriladi. Har qanday yet jism olib tashlanishi kerak va hamma rekonstruktiv-qayta tiklash amaliyotlari mikrojarrohlik komplekslari o‘tkazilishi kerak. Operatsiyadan so‘ng, keng spektrda ta’sir qiladigan antibiotiklar bilan antibiotikoterapiya o‘tkaziladi. Shunga qaramay, kesib o‘tuvchi yaralanishning eng og‘ir asoratlaridan: endoftalmit, panoftalmit, simpatik oftalmiya (protsess sog‘ ko‘z qo‘shilishi) kuzatiladi. Odatda, simpatik oftalmiya kesib o‘tuvchi yaralanishdan so‘ng birinchi haftalarda rivojlanadi va tez avj oladi, ko‘rishning to‘xtovsiz pasayib borishi,

hattoki ko'rlikkacha rivojlanib boradi. Ko'p yillik oftalmologik tajriba shuni ko'rsatadiki, morfofunksional yaramaydigan, shikastlangan ko'zni o'z vaqtida olib tashlash, simpatik oftalmiyani rivojlantirmaydi.

Kesib o'tadigan yaralanishdan so'ng hamma bemorlar doim maxsus reabilitsion dispanser xizmatida bo'lishlari shart.

Termik va kimyoviy kuyishlar.

Qovoq va konyunktivaning kuyishlari boshqa lokalizatsiyadagi kuyishlar singari og'irlik darajasi bo'yicha giperemiya va shish (I daraja), pufakchalar hosil bo'lishi (II daraja), eroziya (III daraja), nekroz (IV daraja)ga bo'linadi.

Ko'z olmasi va atrof to'qimalari kuyishidagi birinchi shifokorgacha bo'lgan yordam tezda keltirib chiqqargan moddani olib tashlash va kuygan qovoqlarni hamda konyunktival qopchanini uzoq vaqt (10–15 daqiqa) yuvishdan iborat. So'ng qovoqlarga yog'li eritmalar suriladi va qo'yib qo'yiladi. Birinchi yordam ko'rsatilgandan so'ng, bemor tezlik bilan oftalmologik shifoxonaga yotqizilishi kerak. Shifoxonada qanday holat bo'lmasin, kuygan sohalarga mazli applikatsiyalar, shuningdek, antibiotiklar, sulfanilamidlar, vitaminlar, dimeksid va anestetiklarning eritmalari bilan tez isticlillyatsiya qilish ko'rsatilgan. Ko'p hollarda subkonyunktival yoki parabulbar o'z qonini inyeksiyalari ham ko'rsatilgan.

I darajali kuyish oqibati – tuzalib ketish, II darajali kuyishdan so'ng nozik chandiqlar faoliyatni buzmasdan qolishi mumkin, III darajali kuyishdan so'ng – qattiq chandiqlar va faoliyatning buzilishi, IV darajali kuyishdan so'ng esa – keskin kosmetik va funkshional buzilishlar kuzatiladi.

Ko'z olmasi kuyishlari 4 ta darajali bo'ladi. 1-darajada kuyish asosan, ko'z to'qimalari giperemiyasi, shish, shox pardani yuzaki eroziyasi bilan; 2-darajali kuyish chuqr eroziya, shish va pufakchalar bilan; 3-darajali kuyish – hamma ko'rsatilgan uchta belgi va nekroz bilan; 4-darajali kuyish shox parda yoki sklera to'qimalining parchalanishi va perforatsiyasi bilan massiv nekroz orqali namoyon bo'ladi.

Har qanday darajadagi kuyish keskin blefarospazm va og‘riq sindromini chaqiradi.

Ko‘z olmasining kuyishini tashxislash qiyin emas. Birinchi navdatda yengil blefarospazm, ko‘z olmasining konyunktivasi ni shishi va qizarishi aniqlanadi. Shox parda har xil sohalarda suvli oyna ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, har xil intensivlikdagi va lokalizatsiyadagi eroziyalar bo‘lishi mumkin. Og‘ir kuyishlarda pufakchalar hosil bo‘ladi va ular parchalanadi. Ba’zi hollarda, katta chuqur nekrozni, ba’zan ko‘z olmasi teshilib hosil bo‘lgan defektida ko‘z ichki tuzilmalarini (ko‘proq rang-dor pardani) qisilishini ko‘rish mumkin. Tashxislash protsessida ko‘zda (konyunktival qopchada; shox pardada, sklerada) yot, kuygan tanachalarni (qalam, kristallar, kaliy permonganat, kley va boshqalar) bor-yo‘qligini yaxshilab va tezlikda aniqlash kerak. Boladan, ota-onasidan shikastlangan joyni ko‘rishi mumkin bo‘lgan atrofidagilardan ko‘zga qanday modda yoki predmet tushganligini so‘rash kerak. Kuyishlar odatda xo‘jalik maqsadlarida qo‘llaniladigan kislota va ishqorlar bilan noto‘g‘ri ishslash oqibatida yuzaga keladi. Bir qator hollarda, kuyishlar, issiq ovqatlar, sut, yog‘, qaynagan suv bilan ehtiyoitsizlik qilish hisobiga bo‘ladi. Ko‘p hollarda ko‘zga ohak bo‘lakchalari, anilinli qalam bo‘lakchalari, kaliy permonganat kristallari, nashatir spirti va bosh-qalarning tushishi oqibatida kasallik rivojlanadi. Undan tashqari, elektr svarka vaqtida, metallni arralash va boshqa vaqlarda kuzatib turilganda, mayda qismchalari ko‘zga tushishi mumkin. Ko‘zning oldingi qismi, ayniqsa shox pardaning ishqorlar bilan kuyishi og‘ir kechadi. Ishqorlar to‘qima ichiga kirib boruvchi, kollikoatsion nekroz deb ataluvchi shikastlanishni chaqiradi. Kislotali kuyish koagulyatsion, ya’ni nisbatan yuza nekroz chaqiradi. Ishqorlar bilan kuyishda birinchi kuni yengilga o‘xshaydi, lekin ikkinchi kuni va kechroq to‘qimalar kuchli nekrozga aylanib, ko‘zning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Birinchi shifokorgacha, shuningdek, shifokor yordami ko‘z kuyishi bilan bolalarning ko‘z to‘qimalaridan kuydiruvchi mod-

dalarni olib tashlash va oqar suv bilan konyunktival qopchani uzoq vaqt yuvishdan iborat. Uning ketidan anestetiklar, shuningdek, sulfanilamidlar va antibiotik eritmalari bilan instillyatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Yog'li eritmalarni yuborish shart (A vitaminining yog'li eritmasi, pista yog'i). Agar ko'zga tushgan modda aniq bo'lsa, shifokor neytrallaydigan moddalarni qo'llashi mumkin.

Odatda ko'zning kuyishida, shuningdek, to'qimalarning butunlay buzilishi bilan kechadigan to'mtoq shikastlanishda va yaralanishda qoqsholga qarshi anatoksin yuborish shart. Yengil marlyali aseptik yog'li (antibiotikli, sulfanilamidli, vitaminli maz) monokulyar bog'lam qo'yish mumkin. Maxsus oftalmologik yordam tezlik bilan yallig'lanishga qarshi, antibakterial, regenerator va so'riluvchi moddalarni (dimeksid, antibiotiklar, sulfatsil-natriy, xinsen, etilmorfin, oblipixa moyi va boshqalar) va har soatda anestetiklarni (novokain, likain, trimikain) instillyatsiya qilishdan iborat. I va II darajali kuyishlarning oqibatlari qoniqlidir. III va IV darajali kuyishlardan so'ng ko'pincha plastik jarohlikni talab qiladigan chandiqli o'zgarishlar qoladi. III va IV darajali kuyishdan keyingi asoratlangan bolalar ko'z patologiyasining profilaktikasi guruhiga kiritiladi va uzoq vaqt aktiv dispanser nazoratida (reabelitatsiya) kuzatilishi kerak.

Ko'rish a'zolari shikastlanishining profilaktikasi.

Birinchi darajada ko'zning shikastlanishi va yallig'lanish kasalliklarining darajasini pasaytirish, strukturalarini yaxshilashda ularning aktiv, passiv va sistematik profilaktikasi turadi. Ko'zning shikastlanishi profilaktikasi fagatgina DEZ ishchilarining va boshliqlarining, transport, qurilish tashkilotlarining ishi emas, balki odamlarning o'zi, ota-onalari, o'qituvchi va tarbiyachilarning ham vazifasidir.

Ko'z shikastlanishi profilaktikasi o'z ichiga 2 ta bosqichni oladi. Birinchi bosqichi — birlamchi profilaktikaga qaratilgan, ya'ni keng jamoa bilan birga uyda, ko'chada, mакtabda bolalar ko'z shikastlanishini oldini oladigan kompleks tadbirlarni

o'tkazishdan iborat. Bu ishlar hokimiyat qoshidagi shikastlanish bo'yicha komissiya orqali tasdiqlanadigan va tarqatiladigan ishlarni konkret va aniq rejalashtirishdan iborat. Rejalarни amalga oshirish, shikastlanishga qarshi kurashish oyi yoki dekadalar ko'rinishida viloyat miqyosida, tumanlar va shaharlar sharoitida o'tkaziladi. Bunday o'tkazilgan tadbirdardan biri, sistematik umumjamoa profilaktika to'g'risida gapirlsa ham bo'ladi. Bunday tadbirdar ko'z shikastlanishini 2—3 marta pasaytirishga va birinchi navbatda kesib kiruvchi shikastlanishlarning uchrash darajasini kamaytiradi.

Profilaktikaning ikkinchi bosqichi, ya'ni ikkilamchi profilaktika erta tashxislash va tezlik bilan aktiv kompleks medikamentoz-xirurgik davolash asosida, kesib kiruvchi shikastlanishning quyidagi asoratlarini: yiringli va fakogen uveitlar, metallozlar, ko'z gipotoniysi va simpatik oftalmiyaning oldini olishga yordam beradi. Shu ikkilamchi profilaktika yordamida oxirgi yillarda asoratlarning sonini kamaytirish va asosiysi birlamchi enukleatsiyani 5 marta kamaytirishga (0,5% gacha) erishildi.

Amaliyotdan namunalar:

1. Bemor 55 yoshda tosh bilan o'ng ko'z shikastlanishini olgan. Tez yordam orqali shifoxonaga keltirilganda quyidagilar aniqlandi: shish, yuqori qovoqning teri ostiga qon quylishi va biroz shishi, paypaslaganda krepitatsiya simptomasi.

Pastki qovog'inining o'rta qismida vertikal joylashgan, hamma qavatlardan o'tadigan uzunligi 5 mm bo'lgan yara. Ko'z tubi o'zgarishsiz, shikastlangan ko'zda ko'rish qobiliyati 1,0 ga teng.

Shifoxonada quyidagi tashxis qo'yilgan: o'ng ko'z qovoqlarining 2-darajali kontuziyasi. Yuqori qovoq emfiziemas, pastki qovoq kesilgan yarasi. Yara furatsilin eritmasi 1:5000 bilan yuvildi, pastki qovoq yarasiga ikki qavatli chocklar qo'yildi, ko'zga bosib turuvchi bog'lam qo'yildi.

Sharh: anamnezda to'mtoq jism bilan ko'zning shikastlanishi, yuqori qovoqda krepitatsiyaning borligi va pastki qovoqning ke-

silgan yarasi, yuqori qovoqning emfizemasi va pastki qovoqning to'mtoq shikastlanishi bilan qovoqlarning 2-darajali kontuziyasi haqida gapiradi. Pastki qovoqning deformatsiyasini oldini olish maqsadida ikki qavatli choklar birinchi konyuktivaga, so'ng pastki qovoq terisiga qo'yiladi.

2. Bemor 50 yosh, o'ng ko'zni shikastlanishi yuzasidan 3 yil oldin shifoxonada davolangan. Bu yerda o'ng ko'zga choklar qo'yilgan va o'tgan vaqt davomida shikastlari bo'lмаган. 10 kun oldin birdaniga yorug'likdan qo'rqish, ko'z yoshi oqishi, ikkala ko'zning qizarishi paydo bo'lган. Ko'zga tomchilar tomizilmagan, davolanishlar o'tkazilmagan. Obyektiv: o'ng ko'zda yorug'likdan qo'rqish, ko'z yoshi oqishi, blefarospazm, qon tomirlarining aralash inyeksiysi. Korneoskleral sohasining 3-sathida 6–7 mm uzunlikdagi chandiq. Shox pardaning orqa yuzasida pretsipitallar. Rangdor parda rangi o'zgargan, relyefi tekislangan, qorachiq toraygan, noto'g'ri shaklda, orqa sinexiyalar paydo bo'lган. Paypaslaganda T-2 ga teng, ko'rish nolga teng. Chap ko'zda yorug'likdan qo'rqish, ko'zyoshi oqishi, ko'z tirqishi toraygan, qon tomirlarning perikorneal inyeksiysi. Rangdor parda rangi o'zgargan, qorachiq toraygan, noto'g'ri shaklda, orqa sinexiyalar paydo bo'lган, T-1 ga paypaslaganda ko'rish=0,5.

Tashxis: chap ko'zni simpatik yallig'lanishining plastik shakli. Shifoxonada o'ng ko'zning enukleatsiyasi o'tkazilgan, chap ko'z antibiotiklar va kortikosteroidlar bilan kuchli davo-landi.

Sharhlar: 3 yil oldin o'ng ko'zning shikastlanganligini hisobga olib, chap ko'zda simpatik oftalmiya belgilari bilan yallig'lanish paydo bo'lган, chap ko'zni saqlab qolish maqsadida o'ng ko'zni enukleatsiyasi qilingan va chap ko'zni massiv yallig'lanishga qarshi muolajalar o'tkazilgan.

3. Bemor 25 yosh, 1 soat oldin ishda chap ko'ziga ohak eritmasi tushgan va tez yordam orqali ko'z shifoxonasiga keltirilgan. Obyektiv: chap ko'zda keskin yorug'likdan qo'rqish, ko'z yoshi oqishi, blefarospazm. Qovoq terisi shishgan, sklera konyunktiv-

vasi kir-oq rangda. Shox parda shishgan, diffuz xiralashgan, forfor rangda, chuqur nekroz, sezgirligi yo'qolgan, rangdor pardasida va qorachiq ko'rinxilmaydi. Ko'rish yorug'likni sezishga teng. Konyunktival qopchada ohak qoldiqlari.

Shifoxonada quyidagi tashxis qo'yildi: Ko'z shox pardasi va skleraning 4-darajali kimyoviy kuyishi.

Ko'zni oqar suv bilan yuvish, 5 foizli glyukoza suyuqligi, qon plazmasi, kunjut yog'i va boshqalar tomizish. Ko'z konyunktivasi ostiga bemorning o'z qonini yuborish.

4. Bemor 45 yosh. Soat 5 da temirga qayta ishlov berayotganda o'ng ko'zi jarohatlandi.

Obyektiv: chap ko'zi sog'. O'ng ko'zida yorug'likdan qo'rqlish, ko'z yoshlanishi, blefarospazm. Ko'zning shox pardasida soat 11 dan 5 gacha 7 mm jarohat izlari joylashgan. Oldingi kamera yo'q. Qorachiq noto'g'ri formada. Palpatsiya qilinganda T-2; ko'rish 0,5 ga teng. Ko'zning obzor rentgenogrammasida ko'zda yet jism, metall zichlikda.

Tashxis: ko'z olmasining kesib kiruvchi jarohati. Yet jism kiriishi.

Shifoxonada Komberg-Baltin metodi bo'yicha rentgen lokalizatsiya qilindi. Yet jism diasklerali olib tashlandi va shox parda tikildi. Yallig'lanish alomatlarini oldini olish maqsadida antibiotikoterapiya qilindi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko'rish a'zolarining to'mtoq shikastlanishlari (kontuziyalar) deb nimaga aytildi?
2. Ko'rish a'zolarini teshib o'tuvchi va teshib o'tmaydigan shikastlanishlari nima?
3. Ko'rish a'zolarining termik va ximik zararlanishi qanday bo'ladi?
4. Ko'rish a'zolarining shikastlanishini oldini olish yo'llari qanday?

19-mavzu. Inson ko‘rish o‘tkirligini aniqlash metodlari

Reja:

1. Ko‘rish o‘tkirligi haqida tushuncha.
2. Sivsev va Golovin jadvallari.
3. Ko‘rish o‘tkirligini aniqlashning boshqa usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: ko‘rish, ko‘rish o‘tkirligi, ko‘rish o‘tkirligini aniqlash usullari, ko‘rish nuqsonlari, yorug‘lik, masofa

Oftalmologiyaning zamonaviy nuqtayi nazari yuz yillik kuza-tishlar va kashfiyotlar davomida tasdiqlangan va oxir-oqibat il-miy-metodik bilimlarga aylandi. Ko‘z kasalliklarini tushunish va tashxislashda oftalmoskop – ko‘z interyerini aniqlovchi mosla-maning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning vosi-tasida oftalmologlar ko‘z qorachig‘i va uning tomirlari haqida, ichki ko‘z va ko‘z kasalliklari haqida muhim ma’lumotlar olish-ga muvaffaq bo‘ldilar¹.

Ko‘z yordamida narsa va buyumlarni ko‘ramiz, ularning rangini, shaklini, katta-kichikligini, qaysi tomonimizda turganligini, buyumning mayda detallarini ham aniq ajrata olamiz. Ko‘zning bu noyob xususiyatlari uning o‘tkirligi deyiladi.

Ko‘z o‘tkirligi ikki buyumning bir-biriga qo‘silib ketmasdan alohida bo‘lib ko‘rinishi uchun zarur bo‘lgan shu ikki buyum orasidagi eng kichik masofa bilan aniqlanadi.

Ko‘rish burchagi 50 soniya bo‘lishi zarur. Narsalarning aksi ko‘zning to‘r qavatidagi bir kolbachaga tushsa, odamga ikki nar-sa bir bo‘lib ko‘rinadi.

Shuningdek, ikki nur yonma-yon turgan ikki kolbachaga tush-ganda ham ular bitta bo‘lib ko‘rinadi. Faqat shu nurlar ikki kol-bachani qo‘zg‘atsa, shu ikki kolbacha orasida qo‘zg‘almagan bir kolbacha qolsa, shundagina 2 nuqta 2ta bo‘lib ko‘rinadi.

¹ Rogers Kara. The Eye: The Physiology of Human Perception. Published in 2011 by Britannica Educational Publishing(a trademark of Encyclopedia Britannica, Inc.)in association with Rosen Educational Services, LLC. p-213.

Ko'z o'tkirligini aniqlash uchun maxsus jadvaldan foydalaniladi (20-rasm).

Bu raqamlar yoki harflar kattaligi turlicha bo'lib, yuqorida pastga tomon kichiklashib boradi. Tekshiriluvchi odamni turli masofaga qo'yib raqamlarni ko'rsatish noqulay bo'lganligi uchun me'yoriy ko'z 5 metr masofadan ko'rib, o'qiy oladigan qatorni me'yoriy ko'z o'tkirligi hisoblanadi.

Masalan, me'yoriy ko'z 50 metr uzoqlikda o'qiydigan qatorni odam ko'zi bilan faqat 5 metr naridan turib o'qiy olsa, uning ko'z o'tkirligi $5/50=0,1$, ya'ni me'yordan o'n barobar kam bo'ladi. Bordi-yu me'yor ko'z 5 metr masofadan o'qiydigan masofani 4 metr dan o'qisa, uning ko'z o'tkirligi $5/4=1,25$, ya'ni bunday ko'z o'tkirligi me'yordan ortiq hisoblanadi. Agar 5 metr masofadan o'qiladigan qatordagi raqamlarni 5 metr masofadan o'qiy olsa, uning ko'z o'tkirligi $5/5=1$, ya'ni bu me'yordagi ko'z o'tkirligi hisoblanadi.

41
710
4 0 7
1 7 4 0
7 0 4 7
1 4 7 0
4 7 0 1
0 4 1 7
1 0 7 0 4
7 1 4 1 0
4 0 7 4 1 7
— — — — — 4

Tajribaga kerakli anjomlar: ko'rish o'tkirligini aniqlash uchun maxsus jadval, 5 metrli ruletka, ko'rsatkich tayoqcha.

Ko'rish o'tkirligini aniqlash uchun 12 qator joylashgan belgidan iborat standart Sivsev yoki Golovin jadvalidan foydalaniladi. Harflar kattaligi yuqorida pastga tushgan sayin kichrayib boradi. Har bir qator yonidagi son ko'rish burchagi osti 1° bo'lganda, me'yordagi ko'zning shu qatordagi harflarni alohida ko'rishi kerak bo'lgan masofani ko'rsatadi. Jadval yaxshi yoritilgan devorga osiladi (yorug'lik 10 lyuksdan kam bo'lmasligi kerak) yoki qo'shimcha elektr lampasi bilan yoritiladi. Tekshiriluvchi jadvaldan 5 metr uzoqlikdagi kursiga o'tqaziladi va bitta ko'zini maxsus moslama (shit) bi-

lan berkitish taklif qilinadi. Tekshiruvchi ko'rsatkich tayoqcha yordamida tekshiriluvchiga harflarni ko'rsatib, ularni o'qishi ni so'raydi. Aniqlash yuqori qatordan boshlanib, eng pastdagi o'qiy oladigan qator topiladi va tekshiriluvchi tomonidan 2–3 s davomida harflar aniq va ravshan ko'rib nomini aytishi so'raladi. Keyin quyidagi formula yordamida ko'rish o'tkirligi hisoblab chiqiladi:

$$V = \frac{a}{D},$$

bunda V – ko'rish o'tkirligi, a – tekshiriluvchi bilan jadval o'rtasidagi masofa, D – normal ko'z shu qatordagi harflarni aniq ko'rishi kerak bo'lган masofa. Shundan keyin ikkinchi ko'zning ko'rish o'tkirligi aniqlanadi.

Ko'rish apparati funksiyalarining buzilish darajasiga haqiqiy miqdoriy baho berishda ko'zni tekshirish va ko'rish o'tkirligi 1,0 ga teng bo'ladi. Ambulatoriya sharoitida ko'rish o'tkirligi maxsus jadvallar yordamida tekshiriladi. Ko'pincha harfli va halqali jadvallar qo'llaniladi va uni Landolt halqalari deyiladi. Bu jadvallar 5 metr masofadan turib aniqlanadigan 12 qator belgilar bo'lib, 0.1 dan 2.0 ko'rish o'tkirligini aniqlash mumkin. Bulardan tashqari sanoatda kursi ustida joylashgan uzoqni ko'rish o'tkirligini (POSB-1) tekshiruvchi asboblar chiqariladi.

Ko'z refraksiyasini aniqlashda ishlataladigan asbob va qurilmalar.

Namuna uchun olingan linzalar yig'masidan ko'zning refraksiyasini va ko'zoynaklarini tanlashda foydalilanadi. Bu yig'ma musbat va manfiy turli refraksiyalı 0.25 dan 20.0 linzalardan, shuningdek, silindrik oynalar va maxsus diafragmadan iboradir. Sanoatda bularning o'rtacha va kichik yig'malari chiqariladi. Bular 34 juft – va + noastigmatik linzalar, 20 juft – va + astigmatik linzalar, 6 juft va 3 prizmali oynalardan iborat. Bu yig'ma tarkibida universal ko'zoynak gardishi bor. Ular ko'z o'qi bo'ylab, ko'zoynakning markazini aniqlash imkonini beradi. Bu yig'ma

baxmal bilan qoplangan yog'och qutichali charm jomadonlarda chiqariladi.

Skiaskopik chizg'ich. Ko'z refraksiyasini aniqlash uchun skiaskopik chizg'ichlardan foydalaniladi. Bu chizg'ich aluminiy plastinadan iborat bo'lib, unga 1 dan 99 gacha refraksiyalari bo'lgan «—» va «+» linzalar o'rnatilgan. Chizg'ich bo'ylab 0.5 va 10 D refraksiyali qo'shimcha linzaga ega bo'lgan refraksiyalarni aniqlashga imkon beradi. Surilgich chizg'ich bo'ylab yengil surilishi va har qaysi linza qarshisida u yordamida shunday qotirib qo'yish kerakki, bunda linza surilgan va chizg'ichning optik o'qlari bir-biriga mos tushsin. Chizg'ichlar 2 turda – doira shaklli va to'g'ri to'rtburchakli linzalar shaklida chiqariladi.

Oftalmometr. Ko'z astigmatizmida shox pardani o'lchash uchun mo'ljallangan.

U muguz pardani oldi tomoni qiyshiqlik radiusini o'lchash imkonini beradi va uning astigmatizmi aniqlanadi, qaysiki u 2 o'zaro perpendikular meridianlar refraksiyalar farqiga teng bo'lgan kattalikka teng bo'ladi.

Perimetrlar. Bu asboblar ko'zning harakatlanmay turgan holatida ko'rish chegarasini aniqlash imkonini beradi. Ko'p ishlatalidigan asbob, proeksiyon perimetr bo'lib, shuningdek, uni stolda foydalaniladigan va portativ turlari ham chiqariladi.

Binokulyar lupa. Ko'zni 2 marta kattalashtirilgan holda ko'risha ishlataladi. Lupa linzalari plastmassadan yasalgan qora rangli soyabonga o'rnatilgan.

Oftalmoskop ko'z tubini tekshirishda ishlataladi. Yorug'likdan kelayotgan nurlar, ko'zning to'qimalarida aks etib qaytadi va oftalmoskop ularni yig'ib, ko'z tubini ko'rish imkonini yaratadi. Sanoatda uning har xil turlari chiqariladi: ko'zguli, qo'l, katta reflekssiz, peshanaga taqiladigan va boshqalar.

Ko'zguli oftalmoskop prujinali moslamaga o'rnatiladigan yassi va qavariq ko'zgulardan iborat bo'lib, qo'lga ushlaydigan das-tasi va ko'zgular o'rtasida 3 mm diametrli teshik bor, shu teshik orqali kuzatish olib boradi. Uning to'plamiga 13.0 va 20.0 D

refraksiyali 2 ta lupa kiradi. Oftalmoskopning hamma qismlari yumshoq ixcham g'ilofga joylashgan bo'lib, uni cho'ntakda olib yursa ham bo'ladi.


Qo'l oftalmoskopi ko'zni tekshirishda universal asbob hisoblanadi. Uning yordamida oddiy nur orqali ko'z tubi tekshiriladi.

Katta reflekssiz oftalmoskop asosan DPM-larda qo'llaniladi. U ko'z tubini kattalashtirgan holda gavhar va muguz pardadan boshqa yorug'lik reflekslarsiz tekshirishga mo'ljallangan.


Peshana oftalmoskopi to'plamiga 3 o'lchamli diafragmali disklar, filtr (ko'k rangli), har bir ko'z qorachig'ining o'lchami uchun o'rnatish moslamasi, galogen yoritgichi (6V) kiradi.



21-rasm. Qo'l oftalmoskopi.



22-rasm. Katta reflekssiz oftalmoskop



23-rasm. Periferik ko'rish.

Inson hayoti va faoliyatida, uning borliq olamda o'zini-o'zi idora qilishi uchun periferik ko'rishning ahamiyati beqiyos ekanligi tahlil etiladi. Ko'z to'rlarining qaysi elementlari periferik ko'rish funksiyasini bajarishi masalasi oydinlashtiriladi. Shundan so'ng, talabalar ko'rish maydoni yoki e'tibor markazi tushunchasiga ta'rif beradilar, me'yoriy ko'rish maydonining oq rangga, rangli obyektlarga (qizil, yashil, ko'k), ranglarga nisbatan chizmasini tahlil qiladilar. Nazorat usuli hamda perimetrr usuli bilan bir-birlarining ko'rish maydonlarini aniqlaydilar. Bunda ular perimetrnning yorug'lik manbasiga, bemorga, vrachga nisbatan joylashuviga, hamda perimetrdan foydalananilayotgan obyektning hajmiga asosiy e'tiborni qaratadilar.

Ranglarni ajratish – bu rangli spektrni farqlash. Bu faoliyatni tekshirish uchun Rabkin jadvali ishlatalidi.

Yorug'likni his qilish – bu ko'ruv analizatorini, yorug'likni sezish va uning darajalarini aniqlash.

Binokular ko‘rish – bu bir paytning o‘zida har ikkala ko‘z bilan ko‘ra olish qobiliyatidir, u tufayli inson atrofdagi olamni uch o‘lchamda ko‘ra oladi.

Ko‘rish o‘tkirligini tekshirish

Bajariladigan bosqichlar:

Nº	Javoblari	To‘liq javob	Ja-vob yo‘q
1	Apparat Rota Sivsev-Golovin jadvali yoki distansion boshqarish (forroptir) jadvali ko‘rsatkich kerak bo‘ladi	10	0
2	Apparat Rota va Sivsev-Golovin jadvali bemordan 5 metr uzoqlikda joylashtiriladi (jadvalni 10-qatori ko‘z tengligida joylashgan bo‘lishi kerak)	10	0
3	Tekshiruv har bitta ko‘z uchun alohida o‘tkaziladi. Bunda bir ko‘z berkitiladi	10	0
4	Ko‘z o‘tkirligini aniqlash optotipning 10-qatoridan tepaga qarab (vis=10) ko‘rsatiladi	10	0
5	Ko‘rish o‘tkirligi pasaygan bemorlarda tekshirishni I qatordan pastga qarab o‘tkaziladi	10	0
6	Ko‘rish o‘tkirligi to‘g‘ri ko‘rgan qator bilan baholanaidi (1-qator = 01; 2-qator = 02 va h.k.)	10	0
7	Agar bemor 1-qator optotiplarini ajrata olmasa, ko‘rish o‘tkirligi barmoqlar bilan sanash orqali aniqlanadi. Bunda Snellen formulasi ishlataladi D – qancha masofadan ko‘rgani Vis= _____ ; D – necha metrдан ko‘rishi lozimligi.	20	0
8	Predmet ko‘rinishi yo‘q bo‘lganda ko‘zga yorug‘lik yuborish bilan yorug‘lik sezishi tekshiriladi, u noto‘g‘ri va to‘g‘ri bo‘lishi mumkin	10	0
9	Yorug‘lik sezgisi yo‘q bo‘lganda ko‘rish o‘tkirligi «0» ga teng	10	0
Jami		100 ball	

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko‘rish o‘tkirligi nima?
2. Sivsev va Golovin jadvallari nimani anglatadi?
3. Ko‘rish o‘tkirligini aniqlashning qanday usullarini bila-siz?

20-mavzu. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar fiziologik va psixologik rivojlanishi

Reja:

1. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalarning umumiy rivojlanish xususiyatlari.
2. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion tadbirlar.

Tayanch so‘z va iboralar: ko‘zi ojiz, zaif ko‘rvuchi, umumiy rivojlanish, korreksion tadbirlar, logopediya.

Nogironlikni o‘rganish inson tanasi va qudratini o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu fanlar o‘rtasidagi o‘zaro mulo-qotni yanada yaxshilab, nogironlikni tadqiq etishning ma’lum bir fan tarmog‘iga ta’sirini o‘rganish borasidagi savollarni qo‘ymoq-da. U sotsiologiya, adabiyot, gender, bioetika, ijtimoiy ish, huquq, ta’lim va tarix fanlari doirasida nogironlikni tadqiq qilish bo‘yi-cha bizning fikrlarimizni o‘zgartirmoqda¹.

Ko‘rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolanning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko‘z bilan idrok etiladi. Bola ko‘rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, hara-kati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘la-di. Ma’lum ko‘rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism – ko‘z olmasi va uning yordamchi apparatlaridan ko‘zga tushgan tasvirni avval po‘stloq osti markazlariga keyin esa oliy ko‘rv

¹ Disability and Discourse Analysis. Jan Grue. University of Oslo, Norway. – 2015. p-iiix

markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlardagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi. Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r, yaxshi ko'ra olmaydigan va ko'zi xira bolalarga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan yoki korreksiya qo'llanilganida ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Ko'zi xira bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruuhdag'i bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi. Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar, homilador ayolning toksoplazmos, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, homila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kasalliklar katta rol o'ynaydi. Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash profilaktika oftamologiya yordaming yaxshilangani hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan ko'zi xira bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, ko'z sili, qizamiq, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'r yoki ko'zi xira bo'lib qolish hodisalariga deyarli tamomilla barham berildi. Ko'z ojizligi, ya'ni ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va bir xil turadigan bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi ko'k suv, ya'ni glaukoma kasalligi ko'ruv nervi atrofida to'r parda distrofiyasiga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida kelishi mumkin. Gigiyenik talablarga rioya qilmaslik refraksiya anomaliyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib boradi. Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar ham uchraydi: kriptoftalm – ko'z olmasi qovoqlarining tug'ilishdan rivojlanmay qolgani, mikrob-

lefaron — ko‘z qovoqlar kaltaligi tufayli ko‘zning yumilib turi-shi shular jumlasidandir. Bunday kamchiliklarning ko‘pchiligini jarrohlik yo‘li bilan davolab, ularni bartaraf etsa bo‘ladi. Ko‘zi ojiz so‘qir bolalar, ko‘r tug‘ilgan va ko‘r bo‘lib qolgan bolalar, deb ikki guruhgaga ajratiladi. Birinchi guruhgaga tug‘ilishdan ko‘zi ojiz va tug‘ilganidan so‘ng to 3 yoshgacha bo‘lgan davr ichida ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, bunday bolalar xotirasida ko‘rish tasavvurlari qolgan bo‘ladi. Ko‘rish qobiliyatining og‘ir shakldagi buzilishlari bolaning xarakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlар paydo bo‘lishiga olib keladi. Ko‘r bo‘lib qolgan bolalar bilan barcha ishlar ularning ko‘rish tasavvurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunday ma’lum natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Har holda bola rang, shakl va bosh-qalarni bir qadar eslab qoladiki, bu tegishli tushunchalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ko‘z ojizligi qancha kech paydo bo‘lgan bo‘lsa, bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari shuncha boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish, kengaytirish shunchalik oson bo‘ladi. Ko‘rish qobiliyati keskin kamaygan bolalar ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablarda ta’lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog‘lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida ko‘rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta’lim-tarbiya ishlari ko‘rish qobiliyatining zaifligi natijasida paydo bo‘lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korreksiyalashga qaratiladi. Bolada mustaqil hayot uchun zarur bo‘lgan bar-chalik oson bo‘ladi. Ko‘zi xira bolalar tevarak-atrofni ko‘rish analizatori orqali idrok etadilar. Ular ham ko‘rish qobiliyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus mакtabda yoki ko‘rlar mакtabi qoshidagi maxsus sinflarda ta’lim olishlari kerak. Biroq bunday bolalar aksari ommaviy maktablarda o‘qishni boshlashi ma’lum. Bir necha yil muvaffaqiyatsiz ravishda qiynalib o‘qigach, ular maxsus maktablarga yuboriladi. Bunday bolalarni tarbiyachi va o‘qituvchilar sog‘lom tengdoshlaridan ajratib olib, iloji boricha vaqtli maxsus

maktablarga jo‘natishlari kerak. Ko‘rish qobiliyati zaiflashgan bolalar satrlarni yaxshi ajrata olmaydilar. Shartli o‘xshash narsa, harflarni bir-biri bilan adashtirib yuboradilar, natijada o‘qish va yozishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Raqamlarni bir-biri dan ajrata olmaslik oqibatida hisoblashda va matematik masalalarni hal etishda qiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko‘rmaydilar. Ko‘rish bilan bog‘liq ishni bajarish vaqtida tez charchab qoladilar. Noto‘g‘ri muhit, noqulay sharoit bolaning ko‘rish qobiliyati keskin pasa-yib borishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyachi va o‘qituvchilar ko‘rish qobiliyati zaif bolalarni o‘z vaqtida oftalmolog huzuriga maslahatga yuborishlari kerak. Oftamolog bolani tekshirib, kerak bo‘lsa unga korreksiya qiladigan ko‘zoynak taqib yurishi ni tavsiya etadi va bola qayerda ta’lim olishi kerakligini aniqlaydi. Ko‘zoynak taqib yurishi kerak bo‘lgan bolalarga bog‘cha va maktab sharoitida to‘g‘ri sanitariya-gigiyena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o‘rni to‘g‘ri va yetarli darajada yoritilishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o‘quv materiallarini qanchalik aniq ko‘rayotganiga e’tibor beriladi. Anomal refraksiyani bolalar ko‘zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o‘zgartirib turish, ko‘z qadash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g‘oyat jiddiy nazorat qilib borish zarur. Ko‘z o‘tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo‘lgan bolalar maxsus bog‘cha va maktablarda ta’lim-tarbiya olishadi. Bu joylarda o‘quv ishlarni ko‘rish asosida olib boriladi, ammo turli texnik va katalashtiruvchi optik vositalardan, yirikroq harflar bilan bosib chiqarilgan darsliklardan, maxsus yoritqichlardan va hokazolardan foydalaniлади. Maxsus mактабning asosiy vazifalariдан бир — болаларда саqlanib qolgan ko‘rish imkoniyatlaridan o‘qish jarayonida to‘g‘ri foydalanish va bularni rivojlantirish, ko‘rish qobiliyati pasayib ketmasligi uchun shart-sharoit yaratish oliy ruhiy jarayonlarni tarbiyalab, bolaning bilim faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish, bolada ko‘rish qobiliyati zaifli-

gi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi ruhiy asoratlarni bartaraf etish va boshqalardir. Maxsus maktablarni bitirgach ko'rish qobiliyati zaif bolalar respublika ko'rlar jamiyati qoshidagi muassasalarda ishlaydilar. Intellektual faoliyat bilan shug'ullanadilar (yozuvchi, shoir, oliv va o'rtalik mablag'ini qiluvchilar, musiqa-chi va boshqalar). Shunday qilib, ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ta'lim-tarbiya yo'li bilan rivojlantirib borish imkoniyatlari juda katta. To'g'ri tashkil etilgan kompensator, korreksion chora-tadbirlar natijasida ular hayotda o'z o'rnnini topib ketishlari mumkin.

Ko'rish analizatorining faoliyati buzilganligi sababli ko'r va zaif ko'rurvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu nutqda o'z aksini topadi (exolaliya, formalizm, so'z turkumining buzilishi va boshqalar).

Logopediyadagi mayjud izlanishlar asosan ko'rishida chuqur nuqsoni bor bolalarning talaffuzidagi nuqsonlariga bag'ishlangan (M.Ye.Xvatsev, S.L.Shapiro, A.D.Shipilo, S.V.Yaxontova) faqat 60–70-yillarda logopediyada nutq kamchiliklарini sistemali ravishda o'rganishning rivojlanishi bilan (R.Ye.Levina, V.K.Orfinskaya) ko'r va zaif ko'rurvchi bolalar nutqining nafaqat tovushlar talaffuzidagi, balki nutqning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlashga doir izlanishlar paydo bo'ldi.

Bu ona tilini o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassislar va logopedlar ishlaridir (O.L.Jilsova, S.L.Korobko, N.S.Kostyuchyak, N.A.Krilova, T.P.Sviridyuk). Masalan, S.L.Korobko nutqi to'liq, rivojlanmagan zaif ko'rurvchi bolalarning kattagina guruhini ajratdi.

Hozirgi vaqda ko'r va zaif ko'rurvchi bolalardagi nutq kamchilikligi murakkab nuqson ekanligi hamda nutq va ko'rish faoliyati sustligining o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy izlanishlar-da isbotlangan.

Ko'rishida nuqsoni mayjud bo'lgan bolalarning nutq kamchiliklari turlichadir. Ular strukturasi va darajasi sifatidan murakkab bo'lib, nutqni, R.Ye.Levina ta'kidlaganidek, yagona sistemadek qamrab oladi va bunda nutq kamchiliklari, nutq kamchiliklari-

ning yagona yadrosi bo'lib qolmaydi. Bunday bolalarda nutqning rivojlanishi murakkab sharoitda kechadi. Ular orasida ko'rish anomaliyalarining tug'ma shakllari uchrab turadi va bu holat nutqning paydo bo'lishiga doir boshqa funksiyalarning ham buzilishiga sabab bo'ladi.

Statistika materiallari shuni ko'rsatadiki, nutq kamchiliklari ko'rvuchi bolalarga nisbatan ko'rishida chuqur kamchiliklari bor bolalarda ko'proq uchraydi.

Olib borilgan izlanishlar shu kategoriyadagi bolalar nutqining shakllanganligi to'rt darajaga ajratishga imkon beradi.

Birinchi daraja. Talaffuzidagi ayrim kamchiliklarning bo'lishi bilan ifodalanadi.

Ikkinchchi daraja. Faol lug'ati cheklangan. So'z va pedmet obrazini solishtirishda, umumlashtiruvchi tushunchalardan hikoyalar tuzishda xatolarga yo'l qo'yiladi.

Talaffuzdagi kamchiliklar sigmatizmning turli ko'rinishlari-da lambdasizm, parasigmatizm, pararotasizm, paralambdasizm-da namoyon bo'ladi. Tovushlar talaffuzi va fonematik tasavvurlar eshitish differensiatsiyasining rivojlanishida kamchiliklar kuzatiladi. Fonematik tahlil shakllanmagan bo'ladi.

Uchinchi daraja. Ekspressiv nutq lug'at boyligining sustligi bilan ajralib turadi. Umumlashtiruvchi tushunchalarni bilish, so'z va predmet obrazini solishtirish darjasini past bo'ladi. Mustaqil nutqning grammatik tomoni buzilgan, u faqat predmetlarni nomlash va bir-ikki so'zli gaplardan iborat bo'ladi. Murakkab hikoyalarni bayon etish rivojlanmagan, talaffuz qilish va eshitish differensiatsiyasi sust shakllangan bo'ladi.

To'rtinchi daraja. Ekspressiv nutq juda cheklangan, umumlashtiruvchi tushunchalar va so'z-predmet obrazini solishtirishda jiddiy kamchiliklar bo'ladi. Bog'langan nutq ayrim so'zlardan iborat, exolaliyalar kuzatiladi. Nutqning grammatik tuzumini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar va eshitish differensiatsiyasi ga oid topshiriqlarni bajara olmaydilar. Fonematik tahlil va sintezning umuman rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar nutqi rivojlanishining tahlli shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pchiligidagi sistemali nuqsonlar kuzatiladi va nutqning yetarli komponentlari buzilgan bo‘ladi (fonetika, leksika, grammatika). Normal ko‘rvuchi va ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning nutqidagi nuqsonlarni solishtiradigan bo‘lsak ularning o‘xshashligini kuzatamiz. Shu bilan bir qatorda nutq kamchiliklarining darajasi va shakllanish omillari jihatidan katta farqqa ham ega. Predmetli obrazlarning kamchiliği (yetishmasligi) natijasida nutqiy xotirada murakkab gaplar va gaplarni grammatick jihatdan to‘g‘ri tuzishdagi qiyinchiiliklar kuzatiladi. Anamnezdagi ilk natal va postnatal patologik o‘zgarishlar natijasida umumiy va xususiy omillar aniqlangan bo‘lib, ular ko‘rishida kamchiliklari bolalar nutqining rivojlanmaganligiga sabab bo‘ladi va nutqining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi qator funksiyalarning rivojlanishini ancha orqaga tortadi (praksis, gnozis, koordinatsiya, chamałash). Demak, ilk postnatal davrida tug‘ma yoki erta orttirilgan ko‘rish nuqsoni nonutqiy funksiyalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi birlamchi nuqson bo‘lib qoladi. Ko‘rishida nuqsoni bor bolalarda harakat faolligini cheklab turuvchi va atrofdagi olam bilan aloqani o‘rnata olmaslikka sabab bo‘ladigan kamchiliklar ko‘plab uchraydi. Psixik jarayonlarning (shu qatorda nutqning ham) rivojlanishida nutqiy muloqotning sifati, mikroijsimoiy muhit juda katta ta’sirga ega.

Shunday qilib, u yoki bu nutq komponentlarini qamrab oluvchi sistemali nutq buzilishlariga sabab bo‘luvchi omillarning polemorfligi yanada murakkab nuqson paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Tug‘ma yoki erta orttirilgan ko‘rish nuqsoni nutqning rivojlanmasligiga asosiy sabab bo‘lib, boshqa patologik omillarning mavjudligiga qarab ta’siri kuchayishi yoki kuchini yo‘qotishi mumkin.

Ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarning nutqidagi kamchiliklarini o‘rganish nafaqat nutqning barcha komponentlari, balki ko‘pgina

nonutqiy funksiyalarni hisobga olish va tahlil qilishni talab qiladi. Bu kompleks logopedik tekshirish metodikasini tashkil qiladi.

Kompleks tekshirish metodikasining o‘ziga xosligi shundaki, bu bolalardagi nutq kamchiliklari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish ko‘rish qobiliyati, qabul qilish usullari va bundan kelib chiqqan holda materiallarni uzatish usullarini hisobga olgan holda olib boriladi. Bunday ko‘rishda chuqur nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘pchiligidagi o‘yin faoliyatining malakasi yo‘qligi va predmetlar dunyosi haqidagi bilimlari cheklanganligini inobatga olish kerak bo‘ladi. Shu sababli tekshirish davomida topshiriqlarni bajarishdan avval bolaga o‘ziga xos instruksiyalar ko‘rsatib berish, birgalikda bajarish namunalarini beriladi.

Asosiy diqqat ekspressiv nutq holatiga qaratilishi kerak.

Ko‘r va zaif ko‘rvuchi maktabgacha va maktab yoshidagi bolar bilan olib boriladigan korreksion ish tabiiy pedagogik jarayonda kechadi. Bu yetakchi didaktik va maxsus tamoyillarni inobatga olgan holda tashkil qilinadi.

Maxsus tamoyillarga korreksion ta’lim, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni inobatga olish, mavjud analizatorlarga tayanish va polisensor asosni shakllantirish (hosil qilish), atrofimizdagagi olam haqida keng qamrovli tushunchalarni shakllantirish, nutqning shakllanganligi darajasini hisobga olish, nutq faoliyatining saqlanib qolgan komponentlariga tayanish, verbal materialning yangiligi, hajmi murakkablasha borishini hisobga olish kiradi.

Korreksion ta’lim jarayonida kompleksli keng qamrovli ta’sir ko‘rsatiladi. Bu ta’sir logoped, o‘qituvchi (maktabda), tiflopedagog (bog‘chada) va tarbiyachilar tomonidan turli mashg‘ulotlar davomida amalga oshiriladi. Korreksion ishda logopedik ta’sirga juda katta ahamiyat beriladi. Bu ta’sir maxsus tashkil qilingan mashg‘ulotlarda olib boriladi. Mashg‘ulotlar bolalarning ko‘rish qobiliyatini, nutqi, qabul qilish usullarini va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda olib boriladi.

Shunga qarab logopedik guruuhlar tashkil qilinadi. Ko'r bolalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklarning o'ziga xosligini inobatga olib mashg'ulotlar uzoq vaqt davomida individual ravishda olib boriladi. Murakkab nutq kamchiligi bilan birgalikda nonutqiylar funksiyalari shakllanmagan, ya'ni to'rtinchi nutqiy darajaga ega bo'lgan bolalar bilan ham ko'proq individual mashg'ulotlar olib boriladi.

Tarbiyachi va tiflopedagoglar (maktab o'qituvchilari) logoped bilan birgalikda nutq kamchiliklarini bartaraf etish vazifalarini aniqlaydilar. Nutq madaniyatini rivojlantirishdagi korreksion-logopedik vazifalar o'yin, o'quv va mehnat faoliyati, hamda amaliy va musiqa mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Zaif ko'ruvchi bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda asosiy e'tibor saqlanib qolgan ko'rish faoliyatidan foydalananish imkoniyatiga qaratiladi (zarur bo'lgan hajmdagi, rangdagi didaktik material), relyefli rasmlar, «ajoyib xaltachalar», kubik va qalamchalar (tovush, bo'g'in va gaplarni belgilash uchun) ishlataladi.

Predmetlar dunyosining keng qamrovligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda tabiiy ko'rgazmali qurollarning ahamiyati juda kattadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning umumiy rivojlanish xususiyatlari qanday?
2. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar bilan qanday korreksion tadbirlar olib boriladi?

GLOSSARIY

Homiladorlik – urug‘langan tuxum hujayraning ona organizmida rivojlanib, yetuk homilaga aylanishidan iborat fiziologik jarayon.

Rivojlanish – organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotining oxirigacha sodir bo‘ladigan ketma-ket o‘zgarishlar majmui.

Nasliy kasallik – genetik informatsiya (irsiy axborot)ning buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar, asosan, xromosomalar yoki mutatsiyalar tufayli paydo bo‘lib, nasldan-naslga o‘tadi.

Profilaktika – odamlarning uzoq umr ko‘rishi, ishlash qobiliyatini saqlab qolishi, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash, endokrin kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olish, hamda salomatlikni himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, gigiyenik va tibbiy chora-tadbirlar majmui.

Bosh miya nervlari – bosh miya asosi (pastki yuzasi)dan oldinma-keyin boshlanuvchi 12 just nerv.

Nevrologiya – inson asabini o‘rganuvchi fan.

Neyroxirurgiya – inson asab tizimini jarrohlik usulida davolovchi yo‘nalish.

Diagnostika – kasallik belgilarini umumlashtirgan holda tashxislash.

Bosh miya – odam va umurtqali hayvonlar markaziy nerv sistemasining oliv qismi; kalla suyagi bo‘shlig‘ida joylashgan; u umurtqa pog‘onasi kanalidagi orqa miya bilan markaziy nerv sistemasini tashkil etadi. Bosh miya uzunnoq miya, miya ko‘prigi, o‘rta miya, miyacha, miya oyoqchalari va katta yarim sharlardan iborat.

Bosh miya bo‘limlari – uzunchoq miya, miya ko‘prigi, o‘rta miya, miyacha, miya oyoqchalari va katta yarim sharlardan iborat.

Katta yarim sharlar – bosh miya yarim sharlarining yopqichplash qismi kul rang moddadan iborat, ostida esa oq modda (nerv tolalari) va qorinchalar bor.

Katta yarim sharlar po'stlog'i — markaziy asab tizimining misli ko'rilmagan darajada rivojlangan oliv qismi bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'i va unga yaqin turadigan po'stloq osti tuzilmalarining muqarrar ishtirokida yuzaga chiqadigan reflektor reaksiyalar tushuniladi.

Patologiya — kasallik.

Filoontogenez — organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotining oxirigacha sodir bo'ladigan ketma-ket o'zgarishlar majmui.

Ichki analizatorlar — bosh miya po'stlog'ining turli qismlarida maxsus nerv hujayralari to'plami joylashgan bo'lib, ularni I.P.Pavlov analizatorlar (sezgi a'zolarining markazlari) deb atagan.

Ikkinci signal tizimi — faqat odam, so'zlar vositasida yuzaga chiqadigan bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining faoliyati.

Asablar — odam organizmining barcha hujayra, to'qima, organlari sistemalarining ishini boshqarish, tartibga solish, hamda ularning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi tolalar.

Sezuvchi asablar — bosh miyadan chiqib, faqat sezgi uchun javob beradigan nerv.

Harakatlantiruvchi asablar — bosh miyadan chiqib, faqat harakat uchun javob beradigan nerv.

Aralash asablar — bosh miyadan chiqib, ham harakat, ham sezgi uchun javob beradigan nerv.

Tashxis — belgilarni umumlashtirgan holda tashxislash.

Asab — bosh va orqa miyadan chiquvchi tolalar.

Hidlash — hid bilish retseptorlar orqali qabul qilinuvchi sezgi.

Eshitish — eshituv retseptorlar orqali qabul qilinuvchi sezgi.

Aralash asablar — ham sezuvchi, ham harakatlantiruvchi nervlar.

Mushaklar — odam va hayvonlar gavdasi a'zolari; nerv impulslari ta'sirida qisqarish xususiyatiga ega to'qima (muskul to'qimasi)dan tashkil topgan.

Harakat — borliqning ajralmas xususiyati bo‘lgan o‘zgaruvchanlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya.

Reflektor yoy — har bir refleksning refleks yoyi bo‘lib, u quyidagi qismlardan iborat: retseptor — sezuvchi nerv tolasi — nerv markazi miyada joylashgan sezuvchi, oraliq va harakatlantiruvchi nerv hujayralari — harakatlantiruvchi nerv tolasi — ishchi a‘zo.

Refleks — bu tashqi va ichki muhit ta’sirida organizmning javob reaksiyasidir.

Sezgi — olamdagi narsa va hodisalar ayrim xossalaringning miyadagi in’ikosi.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida vogelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatalar to‘g‘risidagi fan.

Hid bilish odam va hayvonlar burun — bo‘shlig‘ining yuqori qismida joylashgan maxsus sezgi a’zolari (hid bilish retseptorlari) orqali hidlarni sezish.

Ko‘rish — ro‘z yordamida odam tevarak atrofdagi buyumlarining rangi, tuzilishi, hajmi, bir-biridan farqini ajratadi, o‘simgilik va hayvonot olamini o‘rganadi; rassomlik, me’morlik, haykaltaroshlik san’atlarining mahsulotlaridan bahramand bo‘ladi, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanadi.

Eshitish — odam va hayvonlar organizmining tovush tebranishlarini qabul qilish xususiyati; mexanik, retseptor va nerv tuzilmalaridan tashkil topgan eshitish analizatorlari faoliyati tufayli ro‘y beradi.

Tovush — mexanik energiyaning materiya bo‘ylab to‘lqinlar yordamida tarqalishidir.

Infratovush — chastotasi 16 Gs dan kichik bo‘lgan elastik to‘lqinlar.

Quloq — odam va umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat organi; eshitish analizatorining periferik qismi.

Anatomiya — kesaman, yoraman.

Fiziologiya — organizmlar va ular qismlari, sistemalari, organlari, to‘qimalari va hayot faoliyatini o‘rganadigan fan.

Tashqi qulqoq – qulqoq suprasi va tashqi eshituv yo‘lidan iborat.

Ichki qulqoq – chakka suyagining piramida qismi ichida joylashgan bo‘lib, suyak va parda labirintidan iborat.

O‘rta qulqoq – no‘g‘ora bo‘shlig‘i (ichi havo bilan to‘la), eshituv suyakchalar (bolg‘acha, sandon, uzangi) va halqum (yutqin) bilan tutashgan Yevstaxiy nayidan tashkil topgan.

Lor – qulqoq, tomoq va burun.

Zaif eshitish – eshitish qobiliyatining pasayishi.

Klinika – kasallikning kechishi.

Etiologiya – kasallikni keltirib chiqaruvchi sabab.

Tashqi qulqoq – qulqoq suprasi va tashqi eshituv yo‘li.

Yiringli kasalliklar – yiring tayoqchasi tomonidan qo‘zg‘atilgan kasallik.

Yiringsiz kasalliklar – yiring tayoqchasi tomonidan qo‘zg‘atilgan kasallik.

Nog‘ora parda – tashqi qulqoq yo‘lining oxirida biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topgan 0,1 mm qalnlikdagi nog‘ora parda bo‘lib, u tashqi qulqoq yo‘lini o‘rta qulqoq bo‘shlig‘idan ajratib turadi.

Otit – o‘rta qulqoqning yallig‘lanishi.

Mastoidit – chakka suyagi so‘rg‘ichsimon o‘sintasining yallig‘lanishi.

Kataral otit – stafilokokk va streptokokk ta’sirida yuzaga keladigan o‘rta qulqoq yallig‘lanishi.

Aeroottit – samolyotni tezda yerdan ko‘tarilishida bo‘ladijan sfera bosimining o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan qulqoq kasalligi.

Eshitish apparatlari – tovushni kuchaytirib beradigan asboblar.

Zaif eshituvchi – eshitish qobiliyati susaygan.

Ruhiyat – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)ning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining shakli, obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni.

Analiz va sintez – analiz fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy bo'laklarga bo'lish, sintez esa mazkur bo'laklarni fikran yoki amalda bir butun qilib birlashtirish, narsani yaxlit holda tad-qiq etishdir.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli.

Dislaliya – gapirish nuqsoni.

Rinolaliya – tovushlarni burun dimoq bilan talaffuz qilish.

Dizartriya – markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida til tovush tizimining buzilishi.

Alaliya – eng og'ir nutq nuqsonlaridan biri hisoblanadi, bunday nuqson paytida bola til orqali muloqot vositasidan butunlay ajraladi.

Afaziya – nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi, u odatda bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi.

Nutq apparati – nutq apparati, faol va nofaol nutq a'zolari, ovoz paychalari, bo'g'iz, artikulyatsiya, artikulyatsiya bazasi, artikulyatsiya o'rni va usuli, portlovchi, sirg'aluvchi, til oldi, til orqa, lab undoshlaridan iborat.

Artikulyatsiya – talaffuz jihatni.

Fonetik akustika – nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan soha.

Burun – nafas olish yo'lining boshlang'ich qismi.

Lablar – og'iz aylanma mushaklaridan tuzilgan.

Nutq a'zolari (apparati) – nutq tovushlarini hosil qilishda ishtiroy etuvchi qismlar.

Kasallik – tashqi yoki ichki ta'sirlar natijasida a'zolar funksiyasining izdan chiqishi.

Motor afaziya mustaqil nutq – so'rash qobiliyatining buzilishi

Sensor afaziya – atrofdagilar nutqini idrok etish qobiliyatining buzilishi.

Amnestik afaziya – ayrim so'zlar va ularning ahamiyatini unutish

Total afaziya — gapishtish va nutqni idrok etish qobiliyatlarining yo‘qolishi.

Duduqlanish — tutilib gapishtish; nutq maromining buzilishi, harf va bo‘g‘inlarni tutilib-tutilib yoki bir necha marta qaytarib talaffuz qilish.

Nutqiy rivojlanmaslik — nutqdagi kamchilik.

Xotira — individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirish.

Karlik — eshitish qobiliyatining umuman yo‘qolganligidir.

Soqovlik — tug‘ma karlik yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi.

Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar mакtab yoshigacha yoki mакtab yoshida kar bo‘lib qolganlar.

Amavroz — to‘la ko‘ra olmaslik.

Ambloipbya — ko‘rish o‘tkirligining pasayishi.

Akkomodatsiya — ko‘zning buyumlar tasvirini turli masofadan to‘r pardaga aniq tushirib berish xususiyati.

Presbiopiya — 40 yoshdan (o‘rta hisobda) akkomodatsiya faoliyatidagi susayishlik.

Termik jarohatlar — odam tanasiga yuqori haroratlari moddalar (bug‘, kondensat, qaynoq suv, gaz)larning tushishi, shuningdek, odam tanasining issiq, izolyatsiyalanmagan yuzalarga teginishi natijasi.

Ximik zararlanish — odam tanasiga kimyoiy faol va toksik moddalar, ximikatlar (suyuq ammiak, ammiakli suv, ishqoriy natriy, oltingugurt kislotasi kabilalar)ning tushishi.

Landolt halqalari — ko‘rish o‘tkirligini harfli va halqali jadvallar yordamida tekshirish.

Oftalmometr — ko‘z astigmatizmida shox pardani o‘lchash uchun mo‘ljallangan asbob.

Perimetrlar — ko‘zni harakatlanmay turgan holatida ko‘rish chegarasini aniqlovchi asbob.

Skiaskopik — chizg‘ich ko‘z refraksiyasini aniqlash uchun mo‘ljallangan chizg‘ich.

Korreksiya — xatolarni tuzatish.

Logopediya — nutq buzilishlari, ularni aniqlash, hamda ta'lim va tarbiya vositalari yordamida bartaraf etish metodlari haqidagi fan.

Meningit — miya pardalarining o'tkir yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasallik.

Poliomyelit — polioviruslar chaqiradigan o'tkir yuqumli kasallik.

Xoreyanerv tizimi kasalligi — tez-tez takrorlanadigan g'ayritabiiy harakatlar, qo'l-oyoqlarning to'satdan tortishishi, ortiqcha qisqarishi va h.k.

Giperkinez — markaziy nerv tizimining ba'zi kasalliklarida qo'l, oyoq yuz mushaklarining beixtiyor ortiqcha harakatlanishi.

Fenilanin — aromatik alfa-aminokislota.

Oftalmoskop — o'rtasi teshik maxsus ko'zgu.

Refraksiya — yorug'lik nuri yoki elektromagnit to'lqinlarining atmosferaning turli qatlamlarini sindirishi.

Linza — ikki tomoni qavariq shisha.

Emfiziye — surunkali obstruktiv o'pka kasalligi.

Gipotoniya — bosimning keskin tushishi.

Antibiotik — yuqumli kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ichiladigan dori.

Kislota — asos bilan reaksiyaga kirishadigan modda.

Blefarospazm — ko'z aylana mushaklarining spastik qisqarishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU – 2013.
2. Алимов Х.А., Манасыпова И.Х. Некоторые вопросы организации и развития психиатрической помощи в Узбекистане. Труды Ташкентской психиатрической больницы. III том. – Т.: 1996.
3. Аграновский М.Л. Общая медицинская психология и психопатология. Андижан. «Андижон», 2004.
4. Sodiqova Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: «Yangi asr avlod», 2009.
5. McGill-Franzen A., Allington R.L. (Eds.) Handbook of Reading Disability Research. Routledge, 2011. 522 p.
6. David Ronald. Clinical Pediatric Neurology.Third edition. Demos Medical Publishing, 2009. – 640 p.
7. Armstrong D., Halliday W., Hawkings C., Takashima S. Pediatric Neuropathology: A Text-Atlas. Springer Japan, 2007. – 426.
8. Aytmetova S.Sh. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. – T.: «O'qituvchi», 1984.
9. Mamedov K., Po'latova F. Oligofrenopedagogika. – T.: TDPU, 1996.
10. Mamedov K, Shoumarov G‘., Podobed V. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. – T.: 1999.
11. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – T.: Uzinkomsentr, 2002.
12. Ayupova M. Logopediya. – T.: «O'zbekiston faylasuflari miliy jamiyat nashriyoti», 2007.
13. Shoumarov G‘.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1994.
14. Swaab D.F. (Eds.) The Human Hypothalamus: Basic and Clinical Aspects: Part 2. Neuropathology of the Human Hypothalamus and Adjacent Brain Structures. Amsterdam: Elsevier, 2004. – 597 p.

15. Kansaku K., Cohen L.G., Birbaumer N. (eds.) Clinical Systems Neuroscience. Tokyo: Springer, 2015. – 400 p.
16. Enoka R.M. Neuromechanics of human movement . Human kinetics. 2008. – 563 p.
17. Saladin K.S. Anatomy & Physiology: The Unity of Form and Function. 5th edition. – McGraw-Hill, 2009. – 1243 p.
18. Bregman A.S. Auditory Scene Analysis: The Perceptual Organization of Sound. MIT Press, 1990, –854 pp.
19. Sodiqova Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2009.
20. Нейман В.Р. Анатомия и физиология органов слуха и речи. – М.: «Просвещение», 1989 г.
21. Бадалян В.С. Неврапатология. – М.: «Просвещение». 1989 г.
22. Sodiqova G. Q. «Bolalar nevrologiyasi». – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008-y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bo'lim. NEVROPATOLOGIYA	4
1-mavzu. «Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari» fanining maqsad va vazifalari	4
2-mavzu. Nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar	20
3-mavzu. Inson bosh miyasi anatomiysi, fiziologiyasi va patologiyasi	39
4-mavzu. Inson bosh miyasi po'stlog'i	60
5-mavzu. Inson bosh miya asablari anatomiysi, fiziologiyasi va patologiyasi	71
6-mavzu. Inson oliv asab tizimini tadqiq qilish metodlari	85
7-mavzu. Inson koordinatsion va ekstrapiramidal tizimi	96
8-mavzu. Inson harakatlanish tizimi	109
9-mavzu. Inson reflektor tizimi	121
10-mavzu. Inson sezgi organlari fiziologiyasi va anatomiysi	131
II bo'lim. LORPATOLOGIYA	153
1-mavzu. Inson eshitish analizatorlari tizimi va tovushni his etish	153
2-mavzu. Inson eshitish analizatorlari anatomiysi va fiziologiyasi	165
3-mavzu. Inson eshitish organlarining asosiy patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi	176
4-mavzu. Inson tashqi quloq kasalliklari	187
5-mavzu. Inson o'rta quloq kasalliklari	198
6-mavzu. Inson ichki quloq kasalliklari	202
7-mavzu. Inson eshitish qobiliyatini o'rganish metodlari	215
8-mavzu. Yordamchi eshitish apparatlari	229
9-mavzu. Zaif eshituvchi bolalar rivojlanishining psiko-fiziologik xususiyatlari	236
10-mavzu. Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar	251
11-mavzu. Inson nutq organlarining markaziy tizimi	260
12-mavzu. Inson nutq organlarining periferik tizimi	262
13-mavzu. Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi	271
14-mavzu. Inson nutqi nuqsonlarini o'rganish metodlari	283

15-mavzu. Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari	298
16-mavzu. Kar-soqovlik. Kar-soqov bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari	314
17-mavzu. Inson ko'rish analizatorlari anatomiysi va fiziologiyasi	328
18-mavzu. Inson ko'rish analizatorlari patologiyasi va kasallikkleri etiologiyasi	332
19-mavzu. Inson ko'rish o'tkirligini aniqlash metodlari	345
20-mavzu. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar fiziologik va psixologik rivojlanishi.	352
GLOSSARIY.	361
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	368

Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna

BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNING KLINIK ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Muharrir *M.Tursunova*
Musahhih *H.Zakirova*
Dizayner *D.Ermatova*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 10.10.2018. «Uz-Times» garniturasi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Shartli bosma tabog'i 23,0. Nashriyot bosma tabog'i 23,25. Adadi 200 nusxa.
Buyurtma №13

«Faylasuflar» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.

ISBN 978-9943-5489-4-7



9 789943 548947

«O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI»
NASHRIYOTI